



JAVODEK YOQUBOV  
ERGASH HAYITBOYEV

# HUQUQSHUNOSLIK

Darslik eng asosiy huquqiy bilimlarini o'zlashtirilishi uchun nayuridik ta'lif yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'zida 9 ta mavzuni mujassam qilgan va bu mavzular jamiyatimiz fuqarolarining huquqiy ongini oshirishda eng asosiy rolni o'yinaydi.

Darslik davlat ta'lif standartlari, o'quv reja va ushbu fan bo'yicha namunaviy dasturga muvofiq ishlangan.

**Taqrizchilar:**

**R.J.RO'ZIYEV,**

O'zR FA Falsafa va huquq instituti direktori, yuridik fanlari dotsenti

**E.EGAMBERDIYEV,**

O'zMU Huquqshunoslik fakulteti dotsenti, yuridik fanlari nomzodi

**Mas'ul muharrir:**

**B.B.SAMARXO'JAYEV,**

yuridik fanlari doktori

ISBN 5-633-01844-3

© Layodbek Yoqubov, Ergash Hayitboyev, «Huquqshunoslik», «Yangi va tavloch», 2006 yil

## KIRISH

Insoniyat qadim zamonalardan buyon davlat va huquq masalalariga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lib keladi. Davlat hokimiyati hamda huquqiy hayot hodisalari hamma zamonalarda alohida dolzarblik kash etib kelganligi barchaga ayon. Bu vogeliklar mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sisatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Mustaqillik tafakkurining mahsuli sisatida bu horada ham yangicha nazariy qarashlar qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov talqinida davlat va huquq yangicha tavsifa ega bo'ldi. «Demokratiya sharoitida, — deb ta'kidlaydi yurthoshimiz, — davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi.

Huquqning o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolat-parvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sisatida yonda-shiladi»<sup>1</sup>.

Demokratik huquqiy davlatni barpo qilish, rivojlantirish, adolatlari fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini o'stirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlovchi huquqiy tizim to'g'risida asosiy tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Shunday ekan, asosiy maqsadimiz bo'lmish demokratik huquqiy davlatni barpo etish va rivojlantirishda yoshlarga huquqiy-demokratik davlat tizimi va mohiyatini chucherroq o'rganish, qonunlarni bilsish, ularga rioya etishni ta'minlashda huquqiy maktab asosiy o'rinni

<sup>1</sup> Karimov I.A. «Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir». 3-tom. — T.: «O'zbekiston», 1996, 20-b.

egallaydi. Bu borada prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek «Qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kash etadi. Biz «Adolat-qonun ustuvorligida» degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarur»<sup>2</sup>.

Barcha oly o'quv yurtlarida huquqshunoslik fani o'rganib kelinadi. U boshqa fanlar orasida yaqqol nufuzli mavqega ega. Mazkur fan o'zinining metodologik va nazariy asos sifatidagi xususiyatlari bilan, butun yurisprudensiya sohasini o'ziga qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Bugungi o'zbek jamiyati o'zi uchun huquqiy davlat, inson huquqlari va shaxs erkinligi, demokratik fuqarolik jamiyati, siyosiy hurfikrlilik (plyuralizm), hokimiyatlar taqsimlanishi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyatni kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Tan olish lozimki, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotini zamonaliv ma'rifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya kutta rol o'ynaydi. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mayjud bo'lishi, huquqiy munosabatlar ogilona tiziminining tashkil etilishi ko'p jihatdan mamlakatimizdag'i davlat-huquqiy institutlarning faoliyatiga bog'liqdır.

Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo'lida huquqiy jihatdan ko'pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquqiy muassasalarining izchil tizimi shakllantirilmoqda. Demokratik institutlarni hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma'rifiy shaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini hamda fuqarolik jamiyati bo'g'inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kasfolatlari tizimini qaror toptiruvchi, bir so'z bilan aytganda, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan 300 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi o'tgan mustaqil rivojlanish davrimizdag'i qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo'ldi. Konstitutsiya yosh davlatimiz chinakam

mustaqilligining buyuk ramzi, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabalar darunyoga kelishining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur darslikni yaratishda mualliflar jamoasi nafaqat mustaqillik yillarida to'plangan davlat-huquqiy tajribamizga, konstitutsiyaviy tamoyillar va nazariy bilimlarga, balki umuminsoniy hamda milliy ma'naviy qadriyatlarga, hozirgi zamonda dunyoda mayjud davlatchilik va huquqshunoslik konsepsiyalariga, shuningdek xalqimizning asrlar osha shakllanib kelayotgan boy huquqiy merosiga ham izchil tayandi.

Darslik noyuridik oly o'quv yurtlari talabalari va huquq asoslarini o'rganayotganlar uchun mo'ljallab yozilgan bo'lib, shu bilan birga boshqa soha mutaxassislari ham keng foydalanishlari mumkin.

**B.B.Samarxo'jayev,  
yuridik fanlari doktori**

## DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

### 1-§. Davlat tushunchasi va mohiyati

Davlat tushunchasining nima ekanligini va uning mohiyatini tushunib yetish uchun avvalambor jamiyat, fuqarolik jamiyati tushunchalarini bilib olish kerak bo'libadi. Demak, jamiyat nima? Bu kishilar majmuasi bo'lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlariga ko'ra birlashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. «Jamiyat insonsiz bo'lishi mumkin emas. Insoniyat jamiyatning tuzilishida va uning rivojida asosiy rolni o'ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan»<sup>3</sup>. Jamiyat birlashishga moyil bo'lgan guruhi, sinflar, qatlamlardan iborat. Oila, urug', qabila va millat kabi davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan, siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat va davlat tushunchalari falsafiy kategoriya bo'lib, ular aslo bir narsa emas. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

Jamiyatning yana bir ko'rinishi mavjud bo'lib, biz uni fuqarolik jamiyati deb ataymiz. Fuqarolik jamiyati — yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zлari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat — fuqarolik jamiyatining «yollarma xizmatkori»<sup>4</sup>.

Davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadorlikdadir. «Jamiyat» — nisbatan keng tushuncha. Davlat uning ichida mavjud bo'libadi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni shakllantiradi va yo'naltiradi. Jamiyat davlat va huquq

ta'sirida u yoki bu tomonga o'zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham, jamiyat a'zolari uchun ham muhimdir.

Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qanchalik mukammal bo'lsa, jamiyat va davlatning funksiyalari (vazifalari) shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg'un munosabatga ega. Jamiyat o'zining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko'plab muammolarni davlatning yordamisiz (va aralashuvisz) hal qiladi. Huquqiy davlat jamiyatning o'zi eplaydigan masalalarda fuqarolik jamiyati (va uning ayrim a'zolari)ga vasiylik qilishi shart emas. Fuqarolik jamiyati o'zini-o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi.

«Demokratik jamiyat — bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni — shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinchtotuv yashaydi».

«Davlat» tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, jamiyat rivoji natijasida ommaviy hukmron guruhi paydo bo'la boshlagan. Bu ommaviy hukmron guruhi o'zlarining hukmronligi asosini tashkil etuvchi omillarni himoya qilish maqsadida turli xil harakatlarni amalga oshirganlar. Jumladan, sun'iy tarzda iqtisodiy (mulkiy) qaramlik vujudga keltirilgan, tartibga soluvchi me'yorlar (g'oyalar) o'ylab topilgan yoki tartibga solib turuvchi kuch (hokimiyat) tashkil etilgan.

Mulk, g'oya va hokimiyat esa o'z navbatida jamiyatni boshqaruvchi-rivojlaniruvchi kuchlar deb hisoblanadi.

«Davlat» tushunchasi keng ma'noli bo'lib, uning mohiyati deganda davlatning maqsad va vazifalarini, kimga yoki qaysi sinf mansaati uchun xizmat qilayotganligini, huquqiyligi jihatidan qanday tamoyillar bilan asoslanganligini tushunish kerak va buni tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Birinchi yondashuvga ko'ra, davlat — umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi. Ikkinci yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va

<sup>3</sup> Mualliflar jamoasi. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. TDYUI, 2000, 49-b.

<sup>4</sup> Saidov A., Tadzhanov U., Odilqoriyev H. Davlat va huquq asoslari. Darslik. — T.: «Sharq», 2002, 8-b.

<sup>5</sup> Karimov I.A. «Vatan sajdah kabi muqaddasdir». T.3. — T.: «O'zbekiston», 1996, 362-363-b.

sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi yondashuvning asosi quyidagicha: davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbайдир.

Albatta, uchala yondashuvda ham muayyan asos bor. Yanglishuv bir nazariy qarash boshqalaridan ustun qo'yilib, mutlaqlash-tirilganda boshlanadi.

Davlatning mohiyatini ta'riflashda Arastu o'z fikrini quyidagicha bildirgan «Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat»<sup>6</sup>.

Davlatning mohiyatiga bog'liq bir necha nazariyalar ham mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

1. *Elita nazariyasi*. Bu nazariyaga ko'ra xalq ommasi davlatni boshqara olmaydi va buni hukmron sinf — elita sinf amalga oshirishi kerak deb hisoblanadi.

2. *Texnokratik nazariya*. Bu nazariyaga ko'ra davlatni mutaxassis-boshqaruvchilar, menejerlar idora etishlari lozim deb hisoblanadi.

3. *Plyuralistik demokratiya nazariyasi*. Bu nazariyaga ko'ra davlatni boshqarishda barcha fuqarolar ishtirot etishi kerakligi va boshqaruvda har qanday odam, har bir birlashma davlat hokimiyatida o'z «ulushiga» ega bo'ladi, davlatni boshqarishda ishtirot etadi deyiladi.

4. *Umumiy farovonlik davlati nazariyasi*. Bunga ko'ra davlat barcha sinflardan ustun turar ekan, u barcha fuqarolarning farovonligi va tinch-totuv hayot kechirishligini ta'minlaydi.

5. *Huquqiy davlat nazariyasi*. Bu nazariya tarafdarlari davlatning butun faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asosida va huquqiy vositalar ila amalga oshirilishi kerak, deb ta'kidlaydilar.

6. *Konvergensiya nazariyasi*. Bu nazariya davlatning istiqboldagi rivojini bashorat qiluvchi nazariya hisoblanib, unga ko'ra davlatlar bir-birlaridan yaxshi taraflarni o'rganadilar va oxiri hamma davlatlar bir xil ko'rinishda bo'lib qoladi.

7. *Tarixiy materialistik nazariya*. Bu nazariya asosida tarixiy materializm va sinfiy kurash g'oyalari yotib, unga ko'ra davlatning iqtisodiy hukmron sinfiga davlatning quroli deb qaraladi.

Darhaqiqat bu har bir nazariyaning o'ziga yarasha afzallik yoki to'g'ri taraflari, shuningdek, keraksiz va noto'g'ri taraflari mavjud.

<sup>6</sup> Аристотель. Политика. II том (С.А.Жебелева таржимаси).

Shu bilan birga davlatning mohiyati haqidagi zamonaviy qarashlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish (o'zaro yon bosish, murosa qilish va hk.) vositasi.

2. Umumdemokratik institutlarni (inson huquqlari, oshkoraliq, demokratiya, plyuralizm va b.) ta'minlash.

3. Tashqi faoliyat (mudosaa, bosqinchilikdan himoyalanish, hududiy yaxlitlikni ta'minlash).

*Davlat* — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalar)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.

*Davlat* — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot.

*Davlat* — jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.

*Davlat* — hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi.

## 2-§. *Davlatning kelib chiqishi va unga doir nazariyalar*

Davlatning vujudga kelishini oddiygina qilib quyidagicha tushunish mumkin. Davlatni vujudga kelishi uchun ijtimoiy tabaqalashuv vujudga kelgan. Ijtimoiy tabaqalashuv esa turli xil sinflarni vujudga keltirgan, ya'ni hukmron va qaram sinflarni. Dastlabki, qaram sinflarning vujudga kelishi uchun faqatgina moddiy ehtiyoj sabab bo'lgan xolos. Ya'ni, bir guruh odamlar (hukmron sinf) turli xil yo'llar bilan ortiqcha mulk evaziga boyiy boshlaganlar va shu mulki orqali boshqa bir guruh odamlar (qaram sinf)ni boshqara olganlar. Endi bu ijtimoiy tabaqalashuv qanday sodir bo'lgan? Buning sabablari turli xil bo'lib, bir necha nazariya asosida tushuntirilgan. Shu o'rinda savol tug'iladi: qaysi nazariya to'g'riroq? Agarda tarixga nazar tashlasak turli xil davlatlarning vujudga kelishidagi tabaqalashuv turli xil omillar asosida sodir bo'lgan.

Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar,

tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqida turli xil nazariyalar mayjud. Shulardan ayrimlarini ko'trib chiqamiz.

1. *Hohiy (teologik) nazariya*. Bu nazariya asoschilari vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar, «butun hokimiyat xudoniki» degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu nazariya teokratik, ya'ni davlat boshlig'i ayni paytda uning diniy rahnamosi bo'ladigan davlat qaror topgan davrdagi jarayonlarni aks ettiradi. Sharq davlatlarining «Podshoh xudoning yerdagi soyasi» degan fikri ham buni ifodalaydi.

2. *Patriarxal nazariya* tarafдорлари davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx hokimiyat esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo'lgan Aflatun (Platon) va Arastu (Aristotel)lar o'z asarlarida asoslab bergenlar. Aflatun o'zining mashhur «Davlat» asarida oiladan o'sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi.

Adolat g'oyasining o'zidan kelib chiqsak deydi Aflatun,adolatl odam hech nimasi bilan adolatli davlatdan farq qilmaydi. Inson ruhining uch asosi (aql, jaholat va nafs)ga maslahat, muhofazaga asoslangan tadbirdor davlatga muvofiq keladi. Keyingilariga hukmdorlar, askarlar va ishlab chiqaruvchilar (hunarmandlar va dehqonlar)ning uch tabaqasi to'g'ri keladi<sup>7</sup>.

Bu g'oya XVII asrda ingлиз олими Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam Atoning hokimiyatni xudodan olib, o'zining katta o'g'li, patriarchga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga bergenligini isbotlashga urungan.

3. *Sharhnomal nazariya*. Gollandiyada ushbu nazariyani Grosiy va Spinoza, Angliyada -- Lakk va Gobbs, Fransiyada Russo, Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergen. Normal hayot kechirish uchun odamlar davlat tuzish to'g'risida o'zaro sharhnomal tuzadilar, ixtiyoriy sur'atda unga o'z huquqlarining bir qismini topshiradilar. Keyinchalik ularning ma'lum bir shaxsga bo'yusunishlari haqida ikkilamchi sharhnomal tuziladi. Agar monarx

hokimiyatni sujiste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishga va monarxni taxtdan ag'darishga haqli bo'ladi.

Sharhnomal nazariyasiga ko'ra, davlat -- ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. Davlat -- o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu sharhnomal asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

4. *Zo'ravonlik nazariyasi* (Gumplovich, Kautskiy, Dyuring)ga ko'ra, zo'ravonlik asosida bir qabila ikkinchi qabilani bosib oladi va natijada bosib olingan qabila bosib olgan qabilaga itoatkor hisoblanadi. Bosib olgan qabila esa hokimiyatini mustahkamlash uchun davlatni tuzadi.

5. *Irrigatsiya nazariyasiga* ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya (suv) inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu nazariya nemis olimi Vittfogelning «Sharq istibdodi» («Восточный деспотизм») asarida ifodalab berilgan.

6. *Sinfiy nazariya* namoyandalari (K. Marks, F. Engels, V. I. Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar — ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tusayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning obyektiv natijasi o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinflarning kurashini bostirib turadi. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi. V. I. Lenin davlatni sinflarni kelishтирish organi emas, balki sinfiy hukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirish quroli, bir sinsning boshqa sinf ustidan hukmronligini ta'minlash mashinasi, deb hisoblagan.

7. *Psixologlik nazariya*. Bu nazariya asoschilari davlatning paydo bo'lish sabablarini insonning ruhiy holati, biopsixik instinktlari bilan bog'laydilar. Taniqli rus olimi L.I.Petrajitskiy go'yo inson ruhiyati (psixikasi)ga «buyuk» shaxslarga tobelik, bo'yusunish ehtiyoji mavjud, degan g'oyani o'rtaga tashlaydi.

Nemis psixoanalitigi Z. Freyd esa davlatni tashkil etish zaruriyatini insonning psixikasiga quyidagicha bog'laydi. Alovida hirsiy va biopsixik instinktlar ta'siri ostida harakat qilayotgan isyonchi o'g'illar tomonidan boshlig'i o'ldirilgan avval mavjud bo'lgan patriarchal o'rdadan insonning tajovuzkor mayllarini bostirib borish maqsadida davlat paydo bo'lgan.

8. *Islom nazariyasi*. Bu nazariya islomda fiqh fani doirasida VIII-X asrlarda tarkib topgan. Uni ta'riflashda klassik musulmon huquqida

<sup>7</sup> Islomov Z. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari (davlat nazariyasi). — T.: «Adolat», 2000, 74-b.

hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi Qur'on va Sunna qoidalari ko'p emasligini nazardan qochirmslik muhimdir. Bundan tashqari «davlat» atamasining o'zi ular tomonidan qo'llanilmaydi. Faqat «imomat» (dastlabki ma'nosi namozga imomlik) va «xalifalik» (vorislik) tushunchalari mavjud. Ular keyinchalik musulmon davlatini ifodalashda qo'llana boshlagan.

Davlatning kelib chiqishi haqidagi Islom ta'limoti asosida eng yirik huquqshunoslardan biri al-Mavardi (974-1058) qarashlari yotadi. U davlatga dinni himoya qilish va dunyoviy ishlarga rahbarlik bo'yicha Payg'ambar (S.A.V.) vazifalarini bajarishda voris deb qaraydi<sup>8</sup>.

### **3-§. Davlatning belgilari va huquqiy davlat**

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlatning belgilari to'g'risidagi masala hamisha huquqshunoslар e'tiborini tortib kelgan va bu haqda ularning turli talqinlari mavjud.

F.Engels o'zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgandi. G.F.Sershenevich ham shunga o'xshash uch belgi: «a) odamlarning birlashuvi; b) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat; d) shu hokimiyat ta'sir doirasidagi hudud...»<sup>9</sup> ni sanab o'tadi.

Hozirgi vaqtida davlatning umumiy e'tirof etilgan quydagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

- davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

- davlat — suveren hokimiyatning yagona sohibidir;

- davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;

- davlat o'z vazifalarini va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mehanizm (mahkama)dir;

<sup>8</sup> Сайдов А.Х. Основы мусульманского права. – Т.: Академия МВД, 1994. 52-с.  
<sup>9</sup> Шершеневич Г.Ф. Общая теория права. – §М.: 1995, 172-с.

- davlat — qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, militsiya, politsiya va hk.)ga ega bo'lgan yagona tashkilot;

- faqat davlatgina o'z mudosaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan birlgilarda olingan davlat belgilari ning jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning alohida o'rni va yetakchi rolini to'la izohlaydi. Albatta, bunda, har bir tarixiy davrda, turliche ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashqi ko'rinishi bilan farq qilishini hisobga olish zarur.

Hozirgi sharoitlarda demokratiya va erkinliklarni, barqarorlik, tinch-totuvlikni, respublika xalqlari hamjihatligi va hamkorligini qaror toptirishda, islohotlar va ularni amalga oshirishdagi tashabbuskorlikda, madaniyati yuksak rivoj topgan jamiyatga o'tishda O'zbekiston davlati yetakchi rol o'ynamoqda.

Ushbu maqsadlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etish, davlatni mustahkamlash vazifalarini bajarish, O'zbekistonda davlat hokimiyati barcha bo'g'inlarining samarali ishlashini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

Huquqiy davlat — huquqning hukmronligi, qonunning ustunligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'milanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Huquqiy davlatning asosiy belgilariga quydagilar kiradi:

1. *Huquqning hukmronligi*. Davlat hududida bo'lgan barcha shaxslar — ushbu davlat fuqarolari, xorijliklar, fuqaroligi bo'lmasgan shaxslar, yuridik shaxslar, mansabdar shaxslar, davlat hokimiyati idoralari huquqqa bo'ysunadilar.

2. *Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi*. Konstitutsiya va qonunlar huquqiy normalar tizimida oliy yuridik kuchga egadir. Turli xil davlat idoralari chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar qonunlarga zid bo'lmasligi kerak.

3. *Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi, ularning himoya qilinishi va ta'milanishi*. Inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan tegishli bo'lib, ular insondan ajralmasdir. Gap, eng avvalo, insonning yashash, erkinlik, daxlsizlik va xavfsizlikka ega bo'lish huquqlari hamda boshqa huquq va erkinliklari

to'g'risida bormoqda. Barcha fuqarolar qonun va mustaqil sud oldida tengdirlar.

4. *Davlat va fuqaroning o'zaro mas'uliyati*. Davlat qonunlarda shaxs erkinligining me'yorini belgilab qo'yari ekan, xuddi shu chegaralarda o'zini ham qaror qabul qilishda cheklab qo'yadi.

5. *Jamiyatda hokimiyatning qonuniyiligi (legitimligi)*. Hokimiyat qonuniy deb e'tirof etilishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi shart: demokratik saylovlar yo'li bilan shakllantirilgan bo'lisi; samarali faoliyat yuritib, jamiyatda barqarorlik va qat'iy tartibni ta'minlashi; ham mamlakat ichkarisida, ham xalqaro miqyosda tan olinishi.

6. *Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi*. Davlat hokimiyati bir qo'lida to'planib qolmasligi uchun hokimiyatning uchta tarmog'ini — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ajratib qo'yish kerak. Ushbu hokimiyat tarmoqlarining har biri o'z vakolati doirasida amal qiladi.

7. *Sudning mustaqilligi*. Sud davlat hokimiyatining boshqa ikki tarmog'i kabi mustaqildir. Boshqacha aytganda, sud faoliyatiga hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. *Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi*. Agar inson huquqlari va erkinliklari poymol etilsa yoki bunga tahdid mavjud bo'ssa, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar unga yordam berishlari kerak, ushbu huquq va erkinliklarni himoya qilishlari kerak.

9. *Huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi*. Huquqiy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichi jamiyatdagi huquqiy ong darajasidir. Huquqiy ong huquqqa munosabat, qonun talablarini bajarish zarurligini anglash darajasini ifodalaydigan huquqiy qarashlar yig'indisi. Huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarni bilish, huquqni hurmat qilish va huquqiy qoidalarga rioya etishda namoyon bo'ladi.

10. *Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi*. Siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanishi, xalq davlat boshqaruvida doimo ishtirok etishi, rivojlangan fuqarolik jamiyati shakllanishi va ma'lum bir muxolafatning bo'lishi zarur.

Huquqiy davlat etatik davlatdan butunlay ajralib turadi. Mazkur tafovut davlat hokimiyatini tashkil qilish va amalga oshirishning barcha taraflari, shuningdek, oldida turgan vazifalarni hal etish shakl va usullari, jamiyat, millat va elatlar, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar, siyosiy partiylar va jamoat birlashmalari kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz.

Huquqiy davlatda hokimiyatning butun mexanizmi — har bir organ, mansabdor shaxs — o'z faoliyati davomida huquqiy prinsiplar va qoidalarga tayanadi, o'z faoliyatini ular bilan bog'laydi. Huquqiy normalar nafaqat aholi uchun, balki davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun ham majburiy bo'ladi. Ularning huquq chegaralaridan chiqishiga umuman yo'l qo'yilmaydi yoki imkon berilmaydi. Agar etatik davlatda rasmiy organlar va mansabdor shaxslar huquqni o'zlarini uchun ikkinchi darajali va majburiy emas deb tushunsalar, huquqiy davlat sharoitida bunday holat, aksincha, umuman nomaqbul va nojoiz hisoblanadi, shu sababdan u sekinasta yengib o'tiladi.

Huquqiy davlat normativ qonunlarni qabul qilish va e'tirof etish bilan cheklanib qolmaydi. U mazkur qonunlar zaruriy ravishda hayotga tatbiq etilishi, barcha jismoniy va yuridik shaxslar, davlat va jamoat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatini kerakli yo'nalishga solishga katta ahamiyat beradi. Davlatning huquqni amalga oshirish borasidagi faoliyati asosiy vazifa hisoblanadi.

Huquqiy davlatda davlat normativ hujjatlarining amal qilishida subordinatsiyaga rioya qilinishiga katta ahamiyat beriladi. Unda huquq manbalari, ya'ni normativ hujjatlarning qat'iy bo'ysundirilgan tizimi shakllanadi, amal qiladi va rivojlanadi. Bu tizimda har bir hujjatning o'rni uning yuridik kuchiga bog'liq bo'ladi. Mazkur huquqiy manbalar «ehromi»ning cho'qqisi — yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan konstitutsiya hisoblanadi. Hech qanday huquqiy manba konstitutsiya normalari va prinsiplariga zid bo'lishi mumkin emas. Aksincha, davlat organlarning barcha normativ hujjatlari va huquqning boshqa manbalari konstitutsiyaga asoslanishi, uni aniqlashtirishi, to'ldirishi va mazmunini rivojlantirishi lozim. Shunga muvofiq ravishda konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar tuziladi, yuridik pillapoya (piramida)ning quyi «qavatlari»da davlat rahbarining hujjatlari, hukumat farmonlari va farmoniyishlari, vazirliliklar va idoralarning buyruqlari va ko'rsatmalari, mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlarning hujjatlari, huquqiy odatlар, sud va ma'muriy pretsedentlar yaratiladi. Kam yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarga yuqoriyoq yuridik kuchga ega hujjatlarga nisbatan ustun ahamiyat berilishi totalitar va avtoritar davlatlarga xos bo'lib, huquqiy manbalar subordinatsiyasi va iyerarxiyasini buzadi, shu bois huquqiy davlat uchun zid hisoblanadi.

Huquqiy davlatda, birinchidan, shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining haq-huquqlari, huquq va erkinliklarning keng

miqyosda qamrab olinganligi, normal hayot faoliyatini ta'minlash hamda jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etish uchun yetarligi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, huquqlar bilan ajralmas birlikda majburiyatlar tizimining mutanosib va muvofiq tizimini o'z ichiga oladi. Uchinchidan, huquqni hayotga tatbiq etish aniq yuridik kafolatlar bilan mustahkamlangan. Bunda ijtimoiy munosabatlarning bir turdag'i subyektlari orasida tenglikni mustahkamlashga, sifsiy, milliy, urug'-aymoqchilik imtiyozlarini belgilash va bu orqali ulardan biriga imtiyoz berib, ikkinchisini imtiyozlardan mahrum etishga yo'l qo'yilmaydi. Subyektlar orasida mazkur tenglikning yo'qligi etatik jamiyatning huquqiy amaliyoti uchun xosdir. Ayni paytda huquqiy davlat shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining haq-huquqlarini qo'llab-quvvatlash, normativ jihatdan mustahkamlash va takomillashtirish haqida g'amxo'rlik qiladi.

Huquqiy davlatda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi e'tirof etiladi va amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda yagona davlat hokimiyat doirasida uning uchta mustaqil tarmoqqa bo'linishi ta'minlanadi. Bular qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bo'lib, ular o'zaro uzviy munosabatda bo'ladi.

Hokimiyatning bitta tarmog'i boshqalarini «bukib olishi» va bo'ysundirishiga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur prinsipning ahamiyati shundaki, u hokimiyatning faqat bitta organ yoki mansabdar shaxs qo'lida to'planishiga yo'l qo'ymaydi, natijada ichki davlat apparatida hokimiyatning teng taqsimlanishini ta'minlaydi hamda diktatorlik tartibi yuzaga kelishining oldini oladi.

Huquqiy davlatda ichki qonunlar hamda umume'tirof etgan xalqaro huquq normalari o'rtasida optimal muvofiqlikni ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Xalqaro huquq normalari hozirgi zamon huquqiy bilimlarining yutuqlarini mujassamlashtiradi. Mazkur yutuqlarga u yoki bu darajada huquqiy davlatlar qonunchiligining ham hissasi bor, zero ularda odatda ichki qonunlar oldida xalqaro shartnomalar (hammasini emas, faqat ratifikatsiya qilinganlari)ning ustunligi belgilanadi va bu shartnomalar bevosita qo'llanishi aytib o'tiladi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar yuridik tizimlarining tashqi dunyodan ajralganligi va cheklanganligi bartaraf etiladi, ya'ni ular jahon hamjamiyatining huquqiy tizimiga qo'shilib boradi, umume'tirof etgan prinsip va normalarga riousha etib, ularni o'z normativ hujjalarda aks ettiradi.

Huquqiy tartibot (ayniqsa, fuqarolar huquq va erkinliklari) buzilgan hollarda huquqiy ta'sir qilish va huquqiy himoya mexanizmi

amat qiladi, unda sud birinchi darajali o'r'in tutadi. Mazkur mexanizm jinoyatning oldini olish, buzilgan huquqni tiklash, yetkazilgan zararning qoplanishini ta'minlash, aybdorlarni jazolash, yangi huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar va ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga davlatning barcha farmonlari to'liq bajarilishi lozimligini uqtirish borasidagi vazifalarni kompleks ravishda hal qiladi. Agar huquq-tartibot, fuqarolar huquq va erkinliklarning har qanday buzilishi tegishli davlat organlari va mansabdar shaxslarning e'tiboridan chetda qolmasa hamda tartibuzarlar har gal haqli jazo olsalar, bunday yondashuvning o'zi qonunni buzishning samarali umumiy preventiv, ya'ni oldini oluvchi omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, bu davlatda qonuniylikka riousha etish sharoitiga ta'sir etadi. Huquqiy davlatning yurisdiksija, huquq-tartibotni muhofazalash, huquqni himoyalash va preventiv (oldini olish) faoliyati huquqiy talablarga qat'iy riousha etishi zarur. Shu sababdan jamiyat hayotining huquqiy faolligi etatik davlatga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.

Huquqiy davlat uchun fuqarolarning davlat oldida va davlatning fuqarolar oldida o'zaro mas'ulligi xosdir. Davlat nafaqat har bir odamning tug'ilishidan boshlab unga tegishli bo'lgan ajralmas huquq va erkinliklarni tan oladi, balki ularning hayotga real tatbiq etilishi va tajovuzlardan himoya qilinishini ham kafolatlaydi. Ayni paytda, fuqarolar o'z huquqlaridan davlat, boshqa fuqarolar, ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga zarar yetkazmagan holda foydalanishlari va o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni qat'iy bajarishlari zarur. Boshqacha qilib aytganda, davlatning fuqarolar bilan aloqasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular o'rtasida muayyan huquqlarning vujudga kelishi hamda muayyan majburiyatlarning bajarilishini taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan omillarning birgalikda amal qilishi jamiyat va davlatda huquqning hukmronligi, umume'tirof etganligi va ustun mavqega ega bo'lishiga olib keladi. Bu ijobjiy natija hisoblanadi, zero huquq — insoniyat taraqqiyotining buyuk ne'mati, huquqiy tartibga solish, boshqarish va ta'sir etish borasida to'plangan ijtimoiy tajribaning asosiy mohiyati, umuminsoniy qadriyatlar vaadolat, demokratiya va tartib-intizom kabi yuksak g'oyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Huquqning jamiyat hayotidagi ulkan ahamiyati va vazifasini tushunib yetgan davlatni huquqiy davlatlar qatoriga qo'shish mumkin.

Demak, huquqiy qadriyatlarning ustunligi, ularning ham aholi, ham davlat xizmatchilari orasidagi nufuziga e'tibor beradigan, o'z

faoliyati davomida huquq bilan bog'liq bo'lgan hamda qonun talablari doirasida amal qilgan holda inson huquq va erkinliklarining buzilishiga yo'l qo'ymaydigan davlatni chinakam huquqiy davlat deyish mumkin.

Huquqiy davlat — bizning kelajagimiz, biroq unga erishish murakkab vazifa bo'lib, rivojlanishning bir qator bosqichlarini qamrab oladi hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoatchilik va xalqdan jiddiy faoliyotni talab etadi. Davlat va jamoat hayotining faolligini o'stirish, korrupsiya va poraxo'rlikka barham berish, jinoyatchilik va suiste'molchilikka qarshi kurashish, jamiyatning yuridik va ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish lozim. Huquqni yangilash, uni qo'llash va muhofazalash mexanizmini takomillashtirish, fuqarolarda qonunga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamiyatga muayyan huquqiy munosabatlar va yuridik aloqalarini joriy etish zarur. Davlatning muhim vazifalaridan biri jamiyatda qaror topgan yuridik nigelizmni, davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunni mensimaslik kayfiyatini bartaraf etish, uning o'rниga odamlarda ijobjiy huquqiy ongni shakllantirish lozim. Bunday kompleks yondashuv huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish vazifalarini hal qilish imkonini beradi.

#### *4-§. Davlatning funksiyalari*

Davlat funksiyalarining asosiy belgilari:

- mazmuni — davlat faoliyati bir xil jihatlarining yig'indisi;
- miqyosi — funksiyalar davlatni bir butun sifatida qamrab oladi;
- xususiyati — kompleks, majmuaviy;
- maqsadi — insonning ijtimoiy himoyalanganligi, tashqi xavfsizlik va hk.

Davlatning funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Davlatning ichki funksiyalari mamlakat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

*Ichki funksiyalariga quyidagi kirdi:*

- reguliyativ (tartibga solish, boshqarish);
- qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish).

1. Regulyativ funksiya davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi o'rnnini belgilaydi:

*1) iqtisodiy:*

- iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va jamiyat iqtisodiy hayotiga ta'sir etish;

- iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish;

- bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini o'rnatish va narxnavo siyosatini belgilash;

*2) ijtimoiy:*

- ijtimoiy boylikni taqsimlash;
- aholining eng kam muhofazalangan qismini (nogironlar, ko'p bolali oilalar, ishsizlar) himoya qilish, pensiya ta'minoti kabilarni tashkil etish;
- sog'liqni saqlash, madaniyatni rivojlantirish, jamoat transportini tashkil etish, uy-joy qurish va hk.

*3) siyosiy:*

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- qonuniylikni va huquqiy tartibotni ta'minlash;
- barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta'minlash;

*4) ma'naviy:*

- san'atni qo'llab-quvvatlash;
- milliy madaniyatni rivojlantirish;
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

*5) moliyaviy:*

- soliq to'plash;
- bojxona nazorati;
- bevosita moliyaviy nazoratning o'zi.

2. Qo'riqlash funksiyasi davlatning huquq bilan mustahkamlangan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan quyidagi faoliyatini taqozo etadi:

- fuqarolar huquq va erkinliklarini muhofaza qilish;
- tabiatni muhofaza qilish;
- barcha shakllardagi mulklarni himoya qilish;
- huquqni muhofaza qilish.

*Tashqi funksiyalar* — davlatning xalqaro maydonidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

1. Xalqaro hamkorlik: tashqi siyosiy faoliyat; tashqi iqtisodiy faoliyat.

2. Mudofaa va milliy xavfsizlikni ta'minlash.

Xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun hayotiy zaruratdir. Yer yuzida hozir 200 dan ortiq davlat bor. Ularning har biri me'yorda hayot kechirish va o'zaro hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi.

Xalqaro hamjamiyat xalqaro huquqning o'zagini tashkil etuvchi umume'tirof etgan prinsip va qoidalarning butun boshli majmuasini

ishlab chiqqan. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rta sidagi hamkorlik ana shu prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Suveren davlat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi jahondagi barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda, ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, eng nufuzli xalqaro tashkilot bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosidir.

Davlatning mamlakat mudosaasi va xavfsizligini ta'minlash funksiyasini, eng avvalo, mamlakatning Qurolli Kuchlari hamda Milliy xavfsizlik xizmati bajaradi.

## 5-§. Davlatning shakllari

Davlat shakli deganda, davlatning tuzilishi va boshqaruvin usulini belgilaydigan tashqi xususiyatlari tushuniladi. Davlat shakli quyidagi uchta jihatni o'zida ifodalaydi:

- davlat boshqaruvi shakli;
- davlat tuzilishi shakli;
- siyosiy tuzum.

Ushbu xususiyatlarni davlat qanday tashkil etilganligini va davlat hokimiyati qanday usullarda amalga oshirilishini ko'rsatadi.

*Boshqaruvin shakli* deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralarini, aholi bilan o'zaro munosabati, aholining ushbu idoralarini shakkantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Boshqaruvin shakliga ko'ra davlatlar monarxiya va respublikaga bo'linadi.

«Monarxiya» so'zi yunonchada «yakka hokimlik» ma'nosini bildiradi. Monarxiya oliy hokimiyat yakka hokim — davlat boshlig'ining qo'sida bo'lgan va bu hokimiyat meros qilib beriladigan davlat boshqaruvi shaklidir.

Monarxiyaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i sifatida maydonga chiqadi; monarx davlatni yakka o'zi boshqaradi;
- monarx hokimiyati muqaddas deb e'lon qilinadi;
- monarx o'z faoliyatida rasman mustaqildir;
- hokimiyatni o'rnatish, qabul qilish (legitimlashtirish)ning alohida tartibi mayjud;
- muddatsiz, umrbod boshqaruv;
- monarx o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya *mutlaq* va *cheklangan* (yoki parlamentar) shakllarda bo'ladi. Davlat hokimiyatini boshqa bironta idora bilan cheklangan monarx (qirol, podsho, imperator) amalga oshirsa (masalan, Saudiya Arabistonida), bunday monarxiya mutlaq monarxiya deyiladi.

Agar monarxonning hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan biron-bir vakolatlari idora bilan cheklangan bo'lsa, bunday monarxiya cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament shaklidagi monarxiya bo'ladi (masalan, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya).

«Respublika» so'zi yunonchada «umumiy ish» ma'nosini bildiradi. Respublika davlat boshqaruvining hokimiyat oliy idoralarini muayyan muddatga saylanadigan shaklidir.

Respublikaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- hokimiyat oliy idoralarining saylab qo'yilishi;
- hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;
- hokimiyat oliy organlarining o'z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;
- qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ bo'lgan sudlar obro'ining ortishi;
- fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.

Respublikalar *prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika va aralash turdag'i respublikalarga* bo'linadi:

- prezidentlik respublikasida davlatni xalq saylaydigan va juda keng vako-latlargacha ega bo'lgan Prezident boshqaradi. U davlatning ham, hukumatning ham boshlig'i idir. Bunday respublikada hukumatni prezident tuzadi.

- parlamentar respublikada davlat boshlig'i saylanuvchi mansabdar shaxs bo'lib, nisbatan torroq vakolatlarga ega. Bunda prezidentni parlament saylaydi. U rasman davlat boshlig'i hisoblanib, asosan vakillik funksiyalarini bajaradi. Uning hukumatni tuzish va mamlakatni boshqarishda tutgan o'rni nomigagina ahamiyatga ega bo'ladi. U hukumatni boshqarmaydi (hukumatni bosh vazir boshqaradi). Ammo hukumat uni tarqatib yuborishi mumkin bo'lgan parlament oldida javobgardir. Parlamentar respublikaga Avstriya, Italiya, Germaniya misol bo'ladi.

- respublika shaklidagi boshqaruvning yana bir ko'rinishi aralash boshqaruvdir. Bunday boshqaruvda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari aralashib ketgan bo'ladi. Masalan, Fransiyada prezidentni xalq saylaydi. U juda katta vakolatlarga ega bo'ladi, ammo hukumatni boshqarmaydi.

*Davlat tuzilishi* shakli uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir.

Davlat tuzilishi bo'yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- oddiy (unitar);
- murakkab (federativ va konfederaliv).

**Unitar davlat** — bu oddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, okrug, voyevodstvo, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan ma'muriy-hududiy birlklarga bo'linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo'ladi. Unitar davlat odatda bir millatli bo'ladi.

Unitar davlat belgilari quyidagilardan iborat:

- butun mamlakat miqyosida bir xil bo'lgan vakillik, ijroiya va sud organlari bo'ladi;
- bitta konstitutsiya; yagona qonunchilik tizimi;
- yagona fuqarolik;
- yagona pul birligi;
- barcha ma'muriy-hududiy birlklar uchun umumiy bo'lgan soliq va kredit siyosati;
- unitar davlatlar tarkibiy qismlari suverenitetga ega emas (ya'ni tom ma'nodagi davlatlar emas);
- yagona armiya mavjudligi.

**Federativ davlat** — murakkab, ittifoqdosh davlat. Odatda u bir qancha davlatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi. Birlashganidan keyin bu davlatlar federatsiya a'zolari yoki subyektlari bo'lib qoladilar. Ular turlicha atalishi (shtatlar, o'lkalar, respublikalar) va o'z ma'muriy-hududiy bo'linmalariga ega bo'lishi mumkin.

Federatsiyada hokimiyat idoralarining ikki tizimi amal qiladi: federal darajada va federatsiya subyektlari darajasida. Federal darajada ham, federatsiya subyektlari darajasida ham prezident, parlament, hukumat bo'lishi mumkin.

Federativ davlat belgilari: federatsiya hududi uning subyektlari hududidan tashkil topadi; oliv qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat organlariga tegishli bo'ladi;

federatsiya subyektlari va federatsiyaning o'zi o'rtasidagi vakolatlar ittifoq konstitutsiyasi bilan belgilanadi; federatsiya subyektlari o'z konstitutsiyasi, o'zlarining oliv qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega;

federatsiyaning oliv qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasini ikki palatali tuzilishga ega (federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etuvchi qo'shimcha palata mavjud).

**Konfederaltsiya** — o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi. Konfederaltsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo'ladi.

Konfederaltsiya belgilari quyidagilardan iborat:

- mustaqil davlatlarning muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashgan ekanligi;
- konfederaltsiya --- mustahkam bo'Imagan tuzilma;
- yagona hududning yo'qligi (konfederaltsiya uning a'zolari bo'lgan davlatlar hududidan tashkil topadi);
- yagona fuqarolikning bo'lmasligi;
- konfederaltsiya subyektlari undan erkin chiqish huquqiga egadirlar;
- konfederaltsiya subyektlari ittifoq hokimiyati qonun hujjatlarini nullifikatsiya qilish (e'tirof etmaslik yoki qo'llamaslik) huquqiga egadirlar;
- konfederaltsiya vakolatiga uncha ko'p bo'Imagan (urush va tinchlik, xalqaro siyosat va hk.) masalalarni hal etish kiradi;
- konfederaltsiya byudjeti uning a'zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

Konfederaltsiya tuzilishidagi davlatlarning odatda umri qisqa bo'ladi. Ular ko'p sohalar bo'yicha birlashib federatsiyaga aylanib ketadi yoki parchalanib unitar davlat holatiga qaytdi. Hozirda konfederaliv davlatga misol qilib o'zida bir necha davlatlarni birlashtirgan Yevropa Ittifoqini keltirish mumkin.

*Siyosiy tuzum* — davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarining majmui bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

*Demokratiya* (yunoncha «xalq hokimiyati») — inson siyosiy va fuqarolik huquqlarining tengligini, fuqarolarning davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirot etishini, xalq irodasini demokratik hokimiyatning yagona manbai deb bilishni anglatadi. Xalq hokimiyatchiligi ikki shaklga ega: vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya.

Vakillik demokratiyasi xalqning o'z hokimiyatini vakillik idoralari, ya'ni demokratik hokimiyatning va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralarining saylab qo'yiladigan organlari orqali amalga oshirilishini bildiradi. Bevosita demokratiya xalqning demokratik hokimiyat masalalarini hal etishda umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri ishtirot etishidir.

### Demokratik tuzum belgilari:

- shaxsning iqtisodiy sohada erkinligi;
- inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e'lon qilinishi va kafolatlanishi;
- barcha shakllardagi va tom ma'nodagi demokratiya;
- hokimiyat vakolatlarining bo'linishi;
- ijtimoiy hayotda fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm), ijtimoiy birlashmalarning ko'pligi;
- qonun ustunligi.

Agar davlatda demokratik tuzum hukmron bo'lsa, demak, bu davlatda fuqarolar umume'tirof etilgan huquq va erkinliklardan to'la foydalanadilar, davlat esa ularni nafaqat tan oladi, balki har tomonlama kafolatlaydi va himoya qiladi.

Bunday davlatda mafkuraviy va siyosiy xilma-xillik konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yiladi, siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruxsat etiladi. Siyosiy partiyalar olyi va mahalliy hokimiyat idoralariga deputatlarni saylashda ishtirok etish orqali iloji boricha ko'proq a'zolarini hokimiyat idoralariga kiritishga harakat qiladilar. Qoida tariqasida, demokratik saylovda g'alaba qilgan siyosiy partiyalar hukumatni tuzish va shu tariqa o'z siyosatini o'tkazish huquqiga ega bo'ladilar.

*Antidemokratik* tuzumga xos xususiyat shundaki, bunday tuzumda davlat idoralari hokimiyatni amalga oshirish chog'ida demokratik prinsiplar va qoidalarga rioya etmaydilar, ularni doimo yoki tez-tez buzadilar. Bunday siyosiy tuzumda fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi, qo'pol ravishda buziladi, muxolafat bartaraf etiladi (ba'zan juda shafqatsizlik bilan), ba'zida esa parlament singari demokratik institutlar yo'q qilinadi.

### Aksildemokratik tuzum belgilari quyidagilardan iborat:

- davlatning huquqdan ustunligi;
- davlatning jamiyat hayoti barcha sohalarini nazorat qilishi;
- davlatning shaxs manfaatlariga besfarqliji;
- jamoat tashkilotlarining davlatlashtirilishi;
- ijtimoiy hayotning butunlay harbiylashtirilishi;
- kam sonli millatlar manfaatlariga e'tibor berilmasligi.

Aksildemokratik tuzumlar ichida fashistik va totalitar tuzumlarni ko'rsatish mumkin.

Fashistik tuzumda har qanday muxolafat yo'q qilinadi, biron irqning hukmronligi e'lon qilinadi, boshqa hududlarni bosib olish uchun yo'l ochiladi. 1933 – 1945-yillardagi fashistlar Germaniyasi

va o'sha davrdagi fashistlar Italiyasi fashistik tuzumli davlatlarga misol bo'la oladi.

Totalitar tuzum bir partianing hukmronligi, huquq va erkinliklarning poymol etilishi, ko'pincha esa ularning yoppasiga buzilishi, o'zgacha fikrlashga qarshi kurash, saylovchilarning saylovda muqobil deputatlarni saylash imkoniyatining bo'lmasligiga asoslangan boshqaruvi deb ta'riflanadi. Totalitar davlat misoli sifatida sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin.

Siyosiy tuzum davlat shaklining insonning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi eng muhim elementidir.

## 6-§. Davlat mexanizmi

Davlat mexanizmi — jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalarining tizimi. Davlat mexanizmining asosiy belgilari quyidagilar:

- *tarkibi* — boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadigan odamlar yig'indisi; bir-birlari bilan o'zaro aloqadorliqda va munosabatda bo'lgan idoralar va muassasalarining murakkab tizimi; davlat apparati barcha bo'g'inlarining funksiyalari, tashkiliy va moliyaviy vositalar, zarur bo'lganda esa davlatning majburlov choralar bilan ta'minlanadi;
- *maqsadi* — fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash va muhofaza qilish.

Davlat idorasasi (organi) — davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.

Davlat idorasining belgilari: qonun chiqarish yo'li bilan tashkil topishi:

- *vakolati* — ushbu idora mustaqil hal eta oladigan masalalar doirasi; huquqiy asosda funksional faoliyat ko'rsatishi; davlat apparatida mustaqil o'rinn tutishi; boshqa idoralar bilan aloqada bo'lishi; tuzilishi (ichki tuzilishi).

Davlat idoralari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Vakillik idoralari: qonun chiqaruvchi; mahalliy hokimiyat idoralari.

2. Ijroiya idoralari: *markaziy idoralar* (davlat boshlig'i monarx yoki prezident; hukumat; vazirlik va davlat qo'mitalari); *huquqni*

*muhofaza* qiluvchi idoralar (prokuratura; ichki ishlar vazirligi va uning organlari; adliya vazirligi; milliy xavfsizlik xizmati); *mahalliy idoralar* (O'zbekistonda viloyat, tuman va shahar hokimlari).

3. Sud va konstitutsiyaviy nazorat idoralari: Konstitutsiyaviy sud; Oliy sud va umumiy yurisdiksiya sudlari; Oliy xo'jalik sudi va uning viloyat (shahar) bo'g'inxilari.

## 7-§. *Huquq va uning belgilari*

**Huquq** — davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalaringiz tizimi.

«Huquq» iborasi ikki ma'noda qo'llaniladi. *Obyektiv huquq* — umummajburiy xulq-atvor qoidalaringiz yig'indisi. Bu normalar u yoki bu insonning, subyektning irodasi hamda xohish-istagidan qat'i nazar mavjud bo'ladi. *Subyektiv huquq* — muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lган huquq. Masalan, fuqaro Aliyevning ma'lum narsaga, aytaylik, avtomobilga nisbatan mulk huquqi. Subyektiv huquq yuridik jihatdan shaxs erkinligini ta'minlaydi, unga mustaqillik beradi va tashabbus ko'rsatishiga imkon yaratadi. Subyektiv huquq obyektiv huquqqa asoslanadi, obyektiv huquq bo'lmasa, subyektiv huquq ham bo'lmaydi. Subyektiv huquq insondan (yoki tashkilotdan), ya'ni huquqdan shaxsdan ajralmagan holda mavjud bo'ladi.

Huquq davlat bilan chambarchas bog'langan. Davlatsiz huquq bo'lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni shakllantiradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

O'z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Aks holda, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositanan mahrum bo'ladi.

Huquqning asosiy belgilari quyidagilardir:

- a) davlat yo'li bilan o'rnatilishi;
- b) barcha uchun majburiyligi;
- c) huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- d) subyektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- e) davlat tomonidan ta'minlanganligi.

Huquq adolatdan ajralmasdir. Rim huquqida huquqning halol yashash, o'zgalarni xafa qilmaslik, har kimga kerakligini berish kabi qoidalari yozib qo'yilgan edi. Huquq ezzulik va adolatlilik san'atidir. Huquqda adolat mezonini ifodalananadi.

*Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar*. Davlat kabi huquqning kelib chiqishi to'g'risida ham turli nazariyalar mavjud.

1. Tabiiy huquq nazariyasi — huquq nazariyalarining eng qadimiyalaridan biri. Uning vakillari huquqning o'zida adolatning mutlaq, o'zgarmas ibtidosini mujassam etganligidan kelib chiqadilar. Huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o'ylab topmagan, u xuddi insonning o'zi kabi tabiiydir. Ushbu nazariya tarasdorlari tabiiy huquqni yuridik normalarning yig'indisi ko'rinishidagi huquqqa qarshi qo'yadilar. Tabiiy huquq — davlat intilishi zarur bo'lgan o'ziga xos ideal.

2. Huquqning tarixiy nazariyasi vakillari huquq tarixan paydo bo'lgan va rivojlanadi, deb hisoblaydilar. Yerga ekilgan urug' kabi u xalqning ongida o'sib boradi va adolat, qonunlar shaklida namoyon bo'ladi. Huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi.

3. Huquqning psixologik nazariyasida huquqning kelib chiqishi va rivojlanishini shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlanadi. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlarning mahsuli, deb qaraladi.

4. Huquqning sinfiy (marksistik) nazariyasi huquqning sinfiy mohiyatiga urg'u beradi. Bunda huquq hukmron sinfi irodasining qonun darajasiga ko'tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

*Huquqning funksiyalari*. Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi. Huquqning funksiyasi deganda, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari tushuniladi.

Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar: tartibga soluvchi, qo'riqlovchi va tarbiyaviy.

Tartibga solish funksiyasi — tegishli ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni va u yoki bu subyekt faol xulq-atvorining mezonini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat.

*Qo'riqlash funksiyasi* — huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, ularni qo'llash va javobgarlikni o'tash tartibini o'rnatishdan iborat.

*Tarbiyaviy funksiya* — turmushda nimalarni qilish mumkin, nimalar esa taqiqilanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish

Izimligini belgilashdan iborat. Bunda huquq ishontirish metodiga tayanadi, zarur bo'lganda majburlash metodini, hatto jazolashni ham nazarda tutadi.

## 8-§. *Huquq ijtimoiy norma*

Jamiyatda normalarning ikki tizimi mayjud: texnikaviy va ijtimoiy. Texnikaviy normalar «inson — mashina» munosabatlarni tartibga soladi. Agar texnikaviy normalar bajarilmasa, Chernobil atom elektr stansiyasidagi kabi falokat sodir bo'lishi mumkin. Ijtimoiy normalar — odamlar va ularning birlashmalari o'rtaisdagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular «inson — inson» munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy normalarning turlariga quyidagilar kiradi: axloq normalari, jamoat birlashmalari normalari, milliy urf-odatlar, xalqlarning odatlari, an'ana normalari, siyosiy hayot normalari, huquq normalari, diniy normalar.

*Axloq normalari* — ezzulik va yovuzlik, sha'n, qadr-qimmat, adolat va nohaqlik, burch va mas'uliyat haqidagi axloqiy tushunchalarga muvosiq ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari.

*Jamoat birlashmalarining normalari* — jamoat birlashmalarining o'z faoliyatini tartibga solish va tashkilotlarning a'zolari o'rtaisdagi munosabatlarni aniqlash uchun o'rnatgan xulq-atvor qoidalari.

*Odat normalari* — kishilarning ko'pmarta takrorlanganligi uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari.

*An'ana normalari* — ilg'or an'analarni asrash munosabati bilan yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari.

*Marosim normalari* — kishilarning ma'lum rasm-rusumlarni bajarishdagi xulq-atvor qoidalari.

*Diniy normalar* — dindorlarning xudoga, machitga, cherkovga, bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarni tashkil qilish va ularning amal qilishini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

*Siyosiy normalar* — alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarining hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

*Huquq normalari* — davlat tomonidan belgilanadigan umum-majburiy xulq-atvor qoidalari.

Tabiiyki, ijtimoiy normalarning mazkur ro'yxati to'liq emas.

Huquq normalarning boshqa ijtimoiy normalardan farqini huquq normalari va axloq normalarini taqqoslash orqali ko'rsatib beramiz.

*Huquq normalarining belgilari va tuzilishi.* «Norma» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda «qoida», «namuna» ma'nosini anglatadi.

Huquq normasi — davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidasi.

Huquq normasi umumiy xulq-atvor qoidasi sifatida:

- hayotiy munosabatlardagi tipik, takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi;
- shaxsi aniqlanmagan va ko'p marta qo'llashga mo'ljallangan bo'ladi;
- hamisha qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan shaxslar (harbiy xizmatchilar, vrachlar va hk.)ga qaratilgan bo'ladi.

Huquq normasi davlat bilan uzviy aloqadordir. Huquq normasi:

- davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi;
- davlat tomonidan normativ hujjalarda shakllantiriladi;
- davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo'lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi;
- jamiyat va davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquq normasining assosiy vazifasi — ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq normasi umummajburiy xususiyatga ega. U huquq tizimidagi birlamchi hujayradir. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalardan tashkil topgan. Ular birgalikda u yoki bu mamlakatning huquqiy tizimini tashkil etadi.

Huquq normasi, tuzilishiga ko'ra, uch tarkibiy qism: gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan.

*Gipoteza* — huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etiladi. Misol uchun, pensiya haqidagi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida erkaklarga umumiy mehnat stoji 25-yil bo'lganidan so'ng 60 yoshdan, ayollarga esa 20 yillik staj bilan 54 yoshdan boshlab sotsial ta'minot bo'limlari tomonidan pensiya to'lanadi.

*Dispozitsiya* — huquq normasining shunday tarkibiy qismiki, unda xulq-atvor qoidalaring o'zi ifodalanadi, huquq subyektlarining huquq va majburiyatları belgilab beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 223-moddasida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi — hukumatning ruxsatsiz yoki qalbaki hujjalardan foydalanib, yoinki, buning uchun belgilangan chegara

punkti orqali o'tmay, davlat chegarasidan noqonuniy o'tishning taqiqlanganligidir.

Dispozitsiya — shu xulq-atvor qoidasining o'zi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, ota-onalar o'z farzandlarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Huquq normasining huquqbuzarga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi sanksiya deylidi.

*Sanksiya* — huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qo'llaydigan majburlov chorasi. Sanksiyaning turlari hayfsan, jarima, ozodlikdan mahrum etish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Huquq normalarining mazkur tarkibiy qismlari barcha huquq normalarida ham mayjud emas. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida odatda hech qanday shartlarsiz amal qiladigan va majburlov choralarini nazarda tutilmagan qoidalari bayon etiladi. Fuqarolik huquqining ko'pchilik qoidalari sanksiyanı ajratib ko'rsatish mumkin emas. Jinoyat huquqi normalari dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan. Lekin ularda normaning matnida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan gipotezalar yo'q.

Shunday qilib, huquq normasi quyidagilarni belgilab beradi:

- kim, nimani va qachon qilishi kerakligini (gipoteza);
- huquqiy normaning ma'no-mazmunini (dispozitsiya);
- huquq normasi bajarilmasligining oqibatlari qandayligini (sanksiya).

Ta'kidlash kerakki, barcha huquq normalari ham uchala tarkibiy qismga ega emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari faqat gipoteza va dispozitsiyaga ega. Sanksiyalar esa Konstitutsiya normalarini aniqlashtiruvchi qonunlar, kodekslar va shu kabilarda ifodalangan.

**Huquqiy normalarning turlari.** Huquqiy normalarni ular mazmunidagi qoidalarning xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi, taqiqlovechi, imperativ (buyruq beruvchi) va dispozitiv (to'ldiruvchi).

*Vakolat beruvchi normalar* — ruxsat mazmunidagi normalar bo'lib, nimalarni qilish mumkinligini belgilaydi.

*Majburiyat yuklovchi normalar* — nimalarni qilish zarurligini belgilovchi normalar.

*Taqiqlovechi normalar* — nima qilish mumkin emasligini belgilovchi normalar.

Imperativ (buyruq beruvchi) normalarda qoida qat'iy talab shaklida aks ettirilib, undan biron-bir tarzda chetga chiqish mumkin emas (masalan, soliq qonunchiligi normalari).

Dispozitiv (to'ldiruvchi) normalar munosabat qatnashchilariga masalani mustaqil tarzda tartibga solish va tegishli xulq-atvor variantini tanlash imkonini beradi. Basharti, bunday imkoniyatdan foydalanilmasa, norma munosabat ishtirokechilarining shartlashuvini to'ldiradi (masalan, iqtisodiy faoliyat ishtirokechilarining shartnomaviy aloqalarini tartibga soluvchi normalar). O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qator moddalarida dispozitiv normalar bo'lib, ularda, odatda: «agar shartnomada boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa» degan izoh mayjud.

Bajarilishi shart bo'lgan yoki, aksincha, man etilgan xulq-atvor qoidalarni bayon qilishning to'laligi bo'yicha dispozitsiyalar oddiy, tavsiflovchi, blanket va havola etuvchi dispozitsiyalarga bo'linadi. Oddiy dispozitsiyada qilmish tavsillab berilmaydi, balki barchaga ma'lum termin (masalan, «qasddan odam o'ldirish» termini — JKning 97-moddasi) yordamida ta'riflanadi. Tavsiflovchi dispozitsiya huquqbazarlik belgilarining to'liq bayonini o'z ichiga oladi. Masalan, o'g'rilik o'zgalar mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishdir (JKning 169-moddasi).

Blanket dispozitsiya huquqbazarlikning belgilarini aniqlash uchun huquqning boshqa sohalari normalarida belgilangan maxsus qoidalarga havola qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (JKning 257-moddasi). Bu qoidalarning mazmuni Jinoyat kodeksida emas, balki JKning moddalarini qo'llashda murojaat qilish zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlarda ochib beriladi. Havola etuvchi dispozitsiya deganda, huquqbazarlik belgilariga ega bo'lмаган, balki o'sha qonunning boshqa normasiga yoki boshqa huquqiy hujjatga havola etuvchi dispozitsiya tushuniladi.

Aniqlik darajasi bo'yicha sanksiyalarni mutlaq aniq, nisbiy aniq va muqobil sanksiyalarga ajratish mumkin.

Mutlaq aniq sanksiya huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan jazoning hajmini aniq belgilaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksiga ko'ra, davlat organlari yoki mansabdar shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar to'laligicha qoplanishi shart.

Nisbiy aniq sanksiya huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan jazoning eng kam va eng ko'p chegarasini belgilaydi. Jinoyat

huquqida bunday sanksiyalar ko'p. Masalan, bosqinchilik jinoyati besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (JKning 164-moddasi).

Muqobil sanksiya sudga qonunda ko'rsatilgan bir necha jazodan birini tayinlash imkonini beradi. Masalan, firibgarlik, agar u og'i oqibatlarg'a olib kelmagan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi (JKning 168-moddasi).

Ko'pincha huquq normalari muqobil va nisbiy aniq sanksiyalarning belgilarini o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni bir necha jazo turlarini nazarda tutadi. Bunda ularning har biri uchun eng ko'p va eng kam chegara belgilanadi.

## ***9-§. Axloq va huquq***

Axloq — kishining jamiyatdagi xulqini normativ tartibga soluvchi usullardan biri. U ijtimoiy hayotning barcha sohalari — mehnat, maishiy turmush, oila, siyosat, xalqaro munosabatlар va shu kabilarga aloqador. Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri, shu bois butun ijtimoiy ong singari uning ham tuzilishi bir xil emas. Jamiyat aksariyat qismining asrlar davomida shakllangan axloqiy tushunchalari alohida ijtimoiy guruhlarning, boz ustiga alohida individlarning axloqiga mos tushmasligi mumkin. Lekin, har holda, jamiyatdagi hukmron axloq jamiyat a'zolari ko'pchiligining xulq-atvorini belgilab beradi. Axloqning alohida xususiyati shundan iboratki, axloq normalariga amal qilish jamoatchilik fikri orqali ta'minlanadi.

Jamiyatdagi yozilmagan xulq-atvor qoidalarining majmuidan iborat bo'lgan axloqdan farqli ravishda huquq — ma'lum yuridik shakllar, ya'ni manbalarda, jumladan qonun, farmon, qaror va huquqda namoyon bo'lувчи ijtimoiy xulq-atvor qoidalarining qat'iy ifodalangani tizimi. Huquq normalari asosan, yozma shaklda bo'ladi.

Axloqdan farqli ravishda, huquq qoidalari umummajburiy xususiyatga ega. Ularni bajarish davlatning majburlash kuchi orqali ta'minlanadi. Shu kabi ba'zi farqlarga qaramay, axloq va huquq bir qancha umumiyl xususiyatlarga ega.

Axloq ham, huquq ham, umuman olganda, butun jamiyatning, demakki, aholi aksariyat qismining qarashlari va tushunchalarini aks ettirishi kerak. Ularning ijtimoiy hayotning aynan bir xil

sohalarini qamrab olishini hisobga olganda, ular o'rtaida ziddiyatlar bo'lmashligi kerak. Agar bunday ziddiyat paydo bo'lsa, u huquqiy normalarni o'zgartirish orqali, ya'ni axloq foydasiga hal qilinishi zarur.

Axloq va huquq o'rtaida asosiy farq quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- huquq normalari davlat tomonidan belgilangan va ruxsat etilgan bo'ladi;

- axloq normalari (ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik kabilar) esa davlatning yordamisiz o'z-o'zidan shakllanadi;

- huquq normalarida davlat irodasi, axloq normalarida esa jamoatchilik fikri ifodalanadi;

- huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoatchilik fikri orqali amalga oshiriladi;

- axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do'stlik, o'rtoqlik va hatto sevgini ham) tartibga soladi. Huquq esa ijtimoiy munosabatlarning torroq doirasini qamrab oлади;

- huquqda xulq-avtori baholash mezoni «qonuniy-noqonuniy», axloqda esa «yaxshi-yomon»dan iborat; huquq normalari aniq ko'rinishga ega. Hatto, ba'zan biror tinish belgisining qayerda qo'yilganligi ham inson taqdirini hal qilishi mumkin. Rus tilida mashhur bir ibora bor: «Помиловать, нельзя казнить» («Afv etilsin, qatl etish mumkin emas»). Bunda odamning hayoti saqlab qolinishi kerak. Agar vergul «нельзя» (mumkin emas) so'zidan keyin qo'yilsa, u holda o'sha odam qatl etilishi kerak bo'ladi: «Помиловать нельзя, казнить» (Bunda buyruq «afv etish mumkin emas, qatl etilsin» ma'nosiga ega bo'ladi).

Huquq va axloq ko'pincha bir yo'nalishda harakat qiladi. Ba'zan huquq jamiyatning eskirgan axloq normalaridan xalos bo'lishiga ko'maklashadi (masalan, xun olish). Shu bilan birga, huquq axloq («ezgulik» va «adolat» tushunchalari) asosida shakllanadi. Ko'pincha, sud «sha'n va qadr-qimmatni haqoratlash», «qo'pollik» va boshqa shu kabi tushunchalarni to'g'ri tushunish maqsadida axloq qoidalariiga murojaat qiladi.

*Huquq tizimi.* Huquq — ichki yaxlitligi va o'zaro muvofigligi bilan ajralib turadigan muayyan tizim. Lekin, boshqa tizimlar kabi, huquq ham huquq tarmoqlaridan iborat kichik tizimlarga bo'linadi.

Davlatning yuridik normalari yig'indisi uning huquqini tashkil etadi. Huquqiy normalar turli-tuman bo'lib, ular o'zaro mustahkam bog'langan, muvofiglashgan va yaxlit huquq tizimini tashkil etadi.

Huquq tizimi turli-tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan yuridik normalar yig'indisidir.

Huquq tizimi katta tarkibiy qismlar bo'lmish huquq tarmoqlariga bo'linadi. Davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi tarmoqlarga bo'lishning asosini tashkil etadi. Aynan shu munosabatlar huquqiy boshqaruvning predmetini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarning har bir ma'lum turi (oila, mehnat munosabatlari va hk.) tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Bu normalar huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra (ya'ni ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turiga ko'ra) huquq tarmoqlariga bo'lingan.

Huquq tarmog'i jamiyat hayotining ma'lum sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvechi o'zaro bog'liq yuridik normalar yig'indisidir.

Har bir tarmoqning huquqiy tartibga solish predmeti o'z xususiyatlariga ega. Bu esa ushbu munosabatlardagi huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatini belgilaydi. Huquqiy tartibga solish usuli, huquq tizimini tarmoqlarga bo'lishning qo'shimcha asosidir.

Huquqiy tartibga solish usuli huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishiga yordamlashadigan yo'llari, usullari, vositalarining yig'indisidir. Masalan, fuqarovi-y-huquqiy usulda mulkiy munosabatlarning ishtirokehilari mustaqil va bir-biriga qaram emasligi, ular o'z xohishlariga ko'ra o'z mulklaridan foydalananish huquqiga ega ekanligi nazarda tutiladi. Fuqarolik muomalasi ish-tirokhilari o'rta-sidagi munosabatlar tomonidan ishlab chiqqan shartlar hamda ularning huquq va majburiyatlar erkin ravishda belgilab qo'yilgan shartnomaga asosida yuzaga keladi. Fuqarovi-y-huquqiy munosabatlarning subyektlari o'rta-sidagi nizolar sud tomonidan hal etiladi. Davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning tartibga solishning bir usulini talab qiladi. Bu yerda tomonlar bir xil huquqqa ega emas, ulardan biri ikkinchisiga bo'ysunadi. Tomonlardan biri boshqasiga nisbatan hukmron mavqega ega bo'ladi.

Shunday qilib, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning (huquqning aynan shu tarmog'i davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi) asosiy usuli hokimiyatni boshqarish usuli bo'lib, unda davlat organlaridan biri ikkinchisiga bo'ysunadi.

Huquqiy tartibga solish predmeti --- ushbu huquq tarmog'inining normalari ta'sir o'tkazadigan munosabatlar, huquqiy tartibga solish usuli esa --- ushbu ta'sir o'tkaziladigan vosita.

O'zbekiston huquq tizimi huquqning quyidagi asosiy tarmoqlarini o'z ichiga oladi:

- konstitutsiyaviy huquq; ma'muriy huquq; fuqarolik huquqi;
- jinoyat huquqi; yer huquqi; agrar huquq; mehnat huquqi; ijtimoiy ta'minot huquqi; ekologik huquq; moliyaviy huquq; fuqarolik-protsessual huquq;

- jinoyat-protsessual huquq; xo'jalik-protsessual huquq.

Konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik va jinoyat huquqi asosiy huquq tarmoqlari deb hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilganlarning dastlabki o'ntasi moddiy huquq tarmog'i bo'lsa, keyingi uchtasi protsessual huquq tarmog'idir.

Huquq tizimida ikkita huquqiy makonni ajratib ko'rsatish mumkin: ommaviy huquq va xususiy huquq. Ommaviy huquq davlat bilan fuqarolar o'rta-sidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu hokimiyat va bo'ysunish munosabatlaridir. Ommaviy huquq doirasiga konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual, soliq huquqi sohalari kiradi.

Xususiy huquq o'zaro majburiyatlar asosida huquqlarga ega bo'luvchi subyektlar o'rta-sidagi munosabatlarni tartibga soladi, bu yerda munosabat ishtirokhilari tengdirlar. Xususiy huquq doirasiga fuqarolik, mehnat va oila huquqi sohalari kiradi. Huquqning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishi Qadimgi Rim huquqi davridan buyon mavjud bo'lib, bunga qariyb ikki ming yilcha bo'lgan.

Konstitutsiyaviy huquq konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, mamlakatning davlat tuzilishini, Prezident, Oliy Majlis, hukumat, sud tizimi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini mustah-kamlab qo'yadi.

Ma'muriy huquq davlat boshqaruvi, ijroiya hokimiyat sohasi (hukumat faoliyati, ijroiya hokimiyatning boshqa organlari)da yuzaga keladigan munosabatlarning tartibga soladi. Fuqarolik huquqi mulkiy va u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlar (ismga ega bo'lish huquqi, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish, mualliflik huquqi va hk.)ni tartibga soluvchi huquq sohasidir.

Jinoyat huquqi yordamida davlat qanday ijtimoiy xavfli qilmishlarning jinoiy ekanligini va ularni sodir etganlik uchun qanday jazolar tayinlanishi mumkinligini belgilab beruvchi normalarni o'z ichiga oladi. Bu normalar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jamlangan.

Yer huquqi yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Agrar huquq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tarmoqdir.

Mehnat huquqi -- mehnat munosabatlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va to'xtatilishi shartlarini belgilovchi, ish kuni va dam olishning davomiyligini, mehnat intizomi, o'smirlar, ayollarni muhofaza qilish kabilarni belgilovchi huquqiy normalarning yig'indisi.

Fuqarolik-protsessual huquq normalari sudsarning fuqarolik, oilaviy, mehnat, yer bilan bog'liq va moliyaviy munosabatlar kabi bir qator munosabatlar sohasidagi faoliyatini tartibga soladi.

Fuqarolik-protsessual huquqqa ishlarning xo'jalik sudsleri tomonidan ko'rib chiqilishi tartibini boshqaradigan xo'jalik-protsessual huquqi yaqin turadi.

Jinoyat-protsessual huquq sudlov, tergov, prokuratura organlarining jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rib chiqish faoliyatini tartibga soladi.

Huquq instituti huquq tarmog'i tarkibidagi ma'lum munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar yig'indisidir. Huquq tarmog'i huquq institutlaridan tashkil topgan. Masalan, konstitutsiyaviy huquq inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklari, prezidentlik, hukumat kabi institutlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik huquqi esa mulk huquqi, majburiyat huquqi, mualliflik huquqi, meros huquqi kabi institutlarni qamrab oladi.

Davlatning ichki (milliy) huquq tizimidan tashqari, xalqaro huquq tizimi ham mavjud. Uning prinsipi - i va normalari davlatlar, xalqaro tashkilotlar va usabu huquqning boshqa subyektlari o'rasisidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro huquq tizimi bir necha tarmoqlardan tashkil topgan bo'lib, misol tariqsida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi, diplomatiya va konsullik huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar.

O'z navbatida, xalqaro huquq tarmoqlari institutlardan tashkil topgan. Masalan, xalqaro dengiz huquqi hududiy havzalar, ochiq dengiz, quruqlik yerlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

## 10-§. *Huquq manbalari*

Xulq-atvor qoidasi huquqiy normaga aylanishi uchun ma'lum yuridik shakl olishi kerak. Bunday o'zgarish davlatning huquq ijodkorligi faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Natijada qonun chiqaruvchi organning irodasi bajarilishi majburiy bo'lgan muayyan huquqiy hujjatda o'z ifodasini topadi. Huquq manbai deganda, uni obyektiv ifodalash usullari aushuniladi. Huquq manbalarini quyidagi asosiy turlarga bo'lish qabul qilingan:

- huquqiy odat;
- yuridik pretsedent;
- normativ-huquqiy hujjat;
- xalqaro-huquqiy normalar;
- diniy normalar.

*Huquqiy odat* deb doimiy takrorlanishi natijasida barqaror xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan xulq-atvor qoidasiga aytildi.

Odat insoniyat jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquq manbai bo'lgan. Odat asta-sekin normativ hujjat bilan siqib chiqarilgan va almashtirilgan. Shundan keyin u huquqning yuridik manbai bo'lmay qolgan.

Hozirgi vaqtida odatning ahamiyati katta emas. U faqat qonun yeterli bo'lmagan yoki qonunning o'zi odatga havola qiladigan hollardagina saqlanib qolmoqda.

*Yuridik pretsedent* -- huquqning shunday manbaiki, bunda muayyan ish bo'yicha chiqarilgan sud qarori kelgusida shunday ishlarni hal etishda qoidaga aylanishi mumkin.

Yuridik pretsedent ish bo'yicha sud yoki ma'muriy organning qaroriga muayyan normativ (umummajburiy) kuch berishni bildiradi. Bunday qaror kelgusida shun-day ishlarni ko'rib chiqishda majburiy bo'ladi va shu bilan huquqiy tus oladi.

Huquqiy odat va yuridik pretsedent bir qator xorijiy mamlakatlarning huquq tizimida katta ahamiyatga ega, lekin O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida qo'llanilmaydi.

Sud pretsedenti Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstriyada huquq manbai hisoblanadi. Bu mamlakatlarning hammasida sud hisobotlari chop etiladi. Ulardan pretsedentlar haqida ma'lumot olish mumkin. Albatta, bu mamlakatlarning har birida sud pretsedenti turlicha qo'llaniladi. Pretsedentni huquq manbai sifatida tan olish, qonun bo'lmagan yoki bo'lgan sharoitlarda ham sudga qonun ijodkorligi vazifasini bajarish imkonini beradi.

*Normativ-huquqiy hujjat* -- vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan yuridik hujjati bo'lib, umummajburiy xulq-atvor qoidalalarini o'z ichiga oladi. Barcha normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagi belgilar xosdir:

- ular huquqiy normalarni belgilab beradilar, o'zgartiradilar yoki bekor qiladilar;

- ularda belgilangan qoidalarning mazmuni bayon etiladi;

- belgilangan normalarga umummajburiy tus beradi yoki ilgari belgilangan normalarning amalda bo'lishini bekor qiladi.

Normativ shartnomalar — huquq manbaining alohida turi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Normativ shartnomalarda bir qancha subyektlarning irodasi mujassamlanadi, masalan, xalqaro, jamoaviy va boshqa shartnomalarning subyektlari.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari davlatning qaysi organlari tomonidan qabul qilinganligiga hamda ularning yuridik kuchi katta yoki kichikligiga qarab farqlanadi. Ushbu belgilarga asosan, normativ-huquqiy hujjatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

Qonun — umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali yoki mamlakatning oliy vakillik organi (parlament) qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjat. Qonunlar orasida Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni — alohida mavqega ega bo'lib, oliy yuridik kuchga egadir. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlarni faqat parlament qabul qilishi mumkin, chunki ularda konstitutsiyaviy tuzum asoslari, insonlar va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish tartib-qoidalari belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyaviy qonunlar alohida tartibda qabul qilinadi.

Davlat boshlig'ining normativ hujjatlari. Xususan, bizning mamlakatimizda bu farmon — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga asosan, Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjat. Ushbu hujjat Konstitutsiya va qonunlarga hamda O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga zid kelmasligi kerak.

Hukumatning qarorlari va farmoyishlari ijro etuvchi hokimiyat organining o'z vakolati doirasida chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlaridir. Ushbu hujjatlar Konstitutsiya asosida qabul qilinib, O'zbekiston qonunlari va Prezidentning normativ farmonlarini amalga oshirishga qaratilgan. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining buyruq va yo'riqnomalari davlat boshqaruvi organlarining normativ-huquqiy hujjatlaridir. Ular konstitutsiya asosida qabul qilinib, qonunlar, Prezidentning farmonlari hamda hukumat qarorlarini bajarishga qaratilgan.

*Davlat hokimiyyati mahalliy ijroiya organlarining qarorlari.*

Normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi shuni talab qiladiki, davlat hokimiyatning quyi vakillik organlari qabul qilgan normativ-

huquqiy hujjatlar yuqori turuvchi organlarning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq kelishi kerak. Davlat hokimiyyati ijroiya organlarning normativ-huquqiy hujjatlari esa vakillik organlari hamda yuqori turuvchi ijroiya organlarning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq kelishi zarur.

O'zbekistonda huquq manbalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari; qonunlar;

- qonunosti hujjatlari. Xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalari — xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo'lib, ularni xalqaro huquqning barcha subyektlari tan olgan va shu bois bajarmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Ular ichida davlat suverenitetini hurmat qilish, zo'rlik ishlataslik yoki zo'rlik ishlatalish bilan tahdid qilmaslik, davlatning hududiy yaxlitligi, chegaralarining buzilmasligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqlarning teng huquqligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, insonning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarini vijdonan bajarish kabilari bo'lishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar — xalqaro huquqning ikki yoki bir necha subyekti qabul qilgan bitim bo'lib, huquq va majburiyatlarini belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatdir. O'zbekiston Respublikasi siyosi, iqtisodiy, huquqiy va maxsus masalalar bo'yicha bir necha ming shartnomalar tuzgan. 1995-yilda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonun» qabul qilingan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro shartnomalarning qoidalari O'zbekiston qonunlariga nisbatan ustunlikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: Asosiy qonun — Konstitutsiya; konstitutsiyaviy qonun; Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiysi va qonunlari. Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi asosiy o'rinn tutadi. Ushbu hujjat davlat hokimiyatining tashkil etilishini belgilaydi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklari mustahkamlaydi. Konstitutsiya amalidagi qonunlar uchun yuridik asosdir. Konstitutsiya qoidalari boshqa normativ hujjatlarda rivojlantiriladi va aniqlashtiriladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibida o'z konstitutsiyasiga ega bo'lib, uning qoidalari O'zbekiston Konstitutsiyasiga zid kelishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy qonunlar Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kirituvchi qonunlardir. Ushbu hujjat uchun Oliy Majlisda oddiy qonunlarga nisbatan ularni qabul qilishning murakkabroq tartib-qoidalari belgilangan.

Qonunlar, o'z navbatida, kodekslashtirilgan va joriy qonunlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan qonunlarga kodekslar kiradi. Kodeks

mantiqiy tizimlashtirish xususiyatiga ega qonun bo'lib, o'zida ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini batatsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi. Masalan, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va hk.

Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari qonun chiqaruvchi (vakillik) organ tomonidan qabul qilinadi va bunday qonunlar Qoraqalpog'iston hududida ijro etilishi shart.

Qonunning vaqt bo'yicha amal qilishiga e'tibor qaratish lozim.

Qonunlar quyidagi hollarda kuchga kiradi:

- rasman e'lon qilinganidan o'n kun o'tgach;
- qonunda yoki uni amalga kiritish to'g'risida maxsus hujjatda ko'rsatilgan vaqtidan boshlab.

Qonunlar quyidagi hollarda o'z kuchini yo'qotadi:

- qonunning o'zida ko'rsatilgan muddat tugagan bo'lsa;
- ushbu qonun bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan). Qonun zamonda amal qiladi. Buning ma'nosи shuki, qonun orqaga qaytish kuchiga ega.

Umumiy qoidaga ko'ra, qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega emas. O'zbekistonda jinoyat yoki ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega.

Qonun makonda amal qiladi. Gap shundaki, qonunlar mamlakatning barcha hududlarida amal qiladi. Davlat hududiga uning suvereniteti ostida bo'lgan hudud kiradi. Ushbu hududga quruqlik, ichki suvlari va hududiy dengiz havzalari, ushbu hududlar ustidagi havo bo'shlig'i va davlat chegarasi doirasidagi yerosti boyliklari kiradi.

Qoraqalpog'iston qonunlari uning hududidagina amal qiladi.

Qonun shaxslarga nisbatan amal qiladi.

Odatda qonunlar ushbu hududdagi barcha subyektlar, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Huquq normalari talablarining O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijliklar va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar uchun

majburiyligi huquqning umumiyligi hisoblanadi. Lekin istisnolar ham mavjud. Masalan, «Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunning talablari faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir. «Referendum to'g'risida»gi qonunga binoan referendumda faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari qatnashishi mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi qonunlar va O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq, diplomatik daxlsizlik huquqidan foydalananuvchi xorijiy fuqarolar ham bundan mustasno. Elchilar huquqburzaliklar sodir etgan hollarda, ularga nisbatan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks amal qilmaydi.

Qonun osti hujjatlari qonunlar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

*Prezident farmonlari;*

*- hukumat qarorlari;*

*- boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;*

*- joylardagi ijroiya organlarning normativ hujjatlari.*

Ushbu qonun osti hujjatlari tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari alohida o'rinni tutadi, chunki ularni davlat boshlig'i chiqaradi. Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Prezident farmonlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelishi mumkin emas.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo'jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiyligi xususiyatga va huquq normalariga ega bo'lib, huquq manbalari hisoblanadi.

Ayrim hollarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining hujjatlari ushbu organlar tizimidan tashqarida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bunday vakolatlar Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank va boshqa tashkilotlarda, ayniqsa, kattadir.

O'zbekistonda vazirliklar hamda tashkilotlarning fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni qayd etish davlat tizimi joriy etilgan. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

## **11-§. Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi**

Huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy munosabatlar xususiyatiga ega bo'ladi. ularning vujudga kelishi uchun yuridik fakt-hodisa (masalan, insonning

tug'ilishi yoki o'lishi, yong'in) yoki harakat (masalan, huquqbuzarlik) mavjud bo'lishi lozim.

Huquqiy munosabatlardan deganda, uning ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan va huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun uchta omil bo'lishi zarur: huquq normalari; subyektiv huquq va majburiyatlar; yuridik fakt. Faqat birgalikdagina ular huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Huquqiy munosabat — uning ishtirokchilari o'rtasidagi haqiqiy yuridik aloqalar bo'lib, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida namoyon bo'ladi.

Huquqiy munosabat, tuzilishiga ko'ra, obyekt, subyekt va mazmun kabi elementlardan iborat.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining harakati nimaga qaratilgan bo'lsa, shu narsa ushbu huquqiy munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Masalan, xaridor sotib olayotgan molini olish huquqiga ega, lekin xarid uchun pul to'lashga majbur. Sotuvchi esa ushbu mol uchun haq olish huquqiga va xaridorga oldi-sotdi talablariga mos keladigan tovorni berish majburiyatiga ega. Sotilayotgan va sotib olinayotgan mol-mulk huquqiy munosabatning obyekti hisoblanadi. Huquq va majburiyatning uzviy aloqadorligi juda ko'p huquqiy munosabatlarni uchun xosdir.

Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya'ni huquq va majburiyat egalari ushbu huquqiy munosabatlarning subyektlari hisoblanadi. Chunonchi, quyidagilar subyektlari bo'lishi mumkin: o'zaro munosabatga kirishgan fuqarolar; davlat organlari va munosabatga kirishgan fuqarolar;

- tashkilotlar va munosabatga kirishgan fuqarolar; o'zaro munosabatga kirishgan tashkilotlar; davlat organlari va munosabatga kirishgan tashkilotlar. Huquqiy munosabat subyektlari, avvalambor, jismoniy va yuridik shaxslardir.

*Jismoniy shaxslar* — ushbu davlat fuqarolari, boshqa davlat fuqarolari (ajnabiylar) va fuqaroligi yo'q shaxslar (apatriidlar).

*Yuridik shaxslar* — tashkilotlar, muassasalar, davlat organlari, davlat, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

Huquqiy munosabatlarning mazmunini subyektlarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bo'yicha real harakatlari tashkil etadi. Masalan, oldi-sotdi bo'yicha huquqiy munosabat mazmunini sotuvchining xaridorga narsani haqiqatan berishi va buning uchun xaridorning sotuvchiga haq to'lashi tashkil etadi. Ushbu huquqiy munosabatlarni mazmuniga o'zaro da'volar qilish va ularni qondirish

yuzasidan amalga oshirilgan harakatlarni (masalan, buyumning sifati, o'lchami va to'lov muddati bo'yicha da'volar) ham kiradi. Shunday qilib, huquqiy munosabatlarni subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning yuridik shakli bo'lib, uning yordamida davlat qonun ta'lablariga binoan ijtimoiy munosabat ishtirokchilari xulq-atvorini me'yorlab beradi.

Huquqiy munosabatlarda ishtirok etish uchun subyektlar qator yuridik xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Gap, birinchi navbatda, huquqiy layoqat va muomala layoqati to'g'risida bormoqda. Huquq layoqati huquqlarga ega bo'la olish va yuridik majburiyatlarini zimmaga olish qobiliyatidir. Muomala layoqati esa o'z harakatlari asosida huquqlarni amalga oshirish va yuridik majburiyatlarini bajarish qobiliyatidir.

Yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan huquqiy layoqat va muomala layoqati bir vaqtida vujudga keladi hamda ushbu shaxslar o'z faoliyatini boshlagan paytdan boshlab paydo bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning huquqiy layoqati inson tug'ilganda boshlanib, uning vafotidan so'ng to'xtaydi. Muomala layoqati esa yosh va ruhiy salomatlik bilan bog'liq. O'zbekiston qonunlariga binoan, to'liq muomala layoqati fuqaro 18 yoshga to'lganidan so'ng boshlanadi. Lekin ushbu qoidadan istisnolar ham mavjud. Masalan, shaxs jinoiy javobgarlikka 16 yoshdan, ayrim jinoyatlar uchun 14 yoshdan tortilishi mumkin. Boshqa bir misol: oila kodeksi ayrim hollarda 18 yoshga to'limasdan turib nikohdan o'tishga ruxsat beradi. Bunday fuqaro nikohdan o'tgan vaqtidan boshlab to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Har bir inson huquqiy munosabatlarga o'zining qandaydir siyosiy, moddiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlarini amalda qondirish uchun kirishadi. Ushbu maqsadga subyektiv huquq va majburiyatlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan yuridik harakatlarni yordamida erishiladi. Bularning hammasi jismoniy yoki yuridik shaxs kutgan muayyan natijalarga olib keladi.

Yuridik faktlar — o'ziga xos hayotiy holatlari bo'lib, qonun va huquqiy normalari ularni yuridik oqibatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi bilan bog'laydi.

Har bir yurist amaliy faoliyatining bosh vazifalaridan biri yuridik faktlarni aniqlash yoki tasdiqlashdir. Busiz qonunlarni to'g'ri qo'llash, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish, nizolarni hal etish, qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish mumkin emas.

Yuridik faktlarni, insonlarning xohish-irodasiga ko'ra, hodisalar va harakatlarga bo'lish mumkin.

Hodisalar insonning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmasan holda vujudga keladi. Masalan, tabiiy ofatlar, bolaning tug'ilishi, uning muayyan yoshga yetishi, insonning vafot etishi, muddatning o'tishi va hk. Aytaylik, insonning vafot etishi merosning ochilishini vujudga keltiradi hamda huquqiy layoqatni tugatadi. Mol-mulkning nobud bo'lishiga olib keladigan, yong'in, suv toshqini — mol-mulk sug'urta qilingan bo'lsa — sug'urta pulini to'lash uchun asos bo'ladi. Harakatlar insonning xohish-irodasi asosida vujudga keladigan yuridik hujjatlardir. Ular huquqiy normalarga amal qilish munosabatiga ko'ra, huquqiy va huquqqa zid harakatlarga bo'linadi.

Amaldagi qonunchilik normalari asosida vujudga keladigan hamda shu normalar bilan tartibga solinadigan harakatlar huquqiy, huquqqa muvofiq harakatlar deb ataladi.

Huquqqa zid harakatlar — qonun yoki huquqiy normaga zid bo'lgan harakatdir. Ular huquqqa xilof xatti-harakat deb ham ataladi. Ba'zi hollarda qonun harakatsizlikni ham huquqqa zid xatti-harakat sifatida e'tirof etadi. Masalan, bir kema kapitanining halokatga uchragan boshqa kemaga yordam bermasligi yoki yordamga muhtoj odamni uning hayotiga real xavf tug'ilgan paytda yordamsiz qoldirish kabi harakatsizlik hollari huquq normasiga zid bo'lgan qilmishlar hisoblanadi.

## 12-§. Huquqbazarlik va yuridik javobgarlik

Huquqbazarlik deganda, jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug'dirishi mumkin.

Huquqbazarlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ijtimoiy xavflilik; huquqqa ziddik; ayblilik; jazolanish. *Ijtimoiy xavflilik* shundan iboratki, bunda huquqbazarlik jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi, xususiy va ijtimoiy manfaatlarni poymol etadi. Huquqbazarlikning zararligi yoki xavfliliqi shundan iboratki, u jamiyat hayotining maromiga salbiy ta'sir etadi.

*Huquqqa ziddik* — huquqbazarlikning ikkinchi belgisi. Bu o'rinda gap qilmish oqibatida qonunning, muayyan huquqiy normanining buzilishi to'g'risida bormoqda. Boshqacha aytganda, huquqbazar qonunda yoki huquq normasida belgilab qo'yilgan taqiqni buzadi.

Agar bunday taqiq bo'lmasa, huquqbazarlik ham bo'lmaydi. Qonun kengaytirilgan holda yoki analogiya bo'yicha talqin etilishi mumkin emas.

*Aybilik* — huquqbazarlikning uchinchi belgisi. Huquq normasini yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan shaxs buzadi va shaxs bu harakatni qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etadi.

*Ayb* — shaxsnинг o'zi sodir etgan huquqqa xilof harakatiga va uning zararli oqibatlariga ruhiy munosabati. Qariyb har doim inson oldida huquqqa mos yoki huquqqa zid tarzda harakat qilishni tanlash imkon bo'ladi. Agar u ikkinchi yo'lni tanlasa, huquqqa xilof qilmishni aybli tarzda sodir etgan, deb hisoblanadi.

Balog'at yoshiga yetmaganlar yoki aqli noraso deb topilgan shaxslar sodir etgan qilmish (huquqqa zid bo'lsa ham) huquqbazarlik bo'lmaydi. Baxtsiz hodisa, tasodif natijasida, biron kimsaga aybsiz zarar yetkazish hodasisi ham huquqbazarlik emas.

*Huquqbazarlikning to'rtinchи belgisi* — jazolanish. Bu ma'lum huquqbazarlik uchun uni sodir etgan shaxsnинг vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishini bildiradi. Bu javobgarlik huquqiy normanining sanksiyasida ifodalananadi.

Ba'zi hollarda shaxs qonunga binoan javobgarlikdan ozod etilishi ham mumkin. Lekin buni ham vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Huquqbazarliklar qonunchilikning qaysi sohasiga tegishliliga qarab, bir qancha turlarga bo'linadi. Huquqbazarlikning quyidagi turlarini keltirish mumkin:

- fuqarolik-huquqiy (majburiyatni bajarmaslik, moddiy zarar yetkazish);

- ma'muriy (mayda bezorilik, yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzish va hk.); intizomiy (ishga kelmaslik, kech qolish);

- jinoiy, ya'ni jinoyatlar (odam o'ldirish, o'g'rilik, militsiya xodimiga qarshilik ko'rsatish va boshqalar). Huquqbazarlikning turiga qarab davlat majburlov chorralari ham o'zgarib turadi. Ularning eng og'irlari jinoyat sodir etilganda qo'llaniladi.

Yuridik javobgarlik, ijtimoiy javobgarlikning boshqa shakllaridan farqli ravishda, doimo huquq normalariga asoslanadi va davlat majburlov normalari bilan bog'liq bo'ladi. Yuridik javobgarlik — huquqbuzarning huquq normalariga asoslangan va huquqbazarlik faktidan kelib chiqadigan qilmishi uchun javob berish va davlat majburlov chorralari shaklidagi noxush oqibatlariga chidash majburiyati hamda shunday oqibatlarga haqiqatan duchor bo'lishidir.

Yuridik javobgarlik belgilari quyidagilardan iborat:

- davlat majburlov choralar bilan uzvyi aloqadorlik;
- faktik asos — huquqbazarlik;
- yuridik asos — yuridik javobgarlikning huquqiy tartibga solinganligi;

- davlat qoralovi bilan bog'liqlik;

- huquqbazar huquqlarini cheklash bilan bog'liq salbiy oqibatlar;
  - huquqbazarlikni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash; huquqiy prinsiplarga asoslanganlik (qonuniylik, individuallashtirish, tabaqalashganlik va boshqalar).
- Yuridik javobgarlikning asosi huquqbazarlik, ya'ni huquq normalarini buzuvchi muayyan harakat yoki harakatsizlikdir.

Huquqbazarlikning har xil turlari turli xil yuridik javobgarlikka olib keladi. Masalan, fuqarolik huquqbazarligi (majburiyatni bajarmaslik) — fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka (zararni qoplash, neustoykani to'latishga), ma'muriy huquqbazarlik (yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzganlik) — ma'muriy javobgarlikka (jarima, transport vositasini boshqarish huquqidан mahrum etishga) olib keladi. Jinoiy huquqbazarlik, ya'ni jinoyat esa jinoiy javobgarlikka olib keladi (unga nisbatan ozodlikdan mahrum etishgacha bo'lgan jazo qo'llanishi mumkin).

Yuridik javobgarlik ikki asosiy shaklda — sud tartibida va ma'muriy tartibda amalga oshiriladi. Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning sud tartibi huquqbuzarga nisbatan faqat vakolatlari davlat organi nomi bilan sud tomonidan jazo qo'llanilishini bildiradi. Ushbu sud tartibi fuqaroviy-huquqiy javobgarlik uchun xos, jinoiy javobgarlik uchun esa majburiydir.

Yuridik javobgarlikning ikki turi farqlanadi: jarima yoki jazo; huquqni tiklovchi javobgarlik. Jarima jazosi ma'muriy yoki intizomiy xato jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Javobgarlikning ushbu turiga xos xususiyat shundan iboratki, u faqat protsessual shaklda amalga oshiriladi hamda tegishli vakolatlarga ega davlat organlari va mansabdar shaxslarning hujjatlari bilan belgilanadi.

## *II MAVZU*

### **MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI**

#### *1-§. Ma'muriy huquq tushunchasi*

Ma'muriy huquq Konstitutsiyaviy, fuqarolik va jinoyat huquqlari bilan bir qatorda — huquqning asosiy tarmoqlariga kiradi.

«Ma'muriyat» so'zi lotincha «administratio» so'zidan olingan bo'lib, «boshqarish» ma'nosini bildiradi. Shu bois ma'muriy huquq ko'pincha boshqaruv huquqi yoki boshqarishga oid huquq deb ta'riflanadi.

Huquq tarmoqlari bir-biridan, avvalo, huquqiy boshqaruv predmeti va usuli bilan farq qiladi. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining mustaqil tarmog'i-sifatidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy xususiyati shundaki, u davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy huquqning maqsad va vazifalarni to'la anglab yetish uchun, avvalo, davlat boshqaruvining tarkibi haqida tushunchaga ega bo'lish lozim. Har qanday boshqaruv muayyan munosabatlarni tartibga solib turadi. Jamiyatdagi boshqaruv ijtimoiy boshqaruv deb ataladi. U insonlarni asosiy maqsad yo'lida jipslashtirish, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, butun jamiyatni jipslashtirish uchun qo'llanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy turlaridan biri davlat boshqaruvdir. U davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat boshqaruv organlari faoliyatining mazmuni istiqbolni belgilash, rejalashtirish, moliyaviy ta'minlash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hisobga olish va nazorat qilishdan iborat. Bu davlat boshqaruvining keng tarqalgan vazifalaridan biri bo'lib, barcha davlat organlari ularni o'z faoliyati davomida qo'llaydilar.

Masalan, prokuratura — nazorat organi. Respublika Bosh Prokurori nafaqat barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va fuqarolarning qonunlarga rioya qilishlarini, balki quyi bo'g'indagi prokurorlarning faoliyatini ham nazorat qilib turadi. Boshqaruv prokurorning asosiy vazifasi emas.

Davlat boshqaruvni quyidagi xususiyatlarga ega:

- tashkilotchilik faoliyatining mayjudligi;

- davlat-hokimiyat xususiyatiga ega ekanligi;
- boshqaruv faoliyatini amalgalashirish jarayonida davlatning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyat sohalaridagi funksiyalarini hajarilishi;
- vakolat boshqaruv subyektlari tomonidan amalgalashiriladi.

Shunday qilib, davlat boshqaruvi ijtimoiy hayotning eng muhim tarmoqlarini qamrab oladi, bu jarayonda xo'jalik tashkilotchilik, madaniy, ma'rifiy ishlar amalgalashiriladi, ma'muriy-siyosiy masalalar hal qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ma'muriy huquq sohasiga ushbu tarzda ta'rif bersa bo'ladi. Davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvni amalgalashirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga olgan huquqning alohida tarmog'i ma'muriy huquq deb ataladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunda ifodalangan ma'muriy huquq normalari hukumatning shakllanishi va tashkil etilishi tartibini, vakolatlari, qaysi tashkilotga hisobdor ekanligi va mas'uliyatini, davlatning boshqa organlari bilan o'zaro munosabatini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar asosan, quyidagilardan iborat:

- tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo'y sunadigan davlat organlari (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan vazirliliklar, qo'mitalar, hokimliklar*) o'rtasidagi munosabatlar;
- bir-biriga bo'y sunmaydigan davlat boshqaruv organlari (*ikki vazirlik, ikki hokimlik va hk.*) o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat boshqaruv organlari va ularga bo'y sunadigan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat boshqaruv organlari va jamoat birlashmalari (*kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va boshqalar*) o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat boshqaruv organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar.

Ma'muriy huquq predmeti — ijroiya hokimiyat faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig'inidisidir.

Mamlakatimizning tashkiliy qurilish vazifalarini hal qilishda ma'muriy huquqning ahamiyati katta.

Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga

qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalgalashiriladi. Ya'ni, aynan ma'muriy huquq normalari boshqaruv organlari, korxona, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, o'zgartirish yoki tugatish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq normalari shu bilan birga boshqariluvchi obyektlarning faoliyatini, uning davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro aloqalarini tartibga solib turadi. Ushbu normalar rejalah-tirish tartibini, moddiy resurslarni taqsimlashni, ish haqini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni ham tartibga soladi.

Ma'muriy huquq nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatini ham tartibga soladi. Misol uchun, yo'l harakati qoidalari, jamoat joyida yurish-turish qoidalari, ov qilish, savdo, sanitariya va yong'indan saqlash qoidalari va hk.

Shunday qilib, ma'muriy huquq normalari qanday qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) ma'muriy huquqbazarlik hisoblanishi, ma'muriy javobgarlik turlari va usulini, bunday huquqbazarliklarni ko'rib chiqish tartibini o'rnatadi.

Ma'muriy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan o'zaro aloqalari, munosabatlariga kelsak, shuni aytib o'tish joizki, ma'muriy huquq boshqa huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'liq. Xususan, oldingi mavzuda biz davlat (konstitutsiyaviy) huquqi sohasida fikr bildirgan edik. Agar mana shu huquq sohasi misolida ma'muriy huquqning boshqa huquq sohalari bilan o'zaro munosabatlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, aytib o'tish joizki, ma'muriy huquq davlat (konstitutsiyaviy) huquqi faniga juda yaqin turadi. Lekin shu bilan birga bu ikki fan o'rtasida o'zaro farqlar ham mavjud. Jumladan, davlat (konstitutsiyaviy) huquqida davlatning ijtimoiy tuzilishi va siyosatining asoslari, davlat bilan shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish, davlat organlari tizimining asoslari ifodalangan. Davlat huquqi fanining predmeti ma'muriy huquq fanining predmetiga nisbatan kengdir. Masalan, davlat huquqi barcha davlat organlari uchun umumiy bo'lgan tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tamoyillarini belgilab bersa, ma'muriy huquq normalari esa yuqoridagilarga asoslanib, davlat boshqaruvida ularni qo'llashni tartibga soladi. Davlat huquqi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini belgilab beradi. Ma'muriy huquq esa davlat huquqining ko'pgina normalarini yanada aniqlashtiradi, fuqarolarning huquqiy maqomini asosiy bo'lмаган boshqa huquq va majburiyatlar bajarilishining boshqaruv mexanizmini belgilab beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan

fuqarolar davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Ushbu jarayon davlat (konstitutsiyaviy) huquq nomalari bilan tartibga solinadi. Ma'muriy huquq esa mana shu shikoyatlarni qaysi organga tegishliligini, shikoyatni ko'rib chiqish muddati va tartibini hamda boshqa tomonlarini tartibga soladi.

## 2-8. Ma'muriy huquq manbalari

Ma'muriy huquq manbalari bo'lib, o'zida ma'muriy huquqiy normalarni ifoda etgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlarining (ayrim hollarda boshqa davlat organlarining) aktlari hisoblanadi. Bu normalalar qonularda, vakillik organlarining normativ hujjatlarida, Prezident farmonlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, vazirlik va davlat qo'mitalari, hokimlarning normativ aktlarida namoyon bo'ladi.

Boshqa huquq sohalari singari ma'muriy huquqning ham asosiy manbasi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Xususan, Konstitutsiyaga binoan davlat boshqaruvi organlari tizimiga rahbarlik qiluvchi organ bu — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidir. Konstitutsyaning 89-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir, deb belgilangan. Konstitutsyaning 98-moddasida esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomi o'z o'rnni egallagan. Konstitutsyaning XXI bobi esa mahalliy davlat hokimiyati asoslariga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi ham ma'muriy huquq manbalari tizimida alohida o'rinni egallaydi. Zero, unda ma'muriy huquqbazarlik tushunchasi, ma'muriy javobgarlik tushunchasi va turlari, ma'muriy normalarning harakat qilishi, ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishga vakolatlari organlar, ularning faoliyat yo'nalishi va vakolatlari doirasi to'g'risidagi qoidalar o'z o'rnnini topgan.

Ma'muriy huquq manbalariga O'zbekiston Respublikasi Havo Kodeksi, Bojxona Kodeksi, Soliq Kodeksi va boshqa huquqiy normativ aktlarni kiritishimiz mumkin.

Ma'muriy huquq manbalariga Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qator qonulnarni kiritishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston

Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi<sup>10</sup>, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi<sup>11</sup>, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi<sup>12</sup> qonun hujjatlari va boshqalarini kiritishimiz mumkin.

Ma'muriy huquq manbalariga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan chiqarilgan aktlar ham ma'muriy huquqning manbalari qatoriga kiradi.

*Ma'muriy huquq tizimi* asosan, ikkiga bo'linadi:

1) Umumiy qism — davlat boshqaruvining barcha sohalarini qamrab oluvchi normalarni o'z ichiga oladi. Ma'muriy huquqning umumiy qismi tarkibida quyidagi normalar ajralib turadi:

- *davlat boshqaruvi xususiyatlarini belgilovchi hamda davlat boshqaruvi tamoyillarini mustahkamlovchi normalar;*
- *davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini, faoliyatining shaklini belgilovchi normalar;*
- *davlat xizmatini tartibga soluvchi normalar;*
- *boshqariluvchi obyektlarning maqomini belgilovchi normalar;*
- *jamoat tashkilotlarining huquqiy maqomi to'g'risidagi normalar;*
- *fuqarolarning huquqiy maqomi to'g'risidagi normalar;*
- *davlat boshqaruvida ishontirish va majburlash choralarini to'g'risidagi normalar;*
- *davlat boshqaruvida qonunchilikni ta'minlash usuli to'g'risidagi normalar;*

2) Maxsus qism — ma'lum bir sohada harakat qiluvchi normalarni o'z ichiga olib quyidagilardan iborat:

*- rejorashtirish, moliya, bank-kredit, soliq, hisob-kitob sohalaridagi va tarmoqlararo faoliyatning boshqa sohalaridagi davlat boshqaruvini tartibga soluvchi normalar;*

*- xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyat sohasidagi davlat boshqaruvini tartibga soluvchi normalar.*

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 3-son, 146-m.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993, 9-son, 320-m.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003, 1-son, 140-m.

### **3-§. Ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlар**

*Ma'muriy-huquqiy normalar* --- davlat boshqaruvi sohasida davlat boshqaruvi organlari, davlat xizmatchilari, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilotlar, mehnat jamoalari va fuqarolarning qonunchilik bilan ruxsat etilgan yurish-turish chegarasini belgilab beradi.

Lozim tarzdagi xulq-atvor qaysi harakatlarni sodir etish mumkin (ruxsat etiladigan xatti-harakatlar), qaysilaridan o'zni tiyish kerak (taqiqlar), qaysilarini bajarish zarur (ko'rsatmalar) ekanligini ko'rsatishni taqozo etadi. Inson xulq-atvoriga boshqaruv ta'sirini ko'rsatishning mohiyati ana shunda namoyon bo'ladi.

Bunda ma'muriy-huquqiy normalarning muhim xususiyatiga e'tiborni qaratish kerak. Ushbu normalar, avvalo, ijro etuvchi hokimiyyat (davlat boshqaruvi) subyektlariga qaratilgan majburiy xulq-atvor qoidalariiga ega.

Shunga qaramay, ularning boshqaruv ta'siri ostida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlар har qanday huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan bunday munosabatlар ishtirokchilarining burch va huquqlari mosligi, ularning hokimiyyat irodasi qaratilgan shaxslar manfaatlarini ta'minlashga yo'nalganligi kabi sifatlardan mahrum bo'lmaydi. Huquqiy norma ta'sirida yuzaga kelgan subyektlarning o'zaro huquq va majburiyatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

*Ma'muriy-huquqiy munosabatlар va ularning turlari.* Ma'muriy-huquqiy munosabat deganda, ma'muriy-huquqiy norma bilan tartibga solingen, taraflar ma'muriy-huquqiy normalar vositasida o'rnatilgan hamda kafolatlangan o'zaro majburiyatlar va huquqlar egasi bo'lib maydonga chiqadigan boshqaruv sohasidagi ijtimoiy munosabatlар tushuniladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlар turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Ularga, avvalo, ijro etuvchi hokimiyyat organlarining u yoki bu obyektga boshqaruv yoki tartibga solish xususiyatiga ega bo'lgan ta'sir ko'rsatishidan iborat yuridik imkoniyati kiradi.

Yuridik xususiyatga ko'ra, ma'muriy-huquqiy munosabatlар ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari vertikal va gorizontal huquqiy munosabatlarga ajratiladi.

Vertikal huquqiy munosabatlар ma'muriy-huquqiy boshqaruning hamda subyekt va obyekt o'rtaida yuzaga keladigan davlat boshqaruv faoliyati uchun xos bo'lgan subordinatsiya aloqalarining mohiyatini eng ko'p darajada aks ettiradi. Odatda hokimiyyat

munosabatlari deb ataladigan munosabatlар aynan shu munosabatlardir.

Gorizontal huquqiy munosabatlар deganda, taraflar amalda va yuridik jihatdan teng huquqli bo'ladigan munosabatlар tushuniladi. Binobarin, ularda bir tarafsning boshqa taraf uchun bajarilishi majburiy bo'lgan yuridik hokimiyyat ko'rsatmalar bo'lmaydi.

Ishtirokchilarining tarkibiga ko'ra, huquqiy munosabatlар apparat ichkarisidagi va tashqarisidagi munosabatlarga bo'linadi. Birinchi holda mavjud bo'lishi shart bo'lgan (majburiy) subyekt (ma'muriy hokimiyyat egasi, apparat bo'g'ini) apparatning boshqa bo'g'inlari (organlar, xizmatchilar va boshqalar) bilan munosabatga kirishadi. Ushbu huquqiy munosabatlар ijro etuvchi hokimiyyat organlari tizimini, organlar va xizmatchilarining vakolatlarini, ularning o'zaro munosabatlарini apparat ichidagi ishlar shakli va usullarini belgilovchi ma'muriy-huquqiy normalarga asoslanadi. Ikkinci holda, majburiy subyekt fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

*Fuqarolar va ijro etuvchi hokimiyyat organlari.* Ijro etuvchi hokimiyyat organlari bilan fuqarolar o'rtaсидagi munosabatlарni alohida guruhga ajratish mumkin.

Ma'muriy huquqda fuqarolarning huquqlarini mustahkamlovchi va ularning boshqaruv organlari bilan munosabatlарini tartibga soluvchi normalar yetarlicha katta o'r'in egallaydi. Subyektlarini boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) va fuqarolar tashkil etadigan munosabatlар huquqiy vogelikdagi eng an'anaviy munosabatlardir. Har qanday fuqaro o'z hayoti mobaynida ma'muriy, huquqni muhofaza qiluvchi muassasalar va ularning mansabdor shaxslari bilan, transport va aloqa organlari bilan, soliq organlari, pasport idorasi, bojxona xizmati, ijtimoiy himoya va boshqa idoralarning xodimlari bilan ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishadi.

Fuqarolar o'rtaсидagi munosabatlар ma'muriy-huquqiy munosabatlarning alohida guruhini tashkil qiladi. Fuqarolar o'rtaсидagi ko'pgina munosabatlар ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingenligi uchun ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kiradi. Ushbu munosabatlар ko'proq jamoat tartibi, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish sohalarida yuzaga keladi hamda qonunchilik fuqarolarga jamoat joylaridagi o'zaro munosabatlарini, mustaqil ravishda, boshqarishning huquq va manfaatlariga rioya etgan holda tartibga solish majburiyatini yuklaydi.

*Ijro etuvchi hokimiyatning xususiyatlari.* Ijro etuvchi hokimiyatning xususiyatlari quyidagilar kiradi:

1) Ijro etuvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi yagona davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati bilan yaqindan aloqada bo'lgan nisbatan mustaqil tarmog'i (turi, ko'rinishi)dir;

2) Yagona davlat hokimiyatining ko'rinishi bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat hozirgi vaqtida ijro etuvchi organlar deb nomlanadi, amalda esa davlat boshqaruvi organlari bo'lgan davlat apparatining maxsus bo'g'lnlari faoliyatida real xususiyat kasb etadi;

3) ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvi organlari tizimida namoyon bo'ladi, ularga respublika hukumati, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy ijro etuvchi organlar, davlat muassasalari va korxonalarining ma'muriyati kiradi;

4) ijro etuvchi hokimiyat zamon va makonda universal xususiyatga ega, ya'ni uzlusiz va insonlar faoliyat ko'rsatayotgan barcha joylarda amalga oshiriladi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari mazmuni bo'yicha ijro etuvchi va ko'rsatma beruvchi faoliyatni amalga oshiradi. Qonunga muvofiq, ular davlat va hokimiyat vakolatlariga, jumladan, huquqiy hujjatlar chiqarish va ularni amalga oshirish vakolatlariga ega. Umuman olganda, ushbu organlar mustaqil ravishda qonun hujjatlari chiqarish, ularni qo'llash hamda huquqni muhofaza qilishdan iborat keng doiradagi vakolatlarga egadirlar.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining qonun asosida bo'lishi xususiyatiga egaligi ularning huquqiy holatidagi eng muhim jihatdir. Ular o'zlarining barcha shakldagi faoliyatida Konstitutsiya, qonunlarning talablariga qat'iy rioya etishlari, ularni bajarishlari va o'z vakolatlari doirasida boshqalarning bajarishlarini ta'minlashga yordam berishlari kerak;

5) ijro etuvchi hokimiyat davlat xizmati orqali amalga oshiriladi. Davlat xizmati deganda, fuqarolarning davlat organlaridagi davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyati tushuniladi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari muayyan bo'linmalar (bo'lim, boshqarmalar)dan tashkil topadi. ularning har biri xizmatchilar egallab turgan lavozimlar yig'indisidan iborat;

6) ijro etuvchi hokimiyatning muhim jihat - uning bevosita qo'l ostida ulkan resurslar, ya'ni huquqiy, axborot, iqtisodiy, texnikaviy, masifikuraviy, tashkiliy resurslarning mavjudligi yoki uning predmetli xususiyatidir. Ijro etuvchi hokimiyat qo'lida davlatning amalda-

qudrati jamlangan. U ulkan hududlar, ko'plab odamlar, resurslarga tayanadi, xizmatdagi lavozim bo'yicha ko'tarishlar va rag'batlantirish vositalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining bevosita qo'l ostida Qurollı Kuchlar, chunonchi, armiya, miliitsiya, milliy xavfsizlik xizmati mavjud.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.* Vazirlar Mahkamasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hukumati ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradi, ijro organlari tizimiga boshchilik qiladi va ularning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Uning huquqiy holati asoslari, tarkibi, shakllanish tartiblari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (20-bob). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi 2003-yil 29-avgustdagagi yangi tahrirdagi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining raisi Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hukumatining faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda uning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi uchun choralar ko'radi.

Hukumatni O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, Bosh vazirning birinchi o'rinosari va o'rinosarlarini, vazirlar, O'zbekiston Respublikasi davlat qo'mitalarining raislari, boshqa davlat xo'jalik boshqaruv organlarining rahbarlari tarkibida Respublika Prezidenti shakllantiradi va Oliy Majlis tasdiqlaydi (Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunning 4-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini Prezident parlamentining roziligi bilan tayinlaydi. Hukumatning boshqa a'zolarini ham Prezident tayinlaydi. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishini tashkil etadi, o'rinosarlar o'rtasida vazirlarni tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'i bo'yicha xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi hukumatining vakili bo'lib xalqaro munosabatlarda shartnomalar va bitimlarni imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Vazirlar Mahkamasi raisining topshirig'i bo'yicha hukumat faoliyatini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish bilan bog'liq boshqa funksiyalarni bajaradi (Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunning 15-moddasi).

Hukumat a'zolari boshqa haq to'lanadigan lavozimlarni egallay yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydilar. Hukumat a'zolari aynan bir vaqtida vakillik organining deputati bo'la olmaydilar.

Hukumat faoliyati amalda jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Uning faoliyatidagi asosiy yo'naliishlar (funksiyalari) Konstitutsianing 98-moddasida belgilangan. Hukumat:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'naliishlarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini tashkil qiladi;

- Oliy Majlisga O'zbekiston Respublikasi byudjetining asosiy ko'rsatkichlarini va uning bajarilishi haqidagi hisobotni taqdim etadi, byudjetning bajarilishini ta'minlaydi;

- Oliy Majlisga qonunlarning loyihibarini kiritadi va qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi;

- qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda boshqa markaziy va mahalliy ijro etuvchi organlarning hamkorligini ta'minlaydi;

- viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid keluvchi qarorlari va farmoyishlarini bekor qiladi yoki amal qilishini to'xtatib qo'yadi;

- zimmasiga Konstitutsiya, qonunlar va Prezident farmonlari bilan yuklatilgan boshqa funksiyalarini bajaradi.

Hukumat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlар asosida va ularni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi shart bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Prezident hukumat majlisida raislik qilish huquqiga ega.

Hukumat Prezident vakolatlari muddati doirasida amal qiladi hamda yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini topshiradi.

*Markaziy ijro etuvchi organlar.* Ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiga hukumat bilan bir qatorda maxsus vakolatlari davlat organlari — tarmoq yoki tarmoqlararo funksiyalarini bajaruvchi organlar kiradi. Ularning tuzilishini Respublika Prezidenti belgilaydi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat markaziy organlarning tashkiliy-huquqiy shakllariga quyidagilar kiradi:

- vazirliklar;

- davlat qo'mitalari;

- qo'mitalar, departamentlar, agentliklar, shuningdek, respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari qoshidagi boshqa davlat boshqaruvin organlari (umumlashtirilgan holda ular idoralar deb ataladi);

- qo'mita, bosh boshqarma, komissiya, agentlik va hukumat tarkibiga kirmaydigan boshqa respublika davlat boshqaruvin organlari.

Ijro etuvchi hokimiyatning barcha markaziy organlari hukumatga qarashlidir. Hukumat vazirliklar, davlat qo'mitalari, boshqa markaziy va mahalliy ijro organlarning hamkorligini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasи viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid keluvchi qarorlari va farmoyishlarini bekor qiladi yoki to'xtatib qo'yadi.

Vazirlar Mahkamasи hukumat tarkibiga kirmaydigan markaziy ijro etuvchi organlarning rahbarlarini lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, shuningdek, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, hukumat tarkibiga kirmaydigan markaziy ijro etuvchi organlar rahbarlarining taqdimnomasiga muvofiq, respublika idoralarining rahbarlarini va ularning o'rinnbosarlarini lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va markaziy ijro etuvchi organlar faoliyatining huquqiy asosini, respublika qonunlari bilan bir qatorda, Prezident va hukumatning normativ-huquqiy hujjatlari, maxsus nizomlar tashkil qiladi.

Ularning har biri to'g'risidagi nizomni Vazirlar Mahkamasи tasdiqlaydi. Hukumat, shuningdek, respublika idoralarining faoliyat sohasi, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

Ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organlari o'z funksiyalarini va vakolatlarining tabiatiga ko'ra, muayyan xususiyatlarga ega.

**Vazirlik** — respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo'lib, davlat boshqaruvinining tegishli tarmog'i (sohasi)ga rahbarlik qiladi, shuningdek, qonunda belgilangan doirada tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**Davlat qo'mitasi** — respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo'lib, davlat boshqaruvinining tegishli tarmoqlari (sohalari)da yagona davlat siyosatini o'tkazadi va ushb maqsadda qonunga ko'ra tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Vazir yoki davlat qo'mitasining raisi o'z lavozimiga ko'ra hukumat tarkibiga kiradi, davlat boshqaruvinining tegishli tarmoqlari (sohasi)ning samarali ishlashini ta'minlaydi, o'zlar rahbarlik qilayotgan tarmoq (sohasi)ning ahvoli va rivojlanishi, qonunlar

hamda Prezident va hukumat hujjatlarining bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

Vazir yoki davlat qo'mitasining raisi huzurida maslahat beruvchi va kengashuvchi organ — vazirlik, davlat qo'mitasining hay'ati tashkil etiladi.

Vazirlik yoki davlat qo'mitasi chiqaradigan qaror vazirning buyrug'i bilan hamda davlat qo'mitasining raisi imzolaydigan qaror bilan rasmiylashtiriladi.

Respublikaning hukumat tarkibiga kirmaydigan markaziy ijro etuvchi organi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tarmoqlararo muvofiqlashtirishni, shuningdek, boshqa maxsus ijro etish va ruxsat berish funksiyalarini amalga oshiradi.

Idora respublika vazirligi yoki davlat qo'mitasining vakolatlari doirasida mustaqil ravishda maxsus ijro etuvchi hamda nazorat funksiyalarini amalga oshiradi, shuningdek, tarmoqlararo muvofiqlashtirish vazifasini yoxud davlat boshqaruvi tarmoqchasi (sohasi)ga rahbarlik qiladi.

#### **4-§. Ma'muriy majburlov**

*Ma'muriy majburlov* — ma'muriy hokimiyatni amalga oshishdan iborat maxsus vakolatlar berilgan ijro etuvchi organlar (mansabdor shaxslar)ning odamlarni huquqiy ko'rsatmalarni bajarishga majbur qilish, huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda esa — ularga ma'muriy jazo chorasi ko'rish bo'yicha tashkiliy, jismoniy va ruhiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

Ma'muriy majburlov davlat majburloving turlaridan biri bo'lib, asosan, davlat boshqaruvi sohasida huquqiy tartibni ta'minlash va muhofaza etishning oxirgi chorasi sifatida qo'llaniladi, ya'ni jazolash funksiyasini bajaradi. Biroq uning vazifalari shular bilan cheklanmaydi. Ayni paytda huquqni muhofaza qilish maqsadida ma'muriy majburlov choralarini boshqacha vazifalarni ham bajaradi, ya'ni nafaqat (intizomiy va ma'muriy) huquqbazarliklar uchun jazo sifatida, balki ularning oldini olish va ularni to'xtatib qolish uchun ham qo'llaniladi. Shunday qilib, ular jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta'minlaydi.

Ma'muriy majburlovgaga suddan tashqaridagi tartib xos, ya'ni majburlov (ishni to'xtatib qo'yish, g'ayriqonuniy tarzda olingan narsalarni olib qo'yish, jarima solish va boshqa) choralar tegishli

ijro etuvchi organlar (mansabdor shaxslar — ichki ishlar organlari, nazorat-tekshirish organlari, ma'muriy komissiyalar va boshqalar), ya'ni ushbu choralarни o'z faoliyatida sudga murojaat etmay turib bevosita qo'llaydigan organlarning vakolatlariga kiritilgan. Biroq O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy majburlov choralarining ayrimlarini sudlar (sudyalar) qo'llaydilar. Chunonchi, bu ma'muriy huquqbazarlik, masalan, mayda bezorilik uchun eng qattiq ma'muriy jazolarni qo'llash hollariga taalluqli. Ma'muriy choralar nafaqat alohida shaxslarga, balki tashkilotlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

**Ma'muriy majburlov** — ijro etuvchi organ (mansabdor shaxs)ning qonunga asoslangan va undan kelib chiqadigan hamda jamoat tartibini saqlashga, jamoat xavfsizligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ma'muriy majburlov choralar xilma-xildir. Ularni, maqsadiga ko'ra, to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- *ma'muriy oldini olish choralar;*
- *ma'muriy cheklash choralar;*
- *ma'muriy tiklash choralar;*
- *ma'muriy javobgarlik choralar.*

Ma'muriy oldini olish choralar majburlov tusiga ega bo'lib, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar bo'lganda yuz berish ehtimoli bo'lgan huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ko'pincha ulardan fuqarolar hayoti va sog'lig'iga nisbatan tug'ilishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun foydalaniлади.

Ma'muriy oldini olish choralar huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish. Bunday choralar xilma-xil bo'lib, ular orasida eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir:

- kontrol va nazorat tekshiruvlari;
- ashyolarni ko'zdan kechirish va shaxsni ko'rikdan o'tkazish (bojxonha, ichki ishlar xodimlari amalga oshiradilar);
- insonning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish;
- ma'muriy nazorat;
- karantin joriy qilish (epidemiya va epizootiyalar chog'ida);
- jamoat xavfsizligiga tahdid tug'ilganda transport va piyodalar harakatini to'xtatish;

Shaxslarning tibbiy holatini va umumiy ovqatlanish korxonalarining sanitariya holatini qayd etish;

- mulk rekvizitsiyasi (revkiziya — ma'lum muddatga majburiy olib qo'yish);

- davlat chegarasining muayyan qismini yopib qo'yish va hk.

Bu va boshqa choralarni qo'llash qonun hujjatlari bilan qat'iy tartibga solingen.

*Ma'muriy cheklash* choralari g'ayriqonuniy harakatni majburiy tartibda to'xtatish va ularning zararli oqibatlarining oldini olish zarur bo'lган hollarda qo'llaniladi. Ular ham xilma-xil bo'lib, ijro etuvchi organlar (mansabdar shaxslar) tomonidan qo'llaniladi.

Ularga quyidagilar kiradi:

- qonunga xilof xatti-harakatlarni to'xtatish talabi (masalan, iehki ishlar organlari xodimlari, fuqarolar va mansabdar shaxslardan ma'muriy huquqbazarliklar sodir etishni to'xtatishni talab qilishga haqlidirlar);

- huquqbuzarni ushlab keltirish;

- qurol ishlatish (masalan, haydovchi odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun haqiqiy xavf tug'dirayotgan bo'lsa, transport vositasini to'xtatish uchun);

- atrofdagilar uchun xavfli bo'lган kasalliklar bilan og'rigan shaxslarni majburiy davolash;

- texnik holati belgilangan talablarga javob bermaydigan transport vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

- korxona va tashkilotlar barcha uchun majburiy u yoki bu qoidalarni buzgan taqdirda ularning faoliyatini to'xtatish yoxud tugatish va hokazo.

*Ma'muriy-tiklovchi choralar* ashyolarning avvalgi holatini tiklash, yetkazilgan zararni qoplash maqsadida qo'llaniladi. Shu bois ushbu choralarning turi va miqdori huquqbazar yetkazgan zarar xususiyatiga va miqdoriga bog'liq. Ularga quyidagilar kiradi:

- ruxsat so'ramay qurilgan binolar va inshootlarni buzib tashlash;

- beruxsat egallab olingan turar-joydan ko'chirib yuborish;

- tashkilotlardan qonunga xilof tarzda egallagan narsalarni olib qo'yish;

- voyaga yetmagan farzandi yetkazgan zararni uning ota-onasidan undirish va hokazo.

## 5-§. Ma'muriy huquqbazarlik va javobgarlik

*Ma'muriy javobgarlik* choralari vakolatlari organ yoki mansabdar shaxsning ma'muriy huquqbazarliklar sodir etgan shaxslarga ma'muriy jazo qo'llashida ifodalananadi.

*Ma'muriy javobgarlik* — javobgarlikning barcha belgilari xos bo'lган yuridik javobgarlikning maxsus turi.

Ayni paytda qonunda javobgarlikning aynan shu turiga xos bo'lган alomatlari belgilangan va ulardan ijro etuvchi hokimiyat organlari yetarlicha ko'p foydalananadilar.

**Ma'muriy javobgarlik** — ijro etuvchi va sud hokimiyatining maxsus vakolatlari organlari va mansabdar shaxslari aybdorga belgilaydigan ma'muriy jazolar tizimi.

Ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun asos vazifasini ma'muriy huquqbazarlik bajaradi. Ma'muriy huquqbazarlik deb jamoat yoki davlat tartibiga, davlatning yoki shaxsning mulkiga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan hamda sodir etilgani uchun qonunda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan g'ayriqonuniy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan) harakat yoki harakatsizlikka aytildi. Ma'muriy huquqbazarliklar, xuddi jinoyatlar kabi, jamiyat uchun xavflidir, ulardan saqat ushbu xavf darajasi bilangina farq qiladi.

Ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan paytga kelib 16 yoshga to'lган shaxslar ma'muriy javobgarlik subyektlari bo'lishi mumkin. Ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган shaxslarga nisbatan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Mansabdar shaxslar, ya'ni hokimiyat qarorlari chiqarishga vakolati bo'lган rahbarlar ham xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Bunda mansabdar shaxslar nafaqat o'zlarining, balki qo'l ostidagi ularga bo'yusunuvchi va tegishli qoidalarni buzgan xodimlarning ham harakatlari yoki harakatsizliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Mansabdar shaxslarning ma'muriy javobgarliklari ularga nisbatan ular xizmat bo'yicha bevosita bo'yusunmaydigan organlarning ma'muriy-huquqiy chora qo'llashini anglatadi. Masalan, yong'in nazorati organlari yong'in xavfsizligi qoidalarni buzganligi uchun korxona rahbariga ma'muriy jarima soladi.

Ushbu masalaning amaliy ahamiyati shundaki, huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik ular o'z tabiatiga ko'ra amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy javobgarlikka olib kelmagan taqdirda qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlikning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- ma'muriy javobgarlikni qonun ham, ma'muriy huquqbuzrliklar to'g'risidagi normalar ham belgilaydi. Undan farqli ravishda, jinoiy javobgarlik faqat qonunlar bilan belgilanadi;

- ma'muriy javobgarlik uchun — ma'muriy huquqbuzarliklar, jinoiy javobgarliklar uchun esa — jinoyat sodir etilishi asos bo'lib xizmat qiladi;

- ma'muriy javobgarlikka 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs tortilishi mumkin, jinoiy javobgarlikka esa 14-16 yoshdan, ayrim jinoyatlar uchun 13 yoshdan ham jazoga totish mumkin. Ma'muriy javobgarlik subyektlari fuqarolar, mansabdar shaxslar, voyaga yetmaganlar va boshqalar bo'lishi mumkin;

- ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo, jinoyat uchun esa jinoiy jazo qo'llaniladi;

- ma'muriy jazoni ijro etuvchi hokimiyatning keng doiradagi vakolatli organlari va mansabdar shaxslari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda sudlar (sudyalar) qo'llaydilar;

- ma'muriy jazoni organlar va mansabdar shaxslar o'zlariga bo'y sunmaydigan huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaydilar;

- ma'muriy jazoni qo'llash sudlanganlikni va ishdan bo'shatishni keltirib chiqarmaydi. Ushbu jazo qo'llanilgan shaxs belgilangan muddat davomida ma'muriy jazoga tortilgan deb hisoblanadi;

- ma'muriy javobgarlik choralar ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishlarni yuritishni tartibga soluvchi qonunlarga muvofiq qo'llaniladi. Jinoyat ishlari jinoyat-protsessual qonunlarga muvofiq ko'rib chiqiladi.

*Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.* Ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun asos bo'lib ma'muriy huquqbuzarlik xizmat qiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga binoan, ma'muriy huquqbuzarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, g'ayriqonuniy, aybli (qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar jinoyatlardan ushbu xavf darajasi bilangina farq qiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilardir:

- jamiyatga qarshi xususiyat;
- g'ayriqonuniyligi;
- aybliligi;

- qilmishning jazoga loyiqligi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibini normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan va mavjudligi ma'muriy javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan belgilari (elementlar) mavjud tashkil qiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining belgilari (elementlari) quyidagilardan iborat:

- obyekt;
- obyektiv tomon;
- subyekt;
- subyektiv tomon.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektini normalari bilan tartibga solingen va ma'muriy huquqbuzarlik choralar bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Obyektiv tomon ma'muriy huquq bilan taqilangan harakati yoki harakatsizlikdan iborat.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektlari sifatida jismoniy shaxslar hamda mansabdar shaxslar tan olinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida umumiy shaklda ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytida 16 yoshga va muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar tortilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni subyektning g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikka va uning oqibatlariga ruhiy munosabatidan iborat. U qasd yoki ehtiyoitsizlik shaklida ifodalanishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi mavjud bo'lgandagina uni sodir etgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunday yuridik mezonlar jinoyat va ma'muriy qonunlarda belgilangan. Masalan, qonunda qanday hollarda davlat mulkini mayda talon-taroj qilish, ma'muriy huquqbuzarlik, qanday hollarda esa jinoyat bo'lishi ko'rsatilgan. Muayyan jinoyatlarining subyekti deb 14 yoshga to'lgan shaxslar tan olinadi, ma'muriy huquqbuzarlik subyektlari esa faqat 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin; transport vositalarini boshqaruvchi shaxslarning jabrланuvchining yengil shikastlanishiga olib kelgan yo'llarda harakatlanish qoidalari buzishi — ma'muriy huquqbuzarlik deb, jabrланuvchining o'limiga yoki og'ir shikastlanishiga olib kelgan ayni o'sha harakatlar esa — jinoyat deb hisoblanadi.

**Ma'muriy jazo va uning turlari.** Ma'muriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni qonunga rioya etish va huquq-tartibotni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

- uning yangi huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish;

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 23-moddasida ma'muriy jazoning quyidagi turlari belgilab qo'yilgan:

- jarima;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani pul evaziga olib qo'yish;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani musodara qilish;

- shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqi, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

- ma'muriy qamoq.

Ma'muriy jazo faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilanishi mumkin.

Jarima — ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsga belgilanadigan va davlat foydasiga olinadigan pul undirish (MJK 25-moddasasi). U deyarli barcha ma'muriy huquqbuzarliklar uchun nazarda tutilgan va keng tarqalgan jazo chorasıdır. Fuqarolarga belgilanadigan jarimaning eng ko'p miqdori O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan eng kam ish haqining 5 baravaridan, mansabdor shaxslarga esa 10 baravaridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyonи majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingen ashyonи sotish xarajatlarini chegirib tashlangan holda topshirishdan iborat (MJK 26-moddasasi).

Musodara qilish — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan bevosita shunday narsa bo'lgan ashyonи haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat (MJDK 27-moddasasi).

Maxsus huquqdan mahrum qilish — muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi bo'lib, tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlari bo'yicha sudyasi tomonidan (uch yilgacha bo'lgan muddatga) qo'llaniladi. Asosiy tirikchilik manbai ovcilik bo'lgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum qilish chorasi qo'llanilishi mumkin emas (8-modda).

Ma'muriy qamoq kamdan-kam hollarda — ma'muriy huquqbuzarlikning ayrim turlari uchun 3 sutkadan 15 sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi. Ushbu jazoni tuman (shahar) sudi (sudyasi) qo'llaydi. Ma'muriy qamoq homilador ayollarga, 3 yoshgacha bo'lgan bolalari bor ayollarga, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, 18 yoshga to'lmagan shaxslarga, I va II guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy jazo haqidagi ish bo'yicha chiqarilgan qaror yuzasidan yuqori turuvchi organ (yuqori turuvchi mansabdor shaxs)ga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Ma'muriy jazo — huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa — huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab, 2 oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin (MJK 36-modda).

Basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab 1 yil mobaynida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan, deb hisoblanadi (MJK 37-modda).

Ma'muriy jazoni qo'llash huquqiga buning uchun vakolatli bo'lgan bir qator organlar va mansabdor shaxslar ega. Ularning to'liq ro'yxati ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda berilgan. Ularga tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlari bo'yicha sudyalar; xo'jalik sudining sudyalar; ma'muriy komissiyalar; tuman (shahar) voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar; ichki ishlari organlari va boshqa davlat inspeksiysi organlari (mansabdor shaxslari), soliq, bojxona, davlat sanitariya nazorati organlari kiradi.

Qonunda nazarda tutilgan ayrim maxsus hollarda, masalan, mayda bezorilik, oz miqdorda talon-taroj qilish va boshqalar uchun ma'muriy jazo qo'llash fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoa tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan haqining 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 25 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi (MJK 183-modda). Mayda bezorilikka doir ishlari odatda sud tartibida, voyaga yetmaganlarga nisbatan esa mahalliy ijroiya organlari qoshida voyaga yetmaganlar (16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar) ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalarda ko'rib chiqiladi.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish, ushbu talon-taroj qilingan narsa qiymati belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan oshmasa, oz miqdorda talon-taroj qilish hisoblanadi. Mulkchilik

shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorida talon-taroj qilish eng kam ish haqining I baravaridan 3 baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ldi (MJK 61-modda).

**Ma'muriy qonunchilik.** Ma'muriy qonunchilikni o'rganish chog'ida ma'muriy huquqbazarliklarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 1-aprelda kuchga kirgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ekanligini yodda tutish zarur. Hozirgi vaqtida ushbu kodeks deyarli har yili unga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartishlar tufayli ancha o'zgardi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning umumiy qoidalarida ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joyda amal qiladigan qonunlar asosida javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega, ya'ni ular ushbu hujjatlar chiqquncha sodir etilgan huquqbazarliklarga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbazarliklar uchun javobgarlik belgilaydigan va uni kuchaytiradigan hujjatlar esa orqali qaytish kuchiga ega emas.

«Ma'muriy huquqbazarlik» tushunchasi nimani anglatishni aniq bilish muhim. «Ma'muriy huquqbazarlik» deganda, qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Mazkur kodeksda nazarda tutilgan huquqbazarlik uchun ma'muriy javobgarlik ushbu huquqbazarliklar o'z tabiatiga ko'ra, amaldagi qonunlarga muvosif jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmasan taqdirda yuzaga keladi.

Agar ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligining qonunga xilof ekanligini bilgan, uning zararli oqibatlariga ilgaridan ko'zi yetgan va ularni ongli ravishda istagan, ushbu oqibatlarning yuzaga kelishi ehtimolligini bilgan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan huquqbazarlik deb e'tirof etiladi.

Ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi natijasida zararli oqibatlar yuz berishi mumkinligiga

ilgaridan ko'zi yetgan, ammo yengiltaklik bilan ularning oldini olaman, deb umid qilgan yoxud bunday oqibatlar bo'lishi mumkinligiga ko'zi yetishi kerak bo'lgani holda ilgaridan ko'zi yetmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbazarlik ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilgan, deb hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar tortiladilar.

Ta'lim oluvchilar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning javobgarligini o'rganishlari kerak.

Mansabdor shaxslarning javobgarligi boshqaruva tartibini, davlat va jamoat tartibini, tabiatni, aholining sog'lig'ini va bajarilishini ta'minlash o'zlarining xizmat burchlariga kiramagan boshqa qoidalarni amalga oshirish sohasida belgilangan normalarga rioya etmaslik bilan bog'liq huquqbazarliklar sodir etilganda yuzaga keladi.

Qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan vaqtida muomalaga layoqatsiz holatda bo'lgan, ya'ni o'z harakatlari uchun javob bera olmaydigan yoki surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyatining vaqtinchalik ishdan chiqishi, aqliy ojizlik yoxud boshqa kasallik oqibatida o'z haraktlarini idora qila olmaydigan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ma'muriy jazo choralarining mohiyatini o'rganish va ularning turlarini bilish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

- jarima;

- ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyonini haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

- ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyonini musodara etish;

- muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositani boshqarish, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

- ma'muriy qamoqqa olish.

Ma'muriy jazoga tortish xususiyatlari, jazoga tortishning umumiy qoidalari, ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar, jazo muddatlarini hisoblash, jazoga tortish muddatlarini, shaxs davr o'tganidan so'ng ma'muriy jazo tortilmagan deb hisoblanadigan muddat, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash kabilarni tushunib olish muhim.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning turli xil ma'muriy huquqbazarliklar tavsifi berilgan maxsus qismining mazmuni bilan batafsil tanishgan ma'qul. Ularga quyidagilar kiradi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan ma'muriy huquqbazarliklar;

- aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar;
- mulkka tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbazarliklar;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanan sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar;
- sanoatdag'i, qurilishdag'i va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanan sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar;
- qishloq xo'jaligida ma'muriy huquqbazarliklar, veterinariya, sanitariya qoidalarini buzish;
- transportdag'i, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbazarliklar;
- fuqarolarning turar-joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar;
- savdo, tadbirdorlik va moliya sohalardagi ma'muriy huquqbazarliklar;
- odil sudlovga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbazarliklar;
- jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbazarliklar;
- boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvechi huquqbazarliklar.

Ma'muriy huquqbazarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqishga vakolatlil bo'lgan organlarni bilish lozim.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni quyidagi organlar (mansabdor shaxslar) ko'rib chiqadilar:

- tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi, xo'jalik sudlari;
- shaharcha, qishloq va ovul fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qoshida ma'muriy komissiyalar;
- voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalar;
- ichki ishlar (militsiya) organlari (mansabdor shaxslari), davlat inspeksiyasi organlari (mansabdor shaxslari).

### *III MAVZU*

## FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI

### *I-§. Fuqarolik huquqi tushunchasi va manbalari*

**Fuqarolik huquqi** O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, yuridik shaxslari ishtirotkidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy hamda tovar-pul munosabatlarini tartibga solib turuvchi normalar yig'indisidan iborat alohida huquq sohasi bo'lib, ularning yuridik tengligi, mulkiy mustaqilligi hamda iroda erkinligiga tayanadi,

Fuqarolik huquqi mulkchilik munosabatlarini, iqtisodiy faoliyat ishtirotchilarining shartnomaviy aloqalarini (oldi-sotdi, pudrat, sug'urta va hk.), shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq intellektual mulk, merosga oid munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning har qanday sohasi kabi, fuqarolik huquqining eng muhim normalari O'zbekistonning Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, har bir davlatda iqtisodiy munosabatlar negizini moddiy ne'matlarga egalik huquqi tashkil etadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida tadbirdorlik hamda qonun tomonidan taqiqilanmagan boshqa turdag'i iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, davlat hokimiyyati organlari yoki mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararning davlat tomonidan qoplanishini talab etish huquqi kabi qoidalar mustahkamlangan.

Fuqarolik huquqi bir qancha huquqiy institutlar (mulk huquqi, majburiyat huquqi, shaxsiy nomulkiy huquqlar, ijod faoliyatini natijalariga bo'lgan huquq, meros huquqi)dan iborat tizimni aks ettiradi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar uning predmetini tashkil etadi.

Fuqarolik huquqining metodi fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi taraflarning tengligi, ushbu huquq sohasidagi normalarning ko'pchiligi dispozitiv ekanligi (ishtirotchilar uchun xulq-atvor turini tanlashning mumkinligi) nizolarni sudda, xo'jalik sudida hal etish orqali tavsiflanadi.

**Fuqarolik huquqining manbalari**, ularning ahamiyati (yuridik kuchi)ga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar;

- qonun osti hujjatlari — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, vazirlik va tashkilotlarning buyruq va yo'rqnomalari;

- ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar.

Shunday bo'sa-da, «fuqarolik huquqi manbalari» tushunchasi «fuqarolik qonunlari» tushunchasidan kengroqdir, zero fuqarolik huquqiga oid munosabatlar nafaqat qonunlar, balki qonun osti hujjatlari (masalan, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, idoraviy hujjatlari va boshqalar) bilan ham tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar sirasiga ish muomalasi an'analarini kiradi. Ular ishbilarmonlik faoliyatining biror-bir sohasida tarkib topgan hamda keng qo'llaniladigan bo'lib, biroq qonunda nazarda tutilmagan. Ular mazkur munosabatlar ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan qonun-qoidalar hamda shartnomaga zid bo'lmasligi kerak.

Fuqarolik huquqining eng muhim hujjati O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (bundan buyon — FK) hisoblanadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksi ikkita (umumiyligida va maxsus) qismidan iborat.

FKning birinchi (umumiyligida) qismida fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan hamda boshqa turdag'i munosabatlar doirasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan asosiy qoidalar o'z aksini topgan. Ularda fuqarolik qonunlarining asosiy tushuncha va prinsiplari: fuqarolik huquqlarini himoyalash usullari; fuqarolik huquqi obyektlari; fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holati; mulkchilik huquqi hamda boshqa mulkiy huquqlarning yuzaga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish tartiblari; shartnomaga asosidagi hamda boshqa turdag'i majburiyatlarning asosiy qoidalari belgilangan.

Kodeksning ikkinchi (maxsus) qismi muayyan turdag'i shartnomalar hamda shartnomadan tashqari majburiyatlar: oldi-sotdi, ijara, pudrat, yuk tashish, qarz va kredit, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, mualliflik, ixtirochilik hamda boshqa alohida huquqlar, vorislik huquqi va xalqaro xususiy huquq normalarini o'z ichiga oladi.

Fuqarolik huquqiga oid munosabatlar, shuningdek, alohida qonunlar bilan ham tartibga solinadi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi, «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi,

«Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi, «Mualliflik huquq va turdosh huquqlar to'g'risi»gi, «Lizing to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi va boshqa qonunlar.

## 2-§. Fuqaroviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari

**Fuqarolar** — fuqarolik huquqiy munosabatlarining subyektlari. Fuqarolik huquqi mulkiy hamda unga chambarchas bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur munosabatlarning ishtirokchilari (subyektlari)dan biri fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Fuqarolarning fuqarolik huquqiga oid munosabatlarda ishtirok etishining eng dastlabki sharti ularning huquqiy layoqati, ya'ni fuqarolik huquqi hamda majburiyatlariga ega bo'lish qobiliyati hisoblanadi.

Huquqiy layoqat inson tug'ilishi bilanoq vujudga keladi, biroq, ba'zi hollarda qonun hali tug'ilmagan inson huquqlarini ham himoyalaydi. Masalan, FKga binoan, jabrlanuvchining o'limi munosabati bilan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga jabrlanuvchining o'limidan so'ng tug'ilgan farzandi ega bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy layoqati shaxsning o'limi bilan tugatiladi. Shu bilan birga, shaxsdan uzoq muddat davomida xabar olinmagan hamda uning tirikligi haqida hech qanday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda mazkur turdag'i noaniqliklarni bartaraf qilish maqsadida qonunda nazarda utilgan shartlar asosida shaxs bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin. Shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish uning huquqiy layoqati tugatilishiga olib keladi.

Fuqaro o'z nomidan huquq va majburiyatlarni bajaradi, o'zganining nomidan huquq va majburiyatlarni bajarishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik qonunlariga binoan, fuqaro egalik qilishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlar majmui fuqarolik huquqiy layoqatini tashkil etadi.

Fuqarolar yashash joyini tanlash huquqiga egadirlar. Balog'at yoshiga yetmagan, 14 yoshga to'lmagan shaxslarning turar-joyi otagonalari yoki qonuniy vakillarining yashash joylari hisoblanadi.

Fuqarolar mulk huquqi asosida mol-mulkka egalik qilish, uni meros sifatida olish yoki meros qilib qoldirish, ishbilarmonlik hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanish; majburiyatlarda ishtirok etish; yuridik shaxslarni vujudga keltirish; fan, adabiyot va san'at asarlari, tadqiqotlar mualliflari hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish; mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy ega bo'lishga haqidirlar.

FKda fuqarolarning fuqarolik huquqiy layoqati mazmunini tashkil etuvchi huquqlarining ro'yxati keltirilgan bo'lib, u hali nihoyasiga yetkazilmagan. Shu bilan birga, fuqarolarning fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga zarar yetkazgan holda o'z huquqlarini suiste'mol qilishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, hech kimning huquqiy layoqatini cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Shaxs fuqarolik huquqiy layoqatidan to'laligicha mahrum qilinishi mumkin emas.

Fuqarolik huquqining subyektlari huquqiy layoqatdan tashqari muomala layoqatiga ham egadirlar. Muomala layoqati deganda, fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish huquqi, o'ziga fuqarolik majburiyatlarini olish hamda ularni bajarish qobiliyati tushuniladi. Muomala layoqati ana shunisi bilan huquqiy layoqatdan ajralib turadi. Chunonchi unga ko'ra, fuqarolar o'z huquq va majburiyatlariga boshqa shaxslar, masalan, ota-onalari orqali ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, fuqarolik muomala layoqati nafaqat qonuniy xatti-harakatlar qilish qobiliyatini, balki ular uchun javobgarlikka tortilish sharti (delikt qibiliyatini) ham vujudga keltiradi. Shu bois, muomala layoqati shaxsning yoshi hamda ruhiy holatiga bog'liq, bo'ladı.

Umumiy qoidaga ko'ra fuqarolik muomala layoqati to'laligicha 18 yoshdan boshlab yuzaga keladi. Shuningdek, 18 yoshgacha turmush ko'rgan shaxslar ham to'liq ravishda muomalaga layoqatli deb hisoblanadi. Bu ba'zi hollarda turmush qurish yoshining pasaytirilishidan kelib chiqadi.

FKga voyaga yetmaganlarning emansipatsiyasi, ya'ni ularni to'laligicha muomalaga layoqatli deb hisoblash to'g'risidagi norma ham kiritilgan. Bu quyidagi shartlar bo'lgan taqdirda amalgalashirilishi mumkin:

1) shaxsning 16 yoshga to'lganligi;

2) ikkala ota-onasi yoki qonuniy vakillarning roziligi bo'lgan taqdirda, basharti voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi yoki ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa.

Mazkur qarorni vasiylik va homiylik organi, ota-onasi va qonuniy vakillar norozi bo'lgan taqdirda sud qabul qilishi mumkin.

Boshqa hollarda voyaga yetmaganlar qisman muomalaga layoqatli deb topiladi. Ular o'z xatti-harakatlari bilan har qanday emas, balki ba'zi huquq va majburiyatlarga ega bo'lish huquqiga egadirlar, ya'ni ularning muomala layoqati to'liq emas.

Voyaga yetmagan shaxslar yetkazgan zarar uchun ularning ota-onalari yoki homiylari yoxud ularni nazorat qiluvchi o'quv, tarbiya yoki davolash muassasalari javobgar bo'ladilar.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar delikt qobiliyatiga ega bo'ladilar, ya'ni ular mustaqil ravishda hamda ota-onalarning roziligi bilan tuzgan barcha bitimlar hamda yetkazilgan zarar bo'yicha mustaqil mulkiy javobgarlikka tortiladilar. Voyaga yetmagan shaxslar oylik maosh yoki boshqa turdag'i mustaqil daromadga ega bo'lgan taqdirda ota-onalar hamda qonuniy vakillar orqali to'liq yoki qisman javobgar bo'ladilar.

Qonunda nazarda tutilgan muayyan shartlarning bo'lganligi bois, to'liq hamda qisman muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar muomala layoqati yuzasidan cheklanishlari mumkin. Fuqaroning muomalaga layoqatli yoki layoqatsizligi haqidagi tegishli qarorni faqat sud, o'shanda ham uning oila a'zolari, vasiylik hamda homiylik organlari, prokuror hamda ruhiy kasalliklar shifoxonasining arizasi asosida chiqarishi mumkin. Muomalaga layoqatsiz shaxsga vasiy va homiy tayinlanadi. Shaxs sog'aygan hollarda sud uni muomalaga layoqatli deb topadi hamda tayinlangan vasiylik yoki homiylikni bekor qiladi.

Bundan tashqari, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar toifasi ham mavjud. Bunday shaxslar ruhiy holati natijasida o'z harakatlarining ahamiyatini anglab yetmaydilar. ularni sud muomalaga layoqatsiz deb topadi.

Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki. Tadbirkorlik faoliyati fuqarolar hamda birlashmalarning daromad olishga yo'naltirilgan tashabbuskor mustaqil faoliyati hisoblanadi.

Fuqaro shaxsiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan vaqt dan boshlab, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladı.

Tadbirkorlik faoliyagi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar ulardag'i ma'lumotlar tarkibining qonun talablariga nomuvosiqligi sababli

ro'yxatdan o'tkazilmasligi mumkin. Mazkur holat bo'yicha xo'jalik sudiga shikoyat bilan murojaat etishga yo'l qo'yiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, alohida turdag'i faoliyat bilan shaxsiy tadbirkorlar maxsus ruxsatnomasi — litsenziya asosida shug'ullanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini tadbirkorlardan fuqarolik huquqiga oid turli bilimlarni mustaqil ravishda tuzishni nazarda tutganligi hamda tadbirkorning o'zi va uchinchi shaxslardan (ya'ni boshqalardan) tavakkalchilikni talab etganligi bois, tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanayotgan shaxs, shubhasiz, fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lishi shart.

**Yuridik shaxslar.** Fuqarolik huquqiga oid munosabatlarning ishtiroychilar qatoriga nafaqat alohida fuqarolar (jismoniy shaxslar), balki yuridik shaxslar, ya'ni tashkilot va muassasalar ham kiradi.

Yuridik shaxslar turlicha bo'ladi. Ular Fuqarolik kodeksining birinchi qismida sanab o'tilgan. Qonun yuridik shaxslarni quyidagacha ta'riflaydi: «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi». Yuridik shaxslar mustaqil balans va smetaga ega bo'lishi kerak. Yuridik shaxslarning huquq, va muomala layoqati, ular ro'yxatga olingan (tashkil etilgan) vaqtidan boshlanadi hamda u tugatilgan vaqtida nihoyasiga yetadi. Aksineha, fuqaroning huquqlayoqati esa, u tug'ilgan vaqtidan boshlanadi va uning vafoti bilan tugatiladi, muomala layoqati esa, to'laligicha shaxs voyaga yetgandan boshlanadi hamda uning vafoti tufayli tugatiladi,

Yuridik shaxs shuningdek, jismoniy shaxs ham qonunda belgilangan muayyan turdag'i faoliyat bilan faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxsning muomala layoqati uning o'z boshqaruvi organlari (direktor, boshliq, rais, prezident, kengash, boshqaruvi, umumiyligi) orqali fuqarolik majburiyatlarini olishi bilan belgilanadi. Mazkur organlarning harakatlari yuridik shaxsning harakatlari sifatida tan olinadi, zero ular fuqarolik muomalasida to'laligicha yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydi.

Yuridik shaxs tarkibida alohida vakolatxona va filiallar tashkilot etilishi mumkin, biroq, ular mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ularning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda

uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko'rsatadi. Vakolatxona va filiallar ularni tashkil etgan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari aks ettirilishi kerak.

Yuridik shaxsning manzili davlat ro'yxatiga olingan joy hisoblanadi. Davlat ro'yxati ko'rsatkichlari, shuningdek, firmaning nomi yagona davlat reyestriga kiritiladi.

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatiga olish nafaqat unda huquq, va muomala layoqatining yuzaga kelishi, balki uning faoliyatini ustidan moliyaviy (soliqqa oid) nazoratni ta'minlash uchun ham zarurdir.

Yuridik shaxsni tashkil etish bo'yicha qonunda belgilangan tartib buzilganda yoki uning ta'sis hujjatlari qonunga nomuvofisqligi sababli, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin. Yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga nomuvofisqligi sababli uni ro'yxatdan o'tkazmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik shaxs faoliyatini tugatish uni qayta tashkil etish (korxonalarni ajratish hamda ular asosida bir necha yuridik shaxsni tashkil etish, bir necha yuridik shaxsning qo'shilishi) yoxud uzil-kesil tugatish orqali amalga oshiriladi. Qonunda yuridik shaxslarni tugatishning alohida tartibi nazarda tutilgan. Yuridik shaxslarni o'zgartirish va tugatish ixtiyoriy yoki majburiy tarzda (sud qaroriga ko'ra) amalga oshiriladi.

FKda yuridik shaxslarning ikkita katta guruhi ajratiladi:

- tijoratchi tashkilot — foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar, masalan, xo'jalik shirkatlari va jamoalari, ishlab chiqarish kooperativlari, aksionerlik jamiyatlar, unitar korxonalar va boshqalar;

- tijoratchi tashkilot bo'limgan yuridik shaxslar — foyda olishni maqsad qilib olmagan tashkilotlar, masalan, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va mulkdor moliyaviy ta'minlab turadigan muassasa shaklidagi, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllardagi korxonalar va tashkilotlar.

Tijoratchi bo'limgan tashkilot o'zining nizomida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanishi mumkin.

### 3-§. *Mulk huquqi*

**Mulk huquqi** ayrim shaxslar yoki jamoaga tegishli moddiy boyliklarni, shuningdek, mulkchilikka oid iqtisodiy munosabatlarni qo'riqlash va tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar

yig'indisidir. Mulk huquqi mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish kabi subyektiv huquqlardan iborat.

Fuqarolik kodeksiga binoan, mulk huquqining subyektlari fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi (mazkur subyektlarning mulk huquqiga xususiy mulkehililikning iqtisodiy toifasi kiradi).

Mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashayoviy huquqlarni farqlash (ajratish) maqsadga muvofiqdir. Boshqa ashayoviy huquqlarga, masalan, mulkka nisbatan xo'jalik yuritish huquqi yoki mulkka nisbatan operativ boshqarish huquqi taalluqli.

Davlat va munitsipal mulkiga davlat va mahalliy organlarning mol-mulki (shahar, viloyat va hk.), korxona va tashkilotlarning mulki kiradi. Mazkur tashkilotlar ularga biriktirilgan mulkka ko'ra mulk huquqiga ega bo'lmaydi. aksincha, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lib, ularning mazmuni mulk huquqiga yaqindir.

Mulkdor qonunga rioya qilgan hamda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquq, va manfaatlarini buzmagan holda o'z xohishiga ko'ra o'z mazmuni boshqarish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Barcha subyektlar mulkka bo'lgan huquqining mazmuni odatda bir xildir. Cheklashlar faqat qonun bilan belgilanadi. Chunonehi, qonunda faqat davlat mulki va munitsipal mulkka kiradigan mol-mulk turlari belgilanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, mulkdor nafaqat huquqlarga, balki majburiyatlarga ham ega. Chunonchi, ular quyidagilardan iborat:

- o'ziga tegishli mol-mulkni saqlash (mol-mulkni saqlash majburiyati);

- soliqlarni to'lash;

- mol-mulkning bexosdan nobud bo'lishi yoki ziyon yetkazilishi bo'yicha butun mas'uliyatni bo'yniga olish (zararli oqibatlar).

Mulk huquqi buzilgan hollarda fuqarolik qonuni bareha subyektlar uchun bir xil himoyalanish choraclarini nazarda tutadi. Himoyalanish choralarini turli-tuman bo'lib, mulkdorning qaysi turdag'i huquqiy vakolatlari (mol-mulkka ega bo'lish, undan foydalanish, uni tasarruf etish huquqlari) buzilganligidan kelib chiqadi. Masalan, basharti buyum qonunga xi洛f ravishda kimadir o'tib qolgan bo'lsa, u qonuniy tarzda buyumni boshqa shaxsdan talab qilib olishi mumkin (vindikatsion da'vo); basharti nobud bo'lgan yoki ziyon yetkazilgan bo'lsa, aybdor shaxsga uning narxini yoki uni ta'mirlash xarajatlarini qoplash majburiyati yuklatiladi.

Mulkdor uning huquqlarini buzish bilan bog'liq har qanday kamchiliklarni, agar ular egalik huquqidан mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa (negator da'vo), bartaraf etishni talab qilishi mumkin.

#### **4-§. Majburiyat huquqi**

**Majburiyat tushunchasi.** Mazkur huquqiy munosabatlarning mohiyati muayyan shaxslarni mulkiy maqsadni ko'zlaydigan va shu sababdan shaxsni boshqa shaxsniga muayyan harakatni amalga oshirishga yoki ma'lum harakatdan o'zini tiyishga majbur etishdan iborat (masalan, mol-mulkni berish, pul to'lash, ishni bajarish va hk.). Bunda boshqa shaxs qarzdordan o'z majburiyatini bajarishni talab etish huquqiga ega, degan xulosha chiqadi.

Majburiyat ishtirokchilar (tomonlar): qarzdor — boshqa shaxs foydasiga muayyan harakatlar (masalan, pul to'lash, ishni bajarish kabilari)ni amalga oshirishga majbur bo'lgan taraf; kreditor — yuqorida keltirilgan xatti-harakatlarni bajarishni talab etish huquqiga ega bo'lgan taraf.

Majburiyatda taraflarning har biri ayni vaqtning o'zida ham kreditor, ham qarzdor bo'lishi mumkin (masalan, fuqaroning buyurtmasiga ko'ra uy-joy qurish), biroq, shunday majburiyatlar borki, bunda bir taraf doim kreditor, ikkinchisi esa qarzdor bo'lib, ularning o'rinnari hech qachon almashmaydi (masalan, biror-bir shaxs boshqasiga qarzga pul bergen hollarda).

Majburiyatning predmetini majburiyat egasi bo'lgan shaxs (qarzdor)ning qarzni to'lash bilan bog'liq muayyan harakatlari tashkil qiladi. Majburiyatlar turli asoslarda yuzaga keladi:

- ishtirokchilar orasida tuzilgan shartnomalar (ijara shartnomasi, pudrat shartnomasi) — eng ko'p uchraydigan asos;

- amaldagi qonunda nazarda tutilgan hamda nazarda tutilmagan, biroq uning mazmuni hamda umumiyoq qoidalariga zid bo'lмагan bir taraflama kelishuvlar orqali;

- ma'muriy hujjat — davlat boshqaruvi organlarining individual (normativ) hujjati (masalan, fuqaroga davlat yoki munitsipal uy-joy berish shaklida mahalliy ma'muriyat qarorini order bilan rasmiylashtirish) orqali;

- intellektual ijodning turli obyektlarini, masalan, san'at asarlari va ishlab chiqarish namunalarini yaratish yoki ulardan foydalanish vaqtida;

- insonlar xohish-irodasiga bog'liq bo'limgan yuridik xatti-harakat natijasida (xazina, topilma va hk.) yoki favqulodda hodisa (yong'in, tabiiy ofat va majburiyatlar quyidagi asoslar bo'yicha ham vujudga kelishi mumkin: shartnomalar (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya, tashish, pudrat va boshqalar), bir taraflama bitimlar (mukofotni oshkora va'da qilish), ma'muriy hujjatlar (binoni ijara berish uchun order berish), zarar yetkazish, asossiz boylik orttirish, yuridik va jismoniy shaxslarning boshqa harakatlari, hodisalar (tabiiy ofatlar).

**Fuqarolik huquqiga oid shartnoma.** Ikki yoki undan ortiq shaxs (fuqarolar yoki yuridik shaxslar)ning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish, ya'ni mol-mulkni qaytarib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kelishuv shartnoma deb hisoblanadi.

«Shartnoma» tushunchasi bilan birga, «bitim» tushunchasi ham qo'llaniladi. Fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan xatti-harakatlari bitim deyiladi. Bitimlar ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnoma), shuningdek, bir taraflama bo'lishi mumkin (masalan, vasiyat). Shunday qilib, «bitim» «shartnoma»ga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, shartnoma bitimning bir turidir.

Taraflar qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hamda nazarda tutilmagan holatlarga ko'ra shartnoma tuzishlari mumkin. Biroq bunda asosiy shartga rioya qilinishi kerak: shartnoma fuqarolik qonunlarining asosiy qoidalariga zid bo'lmasligi lozim.

Shartnoma taraflar o'rtasida to'liq va aniq munosabatlarni tayinlash, har bir tarafning manfaatlarini hisobga olishga imkon beruvchi muhim yuridik vositadir. Shartnoma fuqarolar ishtirokidagi munosabatlarda, ayniqsa, ularning tadbirkorlik faoliyati sohasida keng qo'llanadi.

Shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma tuzish qonunda yoki ixtiyoriy qabul qilingan majburiyatda ko'rsatilgan holatlardan mustasno.

Tomonlar tuzgan shartnomaning tarkibida qonun hamda boshqa huquqiy hujjatlardan nazarda tutilgan turli shartnomalarning unsurlari bo'lishi mumkin (aralash shartnoma).

Shartnomalar og'zaki yoki yozma shaklda tuzilib, quyidagi turlarga bo'linadi: konsensual va real, haq baravariga va tekinga, asosiy va dastlabki.

Shartnoma, uning barcha muhim shartlari bo'yicha taraflar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilgan paytdagina to'liq tuzilgan deb

tan olinadi. Shartnoma predmeti haqidagi shartlar qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarda yoki bu turdag'i shartnomalar uchun zaruriy deb belgilangan hollardagina muhim deb tan olinadi. Shartnoma taraflari da'vosi bilan kelishuvga kelingan shartlar shular jumlasidandir. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi uchun muhim shartlardan biri — narx, ijara shartnomasi uchun esa — muddat hisoblanadi.

Fuqarolik huquqiga oid shartnomaning asosiy qoidalari quyidagilar hisoblanadi. Umumiy qoidalalar bilan birga, fuqarolik qonunlari alohida turdag'i shartnomalapra taalluqli normalarni o'z ichiga oladi. Bunda oldi-sotdi, ijara, yuk tashish, pudrat kabi shartnomalarni alohida aytib o'tish zarur.

**Ishonchnoma.** Fuqarolik huquq, va majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida vakillik institutini qo'llash bir qator sabablarga bog'liq. Ba'zi hollarda shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs) qonunda belgilangan cheklashlar (masalan, voyaga yetmaganligi) tufayli u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmaydi.

Boshqa hollarda u yoki bu xatti-harakatlarni sodir etish imkoniyatining bo'lmasligini ifodalovchi faktik holatlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsning kasalligi, uzoq, muddatli xizmat safarida bo'lganligi va hokazo.

Barcha ko'rsatib o'tilgan hollarda vakillar mazkur shaxslar manfaatini ko'zlab huquqiy ahamiyatga ega xatti-harakatlarni sodir etish huquqiga qonun (masalan, ota-onalar, homiyalar, korxona rahbarlari va hk.), ma'muriy hujjat (lavozimga tayinlash) yoxud shartnoma yoki ishonchnoma tufayli ega bo'ladi.

Shunday qilib, ishonchnoma yozma vakolatnomadan iborat bo'lib, uni bir shaxs boshqa shaxsga uchinchi shaxs oldida vakillik qilish uchun beradi, unda vakilning alohida vakolatlari belgilab qo'yiladi.

Ishonchnoma bir taraflama kelishuv bo'lib, uni amalga oshirish uchun taraflardan birining xohish-irodasi bo'lishi yetarlidir. Vakil vakolatlarining mazmuni hamda hajmiga ko'ra, ishonchnoma uch turga bo'linadi: umumiy (ma'lum davr mobaynidagi turli harakatlarni amalga oshirish mumkinligi nazarda tutiladi); maxsus (ma'lum vaqt ichida bir turdag'i bitimlarni amalga oshirish uchun beriladi) hamda birlamchi, ya'ni bitta va aniq, belgilangan harakatni amalga oshirish uchun beriladi.

Umumiy qoidaga asosan, tuzilgan ishonchnoma oddiy yozma shaklda bo'lishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, notarial shaklini talab etadigan bitim tuzish uchun ishonchnoma (masalan, ko'chmas mulknini solish bo'yicha bitimlar)ni albatta notarius tasdiqlashi shart.

Bu qoida boshqa shaxsga mulkni ishonib topshirish uchun beriladigan ishonchnomalariga ham tegishli bo'lib, ular ham FKga binoan notarial tartibda tasdiqlanishi kerak.

FKga binoan, alohida shaklda rasmiylashtirilgan shartnomalar notarial tasdiqlangan shartnomaga tenglashtirilishi nazarda tutiladi, Masalan, harbiy xizmatchilarining ishonechnomalarini — harbiy qism komandiri, ozodlikdan mahrum etish joylarida bo'lgan mahkumlarning ishonechnomasini — mazkur muassasaning boshlig'i tasdiqlashi kerak.

Ishonchnomani uni bergen shaxs imzolaydi. Basharti, uni yuridik shaxs beradigan bo'lsa, mazkur tashkilot rahbari yoki ta'sis hujjatlari bo'yicha bunday vakolat berilgan shaxs shartnomani imzolaydi hamda unga mazkur tashkilotning muhri bosiladi.

Davlat va munitsipal mulkka asoslangan, shuningdek, pul hamda boshqa mulkiy qimmatliklarni olish va berishga mo'ljallangan ishonechnomalarini mazkur tashkilotning bosh hisobchisi imzolashi kerak.

Ishonchnoma uchun eng muhim shart uning amal qilish muddati hisoblanadi. U uch yildan oshmasligi kerak. Mazkur norma imperativ bo'lib, mazkur ishonechnomani bergen shaxs uni o'zgartirmasligi kerak. Basharti ishonechnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u o'z kuchini bir yil davomida saqlab qoladi.

Tuzilgan sanasi ko'rsatilmagan ishonechnoma noqonuniy hisoblanadi.

Chet elda harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan va notarial shaklda rasmiylashtirilgan ishonechnoma, amal qilish muddati ko'rsatilmagan taqdirda ham, to bekor qilinguniga qadar amal qiladi. Ishonchnoma bergen shaxs xohlagan vaqtida uni bekor qilishi, ishonechnoma berilgan shaxs esa, xohlagan vaqtida undan voz kechishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi FKda ishonechnomadan voz kechish hollarida vakil hamda uchinchi shaxs uchun ma'lum kafolatlar mayjud. Mazkur kafolatlar shundan iboratki, ishonechnomani qaytarib olayotgan shaxs bu haqda manfaatdor vakil hamda uchinchi shaxslarga xabar berishi kerak. Vakilga ishonechnomani darhol qaytarish majburiyati yuklanadi.

## 5-§. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik

Basharti fuqarolik huquq va majburiyatlarini buzilsa, ya'ni majburiyatlar bajarmaganligi bois, mol-mulkka va kishi osoyishtaga

ziyon yetkazilsa, qonunbuzarga nisbatan fuqarolik huquqida nazarda tutilgan choralar ko'riliши mumkin.

**Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik** — fuqarolik huquqlarini buzgan shaxslarga majburiy ta'sir etish chorasi bo'lib, u jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash bilan bog'liq, majburiyatdan iborat bo'ldi.

Mazkur majburiyatning ikki turi mayjud:

- fuqarolik huquqiga oid u yoki bu shartnomani bajarmaslik yoki undagi shartlarga rioya etmaslik sababli yuzaga keladi (masalan, to'lovni kechiktirish yoki tovarlarga haq to'lamaslik kabi shartnomavni majburiyat);

- fuqaroning hayoti, sog'liq yoki mol-mulki yoxud davlat mol-mulkiga zarar yetkazish (masalan, yo'l-transport hodisasi natijasida zarar yetkazish kabi shartnomadan tashqari majburiyat sababli yuzaga keladiganlar).

Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun fuqarolik axloqiga oid javobgarlik quyidagilardan iborat:

- a) ziyonni qoplash: birinchidan, kreditorning buzilgan huquqi, buzilgan yoki yo'qotilgan mulkini (bu ham, o'z navbatida, real ziyonni tashkil etadi) tiklash bo'yicha xarajatlar; ikkinchidan, basharti huquqlari buzilmagan bo'lsada, kreditor olishi mumkin bo'lgan daromadni ololmaganlik (qo'ldan ketgan foyda).

- b) neustoyka (aybona, jarima, penya) — shartnomada aniq, ko'rsatilgan pul miqdoridan iborat bo'lib, uni qarzdor shartnomani bajarmaganlik yoki oxirigacha bajarmaganlik uchun kreditorga to'lashi kerak. Mazkur qarz qat'iy pul summasida yoki foizlarda ifodalanishi mumkin.

Shartnomadan tashqari majburiyatda, masalan, kishining hayoti, sog'ligi yoki mol-mulkiga ziyon yetkazilganda, fuqarolik huquqiga oid javobgarlik yetkazilgan zararni qoplash tarzida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining sog'ligiga zarar yetkazilishi bois, yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlar (davolanish, qarov, to'yimli ovqatlanish va boshqalar) ham qoplanadi. Biroq, mazkur xarajatlarning so'ralishi qonunga muvofiq ravishda isbotlanishi shart.

Jismoniy va ma'naviy jabr ko'rgan fuqaro, mulkiy zararni qoplash bilan birga, ma'naviy zararning ham qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'lib, buni sud pul shaklida belgilaydi.

Fuqaroviy-huquqiy majburiyatni tavsiflash bilan bir qatorda uni qo'llashning quyidagi tartibini aytib o'tish kerak. Chunonchi, huquqi buzilgan shaxs sud, xo'jalik sudiga zararning qoplanishi, neustoykani

to'lash talabi bilan murojaat etishi mumkin. Umumiy da'vo muddati uch yilga teng bo'lib, shaxs majburiyatlarining buzilganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'lган vaqtidan boshlab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik munosabatlari tartibga soluvchi qonun Fuqarolik Kodeksi bo'lib, uning birinchi qismi 1995-yil 29-dekabrda, ikkinchi qismi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan. Fuqarolik Kodeksining ikkala qismi 1997-yil 1-martda kuchga kirdi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi mulkiy va u bilan boshqa nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur munosabatlarni tomonlarning tengligi, xohish-irodanining daxlsizligi va ishtirokchilarining mulkiy mustaqilligiga asoslangan.

*Fuqarolik Kodeksi quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:*

- birinchidan, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini belgilashga oid;
- ikkinchidan, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelish asoslarini amalga oshirish tartibi bo'yicha;
- uchinchidan, intellektual faoliyat natijalariga huquq, belgilash bo'yicha;
- to'rtinchidan, shartnomaviy va shartnomadan tashqari majburiyatlarni tartibga solish bo'yicha;
- besinchidan, mulkiy va ular bilan bog'liq, boshqa shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha va hk.

Fuqarolik huquqi ma'muriy va davlat ishtirokida — boshqa munosabatlarni, shuningdek, soliqqa oid va boshqa moliyaviy munosabatlarni tartibga solmaydi,

Fuqarolik munosabatlarning ishtirokchilari — fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat.

Fuqarolik huquqining prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tartibga solinayotgan munosabatlarni ishtirokchilarining o'zaro tengligi;
- mulkning daxlsizligi;
- shartnoma tuzish erkinligi;
- har kimning xususiy ishlari aralashuvning yo'l qo'yilmasligi;
- buzilgan huquqlarning tiklanishini ta'minlash;
- buzilgan huquqlarni sud orqali himoyalash.

Fuqarolik munosabatlari quyidagi yuridik faktlar natijasida yuzaga keladi:

- shartnoma va boshqa davlat organlari kelishuv hujjatlarining tuzilishi;
- sud qarorlarining qabul qilinishi;
- mulkka egalik qilish;

- intellektual faoliyat va san'at asarlaring yaratilishi (fan, adabiyot, san'at asarlari va boshqalar);
- boshqa shaxsga zarar yetkazilishi;
- asossiz boyish;
- inson ixtiyoriga bog'liq bo'lмаган hodisaning ro'y berishi (masalan, tabiiy ofatlar, bola tug'ilishi, o'lim va boshqalar).

Fuqaro o'zining buzilgan va da'voli huquqlarini sudga murojaat etish orqali hal qilishi, buzilgan fuqarolik huquqlarini bir qator usul va vositalar yordamida himoyalashi mumkin.

Mulkiy munosabatlarda ishtirok etish uchun fuqaro quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni unda huquqiy layoqat va muomala layoqati bo'lishi zarur.

Fuqarolik huquqi subyektlariga yuridik shaxslar ham tegishli bo'lganligi sababli, ularning xususiyatlari, turlari, huquqiy mavqeい bilan tanishish lozim. Fuqarolik huquqi obyektlariga ashyolar, pul, qimmatbaho qog'ozlar, mulkiy huquqlar, ish va xizmatlar, tadqiqotlar, ishlab chiqarish loyihalari, fan, adabiyot, san'at asarlari hamda intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek, shaxsiy nomulkiy hamda boshqa moddiy va nomoddiy ne'matlar kiradi.

### ISTE'MOLCHILARNING HUQUQINI HIMOYA QILISH ASOSLARI

#### 1-§. Iste'molchi tushunchasi

O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni davom etayotgan hozirgi davrda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish dolzarb masalalardan biridir. Chunonchi bozor iqtisodiyotga o'tayotgan respublikamizda mulkning turli shakllari vujudga keldi. *Bunday holatda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor berish lozim.*

1. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, iste'molchi deganda tovarlarni sanoat ishlab chiqarish ehtiyoji uchun emas, balki shaxsiy maishiy ehtiyoji uchun sotib oluvchi fuqaro tushuniladi. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik yuqori rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iste'molchi deganda sotib olinayotgan tovarning xususiyatlari haqida maxsus bilimlarga ega bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Avvalo iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish zarur. Iste'molchilarning huquqiy madaniyati quyidagilardan iborat. Birinchidan — iste'molchilar amaldagi qonunlarni yaxshi bilishlari kerak. Ikkinchidan — iste'molchilar amaldagi qonunlar doirasida harakat qilishlari kerak. Uchinchidan — o'zlariga nimani ravvo ko'rsalar o'zgalgarda ham shuni ravvo ko'rishlari kerak. Agarda barcha iste'molchilar yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilsalar jamiyatimizda huquq subyektlari o'rtasida huquqiy madaniyat yanada rivojlanishi mumkin.

Ushbu mavzuning maqsadi talabalarni iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha respublikamizda olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan iborat. Ushbu kursni o'rganishda talabalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy va joriy qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2. Jamiyatning yashash tarzini belgilovchi qonunlarimiz juda ko'p. Ularning ba'zilari ayrim tarmoqqa xos, muayyan qismi

barchaga birday daxldor. Lekin jamiyatimizda shunday qonun borki, u jamiyatdagi har bir fuqaro, hech shubhasiz, o'sha huquqiy hujjat bilan har qadamda to'qnashadi. Bu O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunidir. Chunki, erkakmi, ayolmi yoxud badavlatmi, kambag'almi — kim bo'lmaylik hammamiz iste'molchimiz.

Ushbu qonunning ishlashi yoki ishlamasligi faqat ayrim mutassaddilarga emas, balki asosiy bozor qatnashuvchilari, ya'ni iste'molchilarning faolligiga bog'liq. Iste'molchi, sodda qilib aytganda, yashash uchun hayotdagi moddiy ne'matlardan foydalanuvchi inson. Ana shu insoning iste'molchilik bilan bog'liq holatlardagi huquqlari mazkur qonunda yozib qo'yilgan.

Shu qonunni ishlashi uchun eng asosiy shart nima? Bizningcha, bu huquqiy hujjatni barcha iste'molchilar yaxshi bilib olishida. Axir huquqlarni bilmay turib uni talab qilib bo'lmaydi-ku. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan, 2002-yil 5-aprelda ayrim o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan bu qonun, ayniqsa, keyingi yillarda xalqimiz hayotini yaxshilashda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hayotni o'zi ushbu qonunning ishlashini ta'minlovchi mexanizm bo'lishini taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 28-noyabrdagi «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish tadbirlari to'g'risida»gi qarori jamoat nazoratini kuchaytirish, aholining huquqiy va iste'mol madaniyatini oshirishga doir ishlarini faollashtirib yubordi. Shu qaror bilan Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Idoralararo kengash tashkil etildi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, respublika iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat bu kengash mazkur qonunni amalga oshirish borasida o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi.

3. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish; oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va xavfsizligini standartlantirish; mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, ana shu qonunlarga muvofiq qabul qilingan hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Qonun hujjatlari iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunda belgilangan iste'molchilarning huquqlarini cheklab qo'yishi, ularni himoya qilishning kafolatlarini kamaytirishi mumkin emas.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunning 3-moddasiga binoan, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnoma yoki bitimda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma bitim qoidalari qo'llaniladi deb ko'rsatilgan.

4. Fuqarolarga savdo xizmati ko'rsatishning asosiy fuqarolik huquqiy shakli chakana oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Chakana savdo munosabatlarida bir tomonda sotuvchi sifatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashsa, ikkinchi tomonda iste'molchi fuqarolar qatnashadilar.

Chakana savdo munosabatlarini odatdagi oddiy tovar ayirboshlash harakati sifatida baholab bo'lmaydi. Bu o'rinda shartnoma munosabatlarini bog'lashdan asosiy maqsad fuqarolarning maishiy ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Shartnomaning oxir-oqibat natijasi savdo xizmati sifati bo'lib, uning tarkibiga sotilayotgan tovarlarning sifatigina emas, balki yana iste'molchiga tovarlarni sotib olishda ma'lum qulayliklar yaratish maqsadidagi qo'shimcha xizmatlar, shuningdek, yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish madaniyati ham kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, chakana oldi-sotdi shartnomasida qatnashuvchi taraflar o'ziga xos maqomga ega. Sotuvchi sifatida — yuridik shaxslar va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar. Sotib oluvchi ya'ni iste'molchi sifatida fuqarolar ishtirok etadi. «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunda iste'molchi foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'limgan shaxsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda soydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro deb ta'rif berilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlar — fuqarolik qonunlarida iste'molchilarining alohida o'ziga xos imtiyozli mavqeい mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu «iste'molchi har doim haq» degan tamoyilda o'z ifodasini topgan.

Haqiqatan ham, har qanday ishlab chiqarish, bozor munosabatlarining pirovard — maqsadi iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi lozim. Iste'molchi bo'lmasa ishlab chiqarish

ham, bozor ham mavjud bo'lmaydi. Boshqa tomondan olganda, iste'molchining mansatlari inson manfaatlarining aynan o'zidir. Inson — iste'molchi fuqaro o'z hayotida juda ko'p va xilma-xil tovarlarga va xizmatlarga muhtoj. Ayni vaqtida u tovarlarning barchasi haqida ularning barcha tafsilotlari bo'yicha ma'lumotlar va bilimlarga har doim ega emas va zotan bunga zarurat ham yo'q. Binobarin, inson o'zi sotib oladigan tovarlarning xususiyatlari haqida maxsus bilimga ega emas deb tan olinar ekan (bu holat rivojlangan mamlakatlar qonunlarida va ish muomalasi odatlarida mustahkamlab qo'yilgan), bu holda zaif tomon — iste'molchi qo'shimcha huquqlarga ega bo'lishi, sotuvchi zimmasiga esa qo'shimcha majburiyatlar yuklanishidan dalolat beradi.

Bundan tashqari iste'molchi jamoat tashkilotlari, ya'ni — hozirda mavjud O'zbekiston iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi, viloyatlardagi va Toshkent shahridagi iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyatlari orqali harakat qilishlari mumkin. Federatsiyaning faoliyati iste'molchilarning savodxonligi va davlatning iste'molchilik siyosatini tashviqot qilish bo'yicha yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Iste'molchilar sudga murojaat qilish huquqiga ega. Da'volar iste'molchi joylashgan yoki zarar yetkazilgan joyda taqdim etiladi. Iste'molchining sud organlariga taqdim etilgan da'vosi muayyan to'lovdan ozod etiladi.

Iste'molchilarning huquqlari buzilishi tufayliunga yetkazilgan ma'naviy zararni, uni yetkazgan shaxs, basharti u aybdor bo'lsa to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi. Ma'naviy zarar, mulkiy zarardan qat'i nazar, qoplanishi lozim. Ko'pincha o'zaro suhbatda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida xalq farovonligi, aholi turmush tarzi yuksak darajada ekanligi to'g'risida havas bilan gapiramiz. Aslida bunga birinchi navbatda qonun ustuvorligini ta'minlash, madaniylashgan bozor tizimini joriy etish orqali erishilgan. Shunday ekan, hech kimdan kam bo'limgan yurtimizda yuksak darajada rivojlangan munosabatlar tarkib toptirish o'zimizga bog'liq.

## 2-§. Iste'molchi huquqlarini himoya qilishda qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar

1. «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga binoan, tovari ishlab chiqaruvchisi va

sotuvchisi o'z korxonasining nomi, joylashgan manzili, ish tartibi va savdo qoidalari haqida to'liq ma'lumot berishi shart. Ayni vaqtida ishlab chiqaruvchi iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

*Tovar haqidagi ma'lumotlarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:*

- tovar majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;

- tovarning asosiy iste'mol xususiyatlari;

- tovarning o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;

- bahosi va sotib olish shartlari;

- ayrim turdag'i tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

- ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari;

- tovardan samarali ya xayfsiz foydalinish qoidalari va shartlari;

- tovarning yaroqlilik muddati va ushbu muddat o'tishi oqibatlari;

- ishlab chiqaruvchining nomi, mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;

- ishlab chiqaruvchining hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergen shuningdek, ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;

- tovarlarni saqlash, xayfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari.

Agar tovar sertifikatlashtirilishi lozim bo'lsa, sertifikatga doir ma'lumotlar.

Tovar haqida noto'g'ri ma'lumot berilgan taqdirda yoki bu ma'lumotlar yetarli darajada to'liq bo'lmasa va buning oqibatida iste'molchi zarur iste'mol xossalariiga ega bo'Imagan tovar sotib olishga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararning talab qilishga haqli.

Sotib olingan tovar undan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi bunday ma'lumotlarning ko'pi bilan uch kun ichida berilishini talab qilishga haqli. Agar bu shart bajarilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste'molchining tovar haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'Imagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablari sotib olingan tovarning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan qoidaga asoslanib qarab chiqiladi.

2. Fuqarolik Kodeksining 433-moddasiga asosan, sotib oluvchiga nafaqat sifatlari tovar olish, shu bilan birga, tovarni xuddi shunday, lekin boshqa o'leham, boshqa shakl va boshqa rangdagi tovarlar

bilan almashtirish huquqi ham beriladi. Agar almashtirilayotgan tovarlarning narxlari mos kelmasa, qayta hisob-kitob qilinadi. Almashtirish tovar sotib olingan joyda yoki sotuvchi ma'lum qilgan boshqa joylarda, tovarning aynan shu sotuvchidan olinganligini tasdiqlovchi kassa cheki yoki tovar cheki taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi. Qonunda almashtirish muddati tovar sotib olingandan keyin 10 kun qilib belgilangan. Bu muddat sotuvchi bilan kelishilgan holda uzaytirilishi mumkin. Almashtirish faqat tovar ishlatilmagan, ko'rinishini yo'qotmagan va o'z xususiyatlarini saqlab qolgan holdagini amalga oshiriladi. Almashtirish asosan, nooziq-ovqat tovarlariga taalluqli. Chakana savdo majmuasida sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari qayta qabul qilinmaydi va almashtirilmaydi, ularda ko'rinas masnu yoki toifasiga mos kelmaydigan xususiyat aniqlangan hollar bundan mustasno. Bu holda tovar almashtirilib beriladi yoki sotib oluvchiga uning to'lagan puli qaytariladi.

Sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'Imagan tovar sotilganda, agar uning kamchiliklari shartnomada tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega bo'ladi:

- xuddi shu markadagi (modeldag'i, artikuldag'i) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

- xarid narxini tegishlichcha qayta hisoblangan holda boshqa markadagi sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

- tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilgan xarajatlarning qoplanishini;

- xarid narxining mutanosib ravishda kamaytirilishini;

- ko'rilgan zarar o'rnini qoplangan holda shartnomada bekor qilinishini;

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtida undan to'liq yoki qisman foydalilanilganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa ham, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas. Ushbu qoida sotib oluvchining mansaatlari qonunda qay darajada himoya qilinganligidan dalolat beradi. Tovarni almashtirishda uning narxidagi farqni qoplash, xarid narxining pasayishi va sifati tegishli darajada bo'Imagan tovarni qaytarish bo'yicha qilgan xarajatlarni qoplash tartibi 1997-yil 1-martdan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 435-moddasida belgilab qo'yilgan. Ya'ni, tovar narxini qaytadan hisob-kitob qilishga uning sifati tegishli darajada

bo'Imagan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Sifati tegishli darajada bo'lgan tovar almashtirilganda, uning narxi qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Sotib oluvchi sifati tegishli darajada bo'Imagan tovarni sifatli tovarga yoki xuddi shunday, biroq o'lchami, andazasi, navi va boshqa belgilari o'zgacha bo'lgan sifati tegishli darajadagi tovarga almashtirishni talab qilishga haqli. Talablarning turlichiga bo'lishiga qarab, Fuqarolik Kodeksining 434-moddasida tegishlicha qoidalar nazarda tutilgan. Xuddi shunday tovar bilan almashtirish yuz bergan taqdirda, sotib oluvchiga yetkazilgan zarar unga sifati tegishli darajada bo'lgan shunga o'xshash tovarni berish yo'li bilan qoplanadi.

### **3-§. Iste'molchining haq-huquqlari**

Davlat iste'molchilarining tovar sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarining huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishi qo'mita, vazirlik va boshqaruva organlari, shuningdek, sudlar tomonidan ta'minlanadi.

Quyidagilar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish uchun, maxsus vakolat berilgan davlat organlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari;

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar;

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarining jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qildilar;

- iste'molchilarining shikoyatlar, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar;

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etadilar;

- o'z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish maqsadida:

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llanish masalalari yuzasidan rasmiy tushuntirishlar beradilar;

- iste'molchilarining huquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga ko'rsatmalar yo'llaydilar;

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilib, murojaat etishga haqlidir;

- qonun hujjatlariga asoslanib boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

### **4-§. Iste'molchiga zarar yetkazilgandagi javobgarlik**

1996-yil 26-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni bilan iste'molchilarning sifatli va xavfsiz, bexatar tovarlar, xizmatlariga bo'lgan huquqi kafolatlangan bo'lib, tovarlarni iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy masalalar tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 186-moddasida ko'rsatilgan jinoyat shaxsning xo'jalik faoliyati sohasidagi manfaatlari, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog'ligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda ifodalanadi.

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish jinoyati tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish, yoki uni sotish natijasida iste'molchining, bu badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

Mahsulot chiqarish deganda, biror-bir mahsulotni buyurtmachi yoki iste'molchiga topshirish yoki jo'natish tushuniladi. «Sotish»

deganda, tovarlarni bevosita iste'molchilarga sotish nazarda tutiladi.

Tahlil qilinayotgan Jinoyat Kodeksining 186-moddasi bo'yicha javobgarlik sifatsiz mahsulotni tovar bozoriga chiqarish yoki sotish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan hollardagina vujudga keladi.

Sifatsiz mahsulot deganda, davlat standarti talablariga, me'yoriy normalarga javob bermaydigan va sifat sertifikatiga ega bo'lмаган mahsulotlar tushuniladi. Mahsulotlar har qancha sifatsiz bo'lsa-da, o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazish xususiyatiga ega bo'limasa, Jinoyat Kodeksining 186-moddasidagi jinoyatning predmeti bo'la olmaydi. Unda ushbu jinoyatni sodir qilgan shaxslarga ma'muriy, intizomiy va boshqacha choralar ko'rildi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu jinoyatning predmeti deb har qanday oziq-ovqat mahsulotlari nazarda tutilgan. Lekin jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining sharti sifatida jinoiy oqibat ko'rsatilgan. Qilmishni bevosita ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoiy oqibat kelib chiqqan bo'lishi shart.

Tovar bozoriga sifatsiz mahsulotni chiqarish yoki sotish natijasida fuqarolarning SOG'LIG'I uchun mazkur moddada ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqmasa, jinoiy javobgarlik ham bo'lmaydi. Biroq, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 20-moddasiga muvofiq, tovar (ish, xizmat)ning tuzilishi, ishlab chiqarilishi tarkibidagi va boshqa nuqsonlari, shuningdek, iste'molchining hayoti, SOG'LIG'I yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, SOG'LIG'I yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnomalarning munosabatlariiga kirishgan, kirishmaganligidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, SOG'LIG'I yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjalarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, uni saqlash, yoxud tashishning belgilangan

qidalarini iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli zarar yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish qasddan sodir etiladi, kelib chiqqan oqibatlar (sog'liqqa zarar yetkazilishi, odamlar o'limi) borasida esa shaxsning aybi ehtiyoitsizlikda ifodalananadi.

Tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqargan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 186-moddasi 1-qismiga ko'ra, tovar bozoriga sifatsiz mahsulot sotish badanga og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining elliq baravaridan yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud mol-mulkning musodara qilinib, yoki musodara qilinmay olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning 2-qismida odamning o'limiga sabab bo'lgan sifatsiz mahsulotni chiqarganlik yoki sotganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko'ra shaxs mol-mulki musodara qilinib besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deb ko'rsatilgan.

Tahlil qilinayotgan moddaning 3-qismida sifatsiz mahsulot chiqarganlik yoki sotganlik natijasida:

- odamlar o'limi;
- boshqa og'ir oqibatlarning yuzaga kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqacha og'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi sog'liqqa zarar yetkazish, odamlarning yalpi zaharlanishi va boshqalar tushuniladi. Unga ko'ra shaxs mol-mulki musodara qilinib o'n yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

## MEHNAT HUQUQI ASOSLARI

### I-§. Mehnat huquqi tushunchasi va predmeti

Mehnat huquqi huquqshunoslik tarmoqlari orasida yetakchi o'rin tutadi. U ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar tizimidan iborat. Bu munosabatlarni mehnat bozoriga amal qilish, mehnatni tashkil etish va uni qo'llash jarayonida namoyon bo'ladi. Zotan, mehnat jismoniy va aqliy kuch-quvvatning sarflanishi emas, balki kishilarning ijtimoiy foydali faoliyatidir.

Ta'kidlash joizki, mehnat insонning tashqi dunyo predmetlariga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida har bir kishining faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon turli ijtimoiy munosabatlarni qamrab olsa-da, hammasi ham mehnat huquqiga taalluqli bo'lavermaydi. Bu hol quydagi omillar bilan izohlanadi:

**Birinchidan**, mehnat huquqi normalari mehnatning texnologik jarayonini emas, faqat uni mehnat faoliyatida qo'llash shartlarini, ya'ni ijtimoiy mehnatni tartibga soladi. Shunga ko'ra, siyosiy-iqtisodiy kategoriya mehnatning o'zi emas, balki uning ijtimoiy shakli, uni tashkil etilishi yoki aniqroq aytganda, ijtimoiy mehnatda ishtirok etish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy mehnat kooperatsiya-sidan tashqarida bajarilgan har qanday ish mehnat huquqiga taalluqli bo'lmaydi, uning ta'sir doirasiga kirmaydi.

**Ikkinchidan**, mehnat unsurlari turli ijtimoiy munosabatlarda, jumladan, o'quv yurtlarida mutaxassis tayyorlash, yukni tashish va yetkazish, topshiriq va buyurtma bajarishga oid jarayonlarda ham namoyon bo'ladi. Bunday hollarda mehnat ijtimoiy munosabatlarni bilan bilvosita bog'langani sababli o'zaro majburiyatlarni bajarish usuli sifatidagina xizmat qiladi. Shuning uchun u mehnat huquqining predmetiga kirmaydi.

Muhimi shundaki, mehnatga oid ijtimoiy munosabatlarda mehnat chetdan kirgan unsur emas, balki uning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ani vaqtida, u ishchi kuchini bevosita ishlab chiqarish qurollari bilan uzviy bog'lovchi vosita hamdir. Mehnat huquqi

ijtimoiy munosabatlarni muayyan tarzda tartibga solishi bois, ular kishilarning mehnat qobiliyatini qo'llash jarayonida namoyon bo'ladi. Aniqroq aytganda, mehnatni huquqiy jihatdan boshqarish obyekti moddiylashtirilgan, ya'ni pul yoki tovar holatiga keltirilgan faoliyatida emas, jonli mehnatning o'zida, uning tashkil etilishi va shart-sharoitlarda aks etadi.

**Mehnatga oid munosabatlar** quydagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) mehnatga oid munosabatning subyekti — xodim korxona, muassasa, tashkilotning mehnat jamoasi tarkibiga qo'shiladi va o'z mehnati bilan korxona jamoasi oldidagi vazifani bajarishga kirishadi. Xodimning mehnat jamoasi tarkibiga kirishi uni vaqtincha, mavsum davomida yoki doimiy muddatga ishga qabul qilinishida emas, korxonaning shtatiga yoki mehnat jamoasi ro'yxatiga kiritilishi bilan belgilanadi;

2) ijtimoiy mehnat taqsimotiga ko'ra, muayyan mehnat funksiyasini bajarish xodim majburiyatlarining predmetini tashkil etadi. Muhimi shundaki, bu ish bir qancha kishilar faoliyati bilan uyg'unlashgan holda, ya'ni mehnat kooperatsiyasi doirasida bajariladi. Binobarin, u faqat individual-konkret topshiriq emas. Chunki xodimning mehnat funksiyasi muayyan mehnat faoliyatining turiga mos kelishi barobarida, u alohida-alohida ishlab chiqarish operatsiyalari bilan cheklanib qolmaydi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan yakunlanmaydi, qisqasi, mehnatga oid munosabatlarni kishilarning mehnat faoliyati jarayonidagi uzviy va uzoq vaqt davomida namoyon bo'ladi dan aloqalari deya ta'riflash mumkin. Shuning uchun zarur hollarda ishlab chiqarish manfaatlari yoki xodim talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda uning boshqa ishga o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi;

3) xodimning va mehnat jamoasi har bir a'zosining ish faoliyati muayyan tuzum o'rnatilgan sharoitda amalga oshiriladi. Mehnatga oid munosabatlar subyektlarining mehnatni tashkil etishga doir tartib-intizom, qoida talablariga bo'yusunishi — mehnat munosabatlarning izchilligi va samaradorligini belgilovchi zarur omillardan biri.

Mehnatga oid munosabatlar ixtiyorli xarakterga ega bo'lsa-da, ular bevosita ishlab chiqarish doirasida namoyon bo'ladi va muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyat sanaladi.

Demak, mehnat munosabatlarini kishilar mehnatining ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish qurol va vositalariga nisbatan qo'llanilishi natijasida ro'yobga chiqadigan ijtimoiy munosabatlar

deya tavsiflash mumkin. Ular xodimning korxona, muassasa, tashkilot tarkibiga qo'shilishi, ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda muayyan mehnat funksiyasini bajarishi jamoa oldida turgan xo'jalik, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa vazifalarni ado etishga ko'maklashuvida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat huquqining predmetini, ya'ni mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan xodimlar mehnatining ishlab chiqarishda qo'llanilishi tufayli paydo bo'ladigan ijtimoiy mehnatga oid munosabatlar tashkil etadi. Ushbu munosabatlar mehnat huquqi predmetining yadrosi (o'zagi) hisoblanadi.

## **2-§. Mehnatga oid munosabatlar**

Ijtimoiy voqelikda mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlar tizimi mehnatga oid munosabatlardan tashqari, ular bilan muayyan tarzda bog'langan boshqa munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu munosabatlar mehnat munosabatlaridan ilgariroq, ular bilan bir vaqtida, yoxud bevosita mehnat munosabatlaridan kelib chiqishi mumkin. Mazkur munosabatlar jumlasiga:

- 1) mehnat sohasida tashkiliy boshqaruvga oid munosabatlarni;
- 2) ishga joylashtirishga oid munosabatlarni;
- 3) kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq munosabatlarni;
- 4) mehnat muhofazasi va mehnat qonunlariga rioya etishni nazorat qilishga doir munosabatlarni;
- 5) mehnat nizolarini (yakka va jamoaalarga doir) hal etish bilan bog'liq munosabatlarni kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan munosabatlarning har biriga xos xususiyatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**1) Mehnat sohasida tashkiliy boshqaruvga oid munosabatlarda,** odatda, ish beruvchi bilan mehnat jamoasi, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari o'rtaida kelib chiqadigan munosabatlar aks etadi.

Amaldagi qonunchiligidan binoan, mehnat jamoalarini mehnatga oid ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. Mehnat kodeksining 19-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat jamoasining huquq va burchlari, uning vakolatlari, ularni amalga oshirish tartibi va shakllari qonun hamda boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Bu haqda darslikning tegishli bobida batafsil ma'lumot beriladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligidagi «Xodimlar va ish beruvchilarning vakilligi» deb nomlangan yangi institut tarkib topdi. Mehnat kodeksining III bobi shu masalaga bag'ishlangan. Kodeksning 20-moddasiga muvofiq, xodimlar va ish beruvchilarning vakillik organlariga mehnatga oid munosabatlarning subyekti sifatida qaraladi. Kodeksning 21-moddasiga ko'ra, korxonadagi kasaba uyushmasi va uning saylab qo'yilgan organi yoki xodimlar tomonidan saylanadigan boshqa organlar mehnat munosabatlarda xodimlarning manfaatlarini ifoda etishda vakil bo'lishi va bu manfaatlarni himoya qilishi mumkin. Mazkur organni saylash tartibi, uning vakolatlari, muddati va tarkibini mehnat jamoasining umumiyligini yig'ilishi (konferensiyasi) belgilaydi. Ya'ni vakillik qilish hamda ularning manfaatlarini himoya etishni ishonib topshirishlari mumkin bo'lgan organni xodimlarning o'zi belgilaydi.

Ish beruvchining vakillik organini tuzishi, uning faoliyati, maqsadlari va huquqlari Mehnat kodeksining 28-moddasida bayon etilgan.

Unda asosan, korxona, muassasa va tashkilotlarda mehnatning shartlarini joriy etish, jamoa shartnomasi va kelishuvlariga oid masalalarni hal qilish, korxonani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mehnat nizolarini yuzasidan xodimlar manfaatlarini himoyalash, korxona va uning mulkiy mansaatlarini ifoda etish orqali ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish, xo'jalik va mehnatga oid munosabatlar sohasida ish beruvchining huquqlarini himoya qilish ko'zda tutilgan.

Demak, tashkiliy boshqaruvga oid munosabatlar mehnat huquqining asosiy predmeti – ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarga ko'makdosh sifatida xizmat qiladi.

**2) Ishga joylashtirishga doir munosabatlar** o'rta umumta'lim, litsey, kasb-hunar kollejlarini tamomlagan yoshlarni, urush nogironlari va qatnashchilarini, harbiy xizmatni tugatib, iste'foga chiqqanlarni, shuningdek jazoni o'tab bo'lgan shaxslarni, mehnat va ishlab chiqarishning qayta tashkil etilishi, korxonalarning bankrot bo'lishi oqibatida ishdan bo'shatilgan kishilarni hamda aholining boshqa toifalarini ishga joylashtirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Ayni vaqida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari va boshqa davlat idoralari ishga joylashtiruvchi organ hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda mazkur munosabatlar ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinishini ham eslatib o'tish lozim.

Umuman, aholini ish bilan ta'minlashga doir munosabatlar mehnat huquqi predmetining ajralmas qismi hisoblanadi. O'z-o'zidan ayonki, ular mehnatga oid ijtimoiy munosabatlardan ilgariroq namoyon bo'ladi.

**3) Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash** va malakasini oshirishga doir munosabatlar asosan, xodimlarning o'qishi, muayyan kasb yoki mutaxassislikka ega bo'lishi, shuningdek, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'z malakasini oshirishi jarayonida shakllanadi.

Bu kabi ijtimoiy munosabatlarning mazmun-mohiyati mehnat faoliyatida emas, muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha o'qitishda mujassamlashgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – ishlab chiqarish jarayonida o'qitish tizimini joriy etish orqali yuqori samara bilan ishlash qobiliyatiga ega malakali xodimlarni tayyorlashdan iborat. Mazkur munosabatlar ham mehnat munosabatlari bilan uzviy bog'liqligi sababli, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Binobarin, ular mehnat huquqi predmetining tarkibiy qismi hamdir.

Ma'lumki, 1998-yilning 1-mayida «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining (yangi tahrirdagi) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi, kasb va mashg'ulot turini tanlashi va ularning qiziqishi, qobiliyat, kasbij tayyorgarligi hamda ma'lumotiga muvofiq, mehnat sohasidagi kafofatlangan huquqlarining ro'yobga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunda aholini ishga joylashtirish, qayta o'qitish va kasbga yo'naltirishning umum davlat tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Mazkur qonunga binoan, Respublika Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining viloyat, shahar va tumanlarda bo'linmalari tashkil etilgan. Mahalliy mehnat bo'linmalarning zimmasiga fuqarolarning kasb tayyorgarligi, ixtisosi va shaxsiy istaklariga muvofiq ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, korxona, muassasa va tashkilotlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida aholini xabardor qilish, ishchi kuchi va mehnat zaxirasidan oqilona foydalanishni nazorat etish kabi vazifalar yuklangan. Ish bilan band bo'lmagan kishilarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish kabi masalalar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan 1999-yil 24-aprelda tasdiqlangan nizomda o'z ifodasini topgan.

#### **4) Mehnat muhofazasi va mehnat qonunlariga rioya etishni nazorat qilishga doir munosabatlar.**

Bu kabi munosabatlar amalda vakolatli davlat idoralarining korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va mehnat qonunlariga rioya etishni nazorat qilish jarayonida namoyon bo'ladi.

Mehnat kodeksining 223-moddasida belgilanganidek, mehnatni muhofaza qilish holati ustidan davlat nazorati va tekshiruvni tegishli davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Unda, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish norma va qoidalariga rioya qilish ustidan jamoat tekshiruvni kasaba uyushmasi va xodimlarning boshqa vakillik idoralari tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, nazorat faoliyati maxsus idoralar, xususan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshidagi Davlat mehnat huquq inspeksiysi, kasaba uyushmalarning xuddi shunday inspeksiysi, mehnat texnika inspeksiysi tomonidan ham amalga oshiriladi. Qolaversa, bunday nazorat ixtisoslashtirilgan davlat idoralari, jumladan, Davlat sanitariya nazorati, Davlat energetika nazorati va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Mehnat qonunlariga rioya etilishiga doir umumi nazorat esa prokuratura idoralari zimmasiga yuklanadi (O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgustdag'i qonunining 4-moddasi).

Mehnat muhofazasi va mehnat qonunlariga rioya qilishni nazorat etish faoliyatiga oid munosabatlar ish beruvchilar, ayrim mansabdor shaxslar, mehnatni muhofaza qilish idoralari va korxona xodimlari hamda ularning vakillik organlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish zaruriyati yuzasidan kelib chiqadi.

Aksariyat hollarda, bunday munosabatlar mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar bilan bir vaqtida shakllanadi. Ayrim hollarda ular mehnatga oid ijtimoiy munosabatlardan ilgariroq namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1993-yil 6-maydag'i qonuniga binoan mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan, xodimlar salomatligi va hayotiga xavf tug'diradigan korxonalar faoliyati yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, mehnat xavfsizligi qoidalariga muvo-fiqlashtirilgun ga qadar, belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan to'xtatib qo'yilishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish borasidagi umumi nazorat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiradi.

## **5) Mehnat nizolarini hal qilishga doir munosabatlar.**

Bunday nizolar asosan, mehnatni tashkil qilish, shart-sharoitlarini belgilash va ishlab chiqarishga tatbiq etish jarayonida yuzaga chiqadi. Ko'pincha mehnat nizolari ish beruvchi bilan xodim o'rtasida vujudga kelgan kelishmovchilik o'z vaqtida hal qilinmagan taqdirda ro'yobga chiqadi. Ammo mehnat nizolari jamoa shartnomasini qabul qilish yuzasidan ham kelib chiqishi mumkin. Mehnatga oid munosabatning subyekti sifatida, bir tomonidan, xodim, ish beruvchi, mehnat jamoasi, kasaba uyushmasi, xodimlarning boshqa vakillik organlari bo'lsa, ikinchi tomonidan, mazkur nizolarni ko'rib hal etadigan organlar: mehnat nizolari komissiyalari, sud organlari, ayrim hollarda xo'jalik sndlari namoyon bo'ladi.

Odatda, bu kabi munosabatlar mehnat nizolarini hal qilish tartibi bilan bog'liq bo'lgani sababli protsessual xarakterga ega bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim hollarda mehnat nizolari xo'jalik sndlari ham ko'rildi. Chunki ko'pincha mehnat nizolari xo'jalik yurituvchi subyektlar, mansabdar shaxslarining moddiy javobgarligi bilan bog'liq bo'lgani bois, ular xo'jalik nizolarini hal etish jarayonida yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytasak, mehnat huquqi predmetini asosan, ikki guruh munosabatlarga ajratish mumkin. Birinchisi — bevosita ishlab chiqarish jarayonida shakllanadigan mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar bo'lib, mehnat huquqi predmetining o'zagini tashkil etadi. Ikkinchisi — mehnatga oid munosabatlarga muayyan tarzda bog'liq bo'lgan va yuqorida tilga olingan boshqa tusdagi munosabatlardan iborat.

## **3-§. Mehnat huquqi manbalari**

Yuridik adabiyotda e'tirof etilishicha, huquq manbai deganda umumiy ma'noda huquqni ifoda etish shakli tushuniladi. Manbalarning umumiy shakli normativ-huquqiy hujjatdir. Shunday ekan, mehnat huquqining manbalari — mehnatga oid munosabatlar va ular bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlarni tartibga soluvchi turli normativ-huquqiy hujjatlardir.

Normativ-huquqiy hujjatlar muayyan turdag'i va mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'lumki, 2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunda normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi, turlari va ularga

qo'yiladigan talablar belgilab berilgan. Qarorning 2-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi ta'rifi bayon etilgan. Unda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deya ta'riflangan.

Ushbu qonunda ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar yoki mansabdar shaxslar hisoblanadi (qonunning 4-moddasi).

Normativ-huquqiy hujjatlar davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qabul qiladigan organlar mavqeい, yuridik kuchi, amal qilish hududi, tatbiq etiladigan shaxslar doirasiga qarab quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari;
- e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- f) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- g) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
- h) mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari.

Umuman olganda, ijtimoiy munosabatlarni, jumladan, mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ikki turga: qonunlar va qonun osti hujjatlarga bo'linadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonun osti hujjatlar sifatida belgilangan (mazkur qonunning 6-moddasi).

Ma'lumki, normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlar asosiy o'rinnegallaydi. Qaror — davlat oliy vakillik organi tomonidan qabul qilinadigan, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy

hujjatdir. Shuning uchun mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustuvorligi so'zsiz tan olinadi. Konstitutsiya (asosiy qonun) qonunlar orasida markaziy o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi olyi yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va tamoyillariga zid kelishi mumkin emas (qonunning 7-moddasi).

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Jamiyat hayotining mezoni bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz darkor... Konstitutsiyamiz qonun oldida hammaning tengligini ta'minlaydigan, har bir insонning o'z fikrini emin-erkin ifoda qilishida, o'z haq-huquqlarini talab etishida, burch va mas'uliyatlarni bajarishida bamisol qalqon bo'lib xizmat qilishi kerak».

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq 11-sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida milliy davlat va uning ma'muriy-hududi tuzilishi, davlat hokimiyyati va boshqaruva organlarining tizimi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish tamoyillari, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlari belgilab berilgan.

Konstitutsiyada ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi va eng muhimmi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari olyi qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi (Konstitutsyaning 13-moddasi).

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga mos kelishi shart (Konstitutsyaning 19-moddasi). Shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan

sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas (Konstitutsyaning 19-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37, 38, 39, 40-moddalari mehnat huquqining asosiy manbalari hisoblanadi.

Konstitutsyaning 37-moddasida ta'kidlanganidek, «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatlilik mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqlariga egadir». Unda yana sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari, majburiy mehnat taqiqilanadi, deb ko'rsatilgan.

Ta'kidlash joizki, xalqaro-huquqiy hujjatlarda, jumladan, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bitim va boshqa hujjatlarda ko'zda tutilgan har bir fuqaro mehnat huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Asosiy qonunimiz mehnat sohasidagi tenglik, kamshitishlarga yo'l qo'yimaslik, Konstitutsiyaga muvofiq fuqarolarning kasb va ish turini erkin tanlash huquqining eng muhim kafolati bo'lib qoladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning mehnat qilishi majburiy ekani ko'zda tutilmaydi. Mazkur qoidaning kiritilishi fuqarolarni mehnat qilishga majbur etishni taqiqlovchi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitimga, shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930-yildagi 29-sonli «Majburiy mehnatni taqiqlash to'g'risida»gi hamda 1957-yildagi 105-sonli «Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risida»gi Konvensiyalariga mos keladi. Konstitutsyaning 37-moddasida bayon etilgan majburiy mehnatni taqiqlash haqidagi qoida bir talay qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Konstitutsyaning 38-moddasida mustahkamlangan dam olish huquqidan va mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotda ishlayotgan xodim, shuningdek, ayrim kishilar ixtiyorida ishlayotgan shaxslar foydalanadilar. Ta'kidlash zarurki, xodimlar mehnat to'g'risidagi qonunlarga binoan, nafaqat haq to'lanadigan mehnat va ijtimoiy ta'tillar, ayni vaqtida ish kuni davomidagi va smenalar orasidagi tanaffuslar, dam olish hamda bayram kunlari dam olish huquqidan foydalanadilar.

Mehnat kodeksida ish vaqtining eng ko'p muddati, mehnat va ijtimoiy ta'tilning eng kam muddatining mustahkamlab qo'yilgani fuqarolar dam olish huquqining muhim kafolatidir. Qaror bilan belgilangan bu normalarga rioya etish korxona, muassasa va tashkilotlar uchun majburiydir.

Ta'kidlash joizki, ish vaqtining eng ko'p muddati va ta'tillarning eng kam muddatini huquqiy tartibga solish masalasi doimo Xalqaro Mehnat Tashkilotining diqqat markazida bo'lib kelgan. Masalan, XMTning 1935-yil 22-iyundagi 47-sonli Konvensiyasida 40 soatlik ish haftasi tamoyili mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur qonunda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki Referendum o'tkazish orqali qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi 166-II sonli «qonun loyihalarining umumxa'lq muhokamasi to'g'risida»gi qonuniga muvosiq, mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalariga daxldor qonun loyihalari umumxa'lq muhokamasiga qo'yiladi. 2001-yil 30-avgustda «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»(yangi tahriri) qonuni ham qabul qilingan.

Keyingi yillarda mehnatga oid munosabatlar sohasida ham bir qancha muhim qonunlar qabul qilindi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda tasdiqlangan «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (yangi tahrirda) qonunida har bir kishi o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini tasarruf etishda mutlaq huquqqa ega ekani ta'kidlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmaslik fuqaroni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi. Mazkur qonunda ishni tanlash va ishga joylashishda ko'maklashish, yangi kasb va mutaxassislikka o'rnatish, mahalliy mehnat organlari orqali malakan oshirish yoki shu tizim yo'llanmasi bilan stipendiya to'lanadigan boshqa o'quv yurtlarida malaka oshirish, fuqarolarning yoshi va xususiyatlarini hisobga olib tashkil etiladigan haq to'lanadigan jamoat ishlariда qatnashish uchun muddatli shartnomalar (kontrakt) tuzish imkoniyatini yaratib berish, ishsizlik nafaqasini to'lash, ishidan mahrum bo'lganlarga beriladigan kafolatlar ko'zda tutilgan.

Keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar orasida O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni alohida o'rinni tutadi. Mazkur qonun ishlab chiqarish usullari, mulkehilik shaklidan qat'i nazar, mehnat muhofazasini tashkil etishning yagona tartibini belgilab beradi. Shu bilan birga, bu qonunning asosiy vazifasi fuqarolarning salomatligi va mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlashdan iborat. Ayni chog'da, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar mehnatini muhofaza qilinish huquqi

mustahkamlab qo'yilgan. Bu borada yana O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida» 1992-yil 3-iyuldaggi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida» 1996-yil 29-avgustdaggi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida» 2001-yil 11-maydagi Qonuni va boshqa qator qonun hujjatlari qabul qilingan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Aksariyat hollarda bunday qonun hujjati Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarni amalga kiritish tartibini belgilaydi. Masalan, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini amalga kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydagi qarori, «O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrdagi qarori shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, Oliy Majlis ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida ham qaror qabul qiladi.

Respublika mehnat qonunchiligi sohasida amaldagi qonunlar orasida O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muhim o'rinni tutadi. Umehnat huquqining kodifikatsiyalashtirilgan asosiy manba sifatida mehnat huquqi sohasining predmeti doirasiga kiruvchi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 1995-yil 21-dekabrdagi qabul qilingan bo'lib, 1996-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritilgan. Uning 1-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek, jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mulkchilikning barcha shaklidagi korxona, muassasa va tashkilotlarda, shuningdek 18 yoshga to'lgan ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Respublika hukumati butun O'zbekiston hududida barcha korxona, muassasa, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining

qarorlari mehnat huquqining manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezidentning normativ xarakterdagi farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida o'z vakolati doirasida chiqariladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijroiya hokimiyat organi hujjatlari sifatida normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lib, qonun osti hujjat hisoblanadi. Hukumat qarorlari huquq manbalarining yuridik iyerarxiyasida qonunlar va Prezident farmonlaridan keyingi o'rinda turadi.

Odatda, hukumat qarorlari amaldagi qonunlarni, Prezident farmonlarini rivojlantirish, aniqroq bayon etib berish va ularni so'zsiz amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining diniy bayram — qurban hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish haqida 1991-yil 21-iyundagi 221-tonli Farmonining ijrosi yuzasidan chiqarilgan Vazirlar Mahkamasining «qurban hayitini nishonlash» to'g'risida 2001-yil 23-fevraldag'i 92-tonli qarorini eslatish mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'z vakolatlari doirasida buyruq va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Bu organlarning huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Bunday hujjatlarning ta'sir ko'lami, harakat doirasasi, yuridik kuchi, boshqaruv idorasining davlat organlari tizimida tutgan o'rni va uning vakolatlari bilan belgilanadi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari amaldagi qonunlar, Prezident farmonlari hamda hukumat qarorlariga zid bo'lishi mumkin emas.

Ma'lumki, respublikamizda ijtimoiy yo'naliishdagi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat haqidagi qonunchilikda yangi huquqiy normalar paydo bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 4-bobi ana shunday normalar sirasidan bo'lgan jamoa shartnomasi va kelishuvlariga bag'ishlangan. Kodeksning 20-moddasida ko'rsatilganidek, jamoa shartnoma va kelishuvlari xodimlar bilan ish beruvchilarning mehnatga oid munosabatlarini shartnoma asosida tartibga solish

va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishni nazarda tutgan holda tuziladi. Tartibga solinadigan munosabatlar hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarning xususiyatiga qarab jamoa kelishuvlari uch turga bo'linadi: bosh jamoa kelishuvlari, tarmoq jamoa kelishuvlari hamda hududiy (mintaqaviy) jamoa kelishuvlari. Jamoa kelishuvlari muzokaralarda ishtirot etayotgan taraflarning kelishuviga muvofiq ikki yoki uch tomonlama bo'lishi mumkin. Kelishuvni tuzish vaqtida, uchinchi taraf sifatida, davlat ijroiya hokimiyat organi ishtirot etishi mumkin (MKning 47-moddasi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ana shunday jamoa kelishuvlari mehnat huquqining manbai hisoblanadi. Zero, bunday kelishuvlar davlat hokimiyati yoki ijroiya hokimiyat organining normativ-huquqiy hujjati emas, balki xodimlarning vakillik organlari bilan ish beruvchining o'zi yoki vakili o'rtasida tuziladigan hujjatdir. Aniqroq qilib aytganda, kelishuv mehnatga oid munosabatlar hamda ularning vakillari — subyektlari o'rtasida tuziladi. Mehnat kodeksining 1-moddasida bu hol shunday ifodalangan: «O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalar va boshqa lokal normativ-hujjatlar bilan tartibga solinadi». Mehnat kodeksining 52-moddasida bayon etilgan jamoa kelishuvlarining mazmuni mehnat munosabatlarini, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga oid barcha qoidalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Ta'kidlash joizki, lokal normativ-huquqiy hujjatlar ham mehnat huquqi manbalari sifatida muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamoa shartnomalari va shu kabi hujjatlar, ayniqlsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jamoa shartnomalari korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlari tartibga soluvchi normativ-hujjatdir. Mazkur shartnomalar yordamida subyektlar o'rtasida mehnatga oid munosabatlar tartibga solib boriladi va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar muvofiqlashtiriladi.

Lokal normativ hujjatlar toifasiga korxonalarda qabul qilinadigan ichki mehnat tartibi qoidalari (Mehnat kodeksining 174-moddasi), intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar (kodeksning 175-moddasi), xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi qoidalari, turli yo'riqnomalar singari hujjatlar kiradi. Bu hujjatlarning amal qilish doirasasi faqat bir korxona hududi bilan cheklangan bo'lib, ular qonun

osti hujjatlar qatoriga kirsa-da, ammo amaldagi qonunlarga zid bo‘lmasligi lozim.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ tomonidan belgilangan muddat tugaguniga yoki hodisa yuz berguniga qadar hujjatning amal qilishini yangi muddatga (masalan, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to‘g‘risida yoki hujjatga muddatsiz tus berish haqida) o‘zgartirilishi haqida qaror qabul qilinishi mumkin (mazkur qonunning 28-moddasi). Normativ-huquqiy hujjatning (uning qismining) amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) mo‘ljallangan muddatda tugaganda yoki boshqa bir hodisa yuz berganda;
- normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) qonunda belgilangan tartibda konstitutsiyaviy emas deb topilganda;
- normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) o‘z kuchini yo‘qtgan deb topilganda;
- normativ-huquqiy hujjat qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinganda.

Ma’lumki, jamoa kelishuvlari vakolatli organlari uni tuzgan xodimlarga va ish beruvchilarga nisbatan muayyan hududda tatbiq etiladi. Ayrim hollarda, u ijroiya hokimiyat organlariga ham tatbiq etiladi. Jamoa kelishuvlari u imzolagan paytdan yoki kelishuvda belgilangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Uning amal qilish muddati taraflar tomonidan belgilanadi va bu muddat 3 yildan ortib kelmasligi lozim (MKning 54-moddasi).

Lokal normativ hujjatlar, odatda, bir korxona doirasida amal qiladi. Mehnat kodeksining 41-moddasida ta‘kidlanishicha, jamoa shartnomasi imzolangan vaqtidan e’tiboran yoki jamoa shartnomasida ko‘rsatilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda taraflar belgilangan muddat davomida amal qiladi. Belgilangan muddat tugagach, jamoa shartnomasi yangi shartnoma tuzilgunga yoki amaldagi shartnoma o‘zgartirilgunga yoxud to‘ldirilgunga qadar amal qiladi.

Jamoa shartnomasi ish beruvchiga va shu korxonaning barcha xodimlariga, shu jumladan, jamoa shartnomasi kuchga kirgandan keyin ishga qabul qilingan shaxslarga ham tatbiq etiladi.

Korxona qayta tashkil etilganda jamoa shartnomasi bu davr mobaynida ham, korxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ham, korxona mol-mulkining egasi o‘zgarganda ham 6 oy mobaynida o‘z kuchini saqlab qoladi (MKning 43-44-moddalari). Qarorga binoan, korxona tugatilayotganda jamoa

shartnomasi tugatish ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan muddat davomida o‘z kuchini saqlab qoladi.

O‘zbekiston Respublikasining mehnatga oid normativ-huquqiy hujjatlarining tatbiq etilishi lozim bo‘lgan munosabatlар hamda jismoniy va yuridik shaxslar doirasining aniq belgilab qo‘yilishi lozim. Shu bois, barcha huquq sohalari kabi mehnat qonunchiligidagi ham yagonalik va differensiallik tamoyilining ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu tamoyilga ko‘ra, mehnat sohasidagi huquqiy normalar ikki guruhga bo‘linadi: 1) barcha xodimlarga nisbatan tatbiq etiladigan umumiylar; 2) ayrim xodimlar toifasiga (ayollar, voyaga yetmagan shaxslar, nogironlar, noqulay mehnat sharoiti va og‘ir ishlarda band bo‘lganlar, murakkab va noqulay iqlim sharoitida ishlayotganlar, moliyaviy jihatdan byudjetdan ta‘minlanadiganlar va boshqalar) nisbatan qo‘llaniladigan maxsus normalar.

Mehnat qonunchiligidagi normalarning xodimlar toifasiga qarab differensiatsiya qilinishi shundan iboratki, umumiylar maqomga ega huquqiy normalar barcha turdagи korxonalarda ishlayotgan xodimlarga nisbatan bir xil tatbiq etiladi. Masalan, Mehnat kodeksining 6-moddasida mehnatga oid munosabatlар sohasida kamsitishning taqiqlanishini nazarda tutuvchi qoida barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo‘lishi va ulardan foydalananishda teng imkoniyatlarga ega ekani tasdiqlangan. Mazkur kodeksining 7-moddasida bayon etilgan majburiy mehnatning taqiqlanishi haqidagi qoida ham shunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mehnat qonunchiligidagi huquqiy normalar differensiatsiyasi ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solish xususiyatlari bilan bog‘liq ekani ma’lum. Mehnat kodeksining 18-moddasida bu xususiyatlari quyidagicha turkumlangan:

- xodim va korxona o‘rtasidagi mehnat munosabatlari bilan bog‘liq xususiyatlari;

- xodim mehnatining shart-sharoitlariga oid xususiyatlari;
- tabiiy iqlim sharoitlariga oid xususiyatlari;
- xodim mehnat qilayotgan joyning alohida huquqiy tartibi bilan bog‘liq xususiyatlari;

- boshqa obyektiv omillar bilan belgilangan xususiyatlari.

Ish bilan ta‘minlash va ishga joylashtirish.

Qonun fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi qonuning 6-moddasiga binoan, davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

- ish bilan ta'minlash turini, shu jumladan turli mehnat tuzumidagi ishni tanlash erkinligini;

- ishga qabul qilishni qonunga xi洛f ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanishni;

- maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berishni;

- har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart-sharoitlarida, mehnatga haq to'lashda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni;

- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitishni, mahalliy mehnat organlarida yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab malakasini oshirishni;

- boshqa joydagisi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariغا muvofiq kompensatsiya to'lashni;

haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ish joylarining tugatilishi munosabati bilan xodimlarga ishga joylashgunga qadar beriladigan imtiyoz va kompensatsiyalar hamda o'rtacha oylik ish haqidagi kam bo'limgan, midordan kam bo'limgan ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanishi nazarda tutilgan.

#### **4-S. Mehnat shartnomasi**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko'rsatilishicha, mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtaсидаги muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozimga oid ishni ichki mehnat tartibiga bo'yusungan holda taraflar kelishuvi, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlari bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Mehnat shartnomasi mazmun-mohiyati jihatidan ko'p qirrali bo'lib, birinchidan, fuqarolarning mehnat qilish huquqlarini amalga oshirish shakli; ikkinchidan, mehnatga oid huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi va muayyan vaqt davomida amal qilishini ta'minlovchi asos; uchinchidan, mehnat huquqining instituti sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mehnat shartnomasi fuqarolarni ishga

qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish hamda ishdan bo'shatishga oid normalar majmuini tashkil etadi.

Mehnat shartnomasi, avvalo, fuqarolar tomonidan ularning Konstitutsiyada belgilangan mehnat qilish huquqlarini amalga oshirishning asosiy shakli hisoblanadi.

«Mehnat shartnomasi»ning tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u shartnomaning asosiy belgilarini o'z ichiga qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tushuncha mehnat shartnomasiga yaqin bo'lgan boshqa turdosh fuqarolik-huquqiy shartnomalaridan farqini ajratib olish imkoniyatini beradi. Darhaqiqat, mazkur shartnomalarning amalda qo'llanilishi fuqarolarning mehnat faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lGANI sababli uni tuzgan xodimlarga nisbatan mehnat haqidagi qonunlar tafbiq etiladi.

Shunday qilib, mehnat shartnomasi, birinchidan, xodim hamda ish beruvchining erki va maqsadini ifoda etuvchi kelishuvdir; ikkinchidan, kelishuvga muvofiq, xodim qandaydir bir ishni bir marta bajarish majburiyatini emas, balki muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha biror-bir ishni, aniqroq aytganda, muayyan mehnat vazifasini bajarish majburiyatini oladi; uchinchidan, kelishuvga muvofiq, xodim ma'lum mehnat vazifasini muayyan korxona, muassasa, tashkilotda bajarish majburiyatini oladi.

Mehnat funksiyasi esa muayyan mehnat jamoasi tarkibida bajariladi.

Mehnat jamoasining har bir ishtirokchisi korxona, muassasa, tashkilotning shaxsiy tarkibiga kiritiladi va ichki mehnat tartibi qoidalariга bo'ysunadi.

To'rtinchidan, mehnat shartnomasi uzluksiz davom etuvchi huquqiy munosabat sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi (shartnomasi muayyan muddatga tuzilgan hollar ham bundan mustasno emas);

Beshinchidan, mehnat shartnomasiga muvofiq, ish beruvchi xodimga mehnat qonunlarida, jamoa shartnomasida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ish haqini to'lab turish va mehnat sharoitini ta'minlab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mehnat shartnomasining bu belgilari uni fuqarolik-huquqiy shartnomalardan, jumladan, pudrat, topshiriq, mualliflik va boshqa shartnomalardan farqlash imkoniyatini beradi. Masalan:

a) pudrat shartnomasi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 631-moddasi).

Pudrat shartnomasiga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi tarafning (buyurtmachi) topshirig'iga binoan, ma'lum bir ishni ish beruvchining yoki o'zining materiallaridan butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa bajarilgan ishni qabul qilish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Bunda shartnomaning obyekti sifatida pudratchi mehnatining natijasi namoyon bo'ladi;

b) topshiriq shartnomasi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 817-moddasi). Unga asosan, bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi) tomonidan yuklatilgan ma'lum yuridik harakatlarni uning nomidan va hisobidan bajarish majburiyatini oladi.

Agar topshiriq bajarilgani uchun qonun yoki shartnomada haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, topshiriq beruvchi ishonchli vakilga haq to'lashi lozim (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 818-moddasi).

Topshiriq shartnomasining predmetini vakil tomonidan amalga oshiriladigan muayyan yuridik harakatlar, chunonchi, uning tomonidan tuzilgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan turli bitimlar (shartnomalar) tashkil etadi;

d) mualliflik shartnomasi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1037-moddasi). Mazkur shartnoma muallifning intellektual faoliyati natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnomadir.

Muhimi shundaki, fuqarolik-huquqiy shartnomalarining predmetini ma'lum ishning natijasi, ya'ni individual aniq mehnat topshirig'ining bajarilishi tashkil etadi. Ayni vaqtida, bularning hammasi ijro etuvchining korxonada o'rnatilgan ichki mehnat tartibi qoidalariga itoat etmagan holda bajariladi. Shu jihatdan qaraganda, mehnat shartnomasi butunlay o'zgacha mazmun kasb etadi.

Mehnat shartnomasining fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqlab olish murakkab bo'lgan hollarda uning quyidagi belgilari asos qilib olinishi mumkin:

Birinchidan, xodim mehnat shartnomasiga muvofiq, qandaydir ishni bir marta bajarish majburiyatini emas, balki muayyan ixtisos, malaka yoki lavozimga oid ishni, ya'ni aniq belgilangan mehnat vazifasini bajarish majburiyatini oladi (agarda mehnat shartnomasida bir necha kasbni bajarish to'g'risida kelishilgan bo'lsa, u ikkita yoki undan ko'proq vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olishi mumkin).

Mehnat shartnomasining bu sharti xodimning korxona, muassasa, tashkilotning mehnat jamoasi tarkibiga, muayyan muddatga bo'lsada, rasmiy jihatdan korxonaga qabul qilinganidan, mehnat jamoasi tarkibi ro'yxatiga kiritilganidan qat'i nazar, mazkur jamoaga qo'shilganini anglatuvchi hamda boshqa shartnomalardan farqini bildiruvchi asosiy belgisi hisoblanadi.

Mehnat shartnomasiga muvofiq, xodim mehnat tartibi qoidalariga bo'ysungan holda muayyan ixtisos, malaka, lavozim bo'yicha ishni bajarish majburiyatini oladi. Mehnat intizomiga bo'ysunish esa faqat mehnatga oid huquqiy munosabatlarga xosdir.

Ikkinchidan, mehnat shartnomasiga muvofiq, xodim belgilangan mehnat normasini bajarish, ya'ni belgilangan ish vaqtida davomida ishlash, o'rnatilgan ishlab chiqarish normasini bajarish majburiyatini oladi. Korxonada o'rnatilgan ichki mehnat tartibi qoidalariga bo'ysungan holda muayyan ixtisos, malaka, lavozimga oid ishni bajarishi uning shu korxonaning xodimi sifatida, ya'ni mehnat shartnomasi asosida ishslashini bildiradi.

Uchinchidan, xodimning mehnat shartnomasi yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlar qat'iy belgilab qo'yilgani sababli uning bajarilishi boshqa shaxsga topshirilishi aslo mumkin emas.

Mehnat shartnomasining taraflari Mehnat kodeksining 72-moddasida ko'rsatilgan.

Quyidagilar mehnat shartnomasining taraflari hisoblanadi:

- xodim — 16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (boshqa hollarda, ota-onasidan birining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda — 15 yoshdan, umumta'lim maktablari, litsey, kasb-hunar kollejlaring 14 yoshga to'lgan o'quvchilari ham o'qishdan bo'sh vaqtlarida ishslash uchun ishga qabul qilinishi mumkin);

- ish beruvchi — korxona, jumladan, uning rahbarlari timsolida, korxonaning alohida tarkibiy bo'linmalari, mulkdorning o'zi ayni vaqtida bir vaqtida rahbar bo'lgan xususiy korxonalar; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda 18 yoshga to'lgan ayrim shaxslar.

Umumiy qonunchilikda 16 yoshga to'lgan shaxslarning ishga qabul qilinishi belgilangan. Demak, fuqarolarda mehnatga oid huquqiy layoqat ular 16 yoshga to'lgandan boshlab vujudga keladi. Fuqarolarda huquqiy layoqat va muomala layoqati vujudga kelishi masalasida ham mehnat huquqi fuqarolik huquqidan farq qiladi. Chunonchi, Fuqarolik huquqida huquqiy layoqat bilan muomala

layoqatining paydo bo'lish davri o'rtasida vaqt nuqtai nazaridan ma'lum tafovut bo'lsa, mehnat huquqida bu ikki kategoriya bir-biri bilan uzviy bog'liq holda va bir paytda vujudga keladi. Chunki har qanday jonli mehnat har bir individiumning shaxsiy erkiga bog'liq faoliyatdir. Shuning uchun ham mehnat majburiyatlari vakillar orqali amalga oshirilishi mumkin emas. Fuqarolik huquqida esa, aksincha, bunga yo'l qo'yiladi. Masalan, topshiriq shartnomasini olib ko'raylik. Bu shartnomaga binoan, vakillar topshiriq beruvchi nomidan va uning hisobiga harakat qilish burchini olgani sababli o'ziga berilgan vakolat doirasida bajargan barcha qonuniy harakatlari topshiriq beruvchi uchun bevosita huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Qonunga binoan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlar mehnat shartnomasining ikkinchi tarafi hisoblanadi.

Ba'zi hollarda yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmasagan, lekin mustaqil ravishda ishga qabul qilish huquqi berilgan, o'zi uchun ajratilgan ish haqi fondi, bankda alohida hisob raqami bo'lgan va mustaqil balansda turuvchi korxonalarining alohida tarkibiy bo'linmalari ham mehnat shartnomasining tarifi sifatida namoyon bo'ladi; amaldagi qonunchilikda bunday korxonalar bilan bir qatorda, xodimlarga haq to'lash sharti bilan shartnoma tuzgan jamoat va kooperativ tashkilotlari ham mehnat shartnomasining tarifi bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki, fuqarolar faqat o'zehtiyoji uchun boshqa shaxslarning mehnatidan foydalanishi mumkin. Masalan, uy xizmatkori, enaga, haydovchi, mashinistiklar bilan mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin. Bu hol amaldagi qonunchilikda o'rindoshlik bo'yicha ishslash to'g'risida mehnat shartnomasi tuzilishiga yo'l qo'yilishidan dalolatdir.

*Mehnat shartnomasining mazmuni.* Taraflarning mehnat huquqlari va majburiyatlari yig'indisi mehnat shartnomasining mazmunini tashkil etiladi. Mehnat shartnomasi quyidagi ikki shart asosida tuzilishi mumkin: 1) asosiy shartlar, ya'ni bularsiz mehnat shartnomasini tuzilgan deb hisoblash mumkin emas; 2) qo'shimcha (ixtiyoriy) shartlar, ya'ni bular haqida kelishish majburiy emas.

Mehnat shartnomasining mazmuni taraflar kelishuvi bo'yicha, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjalarning bilan belgilanadi. Asosiy shartlar mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan belgilanadi.

Quyidagilar mehnat shartnomasining shartlari hisoblanadi:

- ish joyi, ya'ni xodim ishga qabul qilinayotgan korxona, muassasa, tashkilotning (uning tarkibiy bo'linmasi) nomi;

- xodimning mehnat vazifasi mazmuni, lavozim yo'riqnomasi, malaka ma'lumotnomasi va boshqa normativ hujjalarning bilan belgilanadigan muayyan mutaxassislik, malaka yoxud lavozimga oid ish (rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilarning va boshqa toifa xodimlarning yagona ta'rif-malaka ma'lumotnomasi, malaka ma'lumotnomalariga muvofiq);

- ishning boshlanish kuni -- qonun hujjalari muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi, ishning boshlanish sanasi qayd etilmagan taqdirda, xodim shartnoma imzolangan kundan keyingi ish kunidan (smenadan) kechikmay, ishga tushishi lozim.

### **5-§. Mehnat haqi miqdori va boshqa shartlar**

Mehnat haqi miqdori qonun hujjalari bilan belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi, uning eng ko'p miqdori esa chegaralanishi mumkin emas;

Qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda, ayrim mehnat shartnomalarini tuzishda zarur shartlar ro'yxati kengaytirilishi mumkin. Masalan, muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ishning nafaqat boshlanish sanasi, balki uning tamom bo'lish sanasi ham qayd etiladi. Xodimni muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab ishga qabul qilishda u bajarishi lozim bo'lgan ish aniq ko'rsatilishi zarur. O'rindoshlar bilan mehnat shartnomasini tuzishda qonun hujjalari bilan nazarda tutilgan eng ko'p muddat doirasida bajarilishi lozim bo'lgan kundalik ishning aniq muddati belgilanadi. Shunis ham muhimki, mehnat shartnomasini tuzish paytda xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjalarning bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, taraflarning kelishuviga ko'ra, mehnat shartnomasida qo'shimcha shartlar nazarda tutilishi mumkin. Ular taraflarning majburiyatlarini aniqlash, ularni to'ldirish, xodimga qo'shimcha imtiyoz va afzalliklar berilishni nazarda tutishi mumkin.

Qo'shimcha shartlarga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- xodimga mehnat sharoitlari belgilangan holda YATMM va MMda nazarda tutilgan qo'shimcha mehnat majburiyatlarini yuklash;

- bir necha kasbda ishslash tartibi va shartlari ko'rsatilgan holda mehnat shartnomasining mustaqil sharti sifatida bir necha kasbda (lavozimda) ishslash;

- xodim sinov muddati bilan ishga qabul qilinayotgan taqdirda, sinovning aniq muddati belgilanishi (qachondan-qachongacha);

- xodim yuqori malakasi uchun, agar bu amaldagi qonun hujjatlarida, jamoa shartnomasida (barcha darajadagi jamoa kelishuvlarida) yoki korxona, tashkilot, muassasada amal qiluvchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda, murakkabroq ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan mehnatga haq to'lashning (tarif stavkalari, mansab maoshlari, qo'shimcha haqlar, ustamalar, mukofotlar va boshqa tarzdagi taqdirlash) yuqoriroq miqdorini yakka tartibda belgilash;

- xodim uchun belgilangan ish vaqtiga tuzumi (to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, qisqartirilgan ish vaqtiga, soatbay ish, ish kunining boshlanishi va tamom bo'lishi va boshqalar);

- qo'shimcha haq to'lanadigan va haq to'lanmaydigan dam olish kunlari, ta'tillar berish;

- ijtimoiy-maishiy tusdagisi shartlar (bolalar bog'chasida o'rinnajratish, sanatoriy-kurortda davolanih uchun yo'llanma bilan ta'minlanish, transport xizmati, markazlashtirilgan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, uy-joy berish va boshqalar);

- muddatli mehnat shartnomasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to'lash.

Qonun hujjatlari, jamoa shartnomasi, mehnatga haq to'lash to'g'risidagi nizom va boshqa lokal tarzdagi normativ hujjatlarga nisbatan xodimning ahvolini yomonlashtiradigan mehnat shartnomasi shartlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Jumladan, mehnat shartnomasi tuzishda quyidagi shartlar belgilanishi mumkin emas:

Qonun yo'l qo'yadigan hollardan tashqari mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'shimcha shartlarini kiritish;

Qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini belgilash;

- sinov muddatini Mehnat kodeksida ko'zda tutilgan eng yuqori muddatdan ortiqcha belgilash;

- o'rindoshlik asosida ishslashga qo'shimcha cheklashlar joriy qilish;

Qonunda nazarda tutilganidan ortiqcha ish vaqtiga muddati belgilash;

- xodimlar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hollarda moddiy javobgarlik joriy etish (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-maydagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yozma holdagi mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyalar». Qarorlar to'plami, 1997-yil, 3-son, 11-modda). Tijorat sirlarini oshkor qilmaslik ham shular jumlasidandir.

## 6-§. *Mehnat shartnomasini tuzish*

Ilgari ta'kidlanganidek, mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlar darajasi pasaytirilishi mumkin emas.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Mehnat shartnomasining shakli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy mehnat shartnomasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatda yozma holdagi mehnat shartnomasini tuzish yuzasidan tavsiyalar tasdiqlangan.

Mazkur tavsija va mehnat shartnomasining namunaviy shakli mulkchilikning barcha shakllaridagi korxona, muassasa, tashkilotlarga, ya'nish beruvchilar va xodimlarga mehnat shartnomalarini tuzishda amaliy yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarasga saqlash uchun topshiriladi.

Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko'rsatiladi.

Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdar shaxsning imzosi bilan mustahkamlanib, uning tasdiqlangan muddati ko'rsatiladi. Bunday tasdiqlash imzoning haqiqiy va vakolatli ekanini ko'rsatadi.

Mehnat shartnomasi sanasi ko'rsatilgan holda imzolar bilan tasdiqlanadi. Korxona, muassasa, tashkilot ishga qabul qilish huquqi berilgan mansabdar shaxsning imzosi gerbli muhr bilan tasdiqlanadi (gerbli muhr bo'limgan taqdirda, imzoning haqiqiyligi va vakolatliligi boshqa muhr bilan tasdiqlanadi).

Mazkur tavsiyalarda ko'rsatilganidek, xodimning talabiga ko'ra, mehnat shartnomasi u biladigan tilda tuziladi va davlat tilida tuzilgan shartnoma bilan bil xil kuchga ega bo'ladi.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqarish uchun asos hisoblanadi.

Buyruq tuzilgan mehnat shartnomasi mazmuniga zid bo'lmashligi kerak.

Mehnat shartnomasining muddati Mehnat kodeksining 75-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra, mehnat shartnomasi: nomuayyan, ya'ni amal qilish muddati ko'rsatilmagan muddatga; besh yildan ortiq bo'Imagan muddatga; muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuziladi.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday holda mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning rozilisiz muayyan muddatga mo'ljallab qayta tuzilishi mumkin emas.

Muhimi shundaki, Mehnat kodeksining 76-moddasida muddatli mehnat shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan holatlar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Muddatli mehnat shartnomasi bajarilajak ishning xususiyatlari, uni bajarish shartlari yoki xodimning mansafatlarini hisobga olib, nomuayyan muddatga mo'ljallangan mehnat shartnomalarini tuzish mumkin bo'Imagan hollarda, korxona rahbari, uning o'rinnbosarlari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'Imagan taqdirda, mazkur vazifani bajaruvchi xodim bilan, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda tuziladi.

Qonunga binoan, ishga qabul qilishga 16 yoshdan yo'l qo'yiladi. 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnnini bosuvchi shaxsning ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'llim maktablari, litsey, kasb-hunar kollejlarning o'quvchilarini 14 yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog'lig'iga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'llim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qubul qilishga yo'l qo'yiladi.

18 yoshga to'Imagan shaxslarni ishga qabul qilish Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Kodeksning 78-moddasiga binoan, ishga qabul qilishni g'ayri-qonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etish deb quyidagilar hisoblanadi:

- ushbu kodeksning 6-moddasi talablarini buzish;

- ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik;

- ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lgan shaxslarni, masalan, belgilangan kyota bo'yicha ishga yuborilgan nogironlarni, 18 yoshga to'Imagan shaxslarni, homilador ayollarni va 3 yoshga to'Imagan bolalari bo'lgan ayollarni, xususan ularning homiladorligi yoki bolasi borligi vajidan ishga qabul qilmaslik.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar.

Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, xodimning talabi bilan ish beruvchi 3 kun muddat ichida rad etishning sababini asoslab, yozma javob berishi shart. Bu javob ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabдор shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Ishga kiruvchining bunday asoslangan javobni berish haqidagi talabini qondirishni rad etish xodimni ishga qabul qilish g'ayri-qonuniy ravishda rad etilgani ustidan shikoyat qilishiga to'siq bo'lmaydi.

Kodeksning 79-moddasiga muvofiq, qarindosh-urug'larning bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari cheklangan.

Bu qoidaning mazmuni shundan iboratki, o'zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opasingillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, ularning bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanadi.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni ish beruvchiga taqdim etishi lozim:

- pasport yoki uning o'rnnini bosadigan boshqa hujjatni, 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar esa tug'ilgani to'g'risidagi guvohnoma va turar-joydan ma'lumotnomani;

- harbiy xizmatga majburlar yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxslar tegishli harbiy bileti yoxud harbiy hisobda turgani haqidagi guvohnomani;

Qonun hujjatlariga muvofiq, maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo'lgan ishga kirayotgan shaxs oliy va o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlagani to'g'risidagi diplomni yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani yoki boshqa tegishli hujjatni. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida» 1996-yil 26-avgustdagি qonunga muvofiq, tibbiyot hamda farma-

tsevtika faoliyati bilan shug'ullanish uchun fuqarodan oliv yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlagani to'g'risida diplom talab qilinadi.

Mehnat kodeksining 81-moddasiga binoan, ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasi tutishi shart (o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno).

Mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'lib, mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarda besh kundan ortiq ishlagan, shu jumladan, muayyan muddatga yollanganlarga, shuningdek davlat ijtimoiy sug'urta qilinishi ko'zlangan taqdirda, shtatlar jadvalidan tashqari xodimlarga ham yuritiladi.

Ish beruvchi har bir xodim uchun mehnat daftarchasi ochishi, zarurat bo'lganda, masalan, ish davrini ish stajiga kiritish uchun xodimni ish davri to'g'risida ma'lumotnomma berishi shart.

Mehnat daftarchasi O'zbekiston Respublikasining davlat tilida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa qoraqalpoq yoki O'zbekiston Respublikasi davlat tilida ish beruvchi tomonidan xodimning ishtirokida to'ldiriladi.

Mehnat daftarchasiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Xodim to'g'risida: familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi, ma'lumoti, kasbi, mutaxassisligi va lavozimi.

Ish to'g'risida: ishga qabul qilish, boshqa doimiy ishga o'tkazish (jamoa shartnomasida ko'rsatilgan hollarda ishlab chiqarish zarurati bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish bundan mustasno), mehnat shartnomasi bekor qilingani haqida.

Shuningdek, xodimning iltimosiga ko'ra, mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagani va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlari haqidagi yozuvlar ham kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablari) mehnat daftarchasida qayd etilmaydi.

Mehnat daftarchasiga ishga qabul qilinishi, boshqa doimiy ishga o'tkazilishi kabi barcha turdag'i yozuvlar ish beruvchi tomonidan buyruq berilganidan so'ng kiritiladi va bu yozuv buyruqning mazmuniga mos bo'lishi shart.

Belgilangan tartibda yagona ta'rif-malaka ma'lumotnomasida va xizmat mansablarining yagona ro'yxati yoxud lavozimlar jadvalida ro'y bergen o'zgarishlar yoki qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlar xodimlar e'tiboriga yetkazilib, so'ng ularning mehnat

daftarchalariga ish beruvchining buyrug'i asosida tegishli o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritiladi.

Bordiyu, xodimga ishlab turgan davrida yangi malaka darajasi berilgan bo'lsa, bu haqda belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritilishi shart. Xodim ikkinchi va undan keyingi kasblarni o'rgangan taqdirda, bu to'g'rida mehnat daftarchasiga ushbu kasblarning malaka darajalari ko'rsatilib, qayd qilinadi.

Xodim yangi o'rgangan kasbi bo'yicha ish bajargan taqdirda, mehnat daftarchasiga bu to'g'rida tegishli yozuv kiritiladi.

Mehnat daftarchasida mehnat shartnomasi bekor bo'lgani to'g'risidagi yozuv amaldagi qonun talablariga mos bo'lishi, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablari) to'g'risida yozuv kiritilmasligi shart.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimning mazkur tashkilotda ishlagan davrida mehnat daftarchasiga ishi to'g'risidagi ma'lumot (yozuvlar) korxona rahbari yoki uning tomonidan maxsus vakolat berilgan shaxsning imzosi va korxona yoki xodimlar bo'limining muhri bilan tasdiqlanadi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni xodimga uning mehnat daftarchasi va mehnat shartnomasining bekor qilinishi haqidagi buyruqning nusxasi berilishi shart. Qarorda ish beruvchining aybi bilan mehnat daftarchasini berish kechiktirilgan hollarda, butun kechiktirilgan davr uchun xodimga o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi.

Korxona rahbarini, uning o'rinosbosarlari, bosh buxgalterni ishga qabul qilish korxona mulki egasining huquqi bo'lib, bu huquqni u bevosita, shuningdek, o'zi vakil qilgan organlar orqali yoki korxonani boshqarish huquqi berilgan korxona kengashi, boshqaruvi, boshqa organlar orqali amalga oshiradi.

Korxona rahbari mulkdor unga bergen vakolatlar doirasida xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzadi.

Ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga to'liq muvofiq ravishda chiqarilishi kerak.

Buyruq xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

Ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan yoki uning ijozati bilan xodimga ishlashga ruxsat etilgan bo'lsa, ishga qabul qilish tegishli ravishda rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganidan qat'i nazar, ish

boshlangan kundan e'tiboran mehnat shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Qonun hujjalari muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi u imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Xodim shartnomada belgilab qo'yilgan kundan boshlab o'zining mehnat vazifalarini bajarishga kirishmog'i kerak.

Agar mehnat shartnomasida ishning boshlanish kuni haqida shartlashilmagan bo'lsa, xodim mehnat shartnomasi imzolangan ish kunining (smenaning) ertasidan kechikmay ishga tushmog'i lozim.

Xodim o'ziga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan oldindan tanishtirilishi shart (Mehnat kodeksining 178-moddasi).

Mehnat shartnomasi dastlabki sinov belgilash sharti bilan tuzilishi mumkin. Bunday sinov muddati — xodimning topshirayotgan ishga layoqatini tekshirib ko'rish hamda uning mazkur shartnomada shartlashilgan ishni davom ettirishi maqsadga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) haqida bir qarorga kelish maqsadida belgilanadi.

Dastlabki sinovni o'tash haqida mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi lozim. Bunday shartlashuv bo'limgan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Ayrim toifa xodimlar, jumladan, homilador ayollar, uch yoshga to'limgan bolasi bor ayollar, korxona uchun belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan shaxslar ishga qabul qilinganda, shuningdek, olti oygacha muddatga ishga qabul qilish haqida xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilganda, dastlabki sinov belgilanmaydi.

Dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'limgan boshqa davr dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Dastlabki sinov davrida xodimlarga mehnat qonunchiligi va korxonada o'rnatilgan mehnat shartlari to'liq tatbiq etiladi. Bu davr mehnat stajiga kiritiladi. Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar, har bir taraf ikkinchi tarafni 3 kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir. Taraflar kelishuvi bilan ogohlantirish muddati qisqartirilishi ham mumkin.

Ogohlantirish muddati tugagunga qadar, taraflardan birortasi mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilmagan bo'lsa, shartnomaning amal qilishi davom etadi va bundan keyin u faqat umumiylasoslarda bekor qilinishi mumkin.

*Mehnat shartnomasining turlari.* Amaldagi mehnat qonunchiligidan mehnat shartnomasining bir qancha turlarining muddati, mazmunining o'ziga xosligi, shakli va uni tuzish tartibiga oid jihatlariga ko'ra tavsiflanadi.

Mehnat shartnomasi muddatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

a) nomuayyan muddatga tuziladigan shartnomalar;

b) muayyan muddatga tuziladigan, ya'ni besh yilga qadar muddatga, shuningdek, muayyan ishni bajarish muddatiga mo'ljallab tuziladigan shartnomalar. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, shartnomaning keyingi turi ishning tugallanish muddatini aniq belgilash imkoniyati bo'limgan hollarda tuziladi. Shuning uchun ham ishning tugallanish muddati mazkur shartnomaning muddati bo'lib hisoblanadi.

*Shuningdek, mehnat shartnomasining quyidagi turlarini ham farqlash mumkin:*

- o'rindoshlik bo'yicha ishlar haqidagi mehnat shartnomasi;

- konkurs asosida ishga qabul qilishda tuziladigan mehnat shartnomasi;

- korxona rahbari bilan tuziladigan mehnat shartnomasi;

- kasanachilar (uy xodimlari)

- uy xizmatkorlari.

## **7-§. Ish vaqtি tushunchasi va uning turlari**

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq, o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqtি hisoblanadi.

Demak, ish vaqtি:

1) qonun bilan yoxud unga muvofiq ravishda bir kun, bir hafta va boshqa kalendor davrga belgilagan, xodimning korxonada ishlashi lozim bo'lgan soatlar soni (masalan, kuniga 7-8 soat, haftasiga 40 soat);

2) kalendor vaqtning bir qismi (muayyan kunlar va soatlar). Bu vaqt ichida xodim o'z ish joyida bo'lib, topshirilgan ishni belgilangan grafik yoxud tartibga muvofiq yoki ulardan tashqari (ish vaqtidan keyin, dam olish kunlari ishslash) vaqtida bajarishi lozim;

3) haqiqatda ishlangan vaqt. Bu vaqt ichida xodim mavjud grafik yoki tartibga muvofiq ravishda, shuningdek, ish beruvchining buyrug'i yoki ruxsati bo'lgan taqdirda mavjud grafik, tartibdan tashqari o'z ish joyida haqiqatda ham bo'lib, mehnat vazifalarini

bajaradi. Mehnat qonunchiligiga ko'ra, haqiqatda ish bajarilmagan davrlar (masalan, bekor turib qolingen vaqt, haq to'lanadigan tanaffuslar) ham ish vaqliga qo'shiladi.

Endi, ish vaqtining qonunchilikda ko'rsatilgan normal, qisqartirilgan va to'liqsiz ish kunlari turlarining har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Normal ish vaqtin bu qonun bilan yoki qonun asosida belgilab qo'yilgan muddat mobaynidagi kunlik ish vaqtin, ish haftasidan iborat. Bundan ortiqcha ishlangan vaqt, odatda, ish vaqtidan tashqari bajarilgan ishlardan hisoblanadi. Normal ish vaqtini to'liqsiz ish vaqtidan farqlamoq lozim, chunki to'liqsiz ish vaqtin muddati xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilanadi va shu toifa xodimlarning ish vaqtini normasiga nisbatan qisqaroq bo'ladi. Mehnat kodeksining 115-moddasida korxona, muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan xodimlarning normal ish haftasi 40 soatdan ortiq bo'lmasligi ko'rsatilgan. Bu qoida barcha xodimlarga taalluqli bo'lib, butun ish vaqtini tuzumi, shu jumladan, ish vaqtini jamlab hisoblash uchun majburiy hisoblanadi. Qarorlarda qisqartirilgan ish vaqtin muddati nazarda tutilgan hollarda, normal ish vaqtin muddati haftasiga 40 soatdan kamroq, masalan haftasiga 36, 35, 30 va 24 soat bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda olti kunlik ish haftasida ish kunining muddati 7 soatdan, 5 kunlik ish haftasida esa 8 soatdan ortib ketmasligi belgilab qo'yilgan. Ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy etilgan korxonalarda Kodeksning 123-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq ish vaqtining (smenasining) muddati 12 soatdan ortib ketmasligi lozim.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati deganda, xodimlarning mehnatini muhofaza qilish, ishni o'qish bilan birga qo'shib olib borish uchun qulay sharoitlar yaratib berish, yoshlar va mehnat qobiliyati pasaygan shaxslarni ular sog'lig'i zarar yetkazmagan holda, mehnatga jalb etish maqsadida normal 40 soatlik ish haftasi o'rniqa qonunlarda ko'zda tutilgan qisqartirilgan ish vaqtin muddati tushuniladi. Binobarin, bunday ish vaqtini bevosita qonunlarda ko'zda tutilgan hollar va norma asosidagina belgilanadi.

Mehnat kodeksining 116-moddasida ta'kidlab o'tilganidek, ayrim toifa xodimlar uchun ularning yoshi, sog'lig'i, mehnat sharoitlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zga holatlarni inobatga olib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek, mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan ish vaqtining

qisqartirilgan muddati belgilanadi. Ko'rinish turganidek, bunday hollarda mehnatga to'lanadigan ish haqi miqdorining kamaytirilishiha aslo yo'l qo'yilmaydi.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi:

- 18 yoshga to'lmagan xodimlarga (242-modda);
- I va II guruh nogironlari bo'lgan xodimlar (220-moddaning uchinchi qismi);
  - noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlarga (117-modda);
  - alohida tusdagi ishlarda band bo'lgan xodimlar (118-modda);
  - 3 yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar (MKning 228/-moddasi).

MKning 242-moddasida 18 yoshga to'lmagan shaxslar uchun qisqartirilgan ish vaqtin muddati belgilangan. Unga ko'ra, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun esa haftasiga 24 soatdan oshmaydigan, ta'til davrida ishlayotgan yoki o'qishdan bo'sh vaqtlarida mehnat qilayotgan 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun ham ana shunday qisqartirilgan ish vaqtin belgilangan (MKning 242-moddasi). Muhimi, qonun bo'yicha haftasiga 24 va 36 soatlik ish vaqtin ular qayerda ishlashidan yoki ishlab chiqarish ta'limini qayerda o'tayotganlardan qat'i nazar belgilanadi. Bunda kunlik ish muddati olti kunlik ish haftasida 4 va 6 soatdan, besh kunlik ish haftasida esa 5 va 7 soatdan oshmasligi kerak.

Mehnat kodeksining 220-moddasida I va II guruh nogironlari uchun ish vaqtining haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati nazarda tutilgan.

Mehnat qonunchiligidagi noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun ham ish vaqtining qisqartirilgan muddatini belgilash ko'zda tutilgan. Respublika mehnat qonunchiligidagi mehnat jarayonida sog'lig'i fizikaviy, kimyoziy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta'sir etadigan xodimlar uchun ish vaqtining haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilangan (MKning 117-moddasi).

To'liqsiz ish vaqtin sharti bilan ishlash xodimning yillik asosiy mehnat ta'tili muddatini, mehnat stajini hisoblashda hamda boshqa mehnat huquqlarini biron-bir tarzda cheklash uchun asos bo'lmaydi.

Bunday hollarda, xodimning ishlagan vaqtiga yoki ishlab chiqargan mahsulotiga mutanosib ravishda haq to'lanishi shart.

*Ish vaqt tuzumi.* Ish vaqt tuzumi deganda, ish vaqtining sutka yoki boshqa kalendar muddat mobaynida, shuningdek kundalik ishning, ishdagi tanaffusning boshlanish, tugallanish vaqtini tushuniladi. Bundan tashqari, ish vaqt tuzumi tushunchasi ish haftasining boshlanish va tugallanish vaqtini ham qamrab oladi.

Ish haftasining turi: ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish haftasi yoki bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi va ish vaqt tuzumi (kundalik ish vaqtining, smenaning muddati, ishning boshlanish va tugallanish vaqt, ishdagi tanaffuslar vaqt), sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari hamda dam olish kunlarining navbat bilan almashinishi, xodimlarning smenadan smenaga o'tish tartibi) korxonada ichki mehnat tartibi qoidalari, boshqa lokal normativ hujjatlar asosida belgilanadi. Bu hujjatlar bo'lмаган taqdirda, ish beruvchi bilan xodimning kelishuvi asosida belgilanadi. Ish smenasi, birinchidan, sutkaning muayyan qismida xodimlarning almashinishi grafigiga muvofiqlashtirilgan ish, masalan, kunduzgi, kechki, tungi ish smenasi; ikkinchidan, kundalik ishning soatlar hisobidagi muddatdir. Ish smenasi ish vaqt tuzumi yoki xodimlarning smenalar almashinishi grafigi bilan belgilanadi. Mazkur grafik xodimlarning vakillik organi bilan kelishilgan va ma'lum toifa xodimlar uchun belgilangan ish vaqt muddatiga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadi. Shu ma'noda «ish smenasi» tushunchasi bir smenali ishga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Ish smenasini ish kunidan farqlash kerak. Ish kuni muddati bevosita qonunlar bilan belgilanadi. Ish smenasing muayyan muddatlari esa ko'rsatilmagan, lekin u xodimlarning bir qancha toifasiga nisbatan va muayyan mehnat sharoitlariga qarab chegaralangan soatdan oshmasligi darkor.

Smenali ish korxona yoki uning ayrim tarkibiy bo'limalari mehnat jamoasining ishlab chiqarish jarayoni muddatini hisobga olgan holda, bir sutkada bir smenadan ortiq mo'ljallab tashkil etilgan ish.

Ish smenasi jarayonida ish vaqt tuzumi smenalar grafigi bilan belgilanadi va u qonunlarda ko'zda tutilgan normativlarga muvofiq bo'lishi lozim.

Ish haftasi deganda, birinchidan, kalendar haftadagi ish vaqt muddatining qonun bilan belgilangan normasi tushuniladi. Mehnat kodeksining 115-moddasiga muvofiq, bu vaqt 40 soatdan oshmasligi kerak. Xodimlarning bir qancha toifasi uchun yuqorida ta'kidlan-

ganidek, qisqartirilgan ish haftasi belgilangan. Ikkinchidan, kalendar hafta davomida ish va dam olish kunlari soni bilan ifodalananadigan ish vaqt tuzumi (masalan, ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish haftasi, bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi). Qarorga binoan, xodimni surunkasiga ikki smena mobaynida ishga jalb etish taqiqlanadi.

Qonunga binoan bayram (ishlanmaydigan) kunlari arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi (MKning 121-moddasasi).

Ishlab chiqarish sharoitlariga ko'ra zarur bo'lgan hollarda, shuningdek bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi sharoitida smenali ish tashkil etilgan joylarda tungi ish muddati kunduzgi ish muddatiga tenglashtiriladi.

Xodimlar tungi vaqtida ishga jalb etilganda mehnat qonunchilikida belgilangan cheklashlarga to'liq rioya etilishi lozim (bu haqda darslikning tegishli boblaridagi izohlarga qaralsin). Amaldagi qonunchilikda ish vaqtini hisobga olishning quyidagi ikki tartibi ko'zda tutilgan: ish vaqtini kunlar bo'yicha va jamlab hisobga olish tartibi.

*Dam olish vaqt tushunchasi va turlari.* Ma'lumki, suqarolarning eng muhim huquqlaridan biri — dam olish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Bu huquq xodimlar uchun 40 soatdan oshmaydigan ish haftasi, bir qator kasblar va ishlab chiqarish sohalari uchun qisqartirilgan ish kuni, tungi paytlarda qisqartirilgan ish vaqt belgilanishi, har yili haq to'lanadigan ta'tillar va har haftada dam olish kunlari berilish hamda dam olish uchun boshqa madaniy-maishiy sharoitlar yaratib berish bilan ta'minlanadi.

Dam olish vaqt mavzusi MKning VIII bobida bayon etilgan. Dam olish vaqtiga oid huquqiy normalar Mehnat kodeksi va korxonaning jamoa shartnomasida (37-modda) aniq belgilab qo'yilgan.

Mehnat qonunchiligiga ko'ra, dam olish vaqt xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bundan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqt hisoblanadi. Dam olish vaqt ish kuni davomidagi tanaffuslar, ish kuni (smena) oralig'idagi dam olish vaqt, haftalik uzlusiz dam olish, bayram kunlari, ta'tillar kabi turlarga bo'linadi.

Mehnat kodeksining 127-moddasiga muvofiq, xodimlarga dam olish va ovqatlanish uchun ish kuni (smena) davomida tanaffus beriladi va bu tanaffus ish vaqtiga kirmaydi.

Tanaffus, odatda, ish boshlangandan keyin uzog'i bilan to'rt soatdan keyin beriladi. Tanaffus muddati va uni berish vaqtini ichki mehnat tartibi qoidalari, smena grafiklarida yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtafigi kelishuvga binoan belgilanadi.

Ishlab chiqarish sharoitiga ko'ra, tanaffus berish mumkin bo'limgan ishlarda ish beruvchi tomonidan xodimlarga ovqatlanib olish uchun ish vaqtini davomida 30 daqiqa muddat bilan belgilanadi. Bunday ishlardan ro'yxati, ovqatlanish tartibi va joyi ichki mehnat tartibi qoidalari belgilab qo'yiladi. Mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ish kuni (smena) davomida beriladigan boshqa tanaffuslar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Barcha xodimlarga dam olish kunlari (har haftalik uzlusiz dam olish) beriladi.

Besh kunlik ish haftasi sharoitida xodimlarga haftada ikki kun dam olish kuni, olti kunlik ish haftasida esa bir dam olish kuni beriladi.

Yakshanba umumiyligi dam olish kuni hisoblanadi. Besh kunlik ish haftasida ikkinchi dam olish kuni muassasa, tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi. Odatda, ikki dam olish kuni ketma-ket beriladi. Smenalar bo'yicha ishlaydigan bo'linmalarda (uchastkalarda) dam olish kunlarini berish smenalar grafigiga muvofiq belgilanadi (Namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalarining 4.8-bandni).

Ayrim xodimlarni dam olish kunlari ishga jalb qilishga ish beruvchining farmoyishi bo'yicha alohida hollarda jamoa shartnomasida belgilangan asoslar va tartibda yo'l qo'yiladi. Agar korxonada jamoa shartnomasi tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda tegishli asoslar va tartib belgilangan bo'lishi kerak.

Xodimlarni dam olish kunlari ishga jalb qilish taqiqilanadi. Shu bilan birga, ayrim toifa xodimlarni (nogironlar, ayollar, voyaga yetmagan shaxslar) ishga jalb qilish qonunchilikda belgilangan cheklashlarga rioya etgan holda amalgalashiriladi.

Bundan tashqari, MKning 157-moddasida ta'kidlanganidek, dam olish kunlari bajarilgan ish uchun kamida ikki hissa miqdorda haq to'lanadi.

Amaldagi qonunchilikka binoan, bayram kunlari shonli voqealar yoki an'anaviy sanalarga bag'ishlanadigan kunlar bo'lib, umumiyligi qoidaga binoan, shu kunlari korxona, muassasa va tashkilotlarda ish bajarilmaydi.

Yuqorida aytildigidek, bayram (ishlanmaydigan) kunlari ishlash man etiladi. Xodimlarni ish beruvchining farmoyishi bilan ana shu kunlari ishga jalb etishga alohida hollarda qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va tartibda yo'l qo'yiladi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlari bajarilgan ishlari uchun kompensatsiya va haq to'lash Kodeksning 157-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

*Ta'tillar.* MKning 133-moddasida muvofiq, barcha xodimlarga, shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan xodimlarga ham dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlagan holda yillik yillik mehnat ta'tillari beriladi.

Qonunda yillik asosiy ta'tilning muddati kamida 15 kun ish kunidan iborat etib belgilangan.

Ayrim toifadagi xodimlarga ularning yoshi, sog'lig'ini hisobga olib, yillik uzaytirilgan ta'tillar beriladi. Chunonchi:

*18 yoshga to'limgan shaxslarga — 30 kalendor kun;*  
*ishlayotgan I va II guruh nogironlariga — 30 kalendor kun.*

Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq, ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari hamda boshqa holatlarni e'tiborga olib yillik uzaytirilgan ta'tillar belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida» (yangi tahrirda) 2001-yil 29-avgustdagisi qonuniga muvofiq, prokuratura organlari xodimlariga muddati 30 kalendor kundan iborat yillik ta'til beriladi.

Ma'lumki, mehnat qonunchiligidagi ayrim toifa xodimlar uchun qo'shimcha ta'tillar berish nazarda tutilgan va tegishli qonun hujjatlarida kafolatlangan.

MKnning 136-moddasiga muvofiq, yillik qo'shimcha ta'tillar:  
mehnat sharoiti noqulay va o'ziga xos bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarga (137-modda);

og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitida ish bajarayotgan xodimlarga (138-modda);

mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

Mehnat kodeksining 137-moddasida mehnat sharoiti noqulay va o'ziga xos bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarga qo'shimcha ta'til berish ko'zda tutilgan. Bunday qo'shimcha ta'til, odatda, ish jarayonida sog'lig'iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va boshqa ishlab chiqarish omillari zararli ta'sir etadigan xodimlarga noqulay mehnat sharoitida ishlagani uchun beriladi.

Korxonalarda qo'shimcha ta'til olish huquqini beruvchi ishlar, kasblar va favozimlar ro'yxati, ta'tillarning muddati, ularni berish tartibi va shartlari tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida belgilab qo'yiladi. Agar bunday shartnomalar tuzilmagan bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda ish beruvchi tomonidan belgilanadi. Bu hujjatlar, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash uslubiyati asosida belgilanadi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda tasdiqlanib, mehnat sharoitlarini baholash va ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish uslubiyati, uslubiyatga muvofiq, belgilangan qo'shimcha yillik ta'tillar muddati jamoa kelishuvlari va shartnomasiga kiritiladi.

Qoidaga ko'ra, yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun olti oy ishlagandan keyin beriladi.

Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish belgilangan kundan e'tiboran hisoblanadi. Ta'til quyidagi xodimlarga ularning xohishi bo'yicha olti oy o'tmasdan oldin beriladi:

- ayollarga — homiladorlik va tug'ish ta'tili oldidan yoki keyin;
- birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga;
- 18 yoshga to'limgan shaxslarga;
- muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga;
- o'rindoshlik asosida ishlayotganlarga — asosiy ish joyidagi ta'til bilan bir vaqtida, o'rindoshlik asosidagi ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda umumiyligi ta'lim makkablarida, litsey, kash-hunar kollejlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, malaka oshirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarida o'qiyotganlarga, agar ular o'zlarining yillik ta'tillarini imtihonlar, sinovlar (zachetlar) topshirish, diplom, kurs, laboratoriya va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'rilab olishni xohlasalar;
- texnologiyadagi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ishlar xususiyati o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqargani yoki korxonaning tugatilgani munosabati bilan ishdan ozod etilgan xodimlarga (100-moddaning 2-qismi I-bandı).

Ta'til har yili, shu ta'til berilayotgan ish yili tugagunga qadar berilishi shart.

Ishlab chiqarish tusiga taalluqli sabablarga ko'ra joriy yilda ta'tilni to'liq berish imkonini bo'limgan alohida hollarda, xodimning roziligi bilan ta'tilning 12 ish kunidan ortiq bo'lgan qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin va o'sha yili xodim undan albatta foydalanmog'i lozim.

O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlarga yillik ta'tilni, shuningdek, qo'shimcha ta'tilni bermaslik man etiladi.

Yillik asosiy ta'til ikkinchi va undan keyingi ish yillari uchun ta'tillar jadvaliga muvofiq ish yilining istalgan vaqtida beriladi.

Ta'til berish vaqtida xodim ta'til boshlanishidan kamida 15 kun oldin xabardor qilinishi kerak.

Ayrim toifa xodimlarga ta'til ularning xohishiga ko'ra, yozgi yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtida berilishi mumkin. Jumladan:

- 14 yoshga to'limgan bitta yoki undan ortiq bolani (16 yoshga to'limgan nogiron bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolg'iz onaga (beva erkaklar, beva ayollar, nikohdan ajrashganlar, yolg'iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga;

- I va II guruh nogironlariga;

- 1941 — 1945-yillardagi urush qatnashchilari va imtiyozlari bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga;

- o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarga;

- ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotganlarga (250-modda);

- jamoa shartnomasi kelishuvida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

*Intizomiy javobgarlik.* Yuridik javobgarlikning boshqa turlari bilan bir qatorda mehnat huquqida intizomiy va moddiy javobgarlik xosdir. O'z mehnat burchlarini qonunga muvofiq ravishda bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmagani uchun aybdor bo'lgan xodimga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida mehnat qonunchiligidagi intizomiy javobgarlik belgilangan. Intizomiy javobgarlikka tortish uchun xodim tomonidan sodir qilingan intizomga xilof nojo'ya xattiharakat asos bo'ladi.

Intizomga xilof nojo'ya harakat — xodimning o'z mehnat vazifalarini jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lmaydigan darajada qonunga nomuvofiq ravishda o'z aybi bilan bajarmaslik yoki nobop bajarilishini anglatadi. Xodimning nomuvofiq xatti-

harakati, odatda, uning zimmasiga mehnat shartnomasi yoki korxonadagi ichki mehnat tartibini belgilovchi normativ aktlar (masalan, ichki mehnat tartibi qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalari, mansabga oid yo'riqnomalar, nizomlar va boshqalar) bilan yuklangan mehnat vazifalarini buzishida ifodalanadi. Intizomga xilof nojo'ya xatti-harakat xodimning o'z aybi bilan, ya'ni qasddan yoki ehtiyyotsizlik tufayli qilgan harakatidir (harakatsizligidir). Xodimga bog'liq bo'limgan sabablar bilan (malakasi yoki mehnat layoqati yetarli emasligi, tegishli ish sharoiti ta'minlanmaganligi va boshqa sabablar) mehnat vazifasini bajarmaslik yoki nobop bajarish mehnat intizomini buzish deb qaralishi mumkin emas. Intizomga xilof nojo'ya xatti-harakati uchun xodim, odatda, ish beruvchi tomonidan intizomiy javobgarlikka tortiladi. Bunday xatti-harakat sodir qilish intizomiy jazo berishga yoki boshqa ta'sir choralarini qo'llashga sabab bo'ladi; agarda korxona, muassasa, tashkilotga moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, xodim mehnat huquqi normalari bo'yicha moddiy javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga, zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan harakati (harakatsizligi) uchun xodim intizomiy jazoga tortilishi yoki tortilmasligidan qat'i nazar, zarar undirib olinadi.

Qonunchilikda intizomiy javobgarlikning ikki turi: umumiy intizomiy javobgarlik va maxsus intizomiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Umumiy intizomiy javobgarlik ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilangan bo'lsa, maxsus intizomiy javobgarlik intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar, alohida qoida va qonunlar bilan belgilangan.

Maxsus intizomiy javobgarlik o'zi tatbiq etiladigan shaxslarning doirasi hamda ixtiyoriga intizomga chaqiruvchi vakolat berilgan shaxslar va organlarning umumiy doirasi, qo'shimcha jazo chorasing mavjudligi, shuningdek, berilgan jazo ustidan shikoyat qilish tartibi jihatidan umumiy intizomiy javobgarlikdan farq qiladi.

Intizomiy javobgarlikning barcha turlari quyidagi belgililar bilan ajralib turadi: xodimga faqat qonunlarda va intizom ustavlari, nizomlarda ko'rsatilgan jazolarni berish mumkin; mehnat intizomi buzilgan har bir holat uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi; jazo berishda sodir etilgan nojo'ya harakatning og'ir-yengilligi, u sodir etilgan vaziyat, xodimning oldindi ishi va xulq-atvori e'tiborga olinishi kerak; intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat sodir qilingani ma'lum bo'lgandan keyin qo'llaniladi.

Quyidagilar asossiz ravishda intizomiy jazo berilishiga qarshi huquqiy kafolatlardir: mehnat intizomini buzuvchidan yozma ravishda bayonot talab qilinishi; buyruq haqida xodimni xabardor

qilish va bu haqda tilxat olish, berilgan jazo ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqi; umumiy intizomiy javobgarlikka tortilganda mehnat nizolari komissiyasiga, sudga, maxsus intizomiy javobgarlikka tortilganda esa bo'yunish tartibida yuqori organlarga shikoyat qilish mumkin.

Intizomiy javobgarlik ichki mehnat tartibi qoidalariiga binoan korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarining aksariyat qismiga tatbiq etiladi. Maxsus intizomiy javobgarlik belgilangan xodimlar toifasi bundan mustasnodir. Umumiy intizomiy javobgarlikda mehnat intizomini buzganlik uchun jazo choralari, ularning qo'llanish tartibi, ular ustidan shikoyat qilish va jazoni olib tashlash tartibi Mehnat kodeksida («Mehnat intizomi» bobi) hamda Namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalarda belgilangan. Intizomiy jazo ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organ) tomonidan beriladi.

Mehnat kodeksining 181-moddasiga muvofiq, ish beruvchi mehnat intizomini buzgani uchun xodimga quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqlidir:

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining 30%idan ortiq bo'limgan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarda o'rtacha oylik ish haqining 50%idan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarimani ushlab qolish Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilgan holda ish beruvchi tomonida amalga oshiriladi;
- 3) Mehnat shartnomasini bekor qilish (100-moddaning 2-qismi 3,4-bandlari). Muhimi shundaki, qonunda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarining qo'llanishi qat'ianan taqiqlanadi.

Intizomiy jazo qo'llanishidan oldin xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi.

Ma'lumki, amalda moddiy zarar xodim tomonidan, shuningdek, ish beruvchi tomonidan yetkaziladi. Shu bois, zarar kim tomonidan yetkazilganiga qarab, moddiy zararning ikki turi: ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun xodimning moddiy javobgarligi hamda ishlab chiqarishda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilgani uchun, shuningdek, xodimni mehnat qilish imkoniyatidan mahrum etgani (g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatganlik) uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi farqlanadi.

Moddiy javobgarlikning bu ikki turi yuridik javobgarlikning turlari sifatida qoplanishi lozim bo'lgan zararning miqdori, uni undirish tartibi jihatidan bir-biridan farq qiladi. E'tiborli jihat shundaki, har ikki javobgarlik turi bilan bog'liq munosabatlar boshqa-boshqa normativ aktlar bilan tartibga solinadi. Ammo bunday javobgarlikning shartlari xodim uchun ham, ish beruvchi uchun ham umumiy asosga ega, ya'ni bir-biridan farq qilmaydi.

Mehnat qonunchiligidagi moddiy javobgarlikning asoslari va shartlari qat'iy belgilab qo'yilgan.

Qonunga muvosiq, bir vaqtida quyidagi shartlar mavjud bo'lsa, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi kelib chiqishi mumkin:

- 1) haqiqatda ham zarar yetkazilgan bo'lsa;
- 2) zarar qonunga nomuvosiq harakati yoki harakatsizligi natijasida yetkazilgan bo'lsa;
- 3) xodimning bunday harakati yoki harakatsizligi bilan yetkazilgan zarar o'rtaсидаги узвиҳ bog'lanish bo'lsa;
- 4) zarar yetkazishda xodimning aybi bo'lsa.

Agar bu to'rtta shartdan birortasi ham mayjud bo'lmasa, moddiy javobgarlikni belgilash mumkin emas.

*Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uning ahamiyati.* Mehnat muhofazasi insonning mehnat faoliyati, sog'lig'i va hayotiga bevosita daxildor tushuncha sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushuncha mohiyati jihatidan keng hamda tor ma'noda anglanmog'i lozim.

Keng ma'noda u mehnat faoliyati jarayonida inson hayoti va sog'lig'inining xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya kabi tadbirlar tizimidan iborat. Mehnat muhofazasiga nisbatan bunday yondashuv xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan va shu bilan birga, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy-teknikaviy, tibbiy va boshqa tadbirlarni o'z tarkibiga qamrab olgan. Yuqoridaq mulohazalardan anglashiladiki, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlash uchun mehnat muhofazasining faqat keng ma'nodagi tushunchasiga tayanmoq lozim. Ilmiy adabiyotda to'g'ri ta'kidlanganidek, agarda uning birorta tarkibiy qismi (huquqiy, tibbiy, iqtisodiy yoki texnikaviy) yetarli bo'lmasa, umuman mehnat muhofazasini to'liq ta'minlash amrimahol. Shu bois, mehnat muhofazasiga oid masalalar maxsus fan sifatida turli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilishi bejiz emas.

Mehnat muhofazasi mehnat huquqining instituti sifatida tor ma'noda xodimning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati jarayonida hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini yaratib berishga xizmat qiluvchi huquqiy normalar yig'indisi tushuniлади. Bundan tashqari, u:

1) mehnatkashlarning mehnat muhofazasiga oid huquqlarini ta'minlaydi;

2) mulkning barcha shaklidagi korxonalarda xodimlar bilan ish beruvchi o'rtaсидаги mehnat muhofazasiga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning yagona tartibini belgilab beradi;

3) xodimlar uchun sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga huquqiy zamin yaratadi.

*Mehnat nizolari tushunchasi va uning klassifikatsiyasi.* Mehnat nizolari deganda ish beruvchi bilan xodim o'rtaсидада mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, jamoa shartnomasi hamda mehnatga oid boshqa shartnomalarni qo'llash, shuningdek, yangi mehnat shartlarini belgilash yoki mavjud shartlarini o'zgartirish masalalari yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar tushuniлади.

Mehnat nizolari predmetiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1) mehnat huquqi normalarining muayyan ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilishi bilan bog'liq nizolar (masalan, xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish, boshqa ishga o'tkazish, asosiy ish vaqtida bajarilgan ish uchun haq to'lashga doir nizolar;

2) qonunlar yoki normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmagan yangi mehnat shartlarini o'rnatish bilan bog'liq nizolar (masalan, mahsulot ishlab chiqarish normasini qaytadan ko'rib chiqish, jamoa shartnomasi, kelishuvini tuzish bilan bog'liq nizolar).

Mehnat nizolari mazmuniga ko'ra ikki turga: da'voli va da'vosiz nizolarga bo'lindi. Da'voli nizolarning predmetini xodimlarning mehnat huquqlarini tan olish yoki uni tiklash tashkil etadi. Xodimning bunday mehnat huquqi avvalboshdan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, jamoa shartnomasi yoki kelishuv va mehnat shartnomasi bilan belgilangan bo'ladi. Bunday hollarda xodim o'z mehnat huquqlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlarini qayta tiklashni talab etadi (masalan, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni qayta ishga tiklash yoki foydalanimagan mehnat ta'tillari uchun kompensatsiya to'lash va hk.).

Da'vosiz mehnat nizolari ish beruvchi bilan korxonadagi kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari

o'rtasida mehnat shartlarini o'rnatish yoki o'zgartirish kabi masalalarda namoyon bo'ladi. Odatda, bu turkumdag'i nizolar tegishli qonunlar yoki boshqa ayrim normativ-huquqiy hujjatlar bilan hal etilmagan masalalar yuzasidan kelib chiqadi. Bunday vaqtida nizo bevosita korxonada ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi o'rtasida kelishish yo'li bilan hal etiladi (masalan, korxonada yangi ishlab chiqarish normasini belgilash haqidagi nizolar). Ushbu nizolarning predmeti muayyan xodimga tegishli bo'imasligi, balki korxona xodimlarining barchasiga taalluqli bo'lishi mumkin.

Mehnat nizolari subyektiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- 1) yakka tartibdagi nizolar;
- 2) jamoalarga doir nizolar;

Mehnat nizolari o'z obyekti ko'ra, mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterga ega bo'lmagan nizolar deb ataladi.

Ta'kidlash joizki, mehnat nizolari turli sabablar oqibatida kelib chiqadi. Jumladan, nizoning yuzaga kelishida quyidagilar sabab bo'ladi:

1) ayrim mansabdor shaxslar, shuningdek, ba'zi xodimlar ongida saqlanib kelayotgan o'tmish qoldiqlari;

2) ayrim mansabdor shaxslarning, shuningdek, ba'zi xodimlarning mehnat qonunchiligini bilmasligi;

3) korxonalarda tashkiliy-xo'jalik va tarbiyaviy ishlarda uchraydigan kamchiliklar (masalan, xodimlar mehnat sharoiti, ularning oila a'zolariga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq nizolar);

4) tashkiliy-texnikaviy xarakterdagi kamchiliklar (masalan, korxonada mehnatning to'g'ri tashkil etilmagani, ilmiy jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish normasining yo'qligi va hokazolar);

5) ayrim huquqiy normalarning bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora taraqqiy etib borayotgan ishlab chiqarish shakllaridan orqada qolishi (masalan, korxonada yangi texnologiya joriy qilinishi natijasida paydo bo'lgan yangi kasb, ta'rif-malaka ma'lumot-nomasida ko'rsatilmagan malakaga oid tavsifnomalar yo'qligi va hokazolar);

6) mehnat bozorini tashkil qilish borasidagi kamchiliklar.

Qonunchilikda o'rnatilgan mehnat nizolarni ko'rish tartibi demokratik tamoyillarga asoslanadi. Fuqarolarning mehnat huquqlarini har tomonlama himoya qilishni nazarda tutgan mazkur tamoyillar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mehnat nizolarini ko'ruchchi organlarga erkin ravishda murojaat qilish imkoniyati yaratilgani;

- nizolarning tez va to'liq hal etilishi;
- nizoni hal etishda keng mehnatkashlar ommasining ishtirok etishi;

- nizolarning ochiq tartibda ko'rilib;
- nizolarning kollegial hal etilishi;
- nizolarni hal etishda ularning har tomonlama tekshirilishi.

Qonunchilikda mehnat nizolarning taalluqliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Taalluqlilik — bu tegishli organlarning muayyan turdag'i mehnat nizolarni ko'rish vakolatiga ega bo'lishini anglatadi. Taalluqlilik mehnat nizolaringin subyektlari, mazmuni va uning turlari bo'yicha belgilanadi. Aniqroq aystsak, har bir organ o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan nizolarnigina ko'rib hal etadi. Shu bois, mehnat nizolari yuzasidan kelib chiqqan da'volar bo'yicha uning taalluqliliga qarab tegishli organga murojaat qilinadi.

Yakka mehnat nizolari — ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llanishi yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklarni qamrab oladi. Bunday hollarda nizoning xodim manfaatini ifoda etuvchi tarafi bo'lib xodimlarning vakillik organi ishtirok etishi mumkin.

Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun, o'z xohishiga ko'ra, mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqlidir.

Mehnat nizolarni mehnat nizolari komissiyasida ko'rish tartibi. Jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvda mehnat nizolari komissiyasini tuzish nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat nizolari komissiyasi ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi.

Komissiyaga kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan ajratilgan a'zolar tegishli organning qarori bilan, ish beruvchining vakili esa uning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Mehnat nizolari komissiyasining har bir majlisida raislik vazifasini ish beruvchi, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining vakillari navbatma-navbat bajaradi.

Qoidaga ko'ra bir majlisning o'zida raislik va kotiblik vazifasini bir tarafning vakillari bajarishi mumkin emas.

Komissiyaning har bir majlisida taraflar tomonidan keyingi majlisning raisi va kotibi tayinlanib, ularga majlisni tayyorlash va chaqirish vazifasi yuklatiladi.

Mehnat nizolari komissiyasining miqdoriy tarkibi va vakolat muddati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining o'zaro kelishuviga binoan belgilanadi.

Basharti xodim mustaqil ravishda yoki kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organi ishtirokida ish beruvchi bilan bevosita olib borgan muzokaralarida mavjud kelishmovechilikni hal eta olmagan bo'lsa, nizo mehnat komissiyasida ko'rib chiqiladi. Mehnat nizolarini ko'rib chiqishning o'zgacha tartibi bundan mustasno.

Mehnat nizolari komissiyasi ariza berilgan kundan e'tiboran 10 kun muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqishi shart. Nizo ariza bergen xodimning ishtirokida ko'rildi. Xodimning yozma arizasi bo'lgandagina nizo uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin. Basharti xodim uzsiz sabab bilan komissiya majlisiga kelmasa, mazkur arizani ko'rib chiqishni kun tartibidan olib tashlash haqida qaror qabilishni mumkin, bu esa xodimni takroran ariza bilan murojaat etish huquqidан mahrum qilmaydi. Xodim kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi mehnat nizosi ko'rib chiqilishida ishtirok etish uchun advokat taklif qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasi majlisga guvohlarni chaqirtirish, mutaxassislarni taklif qilish, ish beruvchidan zarur hisob-kitoblar va hujjatlar taqdim etishni talab qilish huquqiga ega.

Har bir majlisda ish beruvchining va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining teng miqdordagi a'zolari ishtirok etishlari kerak.

Mehnat nizolari komissiyasining majlisida bayonnomma yuritiladi.

Mehnat nizolari komissiyasining qarori ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlar boshqa vakillik organining vakillari o'tasida kelishuvga binoan qabul qilinadi.

Komissiyaning qarori dalillar bilan isbotlanib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga, mehnat shartnomasiga asoslangan bo'lishi kerak.

Komissiyaning pul undirish talabiga oid qarorida xodimga tegishli mablag' aniq ko'rsatilishi lozim.

Qaror majlis raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

U majburiy kuchga ega bo'lib, biron-bir tarzda tasdiqlanmaydi.

Komissiya qarorining nusxasi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida xodimga, ish beruvchiga va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organiga topshiriladi.

Qonunda mehnat nizolari komissiyasining qarorini bajarish ta'minlangan.

Muayyan qaror ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan o'n kunlik muddat o'tgandan keyin uch kun ichida ish beruvchi tomonidan bajarilishi kerak.

Basharti ish beruvchi belgilangan muddat ichida komissiya qarorini bajarmasa, mehnat nizolari komissiyasi tomonidan xodimga ijro varaqasi kuchiga ega bo'lgan guvohnoma beriladi. Agar xodim yoki ish beruvchi belgilangan muddat ichida tuman (shahar) sudiga mehnat nizosini hal etish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etsa, guvohnoma berilmaydi.

Mehnat nizolari komissiyasi bergen va olinganidan keyin ko'pi bilan uch oy ichida tuman (shahar) sudiga taqdim etilgan guvohnoma asosida sud ijrochisi mehnat nizolari komissiyasining qarorini majburiy tarzda ijro ettiradi.

Mazkur qonunga muvosiq, mehnat nizolari komissiyasining qarorlari ijro etilishi shart bo'lgan sud hujjatlari qatorida sanaladi. Mehnat nizolari komissiyasi o'z qarorlari asosida beriladigan guvohnoma ham ijro hujjati hisoblanadi.

Xodim belgilangan uch oylik muddatni uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan taqdirda, guvohnomani bergen mehnat nizolari komissiyasi muddatni tiklashi mumkin.

## OILA HUQUQI ASOSLARI

### 1-§. Oila huquqi tushunchasi va predmeti

Oila yuridik tushuncha sifatida shunchaki odamlarning o'zaro er-xotin yoki qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlangan guruhi emas, balki qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslar guruhidir. Binobarin, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlardan oila huquqi normalari bilan belgilangan bo'lib, ular oilaviy-huquqiy munosabatlardan deb ataladi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjatlar quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar. O'zbekiston Respublikasining yangi Oila kodeksi 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan.

Oila huquqi sohasidagi xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq normalari ham oila qonunchiligining manbai bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligidagi nazarda tiligancha huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va albatta, majburiyatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- er-xotinning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- ota-onaning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- nikoh tuzishga teng huquqlar;
- voyaga yetmagan bolalarning (shaxsiy va mulkiy) huquq va majburiyatlari;
- ota-onalar va bolalar, er-xotin va sobiq er-xotin, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari;
- nikohning tugatilish asoslari (OK 37-m.);
- er-xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilish, foydalanish, va uni tasarruf etish huquqlari;
- nikoh shartnomasini tuzishda er-xotinning huquqlari va majburiyatlari;
- farzandlikka olish tartibi;
- bolaning huquqi va manfaatini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari;
- ota-onaning bolani tarbiyalash hamda unga ta'lim berishga doir huquq va majburiyatlari;

- ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari va tartibi (OK 79, 80-m.);

- vasiylilik va homiylikka murojaat etish huquqi.

Yuqorida sanab o'tilgan oila huquqlari, manfaatlari va majburiyatlari shular bilan cheklanmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish instituti oilaviy-huquqiy munosabatlarda alohida o'r'in tutadi.

Shunday qilib, oilaviy huquqiy munosabatlardan deganda, fuqarolar o'rtaida bo'ladigan va oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan tushuniladi.

Har qanday boshqa munosabatlarda bo'lganidek, oilaviy huquqiy munosabatlarda quyidagi uch element mavjud:

- subyekt;

- subyekтив huquq va majburiyatlar.

Oilaviy huquqiy munosabatlarning subyekti bo'lib, er-xotin, otona, bolalar, vasiylar va homiylar, boshqa qarindosh-urug'lar hamda oila qonunchiligi sohasida u yoki bu munosabatlarni hal etishda ishtiroy etuvchi yuridik shaxslar, fuqarolar uyushmasi, muassasalar, organlar, ijtimoiy birlashmalar hisoblanadi.

Oila a'zolariga yoki oilaning sobiq a'zolariga tegishli, qonun bilan himoya qilinadigan axloqiy va moddiy qadriyatlar yuzasidan oila huquqi subyektlari qabul qiladigan harakat va qarorlar oilaviy-huquqiy munosabatlarning obyektlari bo'lishi mumkin.

Bir-birlariga nisbatan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish jarayonida oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlariga ega bo'lgan huquq va majburiyatlarning yig'indisi huquqiy subyektlardir.

**Nikoh** — erkak bilan ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi.

Nikoh tuzish — shunchaki rasmiyatchilik emas. Davlatning nikohni qayd etishi yuridik faktidir. Aynan ro'yxatga olingan (qayd etilgan) nikoh yuridik nikoh deb hisoblanadi va faqat ugina er-xotinlik huquqlari va majburiyatlarini yuzaga keltiradi, ro'yxatsiz (qaydsiz) nikoh haqiqiy emas. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Erkak va ayolning haqiqatda birga yashashi («fuqarolik nikohi» deyiladi) natijasida ular o'rtaida huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydi, ular bir-birlarining oldida yuridik huquq va majburiyatga ega bo'lmaydilar (masalan, birga yashovchi (ayol) o'zi bilan birga yashovchi (erkak)dan ta'minot olishga haqli bo'lmaydi).

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy muddat o'tgach, shaxsan ularning ishtirotkida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish orqali bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berilishi mumkin. Nikoh yoshi respublikamizda erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan. Tegishli tuman, shahar hokimligi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Shu bilan bog'liq quyidagi holatga e'tiborni qaratish lozim, ya'ni er-xotinlar 18 va 17 yoshdan emas, balki nikoh tuzilgan vaqtidan boshlab to'liq huquqiy layoqatga ega hisoblanadi.

Nikoh tuzish natijasida vujudga kelgan muomala layoqati 18 yoshga to'lguncha nikoh tuzilgan taqdirda ham to'liq hajmda tasdiqlanadi.

Nikoh tuzishni xohlovchilarning yoshi qonunda cheklanmaydi. Ba'zida voyaga yetmaganlarning xohishi bo'lsa ham, nikohni tuzib bo'lmaydi. Quyidagi hollarda nikoh tuzilmaydi:

- loaqa bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida (faqt FHDYO organlarida ro'yxatga olingan nikoh nazarda tuviladi). Haqiqatda birga yashash e'tiborga olimmaydi. Nikoh tuzishga sud qarori bilan ajratilgan va haqiqiy emas deb topilgan nikohlar to'siq bo'lomaydi);

- loaqa bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida, spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalar iste'mol qilish bilan bog'liq holatlarda fuqaroning muomala layoqati cheklanishi nikoh tuzishga monelek qilish uchun asos bo'la olmaydi);

- nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida.

Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini o'tkazadi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin. Basharti nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, ushbu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga

murojaat etishga haqli bo'ladidi. Yuqoridaq kasallikkarga chalipgan holatlar nikoh tuzishga monelik qiladi.

Bundan tashqari, er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan soxta nikohlari ham haqiqiy emas deb topiladi (OK 49-m).

Nikohni faqat sud haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shu nikohda yoki uni haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 300 kun ichida tug'ilgan bolalar huquqiga ta'sir qilmaydi. Bunday bolalar haqiqiy nikohda tug'ilgan bolalardek huquqqa ega bo'ladi.

Turli hayotiy sabablarga ko'ra ba'zi nikohlar buziladi, er-xotinlik munosabatlari to'xtaydi (sud tomonidan e'lon qilingan er-xotindan birining o'limi tufayli nikohning tugatilishi).

Er-xotin hayotligida nikoh faqat ajratish yo'li bilan buzilishi mumkin. Ajratishni sud yoki FHDYO organlari rasmiy tartibda amalga oshiradi. Xotinning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er-xotinning roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atilishi mumkin emas.

Er-xotinlar FHDYO organlaridan nikoh tugatilishi haqidagi guvohnoma olmagunlaricha yangi nikoh tuzishga haqlari bo'lmaydi.

Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyati. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga binoan, er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatları qonuniy va shartnomaviy tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida shunday deyilgan: «Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, ...agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi» (23-modda).

Oila kodeksida shartnomaning bu turi batafsil tartibga solingen. Unda «nikoh shartnomasi» tushunchasi, uni tuzish shartlari va tartibi, mazmuni va ro'yxatga olish mexanizmi, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish, uni to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topish kabilar belgilangan.

Qonunga binoan, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida hamda er-xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları nikoh shartnomasining predmeti bo'la olmaydi. Masalan, shartnomada bir-birini sevish majburiyatini mustahkamlash mumkin emas.

**Nikoh shartnomasi** nikoh FHDYO organlarida ro'yxatga olinganidan keyin, shuningdek, nikoh davrida ham faqat er va xotin o'rtaida tuzilishi mumkin (nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi). Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Er-xotin nikoh shartnomasiga ko'ra, birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishi mumkin. Nikoh shartnomasi er-xotining kelishuvi bilan istalgan vaqtida o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin (shartnomani bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi). Nikoh tugatilishi paytidan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi (nikoh shartnomasida nikoh tugatilgandan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno). Qonunga binoan, sud nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Bundan tashqari, qonun nikoh shartnomasida er-xotining birgalikda yashash huquqlari, o'zaro ta'minot kabi huquq va majburiyatlar belgilanishiga yo'l qo'yadi.

Er-xotinlar o'zaro boshqa xil shartnomalar tuzishga ham haqlidirlar (masalan, hadya etish, oldi-sotdi).

O'zaro moddiy ta'minot er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta'minlashga majbur ekanliklarini anglatadi. Agar bunday yordam berishdan bosh tortilsa yoki shartnomaviy kelishuv bo'lmasa, xotin (er) aliment olish uchun sudga murojaat qilish huquqidan foydalanishi mumkin.

Bunday talab bilan sudga murojaat etish huquqiga homilador xotin yoki mehnatga layoqatsiz va muhtoj er (xotin) ega bo'ladi.

Muhtoj va mehnatga layoqatsiz er (xotin)ning xotin (er)idan ta'minot olish huquqi qonunda belgilangan hollarda nikoh tugatilganidan keyin ham tugatilmaydi. Er (xotin)ni ta'minlash uchun undiriladigan alimentning miqdori har doim pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Er va xotining umumiy mol-mulkini bo'lish hollarida, agar er va xotin o'rtaida nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotining ulushlari teng hisoblanadi. Sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini va (yoki) er-xotindan birining e'tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, er va xotining umumiy mol-mulkidagi ulushlar tengligi prinsipidan chekinishga haqlidir. Umumiy mol-mulkni bo'lishda sud er va xotining har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qarashli ulushdan aniq qiymatga ega bo'lgan mol-

mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

Nikohdan ajralgan er va xotining umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi. Er va xotining har birining shaxsiy mulkiga quyidagilar kiritiladi:

- er va xotining nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk;
- har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulk;
- yakka tartibda foydalaniladigan buyumlar (kiyim-kechak, poyabzal, kosmetika va hk.), qimmatbaho buyumlar va zebziynatlardan tashqari;
- er-xotin o'rtaida tuzilgan shartnomasi asosida nikoh davomida olingan va er-xotining tegishli bo'lgan mulk.

Er-xotining umumiy mol-mulkini bo'lish er-xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkidagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalgalashirilishi mumkin.

Er-xotining birgalikda orttigan mulkini bo'lish haqidagi da'volar nikohni tugatish to'g'risidagi da'volar bilan bir vaqtida yoki nikoh FHDYO organlarida tugatilganidan keyin taqdim etilishi mumkin.

Ota-onalarning huquq va majburiyatları. Ota-onalarning o'zaro munosabatlari oilada alohida o'rın tutadi. Bular shaxsiy (nomulkiy) va mulkiy huquq va majburiyatlardir.

Shaxsiy huquqlar borasida bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga egadir.

Bolaga ism — ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi — otasining ismiga ko'ra beriladi.

Bolaning familiyası ota-onanining familiyasiga qarab belgilanadi.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, otalik ixtiyoriy ravishda sud tomonidan belgilanadi (bolaning ota-onasi birgalikda yoki faqat otasining o'zi FHDYO organlariga ariza bilan murojaat qilsa). O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bola ota-onasi qonuniy nikohda bo'lgan bolalarniki kabi huquq va majburiyatlarga ega.

Qonun otalik (onalik)ni da'vo qilishga ham yo'l qo'yadi, lekin bu faqat sud tartibida bo'lishi mumkin.

O'zaro nikohda bo'limgan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, bola ota-onasining birqalikdagi yoki otasining shaxsiy arizasiga ko'ra, otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Bola 18 yoshga to'limgan (voyaga yetmagan) shaxsdir. U nafaqat shaxsiy, balki mulkiy huquqqa ham ega, unga hadya etilgan yoki meros qilib berilgan, buyumlarga egalik qilish huquqiga, o'z ota-onasidan ta'minot olish huquqiga egadir, ammo bola ota-onasining mulkiga egalik qilish huquqiga ega emas va o'z navbatida, ota-onsa ham bolaning mulkiga egalik qilishga haqli emas.

Ota-onsa va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

Ota-onsa voyaga yetmagan farzandlarining qonuniy vakili hisoblanadi, chunki ular o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil himoya qila olmaydilar.

Ota-onsa nafaqat teng huquqlidir, balki bolalarni moddiy jihatdan ta'minlash, jismonan, ruhan va axloqan sog'lom qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash borasida bir xil majburiyatga ham egadirlar. Ota-onaning huquqi bolaning manfaatiga xizmat qilishi kerak. Bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Afsuski, ba'zida ota-onalar o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadilar, ota-onsa huquqini suiiste'mol qiladilar, bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'ladilar, ularni tahqirlaydilar, surunkali ichkilikboz yoki giyohvand bo'ladilar. Bunday hollarda ota-onalar sud qaroriga, asosan, ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar.

Ota-onsa huquqidan mahrum qilishga doir ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onsa qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta'minot olish, shuningdek, bolaning fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ldi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onani o'z bolasini ta'minlash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Qonun ota-onalik huquqini tiklashga ham yo'l qo'yadi, lekin bu faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib bolani ota-onadan (ularning biridan) olish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi (ota-onalik huquqini cheklashi) mumkin. Ota-onsa huquqining cheklanishi ota-onani bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan mahrum qiladi, lekin ota-onani bolani moddiy jihatdan ta'minlash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onsa hamda bolalar mulkiy huquq va majburiyatlarining mazmuni shundan iboratki, ota-onsa voyaga yetmagan hamda voyaga yetgan-u, lekin mehnatga layoqatsiz va muhtoj bolalarni ta'minlashga majburdirlar. Ota-onsa voyaga yetmagan o'z bolalarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzishga haqlidirlar. Aliment to'lash haqidagi kelishuv aliment to'lashga majbur shaxs bilan aliment oluvchi shaxs o'rtasida yozma shaklda va notarial tartibda tasdiqlanib tuziladi.

Bunda aliment to'lash tartibi va shakli tomonlar o'rtasida kelishilgan holda belgilanadi. Biroq alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalar, o'z navbatida, mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj ota-onalarini ta'minlashga majburdirlar. Agar voyaga yetgan bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasalar, ota-onsa sudga o'z ta'minotlari uchun bolalardan aliment undirib berish uchun murojaat qilishga haqlidirlar. Alimentlarni sud qat'iy pul summasida belgilaydi. Qonun alimentlarning indeksatsiya qilinishini nazarda tutadi.

Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat alohida himoyaga oladi. Qonunda bunday bolalarni tegishli muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish tartibi maxsus belgilab qo'yilgan bo'lib, ularga oilaga tarbiyalash uchun berish (farzandlikka olish) homiylikka olish yoki mehribonlik uylariga berish kabilar kiradi.

Farzandlikka olish — yuridik harakat. Chunki ota-onsa bilan farzand o'rtasida qanday huquqiy munosabatlar bo'lsa, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinayotganlar o'rtasida ham shunday munosabatlar o'rnatiladi. Farzandlikka olin-gan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatidan kelib chiqqan holda yo'l qo'yiladi.

Qonun farzandlikka olinayotgan bolaning salomatligi holatiga qarab farzandlikka olish imkoniyatini cheklashni nazarda tutmaydi.

Agar ota-onalikka olovchilar, bolaning kasalligi haqida ogohlantirilgan bo'lsa, lekin, shunga qaramay, ular aynan shu bolani farzandlikka olamiz deb turib olsalar, bunday holda farzandlikka olishga ruxsat beriladi.

Farzandlikka olishda bola va farzandlikka olovchi (farzandlikka olovchining qarindoshlari) o'rtasidagi munosabatlar homiylikka o'xshab ma'lum muddatga emas, balki bir umrga o'rnatiladi. Farzandlikka olish faqat sud tartibida bekor qilinishi yoki haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Farzandlikka olish — o'ta jiddiy va ixtiyoriy huquqiy harakat. U faqat farzandlikka olovchining iltimosiga binoan, yozma ariza berish yo'li bilan amalgalashiriladi. Arizaga tavsifnomasi, qisqa tarjimai hol, sog'lig'i haqida ma'lumotnomasi hamda vasiylik va homiylik organlari talab qilgan boshqa hujjalalar ilova qilinadi.

Farzandlikka olishdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar tuman (shahar) hokimi farzandlikka olish haqida qaror chiqargan kundan paydo bo'ladi.

Bolani bir vaqtning o'zida ikki shaxs farzandlikka olishi mumkin. Bundan tashqari, bir shaxs va er-xotin ham farzandlikka olishi mumkin.

Qonunda o'zaro nikohda bo'limgan ikki shaxsning bolani farzandlikka olishi taqiqlanmaydi.

Quyidagilar farzandlikka olovchi bo'lomaydilar:

- voyaga yetmagan fuqarolar;
- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonun bilan belgilangan tartibda (sud qarori bilan) muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 169-moddasining 1-qismida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka olovchilar:

- qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Farzandlikka olish uchun ota-onalik huquqidan mahrum bo'limgan bola ota-onasining roziligi kerak.

Vasiylar homiyligida bo'lgan va ota-onasi yo'q bolalarni farzandlikka olish uchun vasiyning roziligi yozma shaklda ifodalangan bo'lishi, davlat bolalar muassasalarining tarbiyasi va ta'minotdagi bolalarning farzandlikka olish uchun shu muassasa ma'muriyatining roziligi bilan amalgalashiriladi.

Agar bola 10 yoshga to'lgan bo'lsa, farzandlikka olish uchun bolaning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligini vasiylik va homiylik organi aniqlaydi.

Farzandlikka olovchilar farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilishi qayd etilgan b'dastarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak.

Farzandlikka olovchi bolaning familiyasi, otasining ismi va ismini o'zgartirish uchun, agar u 10 yoshga to'lgan bo'lsa, bolaning roziligi talab qilinadi.

Farzandlikka olish, albatta, farzandlikka olish qarori chiqqan joydagи FHDYO organlaridan ro'yxatga o'tkazilishi shart.

Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-onalik tomonidan qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Farzandlikka olinish vaqtida boquvchisini yo'qtonganlik uchun pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar farzandlikka olingan taqdirda ham ana shu huquqni saqlab qoladilar.

Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ta'lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga belgilanadi. Homiylik 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilanadi. Vasiylik va homiylik organlari joylardagi o'zini-o'zi boshqarish organlaridir.

Vasiylik va homiylik vasiy yoki homiy tayinlanishga muhtoj bo'lgan shaxs yashayotgan joyda, agar shaxsning muayyan yashash joyi bo'lmasa, vasiy yoki homiy yashayotgan joyda belgilanadi.

Vasiy va homiy tayinlanishidan mansaatdor shaxslar sudga murojaat qilishlari mumkin.

Quyidagi shaxsler vasiy va homiy etib tayinlanishlari mumkin emas:

- voyaga yetmagan fuqarolar;
- voyaga yetgan, amma qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

- ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ushbu huquqlari cheklanganlar;

- qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun ilgari jazoga hukm qilinganlar.

Fuqarolar ularning roziligi bilangina vasiy va homiy etib tayinlanishi mumkin.

Vasiyga (homiyiga) bolaning ta'minoti uchun har oyda O'zbekiston Respublikasining hukumati belgilagan miqdorda pul to'lab turiladi.

Vasiy va homiyalar o'z qaramog'idagi voyaga yetmagan shaxslar bilan birga yashashi shart. Agar tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta'sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan 16 yoshga to'lган homiylikdagi bolaning alohida yashashiga yo'l qo'yildi.

Vasiylik va homiylik, farzandlikka olishdan farqli ravishda, quyidagi muddatlarga tayinlanadi:

- vasiylik va homiylikdagi shaxs voyaga yetguncha;

- vasiylik va homiylikdagi shaxs nikohga kirkuncha;

- sudning fuqaroning muomalaga layoqatini cheklash haqidagi hal qiluvchi qarori bekor qilinguncha;

- voyaga yetmagan shaxs to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinguncha;

- voyaga yetmagan shaxslar ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda.

Vasiy va homylarning vasiylik yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkni boshqarish, ularga tegishli mol-mulkini boshqalarga o'tkazish, vasiylik va homiylikdagi shaxslarga tegishli pul va boshqa qimmatli buyumlarni saqlash bilan bog'liq boshqa harakatlarni bajarish tartibi va shartlari, shuningdek, vasiylik va homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish va saqlash bo'yicha hisobot berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qonunda ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lган bolani tarbiyalash uchun uni tutingan oilaga berish ham nazarda tutiladi. Bu vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onalik o'zaro tuzilgan kelishuv asosida amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bola tutingan oilaga kelishuvda belgilangan muddatga tarbiyalash uchun beriladi.

Tutingan ota-onalik tarbiyalashga olingen bolaga nisbatan vasiy (homiy) kabi huquq va majburiyatlarga egadirlar. Tutingan ota-onalik vasiylik va homiylik organlari tanlaydi. Oilaga tarbiyaga olingen bolaning ta'minoti uchun O'zbekiston Respublikasining hukumati belgilagan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turiladi.

Bundan tashqari, qonunda tutingan ota-onalik mehnat haqining miqdori belgilanadi hamda bunday oilaga muayyan imtiyozlar beriladi. Uzrli sabablar (kasalligi, oilaviy yoki mulkiy mavqeining o'zgarishi) mayjud bo'lsa, bolalarni tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar o'rtasidagi oilaviy munosabatlar.

O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikohlari O'zbekistonda umumiy asoslarda tuziladi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi bilan fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam berish kelishuviga imzo chekkan mamlakatlarning fuqarolari nikoh tuzishga huquqiy layoqati borligini tasdiqlovchi hujjatni (albatta, bu hujjatni o'sha chet el davlatning tegishli organi bergan bo'lishi kerak) taqdim etishlari kerak.

O'zbekiston fuqarolari va O'zbekiston hududidan tashqarida yashovchilar o'rtasidagi nikoh O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida tuziladi.

O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslar o'rtasidagi hamda O'zbekiston hududidan tashqarida tuzatilgan nikoh nikohni tugatish haqidagi qarorni qabul qiluvchi organlarning vakolati tegishli chet davlatning qonunchiligidagi rioya etilgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsagina haqiqiy deb tan olinadi.

Er-xotinning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlar, ota-onalik tarbiyalashga olingen bolaga nisbatan vasiylik va majburiyatlar, voyaga yetmagan bolalar va oilaning boshqa a'zolarining aliment majburiyatlar, ular birgalikda yashayotgan davlat hududida amalda bo'lган qonunlarda belgilanadi.

Bola tug'ilishiga ko'ra qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning qonunlari otalikni belgilaydi. Farzandlikka olish hamda farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinayotgan bola fuqarosi bo'lган davlatning qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Xorijiy davlat oila huquqining normalari O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi asoslariiga zid keluvchi hollarda qo'llanilmaydi. Bu hollarda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llaniladi.

Oila qonunchiliginining asosiy vazifasi oila, onalik, otalik va balolikni himoya qilishdir.

Oila huquqining normalari oilani mustahkamlashga, o'zaro muhabbat tuyg'ulariga asoslangan oilaviy munosabatlarni qurish, ishonch va o'zaro hurmat, hamandardlik, hamkorlik va oila oldida uning har bir a'zosining mas'ulligini oshirishiga yo'naltirilgan.

Oila qonunchiligi biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchilik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaydi hamda oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini va ularning himoya qilinishini ta'minlaydi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- davlatning faqat FHDYO organlarida tuzilgan nikohni tan olishi;
- erkak va ayol nikoh ittifoqining ixtiyoriligi;
- er va xotinning oilada teng huquqliligi;
- oilaviy muammolarining o'zaro rozilik asosida hal etilishi;
- bolalarni oilada tarbiyalashning ustunligi;
- bolalarning kamol topishi va farovonligi haqida ota-onva davlatning g'amxo'rlik qilishi;
- oilaning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolari huquq va manfaatlarning himoya qilinishini ta'minlash;
- nikoh tuzayotganda va oilaviy munosabatlarda ijtimoiy, irqiy, milliy, til va diniy mansublik belgilariiga qarab fuqarolar huquqlarining har qanday shakldagi cheklanishini man etish;
- fuqarolarning oiladagi huquqini faqat qonunda nazarda tutilgan va normadan chiqib ketmagan holda hamda oilaning boshqa a'zolari va boshqa fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlari, axloqi, sog'lig'ini himoya qilish maqsadidagina cheklash.

Oila qonunchiligi quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

- nikoh tuzish tartibi va sharti;
- nikohni tugatish va uni haqiqiy emas deb topish;
- oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni er-xotin, ota-onva bolalar, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olingenlar o'rtasida);
- qarindosh-urug' va boshqa shaxslar o'rtasida;
- ota-onva qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash tartibi va shakllarini belgilash.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 63, 64, 65 va 66-moddalari oilaviy munosabatlarni tartibga solish xususiyatlarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yili 30-aprelda qabul qilingan Oila kodeksi huquqning bu sohasidagi asosiy hujjat hisoblanadi.

Nikoh — ayol va erkakning erkin, teng huquqli ittifoqi. Bunda ular nikoh yoshiga yetgan bo'lishi va boshqa nikohda bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, nikoh qonun belgilagan shart va tartibga rioya qilgan holda va albatta, oila tuzish maqsadida tuzilgan bo'lishi kerak.

Nikohning haqiqiy emasligi shartlarini hamda nikohning haqiqiy emas deb topilganligini tan olishning huquqiy oqibatlarini aniqlash muhimdir. Nikohni haqiqiy emas deb topishning asosiy shartlaridan biri uning soxtaligi, ya'ni, nikoh oila qurish maqsadisiz ro'yxatdan o'tkazilganligidir.

Nikoh tugatilishining quyidagi sabablari mavjud: er-xotindan birining vafoti yoki sudning ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi; er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek, sud muomalaga layoqatsiz deb topgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq.

Nikohni tugatishning ikki tartibi belgilangan: sud orqali va FHDYO organlari orqali.

Oilaviy munosabatlarda er va xotin tengdirlar. Ular kasb, yashash joyini tanlashda erkin huquqqa egadirlar, bolalarni tug'ish, tarbiyalash, ta'lif berish va oilaning boshqa muammolarini hal etadilar. Er-xotinning nikoh davrida orttirgan mulki ularning umumiy mulki hisoblanadi. Umumiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarish o'zaro rozilik asosida amalga oshiriladi.

So'nggi yillarda nikohlanuvchi shaxslarning nikoh shartnomalarini tuzishga bog'liq masalalar umumiy qiziqish uyg'otmoqda.

## VII MAVZU

### EKOLOGIYA HUQUQI ASOSLARI

#### I-§. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiyligi ekologiya tizimida tutgan o'rni

XX asrda yuzaga kelgan fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan yangi texnika vositalari, ishlab chiqarish obyektlari o'z navbatida tabiatga bo'lgan ta'sirini oshishi misli kutilmagan ekologik salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Shuning uchun ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshladi.

Ushbu holat ekologik-huquqiy munosabatlar doirasi va darajasini o'rganuvchi ekologiya huquqi fanining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zaruriyat yaratdi.

Ekologiya huquqi — tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi fandir.

Ekologiya huquqi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rni va salohiyatiga ega bo'lgan alohida yo'nalish va xususiyatlarga ega bo'lgan huquq sohasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir huquq sohasining mohiyati tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar doirasi va darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning kengligi, murakkabligi, xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa huquq sohalaridan ajralib turadi<sup>13</sup>.

Hammamizga ma'lumki, davlat va huquq nazariyasiga asosan, huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rni va ishtiropi darjasini doirasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (majmualashgan yoki keng qamrovli, keng tarmoqli) huquq sohalariga bo'linishi mumkin. Mustaqil huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni asosan, o'zining kuchi, imkoniyatlari darajasida tartibga soladi. Masalan, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi va boshqalar.

Keng qamrovli (kompleks) ahamiyatga ega bo'lgan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqa huquq sohalarining huquqiy qoida-talablari va tamoyillardan foydalanadi.

Ekologiya huquqi ham tabiat-jamiyat tizimidagi global ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda birinchi navbatda ekologik umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyil, usul va qoida-talablardan foydalanadi, ikkinchidan, ushbu murakkab ekologik muammolarni hal qilish, ularning huquqiy tartibotini ta'minlashda o'zaro bog'liq bo'lgan huquqning boshqa sohalarining kuch va imkoniyatlaridan foydalanadi. Chunki, ekologiya huquqi hal qilishga qaratilgan ekologik muammo va vazifalarining ko'lami kengligi, murakkab va ahamiyatlili sababli faqatgina jamiyat hayotining ijtimoiyi, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy jabhalarida mayjud bo'lgan barcha vosita chora-tadbirlarni safarbar qilish orqali ekologik munosabatlarni tartibga solish mumkin.

Shuning uchun ham ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik tamoyil, qoida va talablar bilan bir qatorda boshqa huquq sohalari ya'ni, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, mehnat va xo'jalik-huquqiy vosita va qoida-talablaridan foydalanadi.

*Demak, ekologiya huquqi — tabiat va jamiyat tizimida paydo bo'ladigan ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng qamrovli va ko'p tarmoqli huquq sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi.*

Shuni ta'kidlash joizki, har bir fan yoki huquq sohasi yoki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rni va tartibga solinayotgan munosabatlarning ko'lamiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Shu jumladan, ekologiya huquqi ham birinchi navbatda huquq tizimining alohida sohasi sifatida boshqa huquq sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, huquqning umum e'tirof etilgan tamoyil, shakl va qoidalardan foydalanib, rivojlanib bormoqda. Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlar tabiat qonuniyatları, tabiiy resurslar, ekologik tizim va komponentlarga ta'sir etish ya'ni holatining yomonlashishi, miqdorining kamayishi, muvozanatning buzilishi, turlarning yo'qolib ketishi va hokazolar kabi jarayonlarda paydo bo'ladi. Hammamizga ma'lumki, inson tabiat mahsuli, uning bir qismi, tabiat qonuniyatları doirasida shakllangan, rivojlanayapti va taraqqiy etib boradi. Bir so'z bilan aytganda «Tabiat-jamiyat» tizimida tabiat beqiyos darajada ustun huquqqa, ko'lamga va

<sup>13</sup> Xolmo'minov J.T. «Ekologiya va qonun». — T.: «Adolat», 2000.

salohiyatga egadir. Shuning uchun ham jamiyat o'z taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, albatta tabiatning muqaddas, ustuvor qonuniyatlarini anglashi, e'tirof etishi, o'z xatti-harakatlarini moslashtirishi va eng muhimi o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq harakat yo'nalishlari tabiatning holatiga bog'lab rivojlantirishi lozim bo'ladi. Ko'rib turibmizki, ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda tabiiy qonuniyatlarning ustuvorligi o'z navbatida ekologiya huquqining boshqa huquq sohalaridan farq qiluvchi, ajralib turuvchi xususiyatlari mavjudligini taqozo etadi. Ushbu xususiyatlar birinchidan, ekologik munosabatlarni tartibga solishda tabiat qonuniyatlarini ustunligini ta'minlash; ikkinchidan, jamiyat hayotida shakllangan ekologik umum majburiy tamoyil, qoida-talablarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llash; uchinchidan, ekologik munosabatlarni tartibga solish mexanizmida konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat, jinoiy, fuqarolik, xo'jalik-huquqiy chora-tadbirlaridan foydalanish va to'rtinchidan, ekologik muammolarni hal qilishda jamiyat hayotida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jahbalarini chora-tadbirlarini keng safarbar qilish bilan belgilanadi. Ekologiya huquqi murakkab ta'limot tizimiga ega bo'lib, tabiat qonuniyatlarini va jamiyat qonunlarining o'zaro moslashishi, muvosiflashishi natijasida shakllanadi, rivojlanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun ham tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, voqe-a-hodisalar bilan bog'liq nazariy ta'limot va bilimlar o'z navbatida jamiyatning tabiat sir-asrорlari, ilmini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Chunki, tabiiy bilimlarni o'rGANISH o'z navbatida jamiyatning tabiat bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtiradi, har bir davlat ekologik siyosati yo'nalishlarini oqilona belgilashga xizmat qiladi.

Biz ekologiya huquqi fanini chuqurroq o'rGANMOQCHI bo'lsak, avvalambor, «Ekologiya fani» haqidagi umumiyl tushuncha va yo'nalishlarini yetarli anglashimiz kerak bo'ladi.

Ekologiya — murakkab tizimga ega bo'lgan, tirik organizmlarning yashash sharoti va shu organizmlarning o'zlarini yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlarni o'rGANUVCHI fandir.

1866-yilda nemis biologi o'z ilmiy asarida birinchi bo'lib «Ekologiya» atamasini fanga kiritib, uning ma'nosini tirik organizmlarning o'zaro va ularning yashash muhiti bilan bog'liqligini o'rGANUVCHI ta'limot sifatida ifodalaydi<sup>14</sup>.

Ekologiya atamasi yunoncha «oikos» — turar-joy, yashash muhiti, uy, — «logos» — ta'limot, degan ma'noni bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, ekologiya biz yashab turgan muhit, uy, vatanimiz haqidagi fandir.

Demak, ekologiya huquqi fani global ahamiyatdagi ekologiya fanining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda ekologiya huquqi fani «Tabiat-jamiyat tizimi»da turli shakl va yo'nalishlarda paydo bo'ladigan o'zaro ta'sirlarni barqarorlashtirish, harakat yo'nalishlarini aniqlash, jamiyat a'zolarining tabiatdan foydalanish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish me'yorlarini o'rnatish, tabiat qonunlari darajasida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablarini belgilash kabi mas'uliyatli vazifalarni o'zida mujassam etgan.

## **2-§. Ekologiya huquqining asosiy yo'nalishlari va predmeti**

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida turli ijtimoiy munosabatlarni paydo bo'ladi. Ushbu sohada ijtimoiy munosabatlarni biz ijtimoiy-ekologik munosabatlarni deb ataymiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-ekologik munosabatlarni shakli, mazmuni jihatdan turli-tuman bo'lib, ushbu munosabatlarni tartibga solishda ham keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy-ekologik munosabatlarni yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda oqilona aniqlash o'z navbatida, ushbu munosabatlarni tartibga solish huquqiy mexanizmni ixchamlashtiradi va amalga oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni uchta quyidagi asosiy yo'nalishlarda paydo bo'ladi:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik-huquqiy munosabatlari;
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik-huquqiy munosabatlari;
3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik-huquqiy munosabatlari.

Ushbu ekologik-huquqiy munosabatlari yo'nalishlari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirlar tizimida tutgan o'rni

<sup>14</sup> Hayitboyev E.R. Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. — T.: O'zMU, 2001, 7-b.

muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan chora-tadbirlari, uslublari va o'ziga xos xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

**Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish** — jamiyatda yer, yerosti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi hamda atmosfera havosini muhofaza qilish, tabiiy hosilalar va ekologik komplekslarni saqlash, qayta tiklash, atrof-muhitning biologik xilma-xilligini ta'minlash bilan bog'liq qoida-talab, chora-tadbirlarning yig'indisi hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrda tabiiy muhitni muhofaza qilish yo'naliishiga katta e'tibor berilib, har bir davlatda turli dastur, rejalar va qonunchilik hujjatlari qabul qilingandir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari, qoida-talablari muhofaza ahamiyatidagi ijtimoiy-ekologik munosabatlarini tartibga soladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish deganda, jamiyat a'zolarining o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatning foydali qismalarini o'zlashtirishishi tushuniladi.

Tabiy resurslardan oqilona foydalanish — jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer, yerosti boyliklari, suv resurslari, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosida foydalanishga qaratilgan ilmiy jihatdan davlat dastur va rejalar, qonunchilik hujjatlari qoida-talablari yig'indisidan iboratdir.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi — atrof tabiiy barqarorligi, aholining sog'lig'iga xavfli ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish, oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- ekologik xavfli hudud, ekologiya ofati mintaqalarini aniqlash;
- ekologiya ekspertizasini joriy etish;
- ekologik xavfli va zararli ishlab chiqarish obyektlarini pasportlashtirish;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish turlari faoliyatiga ruxsatnomalar berish;
- tabiiy ofat, sel, toshqin va texnogen avariyalarni aniqlash, oldini olish;
- aholining ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish;
- aholining sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqalar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida taysiflangan ekologik-huquqiy munosabatlar davlat ekologik siyosatining asosiy yo'naliishlarni tashkil etadi.

Ma'lumki, har bir fan shu jumladan, huquq sohasi o'ziga tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganish va tartibga solish nazariyamalii qoida-talablar tizimiga ega bo'lib, ushbu fanning predmetini tashkil etadi.

Ekologiya huquqi huquq tizimining alohida sohasi sifatida ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yo'naliishlarini o'rganish va tartibga solishni qamrab oluvchi o'z predmetiga egadir.

Ekologiya huquqining predmeti — atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishdan iboratdir.

### **3-§. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi**

Har bir fan sohasi, shu jumladan, ekologiya huquqi fani ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o'z yo'naliishlari, ya'ni tamoyillarga ega bo'lib, o'z navbatida har bir fan sohasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

*Ekologiya huquqining tamoyillari — tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlar yo'naliishi, chegaralarini belgilab berishda ekologik-huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonunchilik qoida-talablarning ekologik munosabatlarini tartibga solish tartibini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.*

Tabiat va jamiyat o'rta sidagi o'zaro munosabatlar juda xilmashil va murakkab bo'lganligi uchun ham ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bo'lishimiz mumkin:

- davlat va huquqning umumiyl tamoyillari;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillari;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquqning quyidagi tamoyillaridan foydalanadi:

- qonuniylik;
- ijtimoiy adolat;
- oshkorlik;
- ishonchirish va majburlov choralarining hamkorligi;
- shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.

Atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash va tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligi hozirgi va kelgusi avlodning genetik fondini saqlash;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda tabiat qonuniyatlarini ustuvorligini tan olish;
- fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash;
- jamiyatning ekologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;
- tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro uyg'unlashtirish;
- tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlaridan ustuvorligini tan olish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirish;
- tabiiy resurslar holatini tiklash majburiyligi;
- ekologiya ekspertizasini o'tkazishning majburiyligi;
- ekologik qonunchilik qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikning qo'llanilishi va boshqalar.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlari quyidagi tamoyillar doirasida tartibga solinadi:

- tabiiy resurslardan faqat ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanishning zarurligi;
  - tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyatini rag'batlantirish;
  - yer, yerosti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosidan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asosda foydalanganlik uchun haq to'lamaslik;
  - yerlardan belgilangan toifalar doirasida maqsadli foydalanish;
  - qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ustuvorligi;
  - tabiiy resurslar kadastrini yuritish majburiyligi va boshqalar.
- Tabiat va jamiyat o'rtafigi o'zaro munosabatlari, davlat va ekologik funksiyasi ushbu tamoyillar asosida va doirasida amalga oshirilib, atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ekologiya huquqi o'z predmeti, yo'naliishlari, maqsad va vazifalariga ega bo'lgani kabi o'z usullariga ham ega bo'lib, ushbu usullar tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlari holatiga ta'sir etish orqali katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi paytda ekologik munosabatlari qatnashayotgan jismoniy va yuridik shaxslar xatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirish uchun turli usullar qo'llanilib, ularning ko'lami ortib bormoqda.

Ekologik-huquqiy munosabatlari tizimida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. *Ekologizatsiyalashtirish.*
2. *Ma'muriy-huquqiy.*
3. *Fuqaroviyl-huquqiy.*

Ekologizatsiyalashtirish usuli bugungi kunda jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jahbalariga tobora kirib borib, tabiat qonuniyatlarining ustuvorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining ishlab chiqarish jarayoniga qo'llanilishi sog'gom ekologik muhitga erishish zaruriyatini oldimizga qo'yemoqda. Ushbu usul shaxs, davlat va jamiyat hayotining barcha jahbalarini ekologik qoida-talablar asosida olib borilishini taqozo etadi.

Ma'muriy-huquqiy usul — davlat va huquqning muhim usullaridan biri bo'lib, davlatning majburlov chora-tadbirlarining qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Ekologiya huquqida ma'muriy-huquqiy usul keng qo'llaniladi. Bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlovchi qoidatalablarning belgilanishi, barcha yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amal qilinishining majburiyligi, ekologik qoida-talablarini buzganlik uchun javobgarlik chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Fuqaroviyl-huquqiy usul ekologiya huquqida tobora rivojlanib borayotgan usul sifatida bevosita ekologik-huquqiy munosabatlari ishtiroychilarining tengligi, mulkning daxlsizligi, moddiy rag'batlantirish, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy chora-tadbirlarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Ekologiya huquqi — tabiat-jamiyat tizimidagi murakkab munosabatlarni tartibga soladi, shuning uchun ham turli tushunchalar, institutlar, toifalar keng qo'llanib, ekologik-huquqiy qoidatalablarni qo'llanilishi va mazmunini oolib berishga xizmat qiladi.

Ekologiya huquqining tizimi — ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va mazmuniga ko'ra asosiy institut, toifa va nazariy-huquqiy masalalarning ma'lum tartibda joylashishidir.

Biz murakkab ekologik-huquqiy munosabatlari yo'naliishlarini tahlil qilish va o'rganishni yengillashtirish maqsadida ekologiya huquqi tizimini ikki qismga, ya'ni, umumiy va maxsus qismga bo'lib o'rganamiz.

Ekologiya huquqining umumiy qismi:

- tabiat va jamiyat o'rtafigi o'zaro bog'liqligi;

- ekologiya huquqining tushunchasi, predmeti va tizimi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi;
- ekologiya sohasida davlat boshqaruvi;
- ekologiya nazorati va ekologiya ekspertizasining huquqiy holati;
- ekologiya huquqining umumiy qismi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kabi mavzularni o'z ichiga olib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari, huquqiy asoslari, ekologik-huquqiy mexanizmi va uning elementlarining umumiy ekologik-huquqiy qoidalarini belgilaydi.

Maxsus qismi esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq quyidagi:

- yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;
- suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;
- yerosti boyliklarining huquqiy holati;
- o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy holati;
- hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati;
- atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy holati;
- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati;
- xalq xo'jaligi sohalari va aholi punktlarida atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish;

- atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish kabi har bir tabiat obyektining huquqiy holatini qamrab oluvchi maxsus ahamiyatdagi ekologik-huquqiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

*Ekologiya huquqi manbalarining tushunchasi*, xususiyatlari va tizimi.

Har bir fan, huquq sohasi o'z manbalariga ega bo'lib, ushbu manbalar asosida rivojlanadi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtaсидаги о'заро муносабатларни тартибга солишда ўрдам берадиган, ғатнашадиган huquqiy hujjatlar ekologiya huquqining manbasi sifatida qaralishi mumkin.

Ekologiya huquqining manbalarini me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday huquqiy hujjat manba bo'lib xizmat qilmaydi.

Ekologiya huquqining manbasi sifatida qaralayotgan huquqiy hujjat quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinganligi;
2. Belgilangan doirada majburiy ahamiyat kasb etishi;
3. Ekologik qoida-talablarni belgilashi;
4. Rasmiy shakl, tuzilish, amal qilish muddatlari va boshqa atributlarga ega bo'lishi, hokazo.

Ekologiya huquqining manbalari deganda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan qonunchilik hujjatlari tushuniladi.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari, Maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari yig'indisi ekologik qonunchilik hujjatlari tizimini tashkil etadi.

Ekologiya huquqining manbalari keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi uchun ham ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- yuridik kuchi bo'yicha manbalar qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlarga bo'linadi.

Ekologik munosabatlarni tartibga solinishi yo'naliishlari bo'yicha:

- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qonunchiligi;
- aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash qonunchiligi.

Munosabatlarni tartibga solish predmeti bo'yicha:

- umumiy va maxsus ekologik qonunchilik hujjatlari;
- huquqiy tartibga solish holati bo'yicha moddiy va protsessual ahamiyatdagi qonunchilik hujjatlari;
- qonunchilik hujjatlarining tizimi bo'yicha oddiy, kodifikatsiyalashgan va manbalar.

Qonunchilik hujjatlarining qo'llanilish doirasi bo'yicha:

- hududiy-mintaqaviy;
- respublika miqyosida;
- xalqaro miqyosidagi manbalar va hokazo.

Tabiat-jamiyat tizimida o'zaro munosabatlarni tartibga solishda bir tomonidan qonun, farmon, qaror, nizom kabi me'yoriy hujjatlar, ikkinchi tomonidan, ushbu qonun hujjatlarini qo'llanilishiga yordam berish va davomiyligini ta'minlashda ekologik normativ, standart

va yo'riqnomalar kabi minglab me'yoriy-texnik ahamiyatdagi hujjatlari qo'llaniladi<sup>15</sup>.

Ekologiya huquqining manbalari boshqa huquq sohalari manbalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tamoyillari, usullari, qoidalari qo'llashda umumiylitka egadir.

Ekologik qonunchilik hujjatlari murakkab tizimga ega bo'lib, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra biz ularni o'rganish oson bo'lishi uchun uchta asosiy qismga bo'lamiz:

- ekologiya huquqining konstitutsiyaviy asoslari;
- ekologiya sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari tizimi;
- ekologiya sohasidagi qonun osti me'yoriy hujjatlari tizimi.

#### **4-§. Tabiatni muhofaza qilish prinsiplari (qidalar)**

Tabiat va jamiyat o'rta sidagi munosabat shakllari va konsepsiyalardan kelib chiqadigan hamda ekologik qonunlarni maqsadi va mohiyatini belgilab beradigan uchinchiligi qadam — kishilarning jamiyatdagi ekologik munosabatlarida amal qilishi kerak bo'lgan asosiy prinsiplari yoki qidalar. Bu prinsiplar tabiat qonuniyatlariga asoslangan bo'lib ular quydagilardan iboratdir:

1. Tabiiy hodisa va jarayonlar ko'pqirralikdir. Shuning uchun ham ular har tomonlama obyektiv baholanishi kerak. Bu degan so'z har bir tabiiy hodisa yoki obyektga xalq xo'jaligining sohaviy zaruriyatiga qarab yondashish kerak. Lekin bu sohaviy yondashuv avvalambor, ekologik tizimlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta Osiyo sharoitida o'rmon — qurilish yoki kimyoviy xom ashyo manbai emas, balki ekologik tizim yoki landshaftlarni bir me'yorda ushlab turuvchi element sifatida qaralishi kerak. Chunki bu mintaqada bor yo'g'i umumiy maydonning bir foizidan oshmaydigan siyrak daraxtzor va butazorlar suv va tuproq muhofazasida «yashil qalqon», iqlimni mo'tadillashtiradigan komponent, aholini madaniy dam olishini ta'minlaydigan obyekt sifatida qarashni taqozo etadi<sup>16</sup>.

Suv fondidagi daryolar O'rta Osiyo sharoitida sug'orish yoki rekratsiya manbai emas, avvalambor, ichimlik suvi va aholini maishiy xizmati uchun mo'ljallanishi kerak. Chunki issiq iqlimli arid (quruq) sharoitda suv aholi uchun hayot manbaidir. Sibir, Uzoq Sharq kabi sovuq yoki nam iqlimli mintaqalar uchun daryolar avvalambor, aholini transport xizmatini bajaruvchi va arzon energetika manbaidir. Daryolar insonlarning hayoti uchun bilvosita qishloq xo'jaligi, metallurgiya, tog'-kon sanoati, kimyo kabi suvni ko'p talab qiluvchi xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun xizmat qiladi. Asosiysi tabiat komponentlari turli chiqitlar yoki axlatlar tashlaydigan tabiiy obyekt bo'lib qolmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy hodisa va jarayonlarning ko'pqirralik prinsipi xalq xo'jaligi sohalarida ulardan foydalanishni inkor etmaydi, lekin foydalanishda ekologik tizimlarni saqlab qolish yoki tiklash nuqtai nazardan ustuvor (prioritet) sohalarini belgilashni taqozo qiladi.

2. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mintaqaviyidir, ya'ni mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda ekologik tadbirlarni olib borish kerak. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojining tayanchi bo'lgan tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ularni har tomonlama (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy) baholashni, istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashni, mahalliy va ekologik sharoitlarini inobatga olgan holda amalga oshirishni talab qiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasida (umuman Yer kurrasida) tabiiy obyektlarning son va sifat ko'rsatkichlari maydon va makon bo'yicha bir tekisda joylashmagan. Biron-bir mintaqada ma'lum bir tabiiy obyekt yoki resursning mo'lligi ikkinchi bir mintaqada uning yetishmasligini qoplab bera olmaydi yoki biron-bir mintaqada ekologik xavfsiz muhit sharoiti ikkinchi bir mintaqaning ekologik inqirozini bartaraf etishga asos bo'la olmaydi.

3. Tabiiy hodisalar va jarayonlar o'zaro uzviy bog'langandir. Birinchi ekologik mintaqaviy prinsipni davomi sifatida shuni aytish kerakki, tabiatning ma'lum bir obyektni muhofazalash yoki uni buzish qolgan tabiiy obyektlarga o'z ijobi yoki salbiy ta'sirini albatta o'tkazadi, ya'ni «zanjur reaksiyasi» usulida ishlaysdi.

Tabiatda daryo va ko'llarni muhofazalash o'z-o'zidan undagi baliqlarni va suvo'tlarini muhofazalashga olib keladi. O'rmonlarni asrash avvalambor, ulardagi hayvonot dunyosini saqlashga,

<sup>15</sup> Hayitboyev E.R. Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. — T.: O'zMU, 2001, 10-b.

<sup>16</sup> I.A.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». — T.: «O'zbekiston», 1997.

so'ngra atmosfera havosining va suvlarning tozaligini ushlab turishga, tuproqning unumdorlik xususiyatlarini saqlab qolishga imkon beradi. Aksincha, tuproq unumdorligini yo'qotish, o'simlik dunyosini siyraklashuviga va so'ngra, ularda yashovchi va oziqlanuvchi hayvonot dunyosini kamayishiga yoki qirilib ketishiga olib keladi. Ekologik tizim bir obyekt muhofazasini ikkinchisi orqali amalga oshirish qonuniyatini shakkantiradi.

4. «Zanjir reaksiyasi» qonuniyatining davomi, lekin uchinchi tabiat prinsipiqa qarama-qarshi bo'lgan qoida — biron-bir tabiiy obyekt muhofazasi ikkinchi bir tabiiy obyektning zarari bo'lishi ham mumkinligi. Masalan, Afrika qit'asidagi milliy bog'larda tashkil etilgan qo'riqxonalarda fillar sonining ko'payib ketishi u yerdagi o'simlik dunyosini siyraklashuviga va tuproq unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham ma'lum bir obyekt muhofazasiga qaratilgan ekologik tadbirni qolgan tabiiy obyektlar imkoniyatlariga monand ravishda va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirishni taqozo qiladi.

5. Yuqorida zikr etilgan to'rt ekologik prinsip bizlardan tabiat muhofazasiga kompleks yondashuv talab etadi. Tabiatni muhofaza qilish va shu bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilonan foydalanishni biron-bir soha yoki yo'nalish bo'yicha to'liq amalga oshirib bo'lmaydi, balki kompleks sohalararo boshqaruv va nazorat asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining faoliyati xuddi shu komplekslik prinsipiqa asoslangandir.

Umuman olganda, tabiatni muhofaza qilish bir qaraganda tabiiy resurslardan foydalanishga qarama-qarshi yo'nalishga o'xshaydi. Lekin ekologik tizimdagi katta yoki kichik doiradagi modda va energiya almashuvi ham tabiiy obyektlarning biri ikkinchisiga ta'sir etishi, ya'ni foydalanishi va muhofaza qilishi asosida bo'ladi. Hech qaysi bir tirik mavjudot (hayvonot dunyosi, o'simliklar, insonlar) atrof-tabiatdan foydalanmasdan turib hayot kechira olmaydi. Ma'lum bir ekologik me'yordagi bu harakatlar ekologik tizimlarni ushlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o'zida tabiatni muhofaza qilish va foydalanish prinsipi kelib chiqadi.

Shunday qilib, jamiyatning tabiatga nisbatan yo'naltirilgan harakatlari ekologik prinsiplarga uyg'un va chuqur ilmiy asoslangan bo'lishi lozim.

## 5-§. O'zbekistonning ekologik siyosati

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko'pmi O'zbekiston Respublikasining ishtiroti bor. Istiqomat qilayotgan 25 mln.dan ziyod aholining yarmidan ko'prog'i ekologik xavfsiz bo'limgan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro'y bergan ekologik inqiroz holati Sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezident I.A.Karimov, ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqdalar<sup>17</sup>.

XX asr oxiriga kelib O'zbekistonda quyidagi taktik va strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan: «2005-yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi», «O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning ekologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasи», «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik xilmayxillikni saqlab qolish bo'yicha milliy strategiya va reja». Bu hujjalarda davlatimizning jamiyat va tabiat o'rtaqidagi munosabatlar shakli hozirgi kunda va kelajakda qanday bo'lishi, O'zbekistonning ekologik konsepsiysi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — kishilarning hayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhitini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtaqidagi iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo'llash.

Biz bilamizki, mustaqillik davrigacha O'zbekiston hududi Chor Rossiyasining so'ngra, Sovet Ittifoqining xom ashyo yetishtirib beradigan chekka o'lkasi bo'lib hisoblangan. Shuning uchun ham tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralaridan maksimal holda ekstensiv usulda foydalanilgan, ya'ni iqtisodiy munosabat shaklida bo'lgan. Bunday totalitar tuzumdagagi munosabat shaklidan bordaniga ekologik munosabat shakliga, jamiyatda na iqtisodiy, na huquqiy, na ijtimoiy-

<sup>17</sup> I.A.Karimov, «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», ... T.: «O'zbekiston», 1999.

madaniy asosi yaratilmay turib o'tishni, hattoki nazariy jihatdan ham amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi tanlagan yo'li tabiat va jamiyat o'rtaсидagi munosabatlarni iqtisodiy-ekologik shakli, ya'ni bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o'tishga asos bo'lmog'i darkor.

29-avgust 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik Konsepsiysi to'g'risida»gi Qonunida mamlakatimizning ekologik konsepsiysi berilgan bo'lib, unda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

- *shaxsning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan sog'lig'ini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish;*

- *jamiyatning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mo'tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, aholining sog'ligini ta'minlash, jismoniy baquvvat avlodni shakllantirish;*

- *davlatning hayotiy zarur ehtiyojlari bo'lgan barqaror rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiy holatni mo'tadillashtirish, sog'lom hayot tarzini shakllantirish.*

Shunday qilib, O'zbekiston uchun yagona bo'lgan shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy zarur ehtiyojaridan biri - ekologik xavfsiz muhit milliy xavfsizlikning ajralmas bir bo'lagidir. Respublikamiz ekologik siyosatining asosiy maqsadini bajarmoq uchun organik rivojlanish bilan bir qatorda muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasini qo'llashni ma'qul deb topgan. Bu degan so'z shaxs, jamiyat va davlatning ekologik talablarini mintaqalar bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantrish talablariga moslashtirish kerak.

I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hamda «2005-yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi»da yuqorida aytilgan maqsad va konsepsiyalarni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari belgilangan:

- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Xalq xo'jalik tarmoqlaridagi tabbiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Atmosfera havosi va suvlarni insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish;

- qishloq xo'jalik ekinlarini, eng avvalo, g'o'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish. Kollektor-zovur

suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqava suvlarni chiqarib yuborishni batamom to'xtatish zarur;

- sanoat korxonalarida atmosfera havosiga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda mas'uliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaivi, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan tayyor, pirovard mahsulot olganga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaivi, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o'rnatish lozim;

- qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabbiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabbiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor;

- foydali qazilmalardan oqilona foydalanish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan to'liq foydalanishni ta'minlash darkor va uning uchun eskirgan uskunalarni almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sexlar, uchastkalar va korxonalarini rekonstruksiya qilish asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to'liq va oqilona qazib olish muhim vazifadir. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun tog'-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish (rekultivatsiya qilish) muhim ahamiyatga ega;

- keng maydonlardagi tabbiy sharoitlarni tabbiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadli, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash, suv chiqarish tadbirlarini va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish) lozim;

- jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash, tabbiy genofondni madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak;

- qurilish va obodonlashtirishni rejalahtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va aholi punktlarda ekologik xavfsiz muhitni tarkib toptirish;

- jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning ta'siri hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim;

- xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investisiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalg etish — birinchi darajali vazifadir<sup>18</sup>.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yuqorida aytib o'tilgan mo'ljallangan tadbirlarni amalgalashirish uchun «Tabiatni muhofaza qilishning Milliy Dasturi»da quyidagi prinsiplarga amal qilish tavsiya etilgan:

- davlat ekologik islohotlarning yo'lboshlovchisi bo'lmog'i darkor;
- ekologik xarajatlarni moliyalash va uning yangi sxemalarini jalg qilish;
- makroiqtisodiy va sohaviy ekologik siyosatni takomillashtirish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish;
- atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash maqsadini qo'yish va standartlashtirish;

- ishlab chiqarishning ekologik talablarini chuqurlashtirish va hk.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida aytib o'tilgan ekologik siyosatini amalgalashirish uchun tabiat va jamiyat o'rta-sidagi munosabat shakli, tabiat qonuniyatlariga jamiyat qonunlarini moslashtirish, ekologik chora-tadbirlar va asosiy tanlangan tamoyillarning hayotga tatbiq qilish mexanizmi ishlab chiqilsa va amaliyotda ular o'z tatbiq'ini topsa, so'zsiz, bizning mamlakatimiz yaqin kelajakda ekologik munosabat shakliga o'tib olishi mumkin. Bunday siyosat shaxsning, jamiyatning va davlatning hayotiy zarur bo'lgan milliy xavfsizligini ta'minlashda katta omil bo'lib xizmat qilishiga hech shubha yo'q.

## ***6-§. Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari***

Ekologiya nazorati — davlat ekologik siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida tabiat-jamiyat tizimidagi ekologik munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Hammamizga ma'lumki, ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida ekologiya nazorati muhim vazifalarni amalgalashiradi<sup>19</sup>.

<sup>18</sup> I.A.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». — T.: «O'zbekiston», 1997.

<sup>19</sup> Mirzayev T. «O'zbekistonda ekologik muammolar va prokurorlik nazorati». — T.: Qatortol-Kamolot, 1999.

Ekologiya nazorati — atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlilik, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ekologiya nazoratining asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit barqarorligini saqlashdan iborat bo'lib, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini taqozo etadi.

Hozirgi va kelajak avlodga barqaror atrof tabiiy muhitni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining 29-moddasiga asosan, ekologiya nazoratining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- atrof tabiiy muhit holatini hamda xo'jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajaralishini tekshirish.

Ekologiya nazorati jarayonida quyidagi chora-tadbirlar amalgalashiradi:

- atrof tabiiy muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish, axborot jamlanmasini shakllantirish;

- atrof tabiiy muhit holatiga antropogen ta'sirlarni o'rganish;

- ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonining barcha jahbalarida ekologik qonunchilik qoida-talablariga rioya etilishini tekshirish;

- ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini amalgalashiradi, oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarning amalgalashirishini tekshirish;

- tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha ruxsatnomalar berish;

- ekologik qoida-talablarini buzgan yuridik va jismoniy shaxslarning anqliash, ogohlantirish, javobgarlikka tortish;

- aholi orasida ekologik qonunchilik qoida-talablarni targ'ib va tashviqot qilish va boshqalar<sup>20</sup>.

Demak, ekologiya nazorati bilan bog'liq murakkab faoliyatini olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy usullar qo'llaniladi:

- kuzatish — atrof tabiiy muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni o'rghanish va ma'lumotlarni to'plash;

- umumlashtirish — atrof tabiiy muhit holatiga zararli va xavfli ta'sirlarni aniqlash, tahsil qilish asosida ma'lumotlarni tasniflash.

- baholash — antropogen faoliyat ishlarining zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash.

- ruxsatnomasi berish — yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, yerosti boyliklari va atmosfera havosidan foydalanish uchun litsenziya berish;

- ogohlantirish, cheklash va to'xtatish — ekologik xavfli va zararli xo'jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha to'xtatib qo'yish va bekor qilish;

- javobgarlikka tortish — ekologik qoida-talablarni buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash.

Ekologiya nazorati ekologik-huquqiy mexanizmning muhim tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## 7-§. Ekologiya nazoratining tizimi

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 29-moddasiga asosan, ekologiya nazorati tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmati;

- davlat ekologiya nazorati;

- idoraviy ekologiya nazorati;

- ishlab chiqarish ekologiya nazorati;

- jamoatchilik ekologiya nazorati.

Davlat ekologiya nazorati — atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat

<sup>20</sup> O'zRning «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun». — T.: «Adolat», 1998, 7-son

qo'mitalari, idoralar, yuridik shaxslar, mansabdar shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi yuzasidan maxsus vakolatlari organlarning tekshirish va choralarini ko'rish bilan bog'liq faoliyatini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 31-moddasida:

«Tabiatni muhofaza qilish sohasida»gi davlat nazorati, davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, maxsus vakolatlari davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

- O'zbekiston Respublikasining Sog'liqi saqlash vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasining yer resurslari davlat qo'mitasi;

- O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasining sanoat va konchilik nazorati agentligi maxsus vakolatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvi amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofigqlashtiruvchi maxsus vakolatlari organ bo'lib, o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'yusunadi va hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari me'yoriy ahamiyatga ega bo'lib barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, yuridik shaxslar, mansabdar shaxs va fuqarolar ijro etishlari shart.

Demak, Ekologiya nazorati murakkab tizimdan iborat bo'lib, ekologik qonunchilik hujjatlarining bajarilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

## 8-§. Ekologik ekspertizasining tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari

Ekologik ekspertiza — ekologik-huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Amalda qonunchilik hujjalari asosan, ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvoisiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushumiladi.

Ekologik ekspertizaning huquqiy holati konstitutsiyaviy qoidalarda, O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o'tkazish tartibi to'g'risidagi me'yoriy hujjalarda belgilangan<sup>21</sup>.

O'zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga asosan, ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- mo'ljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvoisiqligini aniqlash;

- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iqa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asoslilagini aniqlash<sup>22</sup>.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholining hayoti va sog'lig'iqa xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo'jalik obyektlarining ta'sirlarini oldini olish, bartaraf etish bilan bog'liq preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekologik ekspertiza muhim va murakkab faoliyat turi sifatida quyidagi umumiyy va o'ziga xos tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- ekologik ekspertizaning mustaqilligi;
- oshkoraliqi;
- ilmiy-tehnikaviy asosliligi;
- ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olishning majburiyligi;

<sup>21</sup> Hayitboyev E.R. Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. T.: O'zMU, 2001, 28-b.  
<sup>22</sup> «Ekologik ekspertiza to'g'risidagi» O'zR qonuni «Xalq so'zi» gazetasи, 2000, 7-iyun soni

- har qanday rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ehtimol tutilgan ekologik xavflilik prezumpsiyasi;

- xo'jalik va boshqa xil faoliyatning atrof tabiiy muhitga va aholining sog'lig'iqa ta'sirini baholashning keng ko'lamli va keng qamroviligi;

- ekologik ekspertizani o'tkazishda jamoatchilikning qatnashishi va boshqalar.

Ekspertiza natijalari to'g'ri, odilona bo'lishi uchun biologik, kimyoviy, fizikaviy, texnologik, demografik, agro-ekologik, iqtisodiy va boshqa jabhalardagi bilimlarni jamlagan holda keng qamrovli ijodiy mehnat mahsuli bo'lishi va tekshirilayotgan obyektga nisbatan real, obyektiv baho berilishi kerak.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan holda ko'zda tutilgan maqsadga erishiladi:

- ma'lumotlar to'plash — ekspertizadan o'tayotgan muayyan obyektga tegishli bo'lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yig'ish va to'plash;

- umumlashtirish — obyekt haqidagi to'plangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yo'nalishlari bo'yicha ma'lum tizimga keltirish;

- tahlil qilish — umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha alohida o'rganish, tasniflash;

- baholash — ekspertiza o'tkazilayotgan obyekt yo'nalishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari bo'yicha xavfli va zararli darajasini aniqlash;

- xulosa berish — ekspertiza o'tkazilayotgan obyektning ekologik jihatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoidatalablarga mos keladi yoki ushbu qoidalarga zid ekanligi haqida yakuniy, adolatli, obyektiv xulosaga kelish.

#### *Ekologik ekspertiza tizimi.*

Ekologik ekspertiza keng qamrovli va muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uni amalga oshirish yo'nalishlari, tartibi, qo'llanilayotgan usullari, berilayotgan xulosaning mohiyatiga asosan, murakkab tizimi tashkil etadi.

Tabiat-jamiyat tizimida ekologik ekspertizaning bir necha turlari ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy ekspertiza, siyosiy-huquqiy ekspertiza, ilmiy-tehnikaviy ekspertiza, sanitariya-ekologiya ekspertizasi, jamoatchilik ekologiya ekspertizalari qo'llanilishi mumkin.

Amalda qonunchilik hujjalarda ekologik ekspertizaning ixcham tizimi e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ekologik ekspertizaning quyidagi tizimi belgilangan: «Ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek, ekologik audit tarzida amalga oshiriladi».

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ekologik ekspertiza tizimining poydevorini davlat ekologiya ekspertizasi tashkil etadi.

Davlat ekologik ekspertizasini O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi olib boradi.

Ekologik ekspertiza tizimida ekologik audit ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ekologik audit — ekologik auditorlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda o'tkaziladigan, atrof tabiiy muhit hotatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir.

Ekologik audit davlat ekologik ekspertizasidan farqli ravishda xo'jalik va ishlab chiqarish obyekti mulkdorining qaroriga binoan o'tkaziladi.

Ekologik ekspertiza — muhim va murakkab jarayon bo'lib, atrof tabiiy muhitni barqarorligini saqlash, tabiatdan samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlardan iboratdir.

## **9-§. Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari**

Ekoliyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralar, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan mahrum qilish choralarini qo'llashdan iboratdir.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga ega: tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalari buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini qo'llash; atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash; yangi ekologik huquqbazarlikni sodir etishdan ogohlantirish.

Ekologik huquqbazarliklar obyekti — tabiiy resurslar, atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo'yicha belgilangan tartiblar hisoblanadi. Ekologik huquqbazarliklarning subyekti esa uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Ekologik huquqbazarlikning obyektiv tomoni xatti-harakatning noqonuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning boshqa subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi, ushbu xatti-harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbazarlikning subyektiv tomoni deganda huquqbuzarning aybi tushunilishi lozim. Huquqbuzarning aybi qasddan yoki ehtiyyotsizlik natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ekologik huquqbazarlik qasddan sodir etilayotganida huquqbazar taqiqlangan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yoxud bajarmaydi va bunda u o'z xatti-harakatlari natijasida zararli oqibatlarni kelib chiqishini biladi hamda ongli ravishda unga yo'l qo'yadi. Masalan, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish, ruxsatsiz ov qilish yoki daraxtlarni kesish va boshqalar.

Ekologik huquqbazarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqarolik (mulkiy) huquqbazarlik hamda intizomiy xatti-harakat tarzida bo'lishi mumkin. Ekologik huquqbazarliklar uchun tegishlichcha intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik huquqiy (mulkiy) javobgarlik qo'llaniladi.

## **10-§. Ekologik huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Ekologik huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik eng ko'p qo'llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbazarlik asos bo'ladi. Qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbazarlik deyiladi.

Ekologik huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksida nazarda tutilgan. Ma'muriy javobgarlik choralar ushbu huquqbuzarlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish sabablari bo'limganida, qo'llaniladi<sup>23</sup>.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun quyidagi ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi:

- jarima. Uni qo'llashning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan. Jarimani qo'llash oqibatida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi. Ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan jarimanining miqdori O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 60, 65-96, 125, 139, 162, 174, 198, 212, 214-moddalarida belgilangan;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish jazosi tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 27-moddasi). O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ov qilish qoidalari qo'pol ravishda buzilgan taqdirda ov qilish qurollari, ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvofiq esa noyob yoki yo'q bo'lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo'q qilib yuborish yoxud ushbu moddada ko'zda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashylarni musodara qilish mumkin. Ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida tabiiy obyektlar o'zlashtirib olinsa (yer egallanib olinsa, daraxt kesilsa, hayvonlar ov qilib o'ldirilsa), ular davlatga qaytarib beriladi va bu musodara hisoblanmaydi. Faqat huquqbuzarning mulki bo'lgan huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki ashysini musodara qilinishi mumkin;

- maxsus huquqdan mahrum etish. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini 28-moddasi va 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, ov qilish qoidalarni qo'pol ravishda buzgan hollarda ov qilish huquqidan o'n besh kundan uch yil muddatgacha mahrum etilishi mumkin;

- ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish chorasini homilador

ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarga, I va II guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 29-moddasi). Ekologik huquqbuzarlik uchun ma'muriy qamoqqa olish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan.

## 11-§. *Ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, mazkur Kodeksning maqsadlaridan biri tabiiy muhitni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash hisoblanadi. Ushbu Kodeksning 193-204, va 229<sup>1</sup>-moddalarida ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarliklar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 193-196-moddalarida atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu jinoyatlar tarkiblari umumiy ekologik talablarни buzish oqibatida vujudga keladi. Ushbu jinoyatlar barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog'liqidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ekologik jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan mazkur moddalari tabiiy resurslarning huquqiy holatini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi<sup>24</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan ekologik jinoyatlar tarkibi ekologik huquqbuzarlik natijasida og'ir oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog'liqidir. Bularga insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi, ko'p yoki ancha miqdorda zarar yetkazilishi va boshqa og'ir oqibatlar kiradi. Mazkur moddalarda ko'rsatilgan boshqacha og'ir oqibatlar har bir alohida holda ekologik huquqbuzarlikning og'irligini inobatga olgan holda huquqni qo'llovchi organlar tomonidan belgilanishi lozim.

Ekologik jinoyatlar uchun Kodeks eng kam ish haqining yuz baravarigacha jarima, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, olti oygacha qamoq, besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish, mol-mulkini musodara etish kabi jazo choralarini nazarda tutadi.

<sup>23</sup> O'zR MJKga shartlar. — T.: «Adolat», 2000.

<sup>24</sup> O'zR JKga sharhlari. — T.: «Adolat», 1997.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq ekologik jinoyatlar uchun 16 yoshga to'lgan, ushbu Kodeksning 193-196-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar uchun esa 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxslar jinoi javobgarlikka tortiladilar<sup>25</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid norma va talablarni buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu jinoyat sanoat, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa obyektlarni loyihalashtirish, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanishda belgilangan ekologik normalarni buzishdan iborat. Ekologik xavfsizlik qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunini 41-moddasida, tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida hamda qonun osti aktlarida o'z aksini topgan. Ushbu normalarning mohiyati shundan iboratki, obyektlarni qurish, loyihalashtirish, joylashtirish, ishga tushirish faqat tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan holdagini amalga oshirilishi mumkin. Har bir turdag'i obyektlar uchun aniq ekologik xavfsizlik talabi qurilish me'yordi va qoidalarida, alohida obyekt uchun esa, uni qurish loyihalarida o'z aksini topadi. Jinoyat kodeksining 193-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning obyekti bo'lib, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qoidalar kiradi. Mazkur jinoyatning subyekti esa faqat mansabdar shaxslar hisoblanadi. Ularning qatoriga loyihani tasdiqlovchi, ma'lum bir ishlarga ruxsat beruvchi, yuqorida ko'rsatilgan obyektlarni qabul qilib oluvchi yoki ekologik xavfsizlik talablarining bajarilishini tashkil etuvchi yoxud nazorat qiluvchi mansabdar shaxslar kiradilar. Jinoyatning subyektiv tomoni bo'lib ehtiyoitsizlik aybi hisoblanadi. Jinoyatning obyekti tomoni mazkur mansabdar shaxslarning aybli harakati (ishga tushirish bo'yicha ruxsat berish, loyiha talablarini buzib, uni amalga oshirish va hk.) yoki harakatsizligi (tozalash uskunalarini ta'mirlamaslik, ularidan foydalanmaslik va hk.) kabilarda ifodalanadi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish uchun jinoi javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 194-moddasida belgilangan. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 28-moddasiga muvofiq shunday ma'lumotlarni taqdim etish atrof tabiiy muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv, maxsus vakolat berilgan organlar, shuningdek, faoliyatni atrof tabiiy

muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kuzatuv ma'lumotlari, Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga va boshqa organlarga berilishi shart. Bundan tashqari, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 38-moddasiga muvofiq korxona, muassasa va tashkilotlar falokat haqida va uni bartaraf etish yuzasidan ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati va tabiatni muhofaza qilish organlariga darhol xabar berishlari shart. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar qatorida chiqariladigan chiqindilar hamda fizikaviy omillarning hisobini yuritish va belgilangan tartibda statistika hisobotini taqdim etish hamda korxonalar va transport kommunikatsiyalari ta'sir doirasida bo'lgan atrof-muhitga hamda aholining salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatilishini baholash ko'zda tutilgan<sup>26</sup>. Mazkur jinoyat maxsus vakolatga ega bo'lgan mansabdar shaxs, ya'ni atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'adigan yoki yig'ish ustidan nazorat olib boradigan hamda tegishli organlarga taqdim etish bo'yicha mas'ul shaxs tomonidan sodir etiladi. Ushbu moddada mazkur ma'lumotlar turlari aniq qilib berilgan. Bular qatoriga ekologik halokatlar yoki atrof-muhitni radiatsion, kimyoiy va bakteriologik ifloslanishi yoxud aholi salomatligining holatiga doir ma'lumotlar kiradi. Mazkur jinoyatning tarkibi faqat atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirish yoki buzib ko'rsatish oqibatida aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi yoki boshqa og'ir oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan taqdirda vujudga keladi. Mazkur jinoyat faqat qasddan sodir etilishi mumkin. Obyekti tomonidan harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi.

Yuqorida ko'rsatilib o'tilganidek, ekologiya sohasidagi har qanday huquqbazarlik va jinoyatlarga qarshi normativ hujjatlari respublikamizdag'i tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzuvchilarga qarshi qat'iy choralar ko'riliishi mumkinligidan dalolat beradi.

<sup>25</sup> O'zRning JK. — T.: «Adolat», 2001.

<sup>26</sup> «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zR qonuni. 1997, 15-son

## VIII MAVZU

### JINOYAT HUQUQI ASOSLARI

#### I-§. Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli, vazifalari va prinsiplari

**Jinoyat huquqi** mamlakatimiz huquq tiziminining bir tarmog'i bo'lib, uni qonun bilan qo'shilgan munosabatlarga tajovuz qiluvchi qilmishlarning ijtimoiy xavfli va jinoyat ekanligini aniqlovchi, uni sodir etganlik uchun jazo turi va miqdorini belgilovchi, jazo chorakari tayinlash shartlari, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilovchi huquqiy normalar majmuidan iborat.

**Jinoyat huquqining predmetini** jinoyat sodir etilganida (shuningdek, jinoyat sodir etishga tayvorgarlik ko'rilsa) va jinoyat sodir etishga suiqasd qilinganida ham) vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir jinoyat sodir etilganligi holati, uni sodir etgan shaxsniga taysiflovchi xususiyatlari, sodir etilgan qilmishni jinoyat kodeksining qaysi moddasi bilan javobgarlikka tortish va jazo tayinlash masalasini hal qiluvchi munosabatlarni jinoyat huquqining predmetini tashkil etadi. Bunday ijtimoiy munosabatlarning subyektlari, bir tomonidan, jinoyat sodir qilgan shaxs bo'lsa, ikkinchi tomonidan, odil sudlovni amalga oshiruvchi organlar orqali davlatdir<sup>27</sup>.

Jinoyat ijtimoiy xavfliligi eng yuqori huquqbazarlik bo'lganligi uchun ham uni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlikning og'ir turi qo'llaniladi va bu shaxslarni jinoyat sodir qilishdan tiyib turishda muhim o'rinni tutadi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholini huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish fuqarolarni qonunga bo'y sunish va hurmat ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»<sup>28</sup>. Ushbu maqsadni amalga oshirishda*

*jinoyat qonunchiligi ham muhim o'rinni tutadi va uning vazifalarida o'z aksini topgan.*

**Jinoyat huquqining vazifalari** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarni, mulkni, tabiiy muhitni, timchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'shilish, shuningdek, jinoyat larning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir<sup>29</sup>.

Har bir huquq tarmoqlarining prinsiplari bo'lgani kabi **jinoyat huquqining** ham jinoyat huquqi normalarida mustahkamlab qo'yilgan, uning umumiyligi mazmunini belgilovchi **prinsiplari mavjud** bo'lib, ushbu prinsiplar Jinoyat kodeksining 3-10-moddalarida o'z aksini topgan. Jinoyat huquqi prinsiplari: qonuniylik; fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi; demokratizm; insonparvarlik; odillik; ayb uchun javobgarlik; javobgarlikning muqarrarligi.

**Qonuniylik prinsipi.** Qonuniylik deganda, sodir etilgan qilmishni jinoyat ekanligini aniqlaydigan, u uchun javobgarlik va jazo belgilaydigan, qanday qilmishlar jinoyat hisoblanishini belgilaydigan normalar faqat jinoyat kodeksi normalari ekanligi, boshqa biror bir qonunlar yoki me'yoriy hujjatlar qilmish uchun jinoiy jazo tayinlay olmasligi tushuniladi. Faqat jinoyat kodeksiga muvofiq ravishda surishtiruv va dastlabki tergov organlari shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish, sud esa shaxsni jinoyat sodir etishda aybli deb topishi va unga nisbatan jinoiy jazo tayinlashi mumkin.

**Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasingin barcha fuqarolarning teng huquqligini kafolatlagan 18-moddasi mazmunidan kelib chiqadi. Ya'ni, jinoyat sodir etgan shaxs, oddiy fuqaro yoki mansabdor shaxs ekanligidan qat'i nazar jinoyat sodir etganida qonun oldida bir xilda javobgar bo'ladilar.

**Demokratizm prinsipi** jinoyat sodir qilgan shaxslarni javobgarlikka tortish va jazo tayinlash, ularni axloqan tuzatishda jamoatchilik, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlarining ishtirotini ko'zda tutadi.

**Insonparvarlik prinsipi.** Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini jinoyat sodir qilgan shaxslarga

<sup>27</sup> Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. — T.: «Adolat», 1998. 7-b.

<sup>28</sup> Karimov, I.A. Adolat qonun ustuvorligida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001, 30-avgust

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. — T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2004.

jismoniy azob berish yoki uning qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi hamda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur, yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishini yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan jazo qo'llashdan ko'zlangan maqsadga Jinoyat kodeksi maxsus qismi moddalarida ko'zda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'Imagandagina og'irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksining o'g'rilik uchun javobgarlik belgilangan 169-moddasi birinchi qismida jazo turlari sifatida eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish ko'rsatilgan. Bu yerda o'g'rilik sodir qilgan shaxsni jarima to'lattirish bilan axloqan tuzatish mumkin emas deb topilgan taqdirdagina unga nisbatan qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi og'irroq jazo qo'llanishi mumkin.

*Odillik prinsipi.* Ushbu prinsip jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan odil, adolatlvi va asosli jazo chorasi tayinlanishini ko'zda tutadi. Jinoyat sodir etishda aybi isbotlangan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi sodir etilgan jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Ushbu prinsip jinoyatga yarasha jazo qo'llashni ta'minlashga xizmat qiladi.

*Ayb uchun javobgarlik prinsipi* shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlangandan keyingina javobgar bo'lishimi ko'zda tutib, aybdorligi qonunda belgilanmagan tartibda isbotlanmagan shaxslarga nisbatan jazo choralari tayinlashni istisno qiladi.

*Javobgarlikning mugarrarligi prinsipi* jinoyat huquqida muhim tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Jinoyat sodir qilgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shaxslarni jinoyat sodir qilishdan tiyib turadi. Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish esa qonunda ko'rsatilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 68-moddasida belgilangan amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

## 2-§. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi

Jinoyat — sodir etilishi jinoyat kodeksida jazo qo'llash tahdidi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

Jinoyat tushunchasini aniqlash uchun ijtimoiy xavfli qilmish tushunchasini aniqlab olish zarur. Ijtimoiy xavfli qilmish deganda, Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar keltiradigan yoki shunday zarar keltirish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish tushuniladi. Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlar deganda, shaxs, uning huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi tushuniladi. Masalan, biror-bir shaxsni urib, unga tan jarohati yetkazish inson sog'ligiga qarshi jinoyat hisoblanadi.

O'z navbatida ijtimoiy xavfli qilmishlar harakat yoki harakatsizlik bilan sodir etiladi. Harakat deganda shaxsning jinoiy niyatga erishishi uchun qiladigan harakatlari tushuniladi. Masalan, o'g'rilik qilish uchun, turar-joyga yashirinchha kirish, buyumlarni, pul yoki boshqa narsalarni olish. Harakatsizlik deganda esa, shaxs bajarishi zarur va shart bo'lgan vazifalarni bajarmasligi tushuniladi. Masalan, vrachning uzrli sabablarisiz bemor shaxsga yordam ko'rsatmasligi jinoyat hisoblanib, Jinoyat kodeksining 116-moddasi bilan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Jinoyat qonunida jinoyatning to'rtta belgisi ajratilgan:

- ijtimoiy xavflilik;
- g'ayriqonuniylik;
- ayblilik;
- jazoga loyiqlilik.

*Ijtimoiy xavflilik deganda*, sodir etilgan qilmish boshqa shaxslarga, jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy xavf tug'dirishi ko'zda tutiladi. Ijtimoiy xavflilik yuqori bo'lmasa, qilmish uchun jinoiy javobgarlik emas, balki ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi. Masalan, avtomobil haydovchisi yo'lida belgilangandan ko'ra tezlikni oshirsa ma'muriy jazoga tortiladi, bordiyu haydovchi yo'lida qoidaga rioya qilmasdan harakat qilsa va buning natijasida boshqa shaxslarga jarohat yetkazilsa yoki ularning o'limiga sabab bo'lsa jinoiy javobgar bo'ladi.

*G'ayriqonuniylik deganda*, biror-bir qilmish jinoyat hisoblanishi uchun u Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan bo'lishi tushuniladi. Agar qilmish biror-bir shaxsga nisbatan zarar keltirsaga ham, ammo Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida ko'rsatilmagan bo'lsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi davrida amalda bo'lgan jinoyat kodeksida buyumlarni olib-sotish chayqovchilik jinoyati hisoblanar va jinoiy javobgarlikka sabab bo'lar edi. Hozirda olib-sotish jinoyat kodeksida jinoyat sifatida ko'rsatilmagan.

*Ayblilik deganda*, qilmishni sodir etilishida uni sodir etgan shaxsning aybi bo'lishi taqozo etiladi. Agar shaxs aybsiz holda ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazsa ham Jinoyat kodeksining 24-moddasiga muvofiq aybsiz holda zarar yetkazgan hisoblanadi va javobgarlikka tortilmaydi.

*Qilmishning jazoga sazovorligi deganda*, Jinoyat kodeksida ushbu qilmish uchun jazo nazarda tutilgan bo'lishi kerakligi tushuniladi. Ana shu to'rtta belgi birgalikda mavjud bo'lganida qilmish jinoyat deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasida o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyatlar to'rt toifaga bo'lingan:

- ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan jinoyatlar;
- uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar;
- og'ir jinoyatlar;
- o'ta og'ir jinoyatlar.

Jinoyatlarni bunday turlarga bo'lishda jinoyatlarning qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan sodir qilinganligi va jinoyat uchun tayinlanadigan jazoning muddatlari asos qilib olingen.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar hamda ehtiyoitsizlikdan sodir etilib, besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, uch yildan ko'p ammo besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar va ehtiyoitsizlikdan sodir etilib, besh yildan ko'p muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, besh yildan ortiq lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatchilik -- kishilik jamiyatida mavjud bo'ladigan o'zinining qonuniyatlariga, sifat va miqdor tavsifiga ega bo'lgan, jamiyat va kishilar uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqaradigan va uning ustidan davlat va jamiyatning maxsus nazorat choralarini o'rnatishni talab qiladigan salbiy ijtimoiy, huquqiy hodisadir<sup>30</sup>.

<sup>30</sup> Kriminologiya. Darslik. M.Usmonaliyev, YE.Karaketov. T.: «Yangi asr avlodii», 2001, 36-b.

Boshqacha qilib aytganda, jinoyatchilik deganda ma'lum bir davrda, ma'lum bir hududda sodir etilgan jinoyatlar yig'indisi tushuniladi. Jinoyatlarni umumlashtirib, jinoyatchilikni salbiy ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish, jinoyatlarni keltirib chiqargan sabablrani o'rganish va ular asosida jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

## JINOYAT QONUNI

Jinoyat huquqining yagona manbai O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-aprelda amalga kiritilgan Jinoyat kodeksi hisoblanadi.

**Jinoyat kodeksi** O'zbekiston Respublikasining barcha jinoyat qonunlari majmuidan iborat bo'lib, unda ichki umumiyligi va o'zarlo aloqadorligi bilan ajralib turadigan, jinoyat huquqining prinsiplari va umumiyoq qoidalarini belgilab beradigan hamda qaysi ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb hisoblanishi, ushbu jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga qaysi jazo turi va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jinoyat kodeksi ikki qismga umumiyoq va maxsus qismlarga bo'linadi. Umumiyoq qismda jinoyat qonunchiligining vazifalari, uning amalda bo'lish doirasi, prinsiplari, javobgarlik va jazoning umumiyoq asoslari ifodalangan bo'lib, u:

- «umumiyoq qoidalar»;
- «javobgarlik asoslari»;
- «qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar»;
- «jazo va uni tayinlash»;
- «javobgarlikdan va jazodan ozod qilish»;
- «voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari»;
- «tibbiy yo'sindagi majburlov choralar» deb nomlangan 7 bo'limdan tashkil topgan.

Umumiyoq qism 1-97-moddalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Maxsus qismda esa muayyan jinoyatlar va ular uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Jinoyat kodeksining Maxsus qismi 8 bo'limdan iborat:

- shaxsga qarshi jinoyatlar (1-7-bob 97-149-moddalar);
- tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar (8-9-bob 150-163-moddalar);
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (10-13-bob 164-192-moddalar);

- ekologiya sohasidagi jinoyatlar (14-bob 193-204-moddalar);
- hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar (15-16-bob 205-241-moddalar);
- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar (17-20-bob 242-278-moddalar);
- harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar (21-24-bob 279-302-moddalar);
- atamalarning huquqiy ma'nosi.

Maxsus qism normalari jinoyatlarning obyektiga qarab bo'limlarga ajratilib joylashtirilgan. Masalan, qasddan odam o'ldirish jinoyati «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limiga joylashtirilgan bo'lsa, o'g'rilik jinoyati «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar» bo'limiga joylashtirilgan.

Jinoyat kodeksi maxsus qismi moddalari tuzilishiga ko'ra dispozitsiya va sanksiya qismlaridan iborat. Dispozitsiya qismida ma'lum bir jinoyatlar va ushbu jinoyatlarning ta'rifsi beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 179-moddasasi Soxta tadbirdorlik deb nomlanib, uning dispozitsiyasida «soxta tadbirdorlik, ya'ni «nizomida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirdorlik tashkilotlari tuzish» deb ta'rif berilgan.

Sanksiya esa sodir etilgan jinoyat uchun jazo choralarini belgilaydi. Sanksiyada ko'rsatilgan jazolar qanchalik og'ir bo'lsa, ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfili shunchalik og'ir hisoblanadi. Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddalari sanksiyalari ko'p hollarda bir jinoyat uchun bir necha turdag'i jazolarni qo'llashni ko'zda tutadi, bu sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfili, keltirilgan zararning miqdori, jinoyat sodir qilgan shaxsning xususiyatlari, jinoyatni sodir etish sharoitlariga to'g'ri baho berish va adolatli jazo tayinlash imkonini yaratadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 232-moddasasi ko'rsatilgan sud qarorini bajarmaslik jinoyati uchun jazo choralarini sifatida eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazo choralarini belgilangan.

## JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

Yuridik javobgarlikning eng og'ir turi bo'lgan jinoiy javobgarlik jinoyat qonuni normalari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish xavfi bo'lgan tajovuzlar qilinganida vujudga kelib, jinoiy javobgarlik jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari belgilangan bo'lib, unga ko'ra jinoyat uchun javobgarlik jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalananadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. Jinoiy javobgarlikning asosi bo'lib sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjudligi hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik bir qancha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

*-jinoyatni sodir etish, avvalo, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni taqozo etib, shaxsga jinoyat qonuni normalarini tatbiq etish orqali jinoiy javobgarlikni qo'llash yoki javobgarlikdan ozod qilishni qo'llanishiga olib keladi;*

*-jinoiy javobgarlik jinoyat qonuni normalarini qo'llash oqibatidir;*

*- jinoiy javobgarlik jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan davlat majburlov chorasisidir;*

*- jinoiy javobgarlik faqat jinoyat sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasida vujudga keladigan jinoyat huquqiy munosabatdir.*

## AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI

Aybsizlik prezumpsiyasi (lotinchcha *prae*s*umptio* — ehtimol) — shaxsning huquqlarini himoya qilishni ta'minkaydi va asoslanmagan ayblov hamda hukmni istisno qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkorra ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi», deyilgan.

**Aybsizlik prezumpsiyasi** — voqelikka to'g'ri bo'lgan huquqiy holat bo'lib, unga asosan, aybdor shaxsni jinoyat sodir etishdagi

aybini, qachonki sudning ayblov hukmi chiqarilgan bo'lib, aynan shu shaxs aybdor deb hisoblansa va uning aybi jinoyat ishi bo'yicha yig'ilgan isbot-dalillar bilan tasdiqlanib, prosess ishtirokchilarida ushbu shaxsni asoslangan va adolatlari ravishda javobgarlikka tortilganligi va jazolanganligi to'g'risida ishonch hosil qilinganda tasdiqlash mumkin bo'ladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipidan quyidagi talablar kelib chiqadi, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud: a) o'zining zimmasiga yuklatilgan va shaxsni aybini isbotlash bilan bog'liq majburiyatni ayblanuvchining zimmasiga yuklatishga haqli emaslar, bundan tashqari, ayblanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashga majbur emas, lekin aybsizligining mayjudligi to'g'risida xabar berish huquqiga ega; b) ayblanuvchining aybi tasdiqlanmasa, demak, uning aybsizligi tasdiqlangan deb tan olinishi lozim; d) agar shubhani bartaraf etish imkon bo'lmasa ayblanuvchining foydasiga talqin qilinishi kerak.

Aybsizlik prezumpsiyasi ayblanuvchining aybini aniq, shubhasiz va to'liq aniqlanganligini talab qiladi va agar bu talab bajarilmagan, ayblanuvchining aybi aniq, shubhasiz va to'liq isbot-dalillar bilan asoslanmagan bo'lsa, bu shaxsni aybdor sifatida sud hukmi bo'yicha aybdor deb hisoblash ushbu shaxsning huquq va manfaatlarini adolatsizlik yo'li bilan cheklash demakdir. Bunday hukm huquqiy kuchga ega bo'lmasligi aniq.

**Jinoyatning tarkibiy elementlari** (obyekti, subyekti, obyektiv tomoni va subyektiv tomoni). Jinoyat tarkibi — jinoyat qonuni bilan belgilangan hamda muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida ifodalaydigan obyektiv va subyektiv belgililar yig'indisidir. «Jinoyat tarkibi» tushunchasini jinoyat huquqida jinoyat tarkibining elementlari deb nomlanadigan to'rt guruh alomatlar yig'indisi tashkil qiladi. Bular jinoyat obyekti, jinoyatning obyektiv tomoni, jinoyatning subyekti, jinoyatning subyektiv tomonidir.

**Jinoyat obyekti** — jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan va jinoyat sodir etish natijasida zarar yetkaziladigan yoki yetkazish xavfi ostiga qo'yiladigan ijtimoiy munosabatlardir. Masalan, qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarida jinoyatning obyekti shaxsning sog'ligi hisoblanadi. Jinoyat obyekti bilan birgalikda jinoyat predmeti ham mavjud bo'lib, jinoyat predmeti deganda jinoyat obyektining ijtimoiy xavfli harakat tufayli bevosita tajovuzga uchraydigan elementi tushuniladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatida jinoyatning obyekti shaxsning mulki, shu mulkka bo'lgan huquqi

bo'lsa, predmeti bevosita o'g'rilangan narsa, buyum, pul bo'lishi mumkin.

Jinoyat obyekti uch turga bo'linadi: umumi obyekt, maxsus obyekt, bevosita obyekt. Umumi obyekt deganda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar, ya'ni shaxs, uning hayoti, huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik va xavfsizlik. Maxsus obyekt deganda bir-biriga o'xshash ma'lum bir turdag'i ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Masalan, shaxsga qarshi jinoyatlarning obyekti bo'lib, shaxsning hayoti, sog'ligi, sha'ni va qadr qimmati hisoblanadi. Bevosita obyekt bevosita jinoyat qanday ijtimoiy munosabatga tajovuz qilganligini ko'rsatadi. Masalan, tuhmat jinoyatida bevosita obyekt shaxsning sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi.

**Jinoyatning obyektiv tomoni** — jinoyatning qanday sodir qilinganligini ko'rsatadi. Masalan, o'g'rilik birovlar mulkini yashirin ravishda olish bo'lsa, bosqinchilik hujum qilib, hayot yoki sog'lik uchun xavli bo'lgan zo'rlik ishlatib egallab olinadi. Jinoyat obyektiv tomonidan harakat yoki harakatsizlik bilan sodir qilinishi mumkin. Jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat, ijtimoiy xavfli qilmish bilan jinoiyl oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, uni sodir etish usuli, vositalari va qurollar kiradi.

**Jinoyat suyekti** deganda jinoyatni sodir qilgan shaxs tushuniladi. Ammo hammavaqt ham jinoyatni sodir etgan shaxs jinoyat subyekti bo'la olmaydi. Shaxs jinoyat subyekti hisoblanishi uchun jinoyat qonunida ma'lum bir shartlar belgilangan bo'lib, unga ko'ra faqat qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso, ya'ni, o'z harakatlari uchun javob bera oladigan va ularni boshqara oladigan jismoniy shaxs subyekt bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 17-moddasiga ko'ra 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs jinoyat uchun javobgar bo'lishi mumkin. 16 yosh umumi subyekt yoshi bo'lib, ayrim hollarda subyekt yoshi sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga va jinoyatning xususiyatlariiga ko'ra turlicha belgilanishi mumkin. Jinoyat kodeksining 17-moddasida subyekt yoshi 16, 13, 14, 18 yosh qilib belgilangan. Shaxs 13 yoshdan boshlab aybni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun (97-modda ikkinchi qismi), shuningdek, 14 yoshdan boshlab JK 17-moddasining 3-qismida

nazarda tutilgan ayrim jinoyatlar uchun (masalan, qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, tovlamachilik, o'g'rilik) jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. 18 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortilish esa odatda mansabdorlik jinoyatlari, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Jinoyat subyekt yoshining bunday belgilanishi uni sodir qilgan shaxs xususiyatlari, sodir qilingan jinoyatning og'ir yoki yengilligi, shuningdek, jinoyatning o'ziga xos belgilari bilan ifodalanadi. Masalan, 13 yoshga to'lgan shaxs aybni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldiriganligi uchun jinoiy javobgar bo'lsa, o'g'rilik qilganligi uchun jinoiy javobgar bo'lmaydi, chunki o'g'rilik uchun jinoyat subyekti yoshi 14 yosh qilib belgilangan.

**Jinoyatning subyektiv tomoni** — shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibatga nisbatan ruhiy munosabatini, ya'ni, jinoyatni bilib, tushunib yoki ehtiyyotsizlikdan sodir qilinganligini ifoda laydi. Jinoyatning subyektiv tomonini aniqlash aybdorning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishini, uning oqibatlarini qanchalik tushunganligini va ularning yuz berishi uchun qilgan harakatlarini aniqlaydi va shu asosda jinoyatning qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan sodir qilinganligi aniqlanadi, boshqacha aytganda, ayb aniqlanadi. Aybning shakli jinoyat huquqida ikkiga bo'linadi: qasd, ehtiyyotsizlik (Jinoyat kodeksining 21-22-moddalari).

Agar shaxs o'zi sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglagan, uning qanday oqibatlarga olib kelishini bilgan va shunday qilmishni sodir etishni xohlab sodir qilgan bo'lsa qasddan qilingan jinoyat hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 267-moddasida ko'rsatilgan transport vositasini olib qochish jinoyati. Bunda aybdor transport vositasini olib qochish jinoyat ekanligini, uni qanday oqibatlarga olib kelishini biladi va shunday oqibat kelib chiqishini istagan holda harakat qiladi.

Agar shaxs o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasida jinoyat sodir qilsa ehtiyyotsizlikdan jinoyat sodir qilingan hisoblanadi. Ya'ni aybdor shaxs o'z harakatlariiga ortiqcha baho beradi, o'z harakatlari qanday oqibatlarga olib kelishiga ko'zi yetsa-da, ehtiyyotkorlik choralariga rioya qilmaydi, bunday oqibatlar kelib chiqmaydi deb o'laydi, o'ziga ortiqcha ishonadi yoki beparvolik qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 266-moddasida ko'rsatilgan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatida transport vositasini haydovchi shaxs belgilangan tezlik qoidalariga rioya qilmasdan tezlikni oshirib ketishi natijasida piyodalarni urib yuborishi. Bunda haydovchi tezlikni oshirsada,

piyodalarni urib yubormasligiga, o'z vaqtida transport vositasini to'xtata olishiga asossiz ishonadi.

Jinoyatlarni qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan qilinganligini aniqlash, aybdorlarga jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega. Qasddan qilingan jinoyatlar uchun og'irroq jazo choralar qo'llanilsa, ehtiyyotsizlikdan qilingan jinoyatlar uchun yengilroq jazo choralar qo'llaniladi.

Jinoyatning subyektiv tomoniga uning motivi va maqsadi ham kiradi.

## TAMOM BO'LМАGAN JINOYATLAR

Hammavaqt ham jinoyatlar oxiriga yetkazilmaydi, ba'zan jinoyatlar uni sodir etmoqchi bo'lgan shaxsning xohishi bilan oxiriga yetkazilmasdan to'xtatilishi yoki unga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmasdan qolishi mumkin. Shuningdek, ba'zi bir jinoyatlar uning oqibatlari kelib chiqmasdan tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblanishi mumkin. Ana shunday holatlarga to'g'ri baho berish uchun jinoyat qonunida tamom bo'lman jinoyat tushunchasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida qasddan sodir qilingan jinoyatlarning uchta bosqichi beliglangan:

- jinoyatga tayyorgarlik ko'rish;
- jinoyatga suiqasd qilish;
- tamom bo'lgan jinoyatlar.

Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilgan bo'lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topiladi. Masalan, qasddan odam o'ldirish uchun jinoyat sodir etish qurollari va vositalarini tayyorlash, sheriklar topish. Bunda jinoyat sodir qilish hali boshlanmasdan fosh qilingan bo'lishi kerak.

Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi. Masalan, o'g'ri o'g'rilik qilish uchun birovning uyiga kirdi, ammo uy egasi borligini ko'rib, qochib ketishi. Bu yerda o'g'rilik uy egasi bo'lmanida sodir etilishi mumkin edi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki unga suiqasd qilish tamom bo'lgan jinoyat uchun qonunning qaysi moddasida javobgarlik belgilangan bo'lsa, o'sha moddasida bo'yicha javobgarlikka sabab

bo'ldi. Masalan, o'g'rilik qilmoqchi bo'lган shaxs uy egasi borligi uchun o'g'rilikni amalga oshira olmagan bo'lsada, Jinoyat kodeksining o'g'rilik uchun javobgarlik belgilangan 169-moddasi bilan javobgar bo'ldi.

Jinoyat kodeksi maxsus qismida ko'rsatilgan jinoyatlarning tarkibi barcha elementlari yuz bergan vaqt jinoyat tamomlangan vaqt deb topiladi. Bu holat jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddaga bog'liq bo'ldi. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksining 104-moddasida badanga og'ir shikast yetkazilgan vaqt jinoyat tamom bo'lган vaqt deb hisoblanadi.

Jinoyatlarni tamom bo'lган yoki tamom bo'lмаган jinoyatlarga bo'lish, jinoyat sodir qilishdan ixtiyoriy qaytish masalasini ham o'rganishni taqozo qiladi. Agar shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini oxiriga yetkazishi mumkinligini anglagan holda uni o'z ixtiyori bilan to'xtatsa yoki jinoiy oqibat kelib chiqishini anglagan holda bunday oqibat kelib chiqishini oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish hisoblanadi va javobgarlikka tortilmaydi. Ammo jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs harakatlarida boshqa bir jinoyat tarkibi bo'lsa o'sha jinoyati uchun javobgar bo'ldi. Masalan, shaxs qasddan odam o'ldirish uchun noqonuniy ravishda o'qotar quroq so'lib oldi, ammo odam o'ldirish sifridan o'rta ixtiyori bilan qaytdi. Bunda u qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgar bo'lmaydi, ammo noqonumiy o'qotar quroq so'lib oлganligi uchun javobgar bo'ldi.

**Jinoyatda ishtirokchilik.** Jinoyat qonunchiligining asosiy vazifasi hissonim, uning ijmoi va erkintiliklarini, iamiyat va davlatning huquqlari va domoniy manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya etish, jinoyatlarning oldini olishdir. Ushbu vazifaga erishish o'rnatidan biri jinoyatlar uchun jizozning muqarrarligini ta'minlash soni sevdir qilingan jinoiy qilmaslarni huquqiy baholash va odilona qizil davomlashtir. Jinoyatlar bir kishi tomonidan sodir qilinganida uning javobgarligini amiqish nisbatan unchalik qiyinchilik tag'dirmaydi, shuningdek, yakka shaxs tomonidan sodir qilingan jinoyatlarning ijtimoiy xavfiliigi ham kamroq bo'ldi. Lekin, jinoyatlar bir necha shaxslar tomonidan oldindan kelishgan holda sodir etilsa, uning ijtimoiy xavfiliigi ham, jinoyatni sodir etish ko'lami ham, kelib chiqadigan oqibatlarning darajasi ham yuqori bo'ldi.

Shu sababli ham jinoyat huquqi nazariyasida ishtirokchilikda jinoyat sodir qilish doimo diqqat markazdagi masala bo'lib kelgan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-

moddasida ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi» deb ko'rsatilgan.

Mazkur norma mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, ishtirokchilik faqat qasddan qilinadigan jinoyatlarda bo'ldi, ehtiyo-tsizlikdan qilinadigan jinoyatlarda ishtirokchilik tarkibi mavjud bo'lmaydi. Qonun chiqaruvchi ishtirokchilik masalasini belgilashda obyektiv va subyektiv omillardan kelib chiqqan. Ishtirokchilikning obyektiv belgisiga ikki yoki undan ortiq shaxslarning birgalikda jinoyatni sodir etishi kirsa, subyektiv belgiga ishtirokchilarining birlirlari bilan kelishganligi, o'rtada vazifalarning taqsimlanganligi kiradi.

Ikki yoki undan ortiq shaxslarning jinoyatda birgalashib harakat qilishi va jinoiy oqibat ularning birgalidagi harakati natijasi bo'lishi ishtirokchilikning asosiy obyektiv belgisidir. Bunda jinoyatning ishtirokchilar oldindan kelishib oladi va qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarga birgalashib tajovuz qilinadi. Jinoyatni sodir etishda barcha ishtirokchilar bajaruvchi sifatida harakat qilganlarida ham ularning harakatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'ldi. Agar bir necha shaxslar ilgaridan o'zaro kelishmagan holda bir vaqtda bir manbadan mulkn talon-taroj qilsalar ishtirokchilik mavjud bo'lmaydi hamda ularning qilmishi mustaqil jinoyatlar sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi JK ning 28-moddasida jinoyat ishtirokchilarining to'rt turi ko'rsatilgan: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Har birining jinoyatda ishtirok etish darajasi va xususiyatidan iborat obyektiv mezon ularni ajratish uchun asos qilib olingan.

Jinoyatni bevosita yoki qisman sodir etgan yoxud jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lмаган shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deyiladi. Bajaruvchilar ikki turga bo'linadi: 1) bevosita jinoyatni sodir etgan, 2) javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lмаган shaxslardan yoki vositalardan foydalanib jinoiy niyatini amalga oshirgan shaxs. Agar jinoyatning obyektiv tomonini bir necha kishilar bajarsa, ularning barchasi bajaruvchilar bo'ldi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rlishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deyiladi. Tashkilotchi ishtirokchilikning eng xavfli ko'rinishi bo'lib, ko'p hollarda u jinoyatni sodir etishda bevosita qatnashmaganligi sababli uni ushslash, aybini isbotlash va javobgarlikka tortish qiyin bo'ldi. Tashkilotchi

jinoyat rejasini ishlab chiqadi, boshqa ishtirokchilarni tanlaydi, ular orasida vazifalarni taqsimlaydi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deyiladi.

**Dalolatchi** jinoyat sodir etilishida bevosita qatnashmaydi, balki jinoyat ishtirokchilarini bevosita jinoyatga chorlaydi, dadillik beradi va shaxsda jinoyat sodir etishga istak paydo qiladi. Dalolatchilikning xavfliliqi shundaki, aynan uning harakatlari tufayli boshqa ishtirokchilar jinoyatni sodir qilishadi. Obyektiv tomonidan dalolatchilik qo'rqtish, ishontirish, majburlash, aldash, va'da qilish kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

Dalolatchilik og'zaki ravishda, telefonda, xat orqali yoki boshqacha tarzda amalga oshirilishi mumkin. Dalolat jinoyat sodir qilingunga qadar yoki jinoyatni sodir qilish vaqtida bo'lishi mumkin. Jinoi javobgarlikka tortilishi mumkin bo'limgan shaxslarni jinoyat sodir qilishga dalolat qilish ushbu shaxslar tomonidan sodir qilingan jinoyatning bajaruvchisi deb topish uchun asos bo'ladi.

Yordamchilar deb jinoyat qilishga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan yordam bergen kishilar, shuningdek, jinoyatchini, jinoyat qurolini va vositalarini, jinoyat izlarini, jinoi yo'l bilan topilgan narsalarni yashirishga va bunday narsalarni olish va o'tkazishga oldindan va'da bergen shaxs tushuniladi.

*O'zbekiston Respublikasi JKning 29-moddasida ishtirokchilikning to'rt shakli ajratilgan: 1) oddiy ishtirokchilik, 2) murakkab ishtirokchilik, 3) uyushgan guruh, 4) jinoi uyushma shaklida bo'ladi.*

1) Ikki yoki undan ortiq shaxsnинг oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi.

2) Ikki yoki undan ortiq shaxsnинг oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

3) Ikki yoki undan ortiq shaxsnинг birgalikda jinoi faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.

4) Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoi faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoi uyushma deb topiladi.

Qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar. Jinoyat qonunida tashqaridan qaraganda jinoyatga o'xshash, ammo sodir etilganligi uchun javobgarlikka tortish mumkin bo'limgan qilmishlar ham belgilangan.

Ular qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb ataladi:

- kam ahamiyatli qilmishlar;

- zaruriy mudosaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish;
- buyruqni yoki boshqa vazifani bajarish;
- kasb yoki xo'jalik faoliyat bilan bog'liq asosli tavakkalchilik.

## **JAZO TUSHUNCHASI, MAQSADLARI VA TURLARI**

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasıdır.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoi faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Jinoi jazolar tizimi sudlar uchun aniq qilib belgilab qo'yilgan va nisbiy og'irligini inobatga olgan holda muayyan tartibda qo'yib chiqilgan hamda jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turlarining ro'yxitidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazoning quyidagi asosiy turlari belgilangan:

- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- axloq tuzatish ishlari;
- xizmat bo'yicha cheklash;
- qamoq;
- intizomiy qismga jo'natish;
- ozodlikdan mahrum qilish;
- o'lim jazosi.

Mahkulmlarga asosiy jazolardan tashqari harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazo ham qo'llanilishi mumkin:

Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

Sud jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatangina jazo tayinlashi mumkin.

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini, qilmishning motivlarini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi.

Jazo Jinoyat kodeksining Ummumiy qismida ko'rsatilgan jinoyatlarning turlari va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan jazo chorasi haqidagi moddalarning qoidalari asosida Maxsus qism tegishli moddalari sanksiyalari doirasida tayinlanadi.

Jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari. Jinoyat qonunchiligining asosiy vazifasi, maqsadi jinoyat sodir qilgan shaxslarni jazolash emas, balki jinoyat sodir qilgan shaxslarni axloqan tuzatish, jinoyat sodir etilishining oldini olishdir. Shu sababli ham jinoyat qonunchiligidagi jinoyat sodir qilgan shaxs aybiga iqrar bo'lgan, keltirilgan zararni bartaraf qilgan hollarda, shuningdek, birinchi marta jinoyat sodir qilingan hollarda va qonunda belgilangan boshqa hollarda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining o'n ikkinchi bobida (64-68-moddalari) javobgarlikdan ozod qilishning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

- javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi;
- qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligin yo'qotganligi;
- aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonligi;
- jabrlanuvchi bilan aybdor yarashuvga kelishganligi;
- jinoyat sodir qilgan shaxsning kasalligi;
- amnostiya akti asosida.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining o'n uchinchi bobida (69-76-moddalari) jazodan ozod qilishning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

- jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi;
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi;
- aybdorni chin ko'ngildan pushaymonligi;
- shartli hukm qilish;
- jazoni o'tashidan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirish;
- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish;
- amnostiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish.

Voyaga yetmaganlar javobgarligini xususiyatlari. Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligi voyaga yetmagan shaxslarning yoshga oid xususiyatlarni hisobga olgan holda ular tomonidan sodir qilingan jinoyatlar uchun alohida javobgarlik qoidalarini belgilagan.

Jinoyat kodeksining Umumiy qismi olinchi bo'limi aynan voyaga yetmaganlari javobgarligi xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, o'n sakkiz yoshga to'imasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga quyidagi jazolar qo'llanishi mumkin:

- jarima;
- axloq tuzatish ishlari;
- qamoq;
- ozodlikdan mahrum qilish.

O'n sakkiz yoshga to'imasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda jinoyat kodeksida belgilangan jazolarning ma'lum bir qismi olinadi. Masalan, jarima jazosida jarimaning miqdori eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha bo'lsa, voyaga yetmaganlarda jarima jazosining miqdori eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Bundan rishqari sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda uning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti, tarbiysi, sog'ligi, jinoyat sodir qilishda kattalarning ishtiroi masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi.

Voyaga yetmaganlar javobgarligining yana bir o'ziga xos xususiyati voyaga yetmagan shaxs birinchi marta jinoyat sodir qilganida uni jazo qo'llamasdan tuzatish mumkin deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lganida, javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatining yaratilganidir. Bunda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya ular bilan shug'ulanadi.

Agai voyaga yetmagan shaxs rivojlanishida o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la anglay olmaygan bo'lsa sud jazo o'miga quyidagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin:

- sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan urz so'rash;
- o'n olti yoshiga to'lgan shaxs zimmasiya yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash;
- voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasaga joylashtirish.

## **XALQARO HUQUQ ASOSLARI**

### ***1-§. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi***

Xalqaro huquq — huquqning boshqa sohalari kabi o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va qabilalar bir-biridan alohida ajralgan holda emas, balki qabilalarning yoziltnagan qonunlari bilan birlashgan edi. Birinchi odad me'yorlari davlatchilikning vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq paydo bo'lgan.

Agar, «xalqaro huquq» tushunchasini davlatlararo huquq sifatida tushunilsa, u holda, davlatchilik paydo bo'lib, rivojlanishi bilan vujudga kelganini e'tirof etish lozim.

**Xalqaro huquq** — tarixiy, ijtimoiy-huquqiy amaliyot rivojlanishi natijasidir. Insonlarning (guruuhlar, tabaqalarning) o'z milliy mansaftalarini anglash vositasi sifatida paydo bo'lishi, ayniqsa, xalqaro munosabatlarning doimiy o'zgarib turishiga aloqadorligi bilan xalqaro huquq milliy davlatlar va xalqlarning taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Kishilik tarixi davomida xalqaro huquq nafaqat xalqaro munosabatlarning taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelgan, balki ularga ma'lum darajada ta'sir ham ko'rsatgan.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy-obyektiv jarayondir.

Xalqaro huquqning paydo bo'lishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining obyektiv shart-sharoiti ular o'rtaсидagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o'rnatish zaruratinini keltirib chiqaradi. Buning natijasi o'laroq huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o'rtaсидagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

### ***2-§. Xalqaro huquq tushunchasi (ta'rifi)***

«Xalqaro huquq» tushunchasini aniqlash va unga ta'rif berish xalqaro huquq fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Davlat va

huquq nazariyasini fani esa davlatlararo yoki kengroq ma'noda xalqaro munosabatlarga xos bo'lgan hodisa va jarayonlarning huquqiy xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

Xalqaro — huquqiy me'yorlarda milliy davlatlarning o'zaro munosabatlardagi murakkab jarayonlar o'z aksini topadi. Ularning asosida shakllanayotgan, xalqlarning subyektiv xohish-irodasiga emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv omillariga mos keladigan huquqiy ong xalqaro huquqda o'z ifodasini topadi.

Hozirgi xalqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichida xalqaro huquq ustuvorligi to'g'risidagi qoida XXI asrdagi sivilizatsiya va huquqiy ong darajasiga ko'proq mos keladi.

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquq tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

Birinchi ta'rif: xalqaro huquqni «davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan davlatlarning tinch-totuv yashashi, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashini ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimi» sifatida ta'riflash mumkin<sup>31</sup>.

Ikkinchchi ta'rif: xalqaro huquq — bu «davlatlar va ushbu huquq tizimining boshqa subyektlari o'rtaсидagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir»<sup>32</sup>.

Uchinchi ta'rif: xalqaro huquq «ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta'siri bilan bog'liq ravishda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlar irodasining nisbiy uyg'unligini ifodalovchi shartnomalar, odad me'yorlari va tamoyillar tizimidir»<sup>33</sup>.

To'rtinchchi ta'rif: xalqaro huquq — bu «xalqaro (davlatlararo va boshqa turdag'i) munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar majmui va tizimidir»<sup>34</sup>.

Beshinchchi ta'rif: xalqaro huquq — bu «huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, o'zida bir butun va yaxlit tamoyillar va me'yorlar tizimini, ya'ni eng avvalo, davlatlar o'rtaсидagi xalqaro munosabatlarni sohasini tartibga soluvchi, yuridik majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini ifodalaydi»<sup>35</sup>.

<sup>31</sup> Курс международного права. В 6-ти томах. — М.: 1967, Т.1, 38 с.

<sup>32</sup> Курс международного права. В 6-ти томах. — М.: 1967, Т.1, 9 с.

<sup>33</sup> Словарь международного права. — М., 1989, 170 с.

<sup>34</sup> Ушаков Н.А. Международное право: основные понятия и определения. — М.: 1996, 5-6 с.

<sup>35</sup> Тумухамедов Р.А., Хакимов К.Г. Основы международного права. — Т.: 1998, 7 с.

Oltinchi ta'rif: «Xalqaro huquq g'oyat keng va turli tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi alohida huquqlar tizimidir. Shu bilan birga faqat me'yorlar yig'indisi bo'libgina qolmay, ularning tizimi hamdir»<sup>36</sup>.

Yettinchi ta'rif: «Xalqaro huquq — xalqaro huquq subyektlari o'rtafigidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yaratiladigan xalqaro huquq va me'yorlari yig'indisidan iborat bo'lgan mustaqil, o'ziga xos huquq tizimidir»<sup>37</sup>.

Xalqaro huquqqa berilgan yuqorida va boshqa ko'plab ta'riflarning mualliflari imkon qadar ko'proq xalqaro huquqqa xos bo'lgan hodisalarini qamrab olishga harakat qilganlar. Har qanday ilmiy ta'rif unda foydalanilgan atamalar, tushunchalarning, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan tushunchalarning izohlanishini talab qiladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelib, rivojlangan. Shu bois, «hozirgi zamon xalqaro huquqi» tushunchasi xalqaro munosabatlarning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari rivojlanishining yangi bosqichini aks ettirgan holda, xalqaro huquq harakatining xronologik doirasini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquqning umumiyligi tushunchasini (ta'risini) quyidagicha ifodalash mumkin:

«Xalqaro huquq — bu tinchlik va hamkorlikni ta'miniash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir»<sup>38</sup>.

«Xalqaro huquq» atamasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olish lozim. Shu bois, «xalqaro huquq» atamasi ma'lum darajada shartij ekanligini ta'kidlab o'tish joiz<sup>39</sup>. Shu ma'noda tarixan shakkilamb va davlatlar

hamda xalqaro hujjalarda, darsliklarda qo'llaniladigan «xalqaro huquq» atamasi o'zining tub ma'nosiga to'la mos keladi deb bo'lmaydi. Mazkur atamaning boshqa tillardagi ma'nosini ham aynan shunga o'xshashdir: rus tilida — «mejdunarodnoye pravo», ingliz tilida — «International Law», fransuz tilida — «Volker recht», ispan tilida — «Derecho internacional», ukrain tilida — «Mijnarodnoye pravo» va hokazo.

### 3-§. Xalqaro huquq obyektlari

Xalqaro huquq obyektiga har qanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar kiradi.

Xalqaro munosabatlar — bu davlatlar va davlatlar tizimi o'rtafigidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomaik, harbiy va boshqa turdag'i aloqalar va munosabatlarni majmuidir. Shuningdek, dunyo miqyosidagi asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar, harakatlar o'rtafigidagi hamkorliklardan iborat.

Xalqaro huquq obyektiga, eng avvalo, suveren davlatlar o'rtafigidagi munosabatlar kiradi. Davlatlararo munosabatlar — bu, avvalambor, hokimiyatlararo munosabatlardir. Davlatlar o'rtafigidagi mayjud munosabatlar tegishli xalqaro bitimlar bilan tartibga solingandagina xalqaro-huquqiy shaklga ega bo'ladi. Davlatlar o'rtafigidagi munosabatlarni o'matish BMF Ustavida mustahkamab qo'yilgan umume'tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillari usosida umraig'a osinriadi.

Quyidagi xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida namoyon bo'ladi:

- birinchidan, hudud (territoriva) va xalqaro yer kengligi;
- ikkinchidan, xatti-harakatlar;
- uchinchidan, xatti-harakatlardan tuyilish;
- hindid xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida juda ko'p namoyon bo'ladi (masalan, tinchlik shartnomalarida).

Xatti-harakatlar davlatlar o'rtafigidagi turli huquqiy munosabatlar obyekti bo'lishi mumkin (masalan, o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi hujjalarda, ittifoq shartnomalarida).

xalqaro huquq («xalqaro huquq»). Keyinchalik ushbu atama zamonaviylashtirilgan — «jus inter gentes» («xalqiar o'rtafigidagi huquq» yoki «xalqaro huquq»). Qurang: Международное право под ред. Г.В.Игнатенко. — М.: 1995, с. 12-13; Нуканук И.И., Международное право. Общая часть. — М.: 1996, 4 с.

<sup>36</sup> Mamatqulov A. Xalqaro huquq. — Т.: 1997, 7-б.

<sup>37</sup> Каламкарян Р.А., Мигачев Ю.И. Международное право. Вопросы и ответы. «Юрлитинформ», 2002.

<sup>38</sup> А.Х.Сайдов Xalqaro huquq: Darslik. — Т.: «Adolat», O'z.R. Ienk'i ishlar yozitligi Akademiyasi, 2001, 20-б.

<sup>39</sup> «Rim huquqida yuzaga kelgan «jus gentium» («xalqlar huquqi») atamasi xalqaro huquq atamasining namunasi hisoblanadi. Jus gentiumning qoidalar to'plami sifatidagi dastlabki tushunchasi Rim davlati hududidagi, millati bo'yicha qanday qabilaga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlarga misbatan qo'llanilgan. Keyinroq Rimning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlardagi umumiyligi tan olingan me'yorlar kompleksi sifatida kengroq ma'no kasb eta boshlagan («Barcha

Muayyan xatti-harakatlardan tiyilish ham xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti hisoblanadi (masalan, neytralilet to‘g‘risidagi, urush odatlari va qonunlari to‘g‘risidagi xalqaro-huquqiy hujjalarda).

#### **4-§. Xalqaro huquq funksiyalari**

Xalqaro huquqning funksiyalarini ko‘rib chiqmay, uning mohiyatini ochib berish mumkin emas.

Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Muvofiqlashtiruvchi funksiya. Davlatlar xalqaro huquq me’yorlari yordamida xalqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiy qabul qilingan xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

2. Tartibga soluvchi funksiya. Bu davlatlar tomonidan qat’iy qoidalarni belgilashda namoyon bo‘ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishning imkoniy yo‘q.

3. Ta’minalash funksiyasi. Bunda xalqaro huquq shunday me’yorlarni o‘zida mustahkamlaydi, bu davlatlarni ko‘p yillik aloqalari jarayonida belgilangan ma’lum xulq-atvor qoidalariiga rioya qilishga undaydi.

4. Muhofaza funksiyasi. Bu davlatlar milliy manfaatlari va qonumiylarini himoya qiladi.

#### **5-§. Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqiy tizimi**

Real voqelikda bir-biriga bog‘liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomonidan, ichki davlat huquqi (alohida milliy davlatning huquqiy me’yorlari majmui) va ikkinchi tomonidan, huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos obyekti va subyektiga ega bo‘lgan xalqaro huquq. Agar, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish obyekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo‘lsa, xalqaro-huquqiy munosabatlar obyektiiga davlatlar va ularning birlashmalari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi bir-biridan alohida mavjud bo‘lmaydi. Xalqaro huquq me’yorlarni ishlab chiqishga milliy huquqiy tizimlar asos bo‘ladi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o‘z ifodasini topadi.

Xalqaro huquq o‘z navbatida milliy qonunchilikning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina davlatlarning, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida shunday qoida mustahkamlab qo‘yilgan, unga ko‘ra davlatlarning ichki qonuni bilan xalqaro shartnomalar ustuvorlikka ega bo‘ladi. Bunday qoida xalqaro huquqning davlatlarning ichki huquqi qoidalari ustidan ustuvorligi deb ataladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 7-moddasida shunday deyilgan: «Agar xalqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa xalqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalari qo‘llaniladi»<sup>40</sup>.

#### **6-§. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq**

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro huquq o‘rtasida yaqin o‘zarlo aloqadorlik mavjud. Har ikkisi keng ma’noda xalqaro munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquq xalqaro xarakterdagi fuqarolik-huquqiy me’yorlar majmui sifatida xalqaro ommaviy huquqning umume’tirof etilgan tamoyillariga zid bo‘lmasligi kerak.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro huquq o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik hech kim tomonidan inkor qilinmaydi. Ba’zi bir olimlar xalqaro xususiy huquq xalqaro huquqning bir turi deb hisoblaydilar. Ikkinci guruh huquqshunoslar esa xalqaro xususiy huquqqa fuqarolik huquqining bir tarmog‘i sifatida qaraydilar. Uchinchi birlari esa xalqaro xususiy huquqni xalqaro huquq bilan aynan bir xil deb hisoblaydilar. To‘rtinchilar, xalqaro xususiy huquq ma’lum bir ma’noda fuqarolik huquqining tarmoqlaridan biri hisoblansa-da, asosan, xalqaro ommaviy huquq bilan juda yaqin aloqadadir, deb ta’kidlaydi.

Xalqaro huquq xalqaro ommaviy huquq bilan aynan bir xil emas va uning sohalaridan biri hisoblanmaydi. Xalqaro xususiy huquq tartibga soladigan o‘zining mustaqil predmetiga ega.

#### **7-§. Xalqaro huquqda me’yorlarni yaratish jarayoni**

Xalqaro-huquqiy tizimi me’yorlarni yaratishning o‘ziga xos tomoni shundaki, bu jarayonda subyektlarning o‘zi ixtiyoriy ravishda, xohish-

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. — T.: 1996, 7-b.

irodasini bildirish yo'li bilan ishtirok etadilar. Xalqaro-huquqiy tizim subyektlarining o'zidan boshqa qandaydir bir bu tizimga nisbatan «tashqaridan» bo'lgan subyektlar me'yorlar yaratish jarayonida ishtirok etmaydi. Shu bois, xalqaro-huquqiy tizimning subordinarlilik xarakteri inkor qilinadi, hech kim xalqaro huquq subyektlarining ixtiyoriga qarshi ular uchun xulq-atvor qoidalarini, ya'ni, me'yorlarni o'rnatishi mumkin emas. Binobarin, xalqaro huquqqa nisbatan «qonunchilik», «xalqaro qonuniylik» tushunchalarini qo'llash ma'lum ma'noda noto'g'ri.

## **8-S. Xalqaro huquq tizimi**

Xalqaro huquq tizimi — bu quyidagi o'zaro ichki bog'liq elementlarning obyektiv mavjud bo'lgan bir butunligidir.

Birinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari, me'yorlari (shartnomaviy va oddiy-huquqiy).

Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlarning qarorlari, tavsiyaviy Rezolutsiyalari, xalqaro sud organlarining qarorlari.

Uchinchidan, xalqaro huquq instituti (xalqaro tan olish instituti, shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik instituti, xalqaro javobgarlik instituti va boshqalar).

Tizimning qayd etib o'tilgan barcha elementlari turli birikmalarda xalqaro huquq tarmoqlari (diplomatik huquq, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar) tashkil qiladi, ushbu har bir tarmoq o'zi mustaqil tizim sifatida namoyon bo'ladi, bunday tizimlar xalqaro huquqning yaxlit yagona tizimi doirasida shu tiziuning bir qismi hisoblanishi mumkin.

## **9-S. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi**

Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy yo'naliishini qamrab oladi.

Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsadlari va vositalari majmuini qamrab oladi<sup>41</sup>.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari Konstitutsiyaning 17-moddasida qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

«O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlaridagi tamoyillar va me'yorlarga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining tamoyil va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisি ratifikatsiya qilgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi» deyiladi, 1996-yildagi «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida.

Diplomatiya tashqi siyosatning muhim vositasи hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Diplomatiya amaliy tadbirlar, shuningdek, tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakl, vositalar va usullar majmuini ifodalaydi. Diplomatiya bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, madaniy va boshqa muhim aloqalari ham uning tashqi siyosiy vositalari hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun xalqaro zamin yaratish, tinchlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlikdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan munosabatlari davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxsizligi, nizolarni tinchlik yo'li bilan hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik tamoyillariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyil va me'yorlariga rioya qilish asosida quriladi. Ushbu tamoyillarning Konstitutsiyada mustahkamlanishi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari O'zbekiston hududida davlatning ichki qonuni sifatida amalda bo'lishini tasdiqlaydi.

<sup>41</sup> A.X. Saidov. Xalqaro huquq. Darslik. — T.: «Adolat», 2001, 26-b.

## **10-§. Xalqaro-huquqiy munosabatlar**

Xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar — subyektlari o'rtasidagi shunday ijtimoiy munosabatlarki, ular xalqaro-huquqiy tartibga solish obyekti hisoblanadi. Binobarin, bunday munosabatlar xalqaro-huquqiy munosabatlar xarakterini kasb etadi.

Xalqaro huquq milliy huquq singari subyektlar o'rtasidagi har qanday munosabatlarni emas, balki faqat huquqiy tartibga solish talab qilinadigan qismini tartibga soladi.

Xalqaro huquqiy normalalar bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar xalqaro-huquqiy munosabatlar xarakteriga ega bo'ladi. Xalqaro huquq subyektlari u yoki bu xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishish bilan o'z huquq va majburiyatlarini amalgalashiradilar.

Huquqiy normalalar va institutlar xalqaro huquq tarmog'iga birlashadi. Barcha bir turdag'i xalqaro munosabatlar majmui tarmoq obyekti hisoblanadi (masalan, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro atom huquqi, xalqaro kosmik huquq). Ularni tashkil qilishning yagona yo'li xalqaro huquq subyektlarining kelishuvini hisoblanadi. Faqat xalqaro huquq subyektlarigina o'zining u yoki bu xatti-harakatlariga, xulq-atvor qoidalari yuridik majburiy xarakter berishi mumkin.

Xalqaro-huquqiy normalarni bajarish asosan, ushbu huquq tizimi subyektlari tomonidan ixtiyorilik asosida amalgalashiriladi.

## **XALQARO HUQUQ MANBALARI**

### ***Xalqaro huquq normalari tushunchasi***

«Norma» so'zi lotin tilida qoida, rahbariy ko'rsatma, namuna ma'nosini anglatadi.

Huquq normasi huquq subyektlari deb ataluvchi va unda ko'rsatilgan shaxslarning yuridik majburiy xarakterdagi xulq-atvor qoidalari bildiradi. Normalarning yuridik majburiyligi shundaki, u bilan belgilangan yurish-turish va xulq-atvor qoidalari majburiy hisoblanadi va lozim bo'lgan taqdirda majburlov choralarini orqali ta'minlanadi. Milliy huquqda yuridik normalalar davlat tomonidan o'rnatiladi, muhofaza qilinadi va ta'minlanadi.

Xalqaro huquq normalari — davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yuridik majburiy deb tan olingen xulq-atvor qoidalari.

Xalqaro huquq normalari mazmunini davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining huquq va majburiyatlari tashkil qiladi.

Xalqaro huquq normalari — subyektlarning normalarida ko'zda tutilgan, zarurat bo'lganda majburlash yo'li bilan ta'minlanadigan yuridik majburiy xarakterdagi xulq-atvor qoidalari.

Xalqaro huquq normalari o'zaro kelishuv bo'yicha subyektlar o'rtasidagi bitim asosida belgilanadi va ular tomonidan yakka tartibda yoki jamoa yo'li bilan muhofaza qilinadi hamda lozim bo'lgan taqdirda rioya qilishga majburlash choralarini ko'radi.

Barcha xalqaro-huquqiy normalalar majmui yagona me'yoriy tizim — xalqaro huquqni tashkil qiladi.

## **XALQARO HUQUQ NORMALARINI TASNIFLASH (KLASSIFIKATSIVALASH)**

Xalqaro huquq normalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi subyektlar turli xil bo'ladi. Ular barcha subyektlarga yoki barcha asosiy subyektlar davlatlarga qaratilgan umumiy (universal) xalqaro huquq normalariga va ikki yoki bir necha subyektlar o'rtasidagi kelishuv asosida belgilangan va ularga qaratilgan lokal (partikulyar) normalarga bo'linadi. Lokal normalalar jumlasiga subyektlarning muayyan bir holatdagi xulq-atvorini belgilovchi individual normalarni ham kiritish mumkin.

Partikulyar normalar universal normalarga mos kelishi lozim. BMT Ustavining 103-moddasiga muvofiq a'zo-davlatlarning Ustav bo'yicha majburiyatlari boshqa shartnomalar bo'yicha olgan majburiyatlarga nisbatan ustuvorlikka ega.

Huquqiy tartibga solish uslubi bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar dispozitiv va imperativ normalarga bo'linadi.

Dispozitiv normalarda xalqaro huquq subyektlari o'z xulq-atvorini, muayyan huquqiy munosabatlardagi holatdan kelib chiqib o'zaro huquq va majburiyatlarni o'zlarini belgilashi mumkin.

Xalqaro huquqning aksariyat qoidalari dispozitiv norma hisoblanadi. Ya'ni ular dan davlatlar va boshqa subyektlar o'zlarining o'zaro lokal munosabatlaridan kelib chiqib, umumiy xalqaro huquqning ushbu normasi mohiyatiga zid kelmaydigan ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan chetlab o'tishi mumkin.

1969-yilda Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi qabul qilinganidan so‘ng xalqaro huquq normalari tizimida jus cogens (umum majburiy huquq) xarakteriga ega bo‘lgan imperativ normalari ajratila boshlandi. 1969-yildagi Vena konvensiyasining 53-moddasiga muvofiq xalqaro huquqning imperativ normasi davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan chetlab o‘tish mumkin bo‘lmagan normasi sifatida tan olinadi va bunday normalar faqat keyin qabul qilingan xuddi shunday normalar bilangina o‘zgartirilishi mumkin.

Xalqaro huquqda imperativ normalar ro‘yxati yo‘q. Biroq, xalqaro huquq nazariyasi BMT Ustavida, BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalar va hamkorliklarga tegishli bo‘lgan 1970-yildagi xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiyalarda ifodalangan xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini yakdillik bilan imperativ normalar qatoriga kiritadi.

Imperativ normalar ma’lum xatti-harakatlarning aniq va muayyan chegarasini belgilaydi. Xalqaro huquq subyektlari huquq va majburiyatlarning hajmi va mazmunini o‘z holicha o‘zgartirishga haqli emas.

Xalqaro huquqning jus cogens normasi davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan va chetlab o‘tish mumkin bo‘lmagan normasi sifatida tan olinadigan normalar sifatida tushuniladi va bunday normalar faqat keyin qabul qilingan aynan shunday xarakterdagi normalar bilangina o‘zgartirilishi mumkin. Jus cogens normasining xalqaro huquqning boshqa imperativ normalaridan farqi shundaki, davlatlarning jus cogens normasidan har qanday chetlashi bunday xatti-harakatni ahamiyatsiz qiladi.

Jus cogens normasi oliv yuridik kuchga ega va barcha xalqaro huquqiy normalar ularga muvofiq bo‘lishi shart. Davlatlar xalqaro maydonda o‘z xatti-harakatlarini so‘zsiz ravishda jus cogens normalariga moslashtirishlari lozim.

Xalqaro huquq normalari ichida birlamchi deb ham yuritiladigan tartibga soluvchi normalar, ya’ni davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining o‘zaro muomala va hamkorligi jarayonidagi xatti-harakatini tartibga soluvchi normalar, shuningdek, ikkilamchi deb yuritiladigan huquqni muhofaza qiluvchi normalarga bo‘linadi. So‘ngisini ikkilamchiligi shundaki, bunday normalar faqat subyektlar tomonidan tartibga solinuvchi birlamchi normalar buzilgan taqdirda kuchga kiradi va ular uchun salbiy yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bunga xalqaro huquqqa xilof xatti-harakati uchun davlatlarning xalqaro javobgarligi to‘g‘risidagi normalar kiradi.

Xalqaro huquq — o‘zaro aloqador xalqaro-huquqiy normalar tizimidir.

Xalqaro-huquqiy normalar yagona yaxlit — xalqaro-huquqiy tizim — xalqaro huquqni tashkil qiladi. Natijada uning normalari faqat ularning boshqa barcha normalari bilan o‘zaro aloqadorligini hisobga olgan holda talqin qilinadi va qo‘llaniladi.

## XALQARO HUQUQ MANBALARI TUSHUNCHASI

«Huquq manbalari» — davlat va huquq nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan va umuman huquqqa taalluqli bo‘lgan, ya’ni milliy huquqqa ham, xalqaro huquqqa ham tegishli bo‘lgan tushunchadir. Yuridik ma’noda huquq manbai xulq-atvor qoidalarini ifodalovchi va yurish-turish qoidalariha huquqiy norma tusini beruvchi shakl hisoblanadi.

*Xalqaro huquq manbalari* — xalqaro-huquqiy munosabat subyektlarining xatti-harakat qoidalarini ifodalovchi va mazkur qoidalarga xalqaro huquq normalari tusini beruvchi shakldir.

Xalqaro huquqning asosiy manbalarini belgilashda BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasiga murojaat qilinadi. Mazkur moddada: «Sud o‘ziga berilgan nizolarni xalqaro huquq asosida hal qilishga majbur va quyidagilarni qo‘llaydi:

a) da‘vogar davlatlar tomonidan muayyan tan olingan qoidalarni belgilovchi umumiyligi hamda maxsus xalqaro konvensiyalarni;

b) huquqiy norma sifatida tan olingan, umumjahon amaliyotining isboti sifatida xalqaro odatlarni;

d) madaniyatli (sivilizatsiyaviy) millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiyligi prinsiplarini;

e) huquqiy normalarni belgilash uchun qo‘shimcha vosita sifatida 59-moddada ko‘rsatilgan shartlar bilan turli millatlarning ommaviy huquq bo‘yicha eng malakali mutaxassislarning nazariyalarini va sud qarorlarini», deb yozilgan.

BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasini talqin qilish ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda, biroq unda ko‘rsatib o‘tilgan barcha xalqaro huquq manbalari barcha davlatlar tomonidan tan olinadi.

## XALQARO HUQUQNING ASOSIY MANBALARI

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquqning manbalari ikki turga, ya’ni asosiy va qo‘shimcha manbalarga ajratiladi. Xalqaro huquq manbalarining bunday bo‘linishi shartlidir.

Hozirgi xalqaro huquqning asosiy manbalariga xalqaro shartnoma, xalqaro odatlar, davlatlarning majburiyatları bo'yicha va xalqaro tashkilotlarning a'zo davlatlariga ko'rsatma beruvchi bir tomonlama yuridik hujjatlar kiradi.

Birinchi asosiy manba xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan, xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi yozma bitim sifatida tushuniladigan xalqaro shartnomadir. Xalqaro shartnomalarning tuzilishini tartibga soluvchi normalar tizimi xalqaro shartnomalar huquqi deb yuritiladigan xalqaro huquqning alohida, mustaqil sohasini tashkil qiladi.

So'nggi vaqtarda xalqaro huquq fanida norasmiy xalqaro shartnoma tushunchasi qaror topmoqda. Mazkur tushuncha rasman tasdiqlanmagan (imzolash yoki boshqa tartibda) va yuridik kuchga ega ekanligi to'g'risidagi qoida mustahkamlanmagan bo'lsa-da, mazkur davlatlar tomonidan yozma bitim qoidalarini yuridik majburiy deb tan olinadigan ko'p tomonlama xarakterdagi yozma bitim tushuniladi.

Xalqaro huquqning ikkinchi muhim manbai xalqaro odatlardir. BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasida xalqaro odatlar «huquq norma sifatida tan olingan umumjahon amaliyotining isboti» sifatida belgilanadi. Ushbu tushunchada, birinchidan, davlatlarning amaliyoti to'g'risida, ikkinchidan, ularning bir xil vaziyatlardagi tegishli xatti-harakatlarni amaliyoti to'g'risida va, uchinchidan, davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan shunday ko'p takrorlanadigan xatti-harakatlarni yuridik majburiy deb tan olish, ya'ni davlatlarning so'zsiz kelishi, mazkur xatti-harakatlarga xalqaro-huquqiy norma sifatini berishi to'g'risida ham gap boradi.

Xalqaro odatlar haqida gapirilganda, xalqaro huquq normasi sifatida so'z boradi. Chunki, lokal xalqaro odat qoidalarini yaratish mumkin bo'lsa-da, lekin juda kam uchraydi. Ikki tomonlama odatlar esa hech qanday ahamiyatga ega emas.

Ikkinci jahon urushidan so'ng BMT va boshqa universal xalqaro tashkilotlar doirasida *xalqaro huquq odat normalarini* kodifikatsiya qilish bo'yicha muhim ishlar amalgalashirildi, bu ishlar ularning progressiv taraqqiyoti bilan davom etgan. Natijada, diplomatik va konsullik huquqi, dengiz huquqi va boshqa bir necha sohalarda universal konvensiyalar tuzilgan, ya'ni xalqaro huquq normalarini kodifikatsiya qiladigan konvensiyalar qabul qilingan.

Mazkur xalqaro shartnomalarni talqin qilish va qo'llash odatlar qoidalariga qaraganda qanchalik qulayligini ko'rsatadi. Biroq, odatlar bunda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki tegishli universal

shartnoma qatnashchilari uchun bu normalar konvensiyaviy xarakter kasb etadi, ishtirok etmagan davlatlar uchun esa oddiy huquqiy xarakterda bo'ladi.

Xalqaro odatlardan xalqaro taomillarni farqlash lozim. Xalqaro taomillar davlatlarni va xalqaro huquqning boshqa subyektlarini yuridik majburiy bo'lmagan xatti-harakat normalaridir. Bunga, masalan, comitas gentium normalari — xalqaro xushmuomalalik normalari, xususan, diplomatik etika va diplomatik protokol normalari kiradi.

Xalqaro huquqning uchinchi manbalariga *davlatlarning majburiyatları* — bir tomonlama yuridik hujjatlar kiradi. Bunga davlatlarning boshqa barcha davlatlarga yoki ularning ayrimlariga qaratilgan va mazkur davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlardagi muayyan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan majburiyatlarini ifodalovchi rasmiy bayonoti kiradi. Bunday bayonotlar boshqa davlatlar tomonidan bayonot mazmuniga so'zsiz rozilik berishlari (protest deb yuritiladigan e'tirozning yo'qligi) bilan u kelishuv xarakterini kasb etadi.

Xalqaro huquqning to'rtinchi manbai davlatlarga — xalqaro tashkilotlar yoki organlar ularning ta'sis hujjatlariga muvofiq yoki mazkur tashkilot yoki organlarning aniq amaliyoti natijasida qaror topgan majburiy xarakterga ega bo'lgan a'zolariga ko'rsatma beruvchi hujjatlar kiradi.

Beshinchi xalqaro huquq manbai uning individual normalariga (qandaydir bir muayyan ishga) taalluqli bo'lgan uning shakllanishi sharoiti bo'yicha ishda ko'rileyotgan taraflar uchun yuridik majburiy bo'lgan xalqaro arbitraj yoki sud qarorlari hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro huquqning oltinchi manbai xalqaro huquq bo'yicha yuristlarning ilmiy asarlari, doktrinalaridir. Doktrinalar xalqaro huquq sohasida maxsus va chuqur bilimga ega bo'lgan ayrim huquqshunos olimlarning shaxsiy fikrlari, mulohazalarini bildiradi. Doktrinalarning ahamiyati shundaki, xalqaro huquq bo'yicha yuristlarning ilmiy asarlari amaldagi xalqaro huquq u yoki bu prinsiplari, normalari va institutlarining mazmunini tushunish uchun qo'shimcha material bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o'tilganlarga qo'shimcha sifatida shunday normalarni hamda mavjudligi va mazmunini aniqlashtiruvchi muhim yordamechi vosita — xalqaro tashkilotlarning Rezolutsiyalarini kiritish mumkin. Ular BMT Xalqaro sudi Statutini tuzish vaqtida bunday o'ringa ega bo'lmagan, balki keyinroq shunday rol o'ynay boshlagan. Hozir Sud xalqaro organlari eng avvalo, BMT Bosh

Assambleyasi Rezolutsiyalari normalarining mavjudligi va ularning mazmunini tasdiqlash uchun faol foydalaniб kelinmoqda.

Xalqaro huquq normalari ichida uning *asosiy normalari — prinsiplari* alohida ajralib turadi. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari — shunday umumiy xarakterdagi normalarki, barcha boshqa normalari unga muvofiq ravishda belgilanishi lozim. Ular xalqaro-huquqiy normalar tizimida boshlang'ich hisoblanadi hamda davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining asosiy huquq va majburiyatlarini belgilash yo'li bilan xalqaro munosabatlardagi xatti-harakatlarini umumlashtirilgan holda tartibga soladi.

Xalqaro huquq murakkab katta ko'lamli tizimni bildiradi. Xalqaro huquq — davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar majmuidan iborat. Ushbu tizimning o'zagini normalari barcha davlat uchun majburiy bo'lgan xalqaro huquq tashkil qiladi. U umum e'tirof etilgan prinsiplar va normalardan iborat. Mazkur prinsiplar va normalar odad shaklida mavjud bo'ladi. Zero, istisnosiz barcha davlatlar ishtirokidagi shartnoma mavjud emas. Qatnashmaydigan davlat uchun esa shartnoma hech qanday kuchga ega emas. Oddiy normalar hamma davlatlar tomonidan emas, balki aksariyat ko'pchilik davlatlar tomonidan tan olinishi natijasida xalqaro huquq normasiga aylanishi mumkin.

## **XALQARO HUQUQ SUBYEKTI TUSHUNCHASI**

«Huquq subyekti» tushunchasi davlat va huquq nazariyasida ishlab chiqilgan bo'lib, davlatlarning ichki huquq yoki xalqaro huquqqa nisbatan emas, balki umuman huquqqa nisbatan qo'laniлadi.

Xalqaro huquq ma'lum xalqaro munosabatlarni tartibga soladi, buning natijasida ular xalqaro-huquqiy munosabatga aylanadi. Xalqaro huquq me'yorlari bilan tartibga solingen xalqaro-huquqiy munosabatlarning qatnashchilarini xalqaro huquq subyektlari deb ataladi.

Xalqaro huquq subyektlari — xalqaro huquq me'yorlari bilan subyektiv huquq va majburiatlarga ega bo'lgan, shuningdek, tegishli huquqiy munosabatlarning real qatnashchilarini bo'lishi mumkin bo'lgan taraflar, shaxslardir.

Agar «xalqaro huquq subyekti» atamasi uzoq vaqt davomida faqat xalqaro huquq nazariyasida foydalaniб kelingan bo'lsa, so'nggi vaqtlarga kelib xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham, xususan BMT

doirasida qabul qilingan universal konvensiyalarda foydalanimoqda. Masalan, 1986-yildagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 3-moddasida «bitta yoki bir necha davlatlar o'rtasida, bitta yoki bir necha xalqaro tashkilotlar va bir yoki bir necha davlat yoki xalqaro tashkilot hisoblanmaydigan xalqaro huquq subyektlari o'rtasida tuzilgan xalqaro bitimlar to'g'risida so'z boradi». Boshqacha aytganda, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquq me'yorlari bilan subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan qandaydir bir ijtimoiy tuzilmalar xalqaro huquq subyekti hisoblanishi belgilangan.

Xalqaro huquq fanida birlamchi va ikkilamchi (hosilali) xalqaro huquq subyektlariga bo'linadi.

Birlamchi xalqaro huquq subyektlari — avvalo, davlatlar va ayrim hollarda millatlardir. Ular ijtimoiy organizm sifatida paydo bo'lib, muqarrar ravishda o'zaro aloqa o'rnatadi, o'zi o'zaro xalqaro muomala qoidasini yaratadi.

Ikkilamchi (hosilali) xalqaro huquq subyektlari birlamchi subyektlar tomonidan yaratiladi. Ularning xalqaro-huquqiy layoqatining hajmi uning tashkilotchilarining ixtiyor va maqsadiga bog'liq. Bu hukumatlararo tashkilot bo'lishi ham mumkin yoki erkin shaharlar singari davlatga o'xshash tuzilma bo'lishi ham mumkin. Tashkilotchilar ularga o'z nomidan davlatlararo munosabatlarga kirishish huquqini beradi.

## **DAVLAT — XALQARO HUQUQNING ASOSIY SUBYEKTI**

Uzoq vaqt davomida davlatlar xalqaro-huquqiy munosabatlarining yagona subyekti bo'lib kelgan. Hozirgi xalqaro huquq me'yorlari hamon, aksariyat, davlatlar o'rtasidagi, shuningdek, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Shu bois, davlatlar — xalqaro huquqning asosiy subyektlaridir va xalqaro-huquqiy munosabatlarning asosiy real ishtirokchilaridir, chunki ular doimiy ravishda bir-biri bilan, xalqaro tashkilotlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishi zarur.

Xalqaro maydonda davlat siyosiy hokimiyat tashkiloti sifatida, ayniqsa, uning oliv organi nomidan xalqaro huquq subyekti bo'lib, davlatning rasmiy vakili sifatida chiqadi. Davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida xarakterlovchi asosiy belgisi davlat suvereniteti hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyekti sifatida davlatning birlamchiligi shundaki, ular hech kim tomonidan tashkil qilinmaydi, ular obyektiv tarixiy reallik sifatida mavjuddir. Boshqa tomonidan, davlatlar o'zlarini xalqaro huquqning ikkilamchi (hosilali) subyekti — xalqaro tashkilotlarni tashkil qilishi mumkin.

Birlamchi subyekt sifatida davlatlar universal xalqaro huquq layoqatiga ega. Birlamchilik davlatning xalqaro huquqning asosiy subyekti sifatidagi rolini belgilaydi. Aynan davlatlar xalqaro huquq me'yorlarini ishlab chiqadi, ularni buzganlik uchun javobgarlikni, xalqaro-huquqiy tartibotni va xalqaro tashkilotlarning funksiyalarini belgilaydi. Davlatlarning ushbu imkoniyatlari o'zlarini tomonidan yaratilgan xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlardan boshqa hech nima bilan chegaralanmagan. Mazkur tamoyillar va me'yorlarga muvofiq davlatlar xalqaro huquq subyekti sifatida xalqaro hujjatlarda, xususan, BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan asosiy huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Biroq, hanuzgacha bunday huquq va majburiyatlar ro'yxati ishlab chiqilmagan.

## DAVLATGA O'XSHASH TUZILMALAR — XALQARO HUQUQ SUBYEKTI

Davlatga o'xshash tuzilmalar — xalqaro huquq subyektlarining bir turi hisoblanadi. Davlatga o'xshash tuzilmalarga «erkin shaharlar» (o'tmishda — Venetsiya, Gamburg, Novgorod) kiradi. Ushbu ibora umumlashtirilgan tushuncha hisoblanadi, chunki u nafaqat shaharlarga, balki ma'lum tumantarga nisbatan ham qo'llanadi. Ba'zi holatlarda tegishli tuzilmalarni erkin shaharlar, ba'zan esa mustaqil (ozod, erkin) hudud yoki mintaqqa (zona) deb atashgan (masalan, erkin shahar — Dansig, mustaqil hudud — Triyest).

Umuman erkin shaharlar hududiy da'volarni to'xtatib qo'yish, xalqaro munosabatlarda ma'lum hududning tegishliligi borasida vujudga keladigan keskinlikni yumshatishning bir uslubi sifatida vujudga kelgan.

Erkin shahar xalqaro shartnomasi yoki xalqaro tashkilotning qaroriga binoan barpo etiladi va cheklangan huquq layoqatiga ega bo'lgan o'ziga xos davlat hisoblanadi. U o'z Konstitutsiyasi yoki o'xshash (anologik) xarakterdagi hujjatga, oliv davlat organlariga, fuqaroligiga ega bo'ladi.

## MILLATLAR YOKI XALQLAR — XALQARO HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

O'z ozodligi uchun kurashayotgan va ma'lum hokimiyat tuzilmalarni tuzgan, yagona markaz bilan birlashgan millat yoki xalqlar millat yoki xalq nomidan xalqaro munosabatlarda ishtiroy etishi va xalqaro huquq subyekti maqomiga ega bo'lishni talab qilishi mumkin. Amalda bunday tuzilmalar qatoriga yagona qo'mondonlikka ega bo'lgan hamda aksariyat hollarda bir vaqtning o'zida siyosiy rahbarlikni amalga oshiruvchi qurolli otryadlar kiradi.

*Millatlar yoki xalqlar xalqaro huquqning alohida va maxsus subyektlari hisoblanadi.* Imperativ xarakterdagi me'yor-tamoyilga — teng huquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyiliga muvofiq barcha xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, ya'ni tashqaridan hech qanday aralashuvsiz erkin asoslarda o'zining siyosiy maqomini belgilash va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini amalga oshirish huquqi tan olinadi. 1970-yilda qabul qilingan *Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiyaga* muvofiq har bir davlat ushbu huquqni hurmat qilishi lozim. So'z xalqlar va davlatlar o'rtaсидаги о'заро муносабатлар (xalqaro-huquqiy munosabatlar) to'g'risida bormoqda.

## XALQARO TASHKILOTLAR — XALQARO HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

Xalqaro tashkilotlar tarkibiga hukumatlararo tashkilotlar hamda a'zolari shaxsiy tartibda harakat qiluvchi davlatlararo mexanizmlar va organlar (xalqaro arbitrajlar, komitetlar, ekspertlar guruhi va boshqalar) kiradi.

Hukumatlararo konferensiyanı vaqtinchalik xalqaro muassasa deb hisoblash mumkin.

Xalqaro tashkilot o'zining xalqaro huquq layoqatiga ta'sis shartnomasiga muvofiq ega bo'ladi. Shartnoma xalqaro tashkilotni ma'lum huquqqa ega bo'la olish, ya'ni davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, o'z nomidan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan ta'minlaydi.

Xalqaro tashkilot xalqaro tuzilma bo'lib, uning ta'sis etilishi va faoliyati xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI — XALQARO HUQUQ SUBYEKTI

«O'zbekiston — xalqaro munosabatlar subyekti» degan konstitutsiyaviy formula nafaqat O'zbekiston Respublikasining hozirgi jahonda tutgan o'rniagina emas, balki O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas bir qismi, uning teng huquqli a'zosi ekanligini anglatadi. Bu quyidagilarda ko'rindi:

- *birinchidan*, O'zbekiston suveren davlat sifatida faqat hozirgi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari hamda o'zi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar qoidalari bilan bog'liqidir va o'zining roziligisiz boshqa hech qanday majburiyat yuklanishi mumkin emas;

- *ikkinchidan*, O'zbekiston hududi ichida davlat hokimiyati cheklanmagan va xalqaro hukumat boshqa biron-bir subyektiunga aralashishga haqli emas. Uning hududidan tashqarida esa hokimiyat boshqa mansaftor davlatning roziliqi bilangina amalga oshirilishi mumkin;

- *uchinchidan*, O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatish va ular bilan shartnomalar tuzish bilan bevosita davlatlararo munosabatlarda ishtirok etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston jahoning 120 dan ziyod davlatlari bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatdi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonalari ochildi va 19 xorijiy davlatlarning elchilar o'rindoshlik asosida O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan. Respublikada 88 xorijiy vakolatxonalar, 24 ta hukumatlararo va 13 ta xalqaro nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida belgilovchi huquqiy asos yaratilgan.

O'zbekistonning tashqi aloqalarni ta'minlovchi davlat organlari tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis deputatlari umumxalq tomonidan muqobililik va ko'ppartiyaviylik asosida saylandi, mamlakat hukumati tuzildi. Tashqi ishlar vazirligi faoliyatining yo'nalishlari va vazifalari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy Banki tuzildi. Tashqi savdo firmalarining ixtisoslashgan tarmoqlari tashkil qilindi. 260 dan ziyod chet el firmalari, banklari va kompaniyalarining vakolatxonaları ochildi.

## XALQARO-HUQUQIY TAN OLISH

Tan olish — davlatning ixtiyoriy ravishda, bir tomonlama qabul qilgan hujjatidir. Unda davlat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron-bir davlatni xalqaro huquq subyekti sifatida tan olgani va u bilan rasmiy munosabat o'rnatish maqsadi borligi yoki davlatda, yoxud uning bir qismida g'ayrikonstitutsiyavi yo'l bilan kelgan hokimiyatni xalqaro munosabatlarda ushbu davlatning yoki shu hududda yashaydigan xalqning vakili sifatida samarali ishtirok etishi mumkin deb hisoblashi to'g'risida bayonot beradi.

Tan olish majburiyati mavjud emas. Bu — davlatlarning huquqidir.

Xalqaro-huquqiy tan olish — xalqaro huquqqa muvofiq davlatlar tomonidan yangi davlatni yoki hukumatni, yoxud rasmiy yoki norasmiy, to'liq yoki qisman, doimiy yoki vaqinchalik munosabatlarni o'rnatish mumkin bo'ladigan boshqa davlat organini tan olishdir. Quyidagilar xalqaro-huquqiy tan olishning turlari hisoblanadi:

- *davlatni tan olish*;
- *hukumatni tan olish*;
- *qo'zg'olon ko'targan tarafni tan olish*;
- *milliy ozodlik organlarini tan olish*;
- *qarshilik ko'rsatish organlari va boshqalarni tan olish*.

Shunday tan olishning hozirgi diplomatik amaliyotda eng ko'p tarqalgan shakli u yoki bu davlat hukumatlari tomonidan mavjud davlatning yangi hukumati bilan yoki yangi paydo bo'lgan davlatning hukumati bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yoki unga rozilik berishi hisoblanadi.

Xalqaro-huquqiy tan olishning de-yure va de-fakto shakllari an'anaviy hisoblanadi.

Hech qanday shartsiz rasmiy tan olish to'g'risidagi, de-yure va de-fakto tan olish to'g'risidagi, diplomatik aloqalar o'rnatish yoki shunga rozi bo'lish haqidagi bayonotlar rasmiy tan olish hisoblanadi.

Norasmiy tan olish u yoki bu davlatning hukumati rasmiy ravishda tan olinmagan mamlakat hukumati bilan aloqaga kirishi, ba'zan ad hoc xalqaro-huquqiy tan olish deb ataladigan, bir-birini tan olmaydigan davlatlar tomonidan xalqaro konferensiyalarda yoki xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishi hisoblanadi.

Tan olayotgan taraf tomonidan tan olingen taraf bilan zarurat bo'lganda bevosita xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirgan niyatini tasdiqlovchi guvohnoma — xalqaro-huquqiy tan olishni rasmiy-

lashtiruvechi hujjatdir. Shu bilan birga bu yangi davlat va hukumatni tuzish vositasi hisoblanmaydi.

Hukumatni tan olish — davlatlar tomonidan biron-bir mamlakatning g‘ayrikonstitutsiyaviy yo‘l bilan hokimiyatga kelgan hukumatini tan olishdir. Rasmiy tan olishning ikki shakli — *de-fakto* (*de-facto*) va *de-yure* (*de-jure*) *mavjud*.

De-fakto tan olish — mavjud davlat va hukumatlar tomonidan u yoki bu mamlakatda yangi paydo bo‘lgan davlat yoki hukumatni tan olishning an‘anaviy shakllaridan biri hisoblanadi. De-fakto tan olishda diplomatik aloqalar o‘rnatish shart emas. De-fakto tan olish ayrim hollarda konsullik munosabatlarni o‘rnatishga olib kelishi mumkin, lekin bu majburiy qoida emas. Bu tan olayotgan davlat mazkur hukumatning mavjudligi bilan hisoblashadi va u bilan biron-bir masala bo‘yicha aloqa qilishi mumkinligini anglatadi. De-fakto tan olingan davlat bilan hamkorlik turli sohalarda bo‘lishi mumkin, chunki bunday tan olish natijasida xalqaro munosabatlarda suveren davlat sifatida qatnashadi.

De-yure tan olish — mamlakatda vujudga kelgan yangi davlat yoki hukumatni xalqaro maydonagi mavjud davlatlar hamda hukumatlar tomonidan rasmiy tan olishning an‘anaviy shakllaridan biridir. Tan olishning bu turi tan oluvchi davlatning mazkur davlat bilan to‘liq diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga tayyor ekanligini ifodalaydi.

De-yure tan olish oqibatida davlatlar oliy toifadagi diplomatik vakillar bilan almashadilar, tan olinuvchi davlatning xorijda ma’lum mulk va boshqa qimmatbaho buyumlarni tasarruf qilish huquqi hamda uni tan oluvchi davlat yurisdiksiyasan immuniteti tan olinadi va hk.

## XALQARO HUQUQ TAMOYILLARI TUSHUNCHASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xalqaro huquq tamoyillari — ijtimoiy amaliyot natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqning yuridik mustahkamlangan asoslari bo‘lib, subyektlari xatti-harakatining ustuvor qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro huquq tamoyili — avvalambor, xalqaro huquq me‘yordir.

Xalqaro huquq tamoyillarining o‘ziga xosligi ularning universalligidir. Ya‘ni xalqaro huquqning barcha subyektlari tamoyillarga qat‘iyan rioya qilishlari lozim, chunki mazkur tamoyillarni har

qanday tarzda buzish muqarrar ravishda xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qilishga olib keladi. Xalqaro huquq tamoyillari butun xalqaro-huquqiy me‘yorlar tizimining qonuniylilik mezoni hisoblanadi.

Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari BMT Ustavida mustahkamlangan. BMT Ustavi tamoyillari jus cogens karakterini kasb etish keng tan olingan, ya‘ni ular davlatlar tomonidan bekor qilinishi mumkin bo‘lmagan oliy darajadagi majburiyatlar sanaladi.

Xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Ustavining 2-moddasida<sup>42</sup> qisqa va lo‘nda qilib bayon etilgan. Ushbu tamoyillar BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlар va hamkorlikka taalluqli 1970-yil xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengash (YEXHK)ining Yakunlovchi hujjatida batafsil yoritib berilgan.

Agar BMT Ustavida besh tamoyilning nomi keltirilgan bo‘lsa, Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada ularning yettiasi ifodalab berilgan. Bular quydagilardir:

1. *Kuch ishlamaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik tamoyili.*
2. *Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyili.*
3. *Davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik tamoyili.*
4. *Davlatlarning xalqaro hamkorlik tamoyili.*
5. *Davlatlarning suveren tengligi tamoyili.*
6. *Xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zi vijdonan bajarish tamoyili.*
7. *Davlatlarning xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarish tamoyili.*

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki Yakunlovchi Hujjatida mazkur tamoyillarga yana uchtasi qo‘shilgan. Bular:

- chegaralar daxlsizligi;
  - davlatlarning hududiy yaxlitligi;
  - inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishdir.
- Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham (masalan, atrof-muhitni himoya qilish majburiyati) shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuqorida ko‘rib o‘tilgan tamoyillardan beshtasi aniq belgilab qo‘yilgan va «xalqaro huquqning

<sup>42</sup> A.X.Saidov. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. — T.: «Adolat», 2002, 19-20-b.

boshqa umum tan olingen tamoyil va me'yordari»ni hurmatlash aytib o'tilgan. Xalqaro huquqning Konstitutsiyada ko'rsatilmagan tamoyil va me'yordari qatoriga inson huquqlarini hurmat qilish, xalqlar va millatlarning o'z taqdirlini o'zi belgilash, davlatlarning xalqaro hamkorligi, xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarish, o'zaro hamkorlik, davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyillari kiradi.

## XALQARO HUQUQDA JAVOBGARLIK

### *Xalqaro huquqda javobgarlik tushunchasi*

Javobgarlik — xalqaro huquqning eng qadimiy institutlaridan biridir. Biroq, ushbu institutning huquqiy me'yordari hanuzgacha kodifikatsiya qilinmagan, shu bois, u odatda pretsedentlar va sud qarorlari negizida shakllangan oddiy-huquqiy me'yordarga asoslanadi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik — huquqbazarlik subyektining xalqaro huquqni boshqa subyektiga yetkazgan zarari oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha yuridik majburiyatlaridir.

Xalqaro huquqbazarlik xalqaro qilmishlarga va xalqaro jinoyatlarga bo'linadi. Xalqaro jinoyatlarga xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yordarini buzadigan, shuning uchun butun jahon hamjamiyati tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan alohida xavfli qilmishlar kiradi.

Xalqaro huquqda shakllangan umumiyl tamoyilga ko'ra xalqaro g'ayrihuquqiy qilmishlar xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi me'yordar, asosan, xalqaro shartnomalarda o'z aksini topgan, shuningdek, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning Rezolutsiyalarida tasdiqlangan.

Xalqaro huquqda xalqaro javobgarlik deganda huquq me'yordaridan kelib chiqadigan subyektiv majburiyatlarini buzgan, ya'ni xalqaro huquqqa xilof xatti-harakat sodir etgan subyekt uchun noqulay salbiy yuridik oqibatlar tushuniladi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik — xalqaro-huquqiy me'yordarda belgilangan sanksiyalarini qo'llash natijasida kelib chiqadigan yuridik oqibatlardir.

Sanksiya, me'yordarning zaruriy elementi ekanligi to'g'ridan-to'g'ri ma'noda, huquqning har bir alohida me'yordida muayyan

sanksiya ko'rsatilishi sifatida tushunilmasligi lozim. Bu milliy huquq uchun ham, xalqaro huquq uchun ham birdek tegishlidir.

Xalqaro huquqda eng avvalo, davlatlarning xalqaro javobgarligi xususida so'z boradi. 1969-yildan BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi tegishli me'yordarni kodifikatsiya qilish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Davlatning har qanday xalqaro huquqqa xilof qilmishi ushbu davlatning xalqaro javobgarligini keltirib chiqaradi.

Davlat tomonidan xalqaro majburiyatlarning buzilishi, davlatning qilmishi ushbu majburiyat bo'yicha davlatdan talab qilinadigan harakatga nomuvosiq bo'lgan taqdirda namoyon bo'ladi.

Faqat xalqaro huquq subyektlarigina xalqaro-huquqiy javobgarlik subyekti bo'lishi mumkin. Jismoniy va mustaqil yuridik shaxslar oddiy huquqbazarlik uchun bunday javobgarlikka tortilmaydilar, chunki bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga keladi.

Amaliyotda xalqaro huquq subyektlarining xatti-harakatlari davlat nomidan ish ko'rishga haqli bo'lgan davlat organlari va mansabdar shaxslarning harakatlarida ifodalanadi. Ularning xatti-harakatlari uchun davlat o'zining butun milliy boyligi bilan javob beradi.

## XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK TURLARI VA SHAKLLARI

Xalqaro huquqqa xilof qilmish ikki toifaga, ya'ni: *xalqaro huquqbazarlik va davlatlarning xalqaro jinoyatlariga bo'linadi*. Davlatlar hamjamiyati tomonidan muayyan xalqaro huquqqa xilof qilmishlarni xalqaro javobgarlikka: moddiy va siyosiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

*Xalqaro-huquqiy javobgarlikning ikkita: siyosiy va moddiy turi mavjud.*

Siyosiy xalqaro-huquqiy javobgarlik satifikatsiya shaklida ifodalanadi. Bu zarar ko'rgan tarafni sodir etilgan huquqbazarlik qaytarilmasligi to'g'risida ishortirish va uzr so'rash, huquqbazarlikni sodir etishdag'i aniq aybdorlarni jazolashdir.

Repressaliya deb yuritiladigan, huquqbazarlikka javoban zarar ko'rgan subyekt tomonidan amalga oshiriladigan zo'rlik xatti-harakatlari (masalan, noqonuniy ravishda baliq ovlagani uchun baliq ovlash kemasini qo'lga olish, mulkni xatlash yoki musodara qilish kabilar) singari siyosiy javobgarlik shaklini ham eslab o'tish lozim.

Repressaliyadan retorsiyani farqlash kerak. Retorsiya — huquqbuzarlik hisoblanmaydigan, lekin do'stona munosabatlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lgan (masalan, nodo'stona tarzdag'i bayonotga javoban elchilarini chaqirib olish) javob choralaridir.

Restitutsiya va reparatsiya davlatlarning moddiy javobgarlik shakli hisoblanadi. Restitutsiya — huquqbuzar davlat tomonidan noqonuniy ravishda egallab olingan moddiy boyliklarni zarar ko'rgan davlatga qaytarish yoki ular yo'q bo'lib ketgan taqdirda, zararni boshqa teng qiymatli moddiy boyliklar bilan qoplashdir. Reparatsiya — talofat ko'rgan davlatga yetkazilgan moddiy zararni (shu jumladan, olinmay qolningan foydani ham) pul yoki natura shaklida qoplashdir.

Moddiy xalqaro-huquqiy javobgarlik restitutsiya (huquqbuzarlikka qadar bo'lgan moddiy holatni tiklash) va reparatsiya (zarar ko'rgan tarafga yetkazilgan zararni pul yoki boshqa tarzda qoplash) shakllarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, yetkazilgan moddiy zararni qoplash majburiyatida ifodalanadi.

## XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISH ASOSLARI

Siyosiy javobgarlik boshqa subyektlarning mansaatlarni himoya qiluvchi xalqaro huquq me'yorlarini buzish (masalan, diplomatik vakolatxonalarining daxsizligini buzish) holatidan kelib chiqadi.

Moddiy javobgarlik xalqaro huquq me'yorlarini buzish (masalan, diplomatik vakolatxonalarining daxsizligini buzish) holatini kelib chiqadi.

Moddiy javobgarlik xalqaro huquq me'yorlarini buzish holatlari majmuuning mavjudligidan, huquqbuzarlik oqibatida mulkiy zarar kelib chiqishi va huquqbuzarlik bilan zarar o'rtaSIDA bevosita sababli bog'lanishning mavjudligidan kelib chiqadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### *Yetakchi adabiyyotlar:*

- Karimov I.A.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: 1996.
- Karimov I.A.** Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. — T.: 1996.
- Karimov I.A.** Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: 1996.
- Karimov I.A.** Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. — T.: 1996.
- Karimov I.A.** Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. T.5. — T.: 1997.
- Karimov I.A.** Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: 1998.
- Karimov I.A.** Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.7. — T.: 1999.
- Karimov I.A.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T.8. — T.: 2000.
- Karimov I.A.** Vatan ravnaqи uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. — T.: 2001.
- Karimov I.A.** Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. — T.: 2002.
- Karimov I.A.** O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // O'zbekiston ovozi. 2002-yil 31-avgust.
- Karimov I.A.** O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. — T.: «O'zbekiston», 2003.
- Karimov I.A.** Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. — T.: «O'zbekiston», 2004.
- Karimov I.A.** Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. — T.: «O'zbekiston», 2005.
- Karimov I.A.** O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. — T.: «O'zbekiston», 2005.
- Karimov I.A.** Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston», 2005.

## *Maxsus adabiyotlar:*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. — T.: «O'zbekiston», 2001.

**Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X.** Davlat va huquq asoslari. — T.: «Sharq», 2002.

**Islomov Z., Husanov O., Mirhamidov M.** Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. — T.: 2000.

**Islomov Z., Mirhamidov M.** Huquqshunoslik. — T.: «Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi», 2002.

Huquqshunoslik. — T.: SPIUL, 2002.

**Islomov Z.** Davlat va huquq: umumnazariy masalalari. — T.: «Adolat», 2000.

**Xolmo'minov Q.T.** O'zbekistonda huquqiy davlat qurish. — T.: 1998.

**Xolmo'minov Q.T.** Davlat va huquq nazariyasi. — T.: 1998.

Davlat va huquq asoslari: Izohli lug'at. — T.: 1996.

Davlat va huquq nazariyasi. — T.: TDYUI, 2000.

**Исламов З.И.** Теория государства и права. Ч. I, II. — Т.: 1997.

**Никитин А.Ф.** 200 вопросов и ответов по основам государства и права. — М.: 1998.

**Гришина Е.П.** Основы государства и права. — М.: 1995.

**Жерутов Р.Т.** Теория государства и права. — М.: 1995.

**Tadjixanov U., Saidov A.** Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomli. — T.: 2001.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga sharhlar. — T.: 2000.

**Alimov X.R.** Ma'muriy huquq. Darslik. — T.: 1995.

**Zokirov I.B.** Fuqarolik huquqi. Darslik. I qism. — T.: «Adolat», 1996.

**Abdusalomonov M.** O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik. II qism. — T.: 1999.

Fuqarolik huquqi. Darslik. — T.: TDYUI. «Adolat», 1999.

**Egamberdiyev E.** Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlari. — T.: «Adolat», 2000.

**Rahmonqulov X.R.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining I va II qismlariga umumiyl tafsif va sharhlar, 2-jild, — T.: 1997-1999.

**Rahmonqulov X.R.** Oldi-sotdi shartnomasi. — T.: 2000.

**Rahmonqulov X.R.** Xususiy mulk va uning daxlsizligi. — T.: «Adolat», 2000.

**Toshev B.** Mualliflik huquqi. — T.: 1997.

**Husanov O.** va boshqalar. Inson huquqlari. — T.: «Sharq», 1997.

**Husanov O.** O'zbekiston Respublikasi davlat organlari. — T.: «Sharq», 1996.

**Husanov O.** Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. — T.: «Sharq», 1996.

**Topildiyev V.** Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish kursi bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: 2003.

**Gasanov M.** O'zbekiston Respublikasi mehnat shartnomasi. — T.: «Adolat», 1996.

**Vohidova A.A.** Bank huquqi. — T.: 2000.

**Dadaboyev Yu.** Soliqlar. Farg'ona, 1999.

**Tursunov.** Mehnat huquqi. O'quv qo'llanma. — T.: 2000.

**Inoyatov A. A.** Mehnat huquqi. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2002.

**Otaxo'jayev F.** Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi. — T.: «O'zbekiston», 2000.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga sharhlar. — T.: 2000.

**Hayitboyev E.R.** Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. — T.: 2001.

**Usmonov M.B.** Yer va qonun. — T.: «Adolat», 1994.

**Xolmo'minov J.T.** Ekologiya va qonun. — T.: «Adolat», 2000.

**Mirzayev T.** O'zbekiston Suv havzalari va havo ifloslanishiga qarshi tergov ishlarini olib borish yuzasidan uslubiy qo'llanma. — T.: «Kamolot», 1999.

**Колбасов О.С.** Международно-правовая охрана окружающей среды. — М.: 1982.

Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Darslik. — T.: «Adolat», 1998.

**Rustamboyev M.X.** Jinoyat huquqi. — T.: TDYUI, 2003.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar. — T.: 1997.

**Qurbanov R.** Zaruriy mudofaa. — T.: 1999.

**Saidov A.** Xalqaro huquq. 2 tomlik. — T.: 2001.

**Tuzmuhamedov R.** Xalqaro huquq asoslari. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.

**Мазов В.А.** Ответственность в международном праве. — М.: 1979.

## **Normativ hujatlar:**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 2003-yil.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi 1991-yil 31-avgust konstitutsiyaviy qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1991-yil 11-son.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 1993-yil 28-dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994-yil 1-son.

O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prisiplari to'g'risida»gi 2002-yil 4-aprel Konstitutsiyaviy qonuni // Xalq so'zi, 2002-yil 5-aprel.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2003-yil 24-aprel Qonuni // Xalq so'zi, 2003-yil 21-may.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi 1991-yil 31-avgust qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1991-yil 11-son.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997-yil 9-son.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (22.09.94-yilda qabul qilingan va 01.04.1995-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 2001.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (I qismi 21.12.1995-yilda qabul qilinib, II qismi 29.08.1996-yilda qabul qilinib, 01.03.1997-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 1996.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi (30.08.1997-yilda qabul qilinib, 01.01.1998-yildan amal qila boshlagan). — T.: Adliya vazirligi. «Adolat», 2001.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (21.12.1995-yilda qabul qilinib, 01.04.1996-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 1999.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (22.09.1994-yilda qabul qilinib, 01.04.1995-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 2001.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (22.09.94-yilda qabul qilinib, 01.04.95-yildan amal qila boshlagan). — T.: Adliya vazirligi. «Adolat», 2001.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (22.09.94-yilda qabul qilinib, 01.04.95-yildan amal qila boshlagan).

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (30.04.98-yilda qabul qilingan va 01.09.1998-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 1998.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujatlari. — T.: «Adolat», 1999.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (02.04.1997-yilda qabul qilinib, 01.01.1998-yildan amal qila boshlagan). — T.: «O'zbekiston», 1999.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi (26.12.1997-yilda qabul qilinib, 01.03.1998-yildan amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 2000.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksi (30.08.1997-yilda qabul qilinib, 01.01.1998-yildan amal qila boshlagan).

O'zbekiston Respublikasi Havo Kodeksi. — T.: «Adolat», 2000.

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi (04.04.2002-yildan qabul qilingan va amal qila boshlagan).

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (24.12.1998-yilda qabul qilingan va amal qila boshlagan). — T.: «Adolat», 1999.

Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка. 17.12.1979 году принятая ГА ООН. O'zbekiston Respublikasi 30.08.1997-yilda bu Kodeksga qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi 1992-yil 2-iyl qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1992, 9-son.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgust qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1997, 9-son.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuni (yangi tahrir) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993, 1-son.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi 1993-yil 6-may qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993, 5-son.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi 1993-yil 6-may qonuni. //

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. 5-son.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi 1999-yil 14-aprel qonuni // Xalq so'zi, 1999, 11 may.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi 1993-yil 2-sentabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993, 10-son.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 1995-yil 30-avgust qonuni // Xalq so'zi, 1995, 12-sentabr.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi 1991-yil 18-noyabr (26.12.1997-yildagi va 19.08.1999-yildagi o'zgarish va qo'shimchalari bilan) qonuni.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi 1993-yil 28-dekabr (26.12.1997-yildagi va 19.08.1999-yildagi o'zgarish va qo'shimchalari bilan) qonuni.

O'zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi 1994-yil 5-may (26.12.1997, 25.12.1998 va 19.08.1999-yildagi o'zgarish va qo'shimchalari bilan) qonuni.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov Komissiyasi to'g'risida»gi 1998-yil 30-aprel (25.12.1998-yildagi va 19.08.1999-yildagi o'zgarish va qo'shimchalari bilan) qonuni.

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni. — T.: 1992.

O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. — T.: 1993, 6-may.

O'zbekiston Respublikasi «Ormon to'g'risida»gi qonuni. — T.: 1999, 15-aprel.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonuni (yangi tahrir). 1998. 30-aprel.

O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni. 1993-yil 2-sentabr.

Tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. 5-, 6-, 7-kitoblari. — T.: 1999.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### I Mavzu

#### DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

1-§. Davlat tushunchasi va mohiyati .....	6
2-§. Davlatning kelib chiqishi va unga doir nazariyalar .....	9
3-§. Davlatning belgilari va huquqiy davlat .....	12
4-§. Davlatning funksiyalari .....	18
5-§. Davlatning shakllari .....	20
6-§. Davlat mexanizmi .....	25
7-§. Huquq va uning belgilari .....	26
8-§. Huquq ijtimoiy norma .....	28
9-§. Axloq va huquq .....	32
10-§. Huquq manbalari .....	36
11-§. Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi .....	41
12-§. Huquqbazarlik va yuridik javobgarlik .....	44

### II Mavzu

#### MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI

1-§. Ma'muriy huquq tushunchasi .....	47
2-§. Ma'muriy huquq manbalari .....	50
3-§. Ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlar .....	52
4-§. Ma'muriy majburlov .....	58
5-§. Ma'muriy huquqbazarlik va javobgarlik .....	60

### III Mavzu

#### FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI

1-§. Fuqarolik huquqi tushunchasi va manbalari .....	69
2-§. Fuqaroviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari .....	71
3-§. Mulk huquqi .....	75
4-§. Majburiyat huquqi .....	77
5-§. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik .....	80

## IV Mavzu

### ISTE'MOLCHILARNING HUQUQINI HIMOYA QILISH ASOSLARI

1-§. Iste'molchi tushunchasi .....	84
2-§. Iste'molchi huquqlarini himoya qilishda qonun hujatlari va xalqaro shartnomalar .....	87
3-§. Iste'molchining haq-huquqlari .....	90
4-§. Iste'molchiga zarar yetkazilgandagi javobgarlik .....	91

## V Mavzu

### MEHNAT HUQUQI ASOSLARI

1-§. Mehnat huquqi tushunchasi va predmeti .....	94
2-§. Mehnatga oid munosabatlar .....	96
3-§. Mehnat huquqi manbalari .....	100
4-§. Mehnat shartnomasi .....	110
5-§. Mehnat haqi miqdori va boshqa shartlar .....	115
6-§. Mehnat shartnomasini tuzish .....	117
7-§. Ish vaqtি tushunchasi va uning turlari .....	123

## VI Mavzu

### OILA HUQUQI ASOSLARI

1-§. Oila huquqi tushunchasi va predmeti .....	140
--	-----

## VII Mavzu

### EKOLOGIYA HUQUQI ASOSLARI

1-§. Ekologiya huquqining tushunchasi, xususiyatlari va umumiyyatiga tekshirishda tutgan o'rni .....	154
2-§. Ekologiya huquqining asosiy yo'nalishlari va predmeti .....	157
3-§. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi .....	159
4-§. Tabiatni muhofaza qilish prinsiplari (qoidalari) .....	164
5-§. O'zbekistonning ekologik siyosati .....	167
6-§. Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari .....	170
7-§. Ekologiya nazoratining tizimi .....	172
8-§. Ekologik ekspertizasining tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari .....	173
9-§. Ekologik qonun hujatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari .....	176

10-§. Ekologik huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik .. 177

11-§. Ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik .....

## VIII Mavzu

### JINOYAT HUQUQI ASOSLARI

1-§. Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli, vazifalari va prinsiplari .....	182
2-§. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi .....	184
Jinoyat qonuni .....	187
Jinoiy javobgarlik va uning asoslari .....	189
Aybsizlik prezumpsiysi .....	189
Tamom bo'lmagan jinoyatlar .....	193
Jazo tushunchasi, maqsadllari va turlari .....	197

## IX Mavzu

Xalqaro huquq asoslari .....	200
1-§. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi .....	200
2-§. Xalqaro huquq tushunchasi (ta'rif) .....	200
3-§. Xalqaro huquq obyektlari .....	203
4-§. Xalqaro huquq funksiyalari .....	204
5-§. Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqiy tizimi .....	204
6-§. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq .....	205
7-§. Xalqaro huquqda me'yorlarni yaratish jarayoni .....	205
8-§. Xalqaro huquq tizimi .....	206
9-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi ..	206
10-§. Xalqaro-huquqiy munosabatlar .....	208
Xalqaro huquq manbalari .....	208
Xalqaro huquq normalari tushunchasi .....	208
Xalqaro huquq normalarini tasniflash (klassifikatsiyalash) ..	209
Xalqaro huquq manbalari tushunchasi .....	211
Xalqaro huquqning asosiy manbalari .....	211
Xalqaro huquq subyekti tushunchasi .....	214
Davlat - xalqaro huquqning asosiy subyekti .....	215
Davlatga o'xshash tuzilmalar -- xalqaro huquq subyekti .....	216
Millatlar yoki xalqlar -- xalqaro huquq subyekti sifatida ..	217
Xalqaro tashkilotlar -- xalqaro huquq subyekti sifatida ..	217
O'zbekiston Respublikasi -- xalqaro huquq subyekti .....	218
Xalqaro-huquqiy tan olish .....	219

<i>Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari</i> .....	220
<i>Xalqaro huquqda javobgarlik</i> .....	222
<i>Xalqaro huquqda javobgarlik tushunchasi</i> .....	222
<i>Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllari</i> .....	223
<i>Xalqaro-huquqiy javobgarlikning kelib chiqish asoslari</i> .....	224
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i> .....	225

*Ushbu darslikni tayyorlashda yaqindan yordam bergan  
O'zbekiston Milliy Universiteti Huquqshunoslik fakulteti  
o'qituvchilari V.Topildiyev, A.Toshpo'latov, I.Hamroyev va  
N.Dostmuhamedova larga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.*

*O'quv-uslubiy nashr*

JAVODEBK YOQUBOV  
ERGASH HAYITBOYEV

**HUQUQSHUNOSLIK**  
**Darslik**

Muharrir Aziz SAID  
Badiiy muharrir Bahriiddin BOZOROV  
Tex. muharrir Yelena DEMCHENKO  
Musahhih Nargiza MINAHMEDOVA  
Kompyuterda sahifalovchi Rostislav YESAULENKO